4-son, 2025

AL-BUXORIY

Ilmiy jurnal

ISSN: 3030-3273

AL-BUKHARI

Scientific journal

AL-BUXORIY

Ilmiy jurnal

AL-BUKHARI

Scientific journal



ORIENTAL
UNIVERSITETI

AL-BUXORIY

Ilmiy jurnal

(To‘rtinchi son)

Oliy attestatsiya komissiyasi (OAK) Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qaroriga muvofiq tarix va filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

Toshkent – 2025

Bosh muharrir:

Farhod Maksudov, tarix fanlari doktori (DSc)

Bosh muharrir o‘rinbosari:

Malika Nasirova, filologiya fanlari nomzodi, professor

Mas’ul muharrir:

Govhar Rahmatova, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

“Al-Buxoriy”

ilmiy jurnalining tahrir hay’ati:

1. Azamat Ziyo	**t.f.d., akademik, professor – tahrir hay’ati a’zosi;**
2. Zohidjon Islomov	**f.f.d., professor – tahrir hay’ati a’zosi;**
3. Shorustam Shomusarov	**f.f.d., professor – tahrir hay’ati a’zosi;**
4. Durdona Lutfullayeva	**f.f.d., professor – tahrir hay’ati a’zosi;**
5. Komiljon Rahimov	**t.f.d., professor – tahrir hay’ati a’zosi;**
6. Shamsiddin Kamoliddinov	**t.f.d., professor – tahrir hay’ati a’zosi;**
7. Xolida Alimova	**f.f.d., professor – tahrir hay’ati a’zosi;**
8. Aftondil Erkinov	**f.f.d., professor – tahrir hay’ati a’zosi;**
9. Albert Burxanov	**t.f.d., akademik (Tatariston) – tahrir hay’ati a’zosi;**
10. Samal Tuleubaeva	**f.f.d., professor (Qozog‘iston) – tahrir hay’ati a’zosi;**
11. Sayfullo Mullodjanov	**t.f.d., professor (Tojikiston) – tahrir hay’ati a’zosi;**
12. Zilola Xudoyberganova	**f.f.d., professor (Turkiya) – tahrir hay’ati a’zosi;**
13. Akram Habibullayev	**t.f.d., professor (AQSh) – tahrir hay’ati a’zosi;**
14. Ashirbek Mo‘minov	**t.f.d., dotsent (Qozog‘iston) – tahrir hay’ati a’zosi;**
15. Murtazo Saidumarov	**f.f.n., professor (Saudiya Arabistoni) – tahrir hay’ati a’zosi.**

MUNDARIJA

FILOLOGIYA

Axmedova Dilfuza Rafukjanovna, Azimbayeva Nargiza To‘xtamuradovna
Komparativlik vositalarining fors va o‘zbek tillarida ifodalanishi hamda ularning madaniy va ijtimoiy-lingvistik talqinlari 4

Salimova Zebo Rustam qizi
Turk tilida fitomorf birliklarning lingvokulturologik talqini 21

Boboyeva Madina Xaydarovna
So‘z birikmasining ko‘p funksiyalilik xususiyati 29

Raxmatova Bahora Ibodulla qizi
Huquqiy matnlarning kommunikativ tuzilmasida assertiv va direktiv aktlarning ahamiyati..... 39

Nizamova Salomat Usmanovna
Family va kinship qarindoshlik atamalari diaxronik tadqiqot predmeti sifatida 49

Yakubova Feruza Rashidovna
“Nuzhau-t-tarf fi i’lmi-s-sarf” asarining qo‘lyozma va toshbosma nusxalari 57

Raxmatullayev Nodir Nuritdinovich
Maliho tazkirasida XVII asr Movarounnahrdagi madaniy, ilmiy va adabiy hayotning rivoji..... 67

TARIX

Ismatullayev Farxodjon Odiljonvich
O‘zbekiston – Yevropa ittifoqi munosabatlarining mahalliy tarixshunoslikda tadqiq etilishi: tendensiyalar va yondashuvlar..... 81

Пасилов Баходир Абдуллаевич
Этносы и этнополитические процессы в туркестане в 1917-1924 гг. 91

Xo‘jaxonov Ismoiljon Mansurovich
“O‘zbek” nomining kelib chiqishi haqida ba’zi ma’lumotlar 102

Kamolov Jahongir Mamasidiqovich
Eftaliylarda davlat mafkurasi, huquq va mudofaa tizimi 109

Ismatullayeva Zebo Shukurjanovna
O‘zbekiston va Germaniya o‘rtasidagi tibbiy va ekologik hamkorlikning rivojlanish tendensiyalari 120

Norbekov Suhrob Farxod o‘g‘li
Sharqiy slavyan diasporasi ayollarining turkiston mintaqasidagi ijtimoiy-siyosiy faolligi (1918-1924) 129

Xudayberdiyev Farrux Amankeldiyevich
Amir Temur va Yevropa davlatlari o‘rtasidagi diplomatik munosabatlar 140

Rajabov Jo‘rabek Muzaffar o‘g‘li
Shayboniylar davrida Dashti Qipchoq o‘zbeklarining migratsiyasi 147

KOMPARATIVLIK VOSITALARINING FORS VA O‘ZBEK TILLARIDA IFODALANISHI HAMDA ULARNING MADANIY VA IJTIMOIY-LINGVISTIK TALQINLARI

THE EXPRESSION OF COMPARATIVE DEVICES IN PERSIAN AND UZBEK LANGUAGES AND THEIR CULTURAL AND SOCIOLINGUISTIC INTERPRETATION

ВЫРАЖЕНИЕ СРЕДСТВ КОМПАРАТИВНОСТИ В ПЕРСИДСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ И ИХ КУЛЬТУРНО-СОЦИОЛИНГВИСТИЧЕСКАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ

Axmedova Dilfuza Rafukjanovna
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Eronshunoslik va avg‘onshunoslik Oliy maktabi professori v.b., DSc
Tel.: +99890 931-34-58
E-mail: dilakhmedova@mail.ru
https://orcid.org/0000-0002-6248-6136
Azimbayeva Nargiza To‘xtamuradovna
Oriental universitetti Tillar-1 kafedrasi katta oqituvchisi
Tel.: +99890 353-22-01
E-mail: nazimbaeva@icloud.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada fors va o‘zbek tillarida komparativlik vositalarining lingvistik tabiati, ularning shakl va mazmun jihatdan ifodalanish xususiyatlari hamda madaniy va ijtimoiy-lingvistik omillar ta’sirida shakllangan semantik o‘ziga xosliklari tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida har ikki tilda o‘xshatish, qiyoslash va taqqoslash ifodalarining grammatik hamda uslubiy ko‘rinishlari qiyosiy-lisoniy yondashuv asosida o‘rganilgan. Shuningdek, komparativ birliklarning xalq dunyoqarashi, milliy-madaniy qadriyatlar va til tafakkuri bilan bog‘liqligi aniqlanadi. Maqolada fors va o‘zbek tillarida komparativlikning metaforik, poetik va nutqiy darajalarda namoyon bo‘lishi, shuningdek, ularning ijtimoiy-lingvistik konnotatsiyalari tahlil etiladi. Tadqiqot natijalari ikki tildagi komparativlik vositalarining o‘zaro umumiy va farqli jihatlarini aniqlash, shuningdek, tarjima jarayonida ularning adekvat ekvivalentlarini topish uchun ilmiy asos yaratadi.

Kalit so‘zlar: *komparativlik, fors tili, o‘zbek tili, qiyosiy tahlil, o‘xshatish, madaniy-lingvistik omillar, ijtimoiy-lingvistika, metaforik ifoda*.

Abstract. This article analyzes the linguistic nature of comparative devices in the Persian and Uzbek languages, their formal and semantic features, as well as the semantic specificity shaped under the influence of cultural and sociolinguistic factors. Based on a comparative-linguistic approach, the study examines the grammatical and

tylistic forms of expressing similarity, comparison, and analogy in both languages. Furthermore, the connection between comparative constructions and the worldview of the people, national and cultural values, and linguistic thinking is revealed. The article also discusses the manifestation of comparativeness at metaphorical, poetic, and discourse levels, as well as its sociolinguistic connotations. The research results provide a scientific basis for identifying the common and distinctive features of comparative means in the two languages and for finding their adequate equivalents in the process of translation.

Key words: *comparativeness, Persian language, Uzbek language, comparative analysis, analogy, cultural-linguistic factors, sociolinguistics, metaphorical expression.*

Аннотация. В данной статье анализируется лингвистическая природа средств компаративности в персидском и узбекском языках, особенности их выражения в формальном и семантическом аспектах, а также семантическая специфика, сформировавшаяся под влиянием культурных и социолингвистических факторов. В ходе исследования на основе сравнительно-лингвистического подхода изучены грамматические и стилистические формы выражения сравнения, сопоставления и уподобления в обоих языках. Кроме того, выявляется связь компаративных конструкций с мировоззрением народа, национально-культурными ценностями и языковым мышлением. В статье также рассматриваются проявления компаративности на метафорическом, поэтическом и речевом уровнях, а также их социолингвистические коннотации. Результаты исследования создают научную основу для выявления общих и различительных черт средств компаративности в двух языках, а также для поиска их адекватных эквивалентов в процессе перевода.

Ключевые слова: *компаративность, персидский язык, узбекский язык, сравнительный анализ, уподобление, культурно-лингвистические факторы, социолингвистика, метафорическое выражение.*

KIRISH

O‘xshatish – voqelikni anglashning eng muhim usullaridan biri bo‘lib, qisqa va obrazli tafakkur shaklidir. Inson qadimdan atrof-muhitni yaxshi tanish bo‘lgan narsa orqali kamroq ma’lum bo‘lgan narsani solishtirish yo‘li bilan anglangan. Kundalik hayotda, kimnidir yoki nimanidir aniq ifodalovchi so‘z yetishmaganda, ko‘pincha aynan qiyoslash-o‘xshatishlarga ehtiyoj sezamiz. Qiyoslash orqali ma’lum yoki noma’lum narsa o‘rtasidagi o‘xshash jihatlarni aniqlash, mavhum narsani mavhum narsa bilan o‘xshatish orqali atrof-muhitni anglaymiz va uni obrazli tarzda tavsiflaymiz, unga bo‘lgan munosabatimizni ifodalaymiz, unga baho beramiz (Лебедева Л.А., 1999:34).

Tilshunoslikda, odatda, qiyoslashning maqsadidan kelib chiqib, uning ikki turi farqlanadi. Agar ikki predmet yoki tushuncha ular o‘rtasidagi farqni ko‘rsatish maqsadida qiyoslangan bo‘lsa, sof qiyosiy konstruksiya shakllanadi (masalan, yer toshdan qattiq), qiyoslash o‘xshatish maqsadini ko‘zda tutganda esa o‘xshatish konstruksiyasi shakllanadi (Маҳмудов. Н., 1984:68).

Inson tafakkurining muhim jihatlaridan biri bu – o‘xshatish va taqqoslash orqali atrofdagi hodisalarni tushunish, ifodalash hamda muloqotga kiritishdir. Turli tillarda mavjud bo‘lgan komparativ birikmalar aynan shu ehtiyojdan kelib chiqqan holda shakllanadi va o‘zbek hamda fors tillarida bu borada boy leksik-semantik imkoniyatlarga ega. Xususan, fors tilidagi “مثل” (misli, kabi, singari, go‘yo) komponentli birikmalar mazmunan kuchli poetik, obrazli va stilistik yuklamalarga ega bo‘lib, ko‘p hollarda badiiy nutqda keng qo‘llanadi. O‘zbek tilida esa bu kabi ma’noni ifodalovchi “kabi”, “singari”, “xuddi”, “go‘yo”, “deya” kabi birliklar mavjud bo‘lib, ularning ekvivalentligi, funksional imkoniyatlari va semantik chegaralarini aniqlash lingvistik jihatdan dolzarb vazifalardan biridir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Mazkur maqolada o‘xshatish va qiyoslash kabi komparativ konstruksiyalarni ifodalovchi grammatik vositalar, masalan, “go‘yo”, “go‘yoki”, “huddi”, “naq” kabi bog‘lovchilar haqida so‘z yuritiladi. Tadqiqot ishini olib borish jarayonida mavzuga doir o‘zbek, rus va fors tillariga oid bir qancha tadqiqot ishlarini ko‘rib chiqib, ulardan M.Mukarramov, Sh.Ergashev, R. Qo‘ng‘urov, N.Mahmudov, D.Xudoyberganova, I.Ahmadov, A.Davronov, F.G‘ulomova, M.Qosimova, S.Nazarov, M.Muhammedov (Мукаррамов М., 1976; Ergashev Sh., 2009; Қўнғуров Р., 1977; Маҳмудов Н., 2011; Худойберганова Д., 2013; Маҳмудов Н, Худойберганова Д., 2013; Ahmadov I., 2008; Davronov A., 2010; Qosimova M., 2012; Nazarov S., 2011; Muhammedov M., 2014) kabi olimlarning ishlari o‘xshatishlar haqida batafsil tahlillar berilgan. Qiyoslash-o‘xshatishni rus tilshunosligida nazariy jihatdan tahlil qilish XX asrning 60-yillarida boshlangan. Ularni birinchi bo‘lib o‘z ilmiy ishlarida V.V.Vinogradov (Виноградов В.В., 1975) e’tibor markaziga olgan. U konstruksiyalarda o‘xshatishning an’anaviy-milliy xususiyatlari, ekspressiv ta’sirchanligi haqida izlanishlar olib borgan. Boshqa rus olimlaridan R.M.Bolgarova (Болгарова Р.М., 2005), A.V.Nikolaeva (Николаева А. В., 2002), ingliz olimlaridan A.Johnson va M.Lee, R.Huddleston, G.Small, F.Southworth (Johnson A., Lee M., 2017; Huddleston R., 1967; Small G.W., 1996; Southworth F.C., 1967; Sinitsyna Y., 2023) kabi olimlar o‘xshatishlar bo‘yicha izlanishlar olib borganlar. Eronlik olimlardan M.Ja’faroniy, S.Nasr, M.Jazoiriy, M.Qazviniy o‘xshatishlar bo‘yicha izlanishlar olib borishgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot ishini o‘rganishda keyingi yillarda o‘zbek tilshunosligida qo‘lga kiritilgan yutuqlardan hamda rus, fors va boshqa xorijiy tarjimashunoslikda bayon qilingan nazariy fikrlardan keng va ijodiy foydalanildi. Tadqiqot davomida qiyosiy-tipologik, semantik-tahliliy, deskriptiv, kontekstual va tarjimashunoslikka oid metodlar qo‘llanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Fors tilida komparativlikni ifodalovchi vositalar juda xilma-xildir. Ularga "مثل" (masalan, kabi), "چون" (chun, go‘yo), "مانند" (monand, singari), "همچون" (hamchun, xuddi), "همانند" (hamonand, o‘xshash) kabi birliklar kiradi. Bu vositalar ko‘pincha sifatlar, fe’llar yoki butun iboralarni taqqoslashda qo‘llaniladi. Fors tili komparativ birikmalarda poetik va obrazli ifodaga katta ahamiyat beradi. Ayniqsa, she’riyatda bu vositalar chuqur ma’no va tasviriylikni ta’minlaydi. Komparativlik fors tilida nafaqat grammatik, balki madaniy va estetik jihatdan ham muhim o‘rin tutadi.

Fors tilida komparativlik, ya’ni narsa yoki hodisalarni solishtirish vositalari, tillarning eng qiziqarli va murakkab jihatlaridan biridir. Komparativlik vositalari, odatda, ikki yoki undan ortiq obyektning bir-biriga nisbatan o‘xshashliklarini yoki farqlarini ko‘rsatadi. Fors tilida komparativlikni ifodalashda turli usullar mavjud, bu usullar o‘zbek tilida ham o‘z aksini topadi, ammo ular fors tilining o‘ziga xos xususiyatlarini yoritadi.

Fors tilida komparativlik vositalari keng qamrovli va stilistik jihatdan boy hisoblanadi. Ushbu tilda komparativlik ifodasi ko‘pincha “مثل” (misli, singari) komponenti yordamida amalga oshiriladi. Bunday iboralar nafaqat o‘xshatish, balki ba’zida kinoya, istehzo yoki poetik obraz yaratish vositasi sifatida ham xizmat qiladi.

Fors tilidagi komparativ vositalar quyidagi turlarga bo‘linadi:

To‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘xshatish: مثل شیر (sherday), مثل ماه (oy kabi)

Kinoyali ifodalar: مثل روباه (tulki kabi – ayyorlik ma’nosida)

Poetizmlar: مثل نسیم (shabada kabi – yumshoqlik, noziklik ma’nosida)

Ushbu vositalar fors tilining poetik va adabiy boyligida muhim o‘rin tutadi, chunki ular obrazlilik va ifoda vositalarining boyligidan dalolat beradi.

Fors tilidagi komparativlik vositalari:

1. **“اَز” va “تَر” qo‘shimchalari:** Fors tilida solishtirishning eng keng tarqalgan usullaridan biri “az” (اَز) va “tar” (تَر) qo‘shimchalaridan foydalanishdir. Bu qo‘shimchalar sifatlar va sonlarni taqqoslashda ishlatiladi: “Az” qo‘shimchasi, odatda, sifatlar yoki sonlarning kichikligini yoki farqini ko‘rsatish uchun ishlatiladi. “Tar” qo‘shimchasi esa ko‘proq kattalikni yoki yuqori darajani ifodalashda ishlatiladi.

“Mesl-e” (مثل) komponenti: Fors tilida “mesl-e” (مثل) so‘zi, o‘xshashlikni bildiruvchi eng muhim elementlardan biridir. Bu so‘z “o‘xshash”, “kabi”, “sifatida”

kabi ma’nolarni anglatadi. Komparativlikda “مثل”ning ishlatilishi ko‘plab poetik, adabiy va kundalik so‘zlashuvlarda mavjud, “مثل” so‘zi “kabi” tarzida ishlatiladi. “ مثل شبنم” (shabnam kabi), “مثل برف” (qor kabi).

2. **“بیش از” va “بیشتر”:** Bu ifodalar fors tilida o‘zaro solishtirishda, ayniqsa sonlarning yuqori darajasini yoki sonlarning o‘rtacha qiymatlarini ifodalashda qo‘llaniladi.

3. **Raqamlar va sonlar bilan solishtirish:** Fors tilida, raqamlar va sonlar yordamida ham solishtirishlar amalga oshiriladi. Sonlar orqali nisbatan kattalik yoki kichiklik, tezlik yoki yutuq darajasi o‘rganiladi.

4. **Metafora va poetik ifodalar:** Fors tilida komparativlik ko‘pincha poetik va metaforik tarzda ham ishlatiladi. Misol uchun, چشمها مثل آسمان“ko‘zlar osmon kabi” yoki قلب مثل سنگ “yurak tosh kabi” kabi tasvirlar orqali solishtirishlar amalga oshiriladi.

Fors tilida komparativlik vositalari, asosan, qo‘shimchalar, so‘z birikmalari va metaforalar orqali amalga oshiriladi. Bu vositalar lingvistik jihatdan o‘zaro farqni, o‘xshashlikni yoki nisbatan kattalik va kichiklikni ifodalashda muhim rol o‘ynaydi. Komparativlikning fors tilidagi o‘ziga xos jihatlari, adabiyotda, kundalik muloqotda keng qo‘llanilib, tilning boyligini va ifodaviy imkoniyatlarini taqdim etadi.

O‘zbek tilida komparativlikni ifodalash uchun “kabi”, “dek”, “singari”, “go‘yo”, “xuddi” kabi vositalar ishlatiladi. Strukturaviy jihatdan bu vositalar asosan qo‘shma gaplarda yoki ergash gaplarda, ba’zida esa so‘z birikmalari shaklida yuzaga chiqadi. Semantik jihatdan esa ular o‘xshashlikni, tenglikni yoki farqlilikni bildiradi. Komparativ birikmalar yordamida subyekt va predikat o‘rtasidagi nisbat aniqlashtiriladi. Bu birikmalar nafaqat kundalik nutqda, balki badiiy asarlarda ham keng qo‘llanilib, obrazlilikka xizmat qiladi (Қўнғуров Р., 1977:86).

O‘zbek tilida komparativlikni ifodalovchi vositalar asosan “kabi”, “singari”, “go‘yo”, “xuddi”, “deya” kabi birliklar orqali yuzaga chiqadi. Bu birliklar yordamida shaxs yoki holat boshqa bir shaxs yoki holat bilan qiyoslanadi:

strukturaviy: ot + kabi/singari (masalan, yo‘lbars kabi);

semantik: qiyos qilinayotgan obyektlar orasidagi ma’no munosabati (jasurlik, ayyorlik, go‘zallik) (Мукаррамов М., 1976:50).

O‘zbek tili leksikasi bu borada rang-barangdir. Shu bilan birga, xalq maqollari, iboralar va adabiy asarlarda bu vositalarning badiiy qiymati yanada kuchayadi. Masalan, “bo‘ri kabi och” iborasi nafaqat holatni bildiradi, balki kuchli obraz ham yaratadi.

Komparativlik vositalari, ya’ni taqqoslash va o‘xshatish vazifasini bajaruvchi grammatik va leksik elementlar, o‘zbek tilining barcha so‘z turkumlarida (fe’l, ot, sifat, ravish, bog‘lovchilar va h.k.) uchraydi (Маҳмудов Н, Худойберганова Д., 2013: 293).

Strukturaviy jihatlar. O‘zbek tilida komparativlik vositalarining strukturaviy jihatlari, ya’ni bu vositalarning qanday tuzilganligi, qanday grammatik kategoriyalar orqali ifodalanishi, til tizimidagi o‘rni quyidagi shakllarda namoyon bo‘ladi:

1. **Komparativ son** – bu o‘zbek tilida taqqoslash maqsadida ishlatiladigan so‘z birikmalarining asosiy shaklidir. Komparativ sonlar fe’l yoki sifatga qo‘shilib, o‘zaro taqqoslash yoki o‘xshatish jarayonini ifodalaydi:

Ko‘proq, kamroq, yaxshiroq, yomonroq kabi so‘zlar. Misol: “U ilgari ko‘proq ishlardi”.

2. **O‘xshatish so‘zlari** – o‘zbek tilida taqqoslashning o‘ziga xos vositalaridan biri *singari*, *dek*, *kabi* kabi so‘zlar yordamida amalga oshiriladi:

“U *singari* chiroyli”.

“Bu *kabi* o‘xshash holatni ko‘rganim yo‘q”.

3. **Qiyoslash yordamchi fe’llari** – o‘zbek tilida qiyoslash (taqqoslash) vazifasini bajaruvchi yordamchi fe’llar mavjud, masalan: *qiyoslash*, *taqqoslash*, *ajratish* va h.k. Bu fe’llar komparativlikning maqsadi va jarayonini ifodalaydi: “Uni boshqalarga *qiyoslash* qiyin”.

4. **Komparativ ko‘plik** – ba’zan komparativlikning ifodalanishi uchun ko‘plik shakli ishlatiladi. Bu holatda, masalan, sifatli va miqdoriy o‘zgarishlar taqqoslanadi (Маҳмудов Н., 2011:57).

Semantik jihatlar. Semantik jihatdan komparativlik vositalarining ishlatilishi juda keng va turlicha bo‘lishi mumkin. Ular nafaqat obyektlarning bir-biriga nisbatan qanday ko‘rinishdagi o‘xshashliklarini ta’riflashda, balki maxsus semantik qatlamlarni yaratishda ham ishlatiladi. Semantik jihatlar quyidagi asosiy yo‘nalishlarda namoyon bo‘ladi:

1. **Kengaytirilgan o‘xshashlik** – o‘zbek tilida komparativ vositalari yordamida biror narsaning xususiyatlarini kengaytirilgan tarzda o‘xshatish mumkin. Bu turli kontekstlarda yangi semantik qatlamlar yaratadi: “Uning ko‘zlari *osmondagi yulduzlar kabi* porlardi”. (Bu yerda yulduzlar kabi o‘xshatish kengaytirilgan tasavvur yaratadi.)

2. **Metafora** – komparativlik vositalari ko‘pincha metaforik ifodalarga asoslanadi. Masalan, *yulduz kabi* yoki *bulut kabi* kabi o‘xshatishlar ma’lum bir tasavvurni ta'kidlash uchun ishlatiladi. Metafora o‘zbek tilida juda keng qo‘llaniladi va ko‘plab poetik ifodalarda uchraydi: “Uning yelkalari *cho‘qqilar kabi* baland edi”.

3. **O‘xshashlikning intensifikatsiyasi** – komparativlik vositalari ba’zan nisbatan kuchliroq taqqoslashni ifodalashda ishlatiladi. Bu turdagi komparativlikning asosiy maqsadi o‘xshashlikni yoki farqni kuchaytirishdir: “Bu kunga qadar hech kim u kabi tez yugurmaydi”.

4. **O‘xshashlik va farqni ajratish** – o‘zbek tilida komparativlikning asosiy maqsadi faqat o‘xshashlikni taqqoslash emas, balki farqni ham aniqlashdir.

Komparativlik vositalari orqali ikkita narsa orasidagi farq yoki o‘xshashlikni aniqlashga yordam beradi: “Bu ikki odam *boshqacha* fikrda” (Маҳмудов Н., Худойберганова Д., 2013: 28).

O‘zbek tilida komparativlik vositalari, bir tomondan, strukturaviy jihatdan o‘ziga xos morfologik va sintaktik shakllarga ega bo‘lib, taqqoslashni yoki o‘xshatishni grammatik jihatdan aniq ifodalaydi. Semantik jihatdan esa komparativlik vositalari juda boy, turli qatlamlarga ega bo‘lib, ko‘plab figurativ ifodalar va metaforik ma’nolarni yaratadi. Komparativlikning bu ikki jihati, tilning barcha kontekstlarida, jumladan, nutq va yozuvda mukammal ifodalanadi.

Madaniy qadriyatlar va e’tiqodlar. Shubhasiz, o‘zbek va fors tillarida qiyosiy konstruksiyalarning shakllanishi va qo‘llanilishiga madaniy qadriyatlar va e’tiqodlar chuqur ta’sir ko‘rsatadi. Boy madaniy an’analar va ijtimoiy me’yorlar bilan chuqur ildiz otgan bu tillar o‘z so‘zlovchilarining madaniy qadriyatlari va e’tiqodlarini aks ettiruvchi taqqoslash usulida o‘ziga xos xususiyatlarni namoyon etadi.

Qiyosiy konstruksiyalarni shakllantirishda madaniy qadriyatlar va e’tiqodlarning o‘ziga xos xususiyatlaridan biri o‘zbek va fors tillarida so‘zlashuvchi madaniyatlarda mehmondo‘stlik va saxovatpeshalikka e’tibor qaratishdir (Sinitsyna Y., 2023:40). Hech kimga sir emaski, mehmondo‘stlik ko‘pgina Markaziy Osiyo va Fors madaniyatlarida yuksak qadrlanadi va bu qadriyat tilda saxovat hamda mehr-muruvvatni ta’kidlovchi qiyosiy konstruksiyalar orqali o‘z ifodasini topgan. Masalan, o‘zbek va fors tillaridagi idiomatik iboralar kimningdir mehmondo‘stligini mehribon mezbon yoki mehmondo‘st jamoaning mehmondo‘stligiga qiyoslab, mehmondo‘stlikka berilgan madaniy qadriyatni fazilat sifatida ko‘rsatishi mumkin.

Aksincha, individual yutuq va muvaffaqiyatni birinchi o‘ringa qo‘yadigan madaniyatlar qiyosiy konstruksiyalarida turli xil xususiyatlarni namoyon qilishi mumkin. Bunday madaniyatlarda qiyosiy konstruksiyalar shaxsiy yutuqlar va ambitsiyalarni ta’kidlashi mumkin, bu individual yutuqlarning muhimligiga bo‘lgan madaniy ishonchni aks ettiradi. Masalan, o‘zbek va fors tillaridagi qiyosiy konstruksiyalar kimningdir muvaffaqiyatini ko‘zga ko‘ringan arbob yoki muvaffaqiyatli tadbirkorning muvaffaqiyati bilan solishtirib, shuhratparastlik va yutuqning madaniy qadriyatini ta’kidlaydi.

Qiyosiy konstruksiyalarni shakllantiruvchi madaniy qadriyatlar va e’tiqodlarning yana bir xususiyati diniy va ma’naviy e’tiqodlarning ta’siridir (Wojtylak, K.I., 2019:39). O‘zbek va fors tillarida so‘zlashuvchi madaniyatlarda diniy va ma’naviy e’tiqodlar ko‘pincha jamiyat normalari va qadriyatlarini shakllantirishda katta rol o‘ynaydi. Qiyosiy konstruksiyalar axloqiy tamoyillarni yetkazish uchun diniy metafora va allegorik tildan foydalanishi mumkin. Masalan, o‘zbek va fors tillaridagi idiomatik iboralar kimningdir sabr-toqatini yoki matonatini payg‘ambar yoki avliyo kabi

mo‘tabar din arbobining sabr-toqatiga qiyoslab, ma’naviy fazilatlarga bo‘lgan madaniy ehtiromni ko‘rsatishi mumkin.

Bundan tashqari, madaniy qadriyatlar va e’tiqodlar qiyosiy konstruksiyalarda ishlatiladigan madaniy iboralar va metaforalarni tanlashga ham ta’sir qilishi mumkin. Shuningdek, o‘zbek va fors tillaridagi idiomatik iboralar ma’noni anglatish uchun madaniy timsollar, tarixiy voqealar va xalq og‘zaki ijodiga tayanishi mumkin. Masalan, qiyosiy konstruksiyalar o‘zbek va fors tillarida so‘zlashuvchi jamoalarning madaniy merosi va o‘ziga xosligi haqida tushuncha beradigan an’anaviy hikoyalar, maqollar yoki xalq qahramonlariga havolalarni o‘z ichiga olishi mumkin.

Ijtimoiy ierarxiyalar va kuchlar dinamikasi. Ijtimoiy ierarxiya va kuch dinamikasi o‘zbek va fors tillarida qiyosiy konstruksiyalarning shakllanishi va qo‘llanilishiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Bu tillar, boshqalar kabi, o‘z jamiyatlariga xos bo‘lgan ijtimoiy tuzilmalar va kuch dinamikasini aks ettiradi. Ijtimoiy ierarxiya va kuch dinamikasi omilini tahlil qilish orqali ushbu tillardagi qiyosiy konstruksiyalarni shakllantirishida bir qancha o‘ziga xos xususiyatlarni aniqlash mumkin.

Xususiyatlardan biri ma’lum sifatlar yoki fazilatlarning ijtimoiy mavqeidan kelib chiqqan holda muayyan ijtimoiy guruhlar bilan bog‘lanishidir. Ierarxik tuzilmalarga ega jamiyatlarda yuqori ijtimoiy mavqelarni egallagan shaxslar yoki guruhlarga donolik, yetakchilik yoki hokimiyatga aloqador fazilatlar tegishli bo‘lishi mumkin. O‘zbek va fors tillaridagi qiyosiy konstruksiyalar bu qiyoslashlarni kimningdir sifatlari yoki xulq-atvorlarini jamiyatdagi hurmatli shaxslar, masalan, oqsoqollar, jamoat rahbarlari yoki diniy idoralar bilan solishtirish orqali aks ettirishi mumkin. Misol uchun, iboralar kimningdir donoligini hurmatli oqsoqol yoki hurmatli olim bilan taqqoslash orqali ta’kidlashi mumkin, bu esa o‘z navbatida, yoshi va tajribasiga nisbatan madaniy hurmatni kuchaytiradi.

Bundan tashqari, ijtimoiy ierarxiya va kuch dinamikasi jinsga xos qiyosiy konstruksiyalarning shakllanishiga ta’sir qiladi, o‘z navbatida bu erkaklar va ayollar xulq-atvorlariga nisbatan jamiyatning qiyoslashlarini aks ettiradi. Patriarxal jamiyatlarda gender rollari ko‘pincha aniq belgilanadi, bunda erkaklar va ayollar o‘zlarining jinsiga mos keladigan ma’lum xususiyatlar yoki xulq-atvorlarni namoyish etishlari kutiladi. O‘zbek va fors tillaridagi qiyosiy konstruksiyalar odamlarning xulq-atvorini madaniyatda belgilangan gender me’yorlari bilan solishtirish orqali bu gender rollari va stereotiplarini kuchaytirishi mumkin. Jumladan, iboralar erkakni sherga o‘xshatib, uning dadilligi yoki yetakchilik qobiliyatini maqtasa, kuch va hukmronlik timsoli bo‘lsa, ayollarni esa g‘amxo‘r ona siymolariga qiyoslash orqali tarbiyalovchi fazilatlarini maqtashi mumkin.

Tilning xilma-xilligi va dialektal farqlari. Til o‘zgarishi va dialektal farqlar o‘zbek va fors tillarida qiyosiy konstruksiyalarning shakllanishi va qo‘llanilishini

shakllantiruvchi muhim omillarda biri hisoblanadi. Boisi, bu tillar boy lingvistik xilma-xillikni namoyish etadi, shuningdek dialektlardagi o‘zgarishlar va mintaqaviy nutq shakllari qiyosiy konstruksiyalarning nozik ifodalanishiga yordam beradi. Til o‘zgarishi va dialektal farqlar ushbu tillardagi qiyosiy konstruksiyalarga qanday ta’sir qilishida bir nechta o‘ziga xos xususiyatlarni aniqlash mumkin.

O‘z navbatida, til o‘zgarishi va dialektal farqlar til evolyutsiyasi va moslashuvining dinamik xususiyatini ta’kidlaydi (Телия В.Н., 1995:79). Qiyosiy konstruksiyalar turli dialekt va mintaqalar bo‘ylab uzatilishi natijasida yangi lisoniy shakl va iboralarning paydo bo‘lishiga olib keladigan o‘zgarishlar va yangilanishlarga duch kelishi mumkin. Tilning tarqalish va moslashish jarayoni o‘zbek va fors tillarida so‘zlashuvchi jamoalarda til, madaniyat va jamiyat o‘rtasidagi davom etayotgan o‘zaro ta’sirni aks ettirib, turli ijtimoiy va madaniy ta’sirlarga javoban bu tillarning chidamliligi va moslashuvchanligini ta’kidlaydi.

O‘zbek va fors tillari ma’noni til orqali yetkazish uchun ko‘pincha tarixiy voqealar, xalq og‘zaki ijodi va diniy e’tiqodlardan foydalanadi. Qiyosiy konstruksiyalar obyektlar orasidagi o‘xshashlik yoki farqlarni tasvirlash uchun an’anaviy metafora va allegorik tilni o‘z ichiga olishi mumkin. Misol uchun, iboralar kimningdir kuchini yoki chidamliligini afsonaviy qahramon yoki afsonaviy shaxsga o‘xshatib, kerakli ma’noni yetkazish uchun madaniy hikoyalar va folklordan foydalanishi mumkin. Bu an’anaviy metafora va matallar tilni yorqin tasvir va madaniy ahamiyat bilan boyitib, o‘zbek va forszabon jamoalarning madaniy merosi va qadriyatlarini yoritib beradi.

Xuddi shunday qiyosiy konstruksiyalar avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan madaniy qadriyatlar va me’yorlarni aks ettirishi mumkin. Qiyosiy konstruksiyalarda ishlatiladigan idiomatik iboralar va madaniy murojaatlar ko‘pincha jamiyatning umumiy donoligi va an’analarini aks ettiruvchi umumiy madaniy tajriba va e’tiqodlarga asoslanadi. Misol uchun, iboralar kimningdir saxiyligi yoki mehmondo‘stligini hurmatli tarixiy shaxs yoki madaniy timsolga qiyoslashi mumkin, bu esa saxiylik va jamoat ruhiga berilgan madaniy qadriyat bog‘liqligini nazarda tutadi. Ushbu madaniy xususiyatlarlar madaniy me’yor va qadriyatlarni mustahkamlash, madaniy merosni saqlash va til orqali turli xil qiyoslashlarni yetkazishga xizmat qiladi.

Yuqoridagi omillar tahlili yuzasidan bildirilgan fikrlarimizni umumlashtiradigan bo‘lsak, o‘zbek va fors tillarida qiyosiy konstruksiyalarning shakllanishi, qo‘llanishi va talqin qilinishida madaniy va sotsiolingvistik omillarning ahamiyati katta hisoblanadi. Bu omillar kengroq madaniy qadriyatlarni, ijtimoiy me’yorlarni va lingvistik qiyosiy birikmalarni aks ettiradi, bu tillarning madaniy boyligi va xilma-xilligi haqida tushuncha beradi. Qiyosiy konstruksiyalarning madaniy va sotsiolingvistik jihatlarini tushunib, biz o‘zbek va fors tillarida so‘zlashuvchi

jamoalarda til, madaniyat va e’tiqod o‘rtasidagi murakkab o‘zaro ta’sirni chuqurroq tushunishimiz mumkin.

Aytish mumkinki, metafora, o‘xshatish hamda iboralarni birlashtirib turgan narsa – ularning barchasi inson ongiga xos bo‘lgan qiyoslash-o‘xshatish amaliyotiga asoslanadi. Shu bois o‘xshatishlar mantiq, adabiyotshunoslik, tilshunoslik kabi fanlar uchun tadqiqot obyekti bo‘la oladi. Tilshunoslikda qiyoslash keng ma’noda ma’lum bir millatning tarixiy taraqqiyoti natijasida ega bo‘lingan bilimlarining natijalari aks etgan lisoniy o‘xshashlik sifatida talqin etiladi. Psixologiyada qiyoslash operatsiyasi inson tomonidan tevarak olamni, unda o‘zining o‘rnini idrok etishdagi, shuningdek, kognitiv kommunikativ masalalar yechimiga qaratilgan eng muhim operatsiyalardan biri sifatida tan olinadi. Har qanday mantiqiy baho munosabatining asosida aynan shu operatsiya yotadi, deb hisoblanadi (Усманов Ф., 2020:33).

O‘xshatish – bu inson tilni foydalanishni boshlagandan beri kishilar orasida tez-tez ishlatib kelinadigan ifoda vositasidir. Oddiy odamlar subyektni turg‘un o‘xshatish usuli bilan bezatib o‘z fikrlarini jonli ravishda yetkazsalar, mualliflar biror subyektning asosiy xususiyatidan yangi obrazni yaratish uchun individual o‘xshatish usulidan ko‘proq foydalanadilar. Shunga ko‘ra, o‘xshatishlarning ikki turi: 1) individual-muallif o‘xshatishlari va 2) turg‘un o‘xshatishlar farqlanadi.

N.Mahmudov turg‘un o‘xshatishlarni quyidagicha tushuntiradi: “...ularda o‘xshatish etalonida ifodalangan obraz barqarorlashgan bo‘ladi, bunday o‘xshatishlar, garchi muayyan shaxs yoki ijodkor tomonidan qo‘llangan bo‘lsa-da, vaqt o‘tishi bilan til jamoasida urfga kirib, doimiy ifodachilar sifatida turg‘unlashgan, umumxalq tili leksikonidan joy olib ulgurgan bo‘ladi. Bunday o‘xshatishlar xuddi tildagi tayyor birliklar kabi nutqqa olib kiriladi (Махмудов Н., Худойберганова Д., 2013:6).

Fors tilida “مثل” komponentli iboralar stilistik jihatdan juda faol. Ular asosan quyidagi funksiyalarni bajaradi:

Obrazlilikni kuchaytirish: مثل پروانه – kapalakdek (yengillik, noziklik);

Emotsional ta’sir: مثل زلزله – zilzila kabi (kuchli, dahshatli);

Poetik uslub yaratish: مثل بلبل – bulbul kabi (lirik obraz);

“مثل” bilan tuzilgan birikmalar orqali fors adabiyotida poetik tilda yangi obrazlar, ramzlar yaratiladi. Shu boisdan ular adabiy tilning ajralmas qismini tashkil etadi. Ayniqsa, fors she’riyatida bunday birliklar ko‘p uchraydi.

“مثل” komponentli iboralar fors tilida komparativlikni ifodalovchi asosiy vositalardan biridir. U o‘zbek tilidagi “kabi”, “singari” so‘zlariga mos keladi. “مثل” ko‘pincha subyektni yoki holatni boshqa bir holat yoki narsa bilan qiyoslashda ishlatiladi. Misol uchun, “او مثل شیر است” (u sher kabi) iborasi kuch, jasorat yoki qo‘rquvsizlikni ifodalaydi. Bunday iboralar ko‘pincha poeziyada ishlatiladi va estetik hamda emotsional ta’sir kuchini oshiradi. “مثل” yordamida yaratilgan iboralar

ko‘pincha metaforik ma’noga ega bo‘lib, tasviriylikni kuchaytiradi. Bu komponent fors adabiyotida poetik san’at vositasi sifatida keng qo‘llaniladi.

“مثل” komponentli iboralarning o‘rni va funksiyasi fors tilida juda muhim ahamiyatga ega, chunki bu so‘z fors tilidagi tasviriy, taqqoslovchi va metaforik ifodalarda keng qo‘llaniladi. “مثل” so‘zi “misol”, “o‘xshash”, “kabi” yoki “singari” ma’nolarini bildiradi va komparativ birikmalarda, ayniqsa, o‘xshashlik va taqqoslashni ifodalashda ishlatiladi.

1. **“مثل” komponentining o‘rni.** Taqqoslash va o‘xshashlik: “مثل” so‘zi fors tilidagi komparativ ifodalar uchun muhim vositadir. U ikkinchi obyektdagi xususiyatlarni birinchi obyektga nisbatan taqqoslash uchun ishlatiladi. Masalan, “ مثل شبنم” (shabnam kabi) yoki “مثل گل” (gul kabi).

Metaforik ifodalar: Fors tilidagi poetik nutqda “مثل” so‘zi ko‘pincha metaforik ma’nolarda ham ishlatiladi, bu esa tasviriy ifodalarni yanada boyitadi. Masalan, “ مثل خورشید” (quyosh kabi) – bu yerda “مثل” so‘zi faqat taqqoslashni emas, balki chuqur ma’no va hissiyotlarni anglatadi.

2. **“مثل” ning funksiyalari.** Komparativ funktsiya: “مثل” fors tilidagi komparativlik vositalaridan biri bo‘lib, ikki obyektda mavjud o‘xshashlikni ta’kidlash uchun ishlatiladi. U o‘xshashlikni aniq ko‘rsatishda, xususan, sifatlar, holatlar yoki hodisalar o‘rtasidagi taqqoslashda faol rol o‘ynaydi. Masalan, *[فرهنگ امثال فارسی. ص ۳۴] ”او مثل شیر قوی است“* (U sher kabi kuchli). Bu yerda “مثل” o‘xshashlikni bildiradi, shuning uchun bu ifoda “U kuchli” degan ma’noni beradi, ammo “sher kabi” tarzida yanada ta'sirli va poetik.

Metaforik funktsiya: Fors tilida “مثل” so‘zi ko‘pincha metaforik kontekstda ishlatiladi. Bu esa, obyektlar yoki hodisalarga nisbatan o‘xshashlikni emas, balki chuqurroq ma’noni ifodalashga yordam beradi. Masalan, *[فرهنگ امثال فارسی. ص ۲۶] ”مثل گل دل من شکست“* (Gul kabi, yuragim sinib ketdi). Bu yerda “مثل” o‘xshashlikni ifodalash bilan birga, “gul”ning poetik ramz sifatida ishlatilishi yuksak hissiy ma'no kasb etadi.

Poetik funktsiya: “مثل” so‘zi fors tilida ko‘plab she’riy va badiiy ifodalarda ishlatiladi. Bu so‘z yordamida shoirlar va yozuvchilar o‘z fikrlarini chuqurroq va tasviriyroq tarzda ifodalaydilar. “مثل” shuningdek, nutqning o‘ziga xosligini oshiradi, xususan, she’riy uslubda keng qo‘llaniladi.

Taqqoslash: *”مثل کوه همیشه ایستاده است“ [فرهنگ امثال فارسی. ص۷۸]* (Tog‘ kabi doimo turadi). Bu misolda “مثل” so‘zi doimiylik va mustahkamlikni taqqoslash maqsadida ishlatilgan.

Metafora: *[فرهنگ امثال فارسی. ص۷۸]* “مثل ماهی در آب زندگی می کنم” (Men baliq kabi suvda yashayman). Bu yerda “مثل” so‘zi “baliq”ning ramziy ma’nosini bildiradi, ya’ni “suvda yashash” holati insonning erkin va tabiat bilan uyg‘un yashashini anglatadi.

3. **“مثل” ning sintaktik roli.** “مثل” so‘zi, ayniqsa, taqqoslovchi iboralarda, o‘xshashlikni ko‘rsatish uchun ikki element orasida bog‘lovchi sifatida ishlaydi. Bu so‘z komparativ birikmalarning muhim tarkibiy qismi bo‘lib, ikki yoki undan ortiq elementni taqqoslashda yordam beradi. Fors tilida bu kabi iboralar juda ko‘p uchraydi.

“مثل” komponenti fors tilida komparativ va metaforik ifodalar yaratishda muhim rol o‘ynaydi. Bu so‘z nafaqat ikki obyektni taqqoslashda, balki chuqur badiiy va tasviriy ma’nolarni yaratishda ham faol ishtirok etadi. Fors tilidagi poetik, badiiy va ilmiy asarlarda “مثل” so‘zi orqali keng qamrovli taqqoslashlar va tasvirlar o‘rganiladi.

Komparativlikning metaforik va poetik ifodasi tilda obrazlilikni kuchaytiruvchi muhim omildir. Metafora orqali bir narsa boshqa bir narsa sifatida tasvirlanadi, bu esa tilga emotsional yuklama beradi. Poeziyada komparativlik vositalari yordamida yaratilgan metaforalar matnning estetik qiymatini oshiradi. Masalan, “ko‘nglim daryo kabi to‘lqinlar bilan to‘lgan” kabi ifoda obrazli fikrlash mahsulidir. Fors va o‘zbek she’riyatida komparativlik poetik tasvirning ajralmas qismi sifatida qaraladi. Ayniqsa “مثل” komponentli iboralar orqali yaratilgan tasvirlar o‘quvchi tafakkurida chuqur taassurot qoldiradi. Bu esa komparativlik vositalarining nafaqat grammatik, balki stilistik va poetik ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Metafora va poetik vositalar tilning eng ta’sirchan ifoda usullaridan biridir. Komparativ birliklar aynan mana shu jihatdan ham ahamiyatlidir. Fors va o‘zbek tillarida bu birliklar poetik nutqning asosiy komponentlari hisoblanadi. Ular nafaqat shakl jihatdan, balki ma’no jihatidan ham o‘xshatish va obraz yaratishda faol ishtirok etadi.

Poetik ifodalanishda ko‘pincha hayvonlar, tabiiy hodisalar, yulduzlar kabi obrazlar asos qilib olinadi. Masalan, “go‘yo oydek jilmaydi” yoki “ko‘ksida yong‘in kabi armon”. Bu kabi birikmalar ko‘pincha poeziya, maqollar, ertaklar va xalq og‘zaki ijodida keng qo‘llaniladi.

“Komparativlikning metaforik va poetik ifodalanishi” bo‘limi, asosan, komparativ tuzilmalar va ifodalar qanday metaforik yoki poetik usullar orqali yangi ma’no qatlamlarini yaratishini o‘rganadi. Komparativlikning bu aspekti, tilning estetik imkoniyatlarini, his-tuyg‘ularni va ma’naviy kontentni ifodalashda qanday rol o‘ynashini ko‘rsatadi.

1. Komparativlik va metafora. Metafora – bu bir narsaning o‘rniga boshqa narsani tasvirlash usulidir. Komparativlik metaforik ifodalarda tez-tez uchraydi, chunki u o‘xshashlikni ko‘rsatishda ishlatiladi. Metaforik komparativlikda bir predmet yoki hodisa boshqa predmet yoki hodisa bilan o‘xshashlik orqali tasvirlanadi.

Misol: *“Uning ko‘zlari yulduzlar kabi porlaydi”* *“چشمها اش مثل ستاره ها می درخشد” [فرهنگ امثال فارسی. ص۳۴]*. Bu misolda, yulduzlar metaforik jihatdan “porlash” sifatini

tasvirlash uchun ishlatilgan. Yulduzlarning yorqinligi bilan inson ko‘zlari o‘rtasidagi o‘xshashlik komparativlik vositasi orqali ilgari suriladi.

Metafora komparativlikka asoslanadi, ammo bu ikki tushuncha orasida farq bor. Metafora nafaqat o‘xshashlikni, balki chuqurroq ma'nolarni ham yaratadi. Komparativlik esa ikki narsaning o‘xshashligini ta'kidlash orqali sodda ifodalanadi.

2. Komparativlik va poetika. Poetika tilning san’ati sifatida, ma’lum bir estetik qoidalar va uslublarga asoslanadi. Poetika kontekstida komparativlik, biror tasvirni yaratishda o‘xshashlikni va qarama-qarshilikni keltirib chiqaruvchi vosita sifatida ishlatiladi. Komparativ ifodalar poetik yondashuvlarda estetik quvvatni oshirish, biror hisni kuchaytirish va dramatik ta’sir qilish uchun ishlatiladi.

Poetik komparativlikda ko‘pincha tashbehlar (mashhur komparativ qurilmalar) ishlatiladi. Masalan: *“Uning yuragi temir kabi mustahkam”* *“قلبش مثل آهن محکم است” [فرهنگ امثال فارسی. ص۵۶]*. Bu misolda, temirning kuchi bilan inson yuragi o‘rtasidagi o‘xshashlik tasvirlanadi. Bu poetik komparativlik, insonning ruhiy holatini va uning ichki kuchini ta’kidlaydi.

Xususiy ma’no: Poetikalik komparativlikda, ko‘pincha, o‘xshashlik yangi, kutilgan yoki xayoliy tasvirlar orqali yaratiladi.

Symvolizm: Komparativlik, ba'zida, nafaqat o‘xshashlikni ko‘rsatadi, balki simvolizm elementlarini ham o‘z ichiga oladi. Simvolizm poetik ifodaning asosiy unsuridir, va komparativlik vositasi orqali bu simvollar yanada kuchayadi.

Misol: *“Hayot - daryo kabi oqadi”* *“زندگی مثل رود می رود” [فرهنگ امثال فارسی. ص۲۷]*. Bu tasvirda, daryo hayotning o‘zgaruvchanligini va uzluksizligini ifodalash uchun ishlatiladi, va bu komparativlikning simvolik elementini ko‘rsatadi.

Metaforik va poetik komparativlikning ilmiy yondoshuvi, tilshunoslikda chuqur o‘rganilgan. Masalan, K.Lakoff va G.Johnsonning “Metaphors We Live By” asarida, metaforaning kognitiv tahlili yoritilgan. Ular ko‘rsatadiki, metaforalar nafaqat tilning badiiy vositasi, balki insonning dunyoni qanday tushunishini ham shakllantiradi. Komparativlik esa bu metaforalarda tasvirlanayotgan o‘xshashliklarni aniq va bevosita taqdim etadi.

Komparativlikning metaforik va poetik ifodalanishi, tilda o‘xshashlik va taqqoslash vositasini badiiy va estetik maqsadlar uchun qanday ishlatish mumkinligini ko‘rsatadi. Bu, nafaqat tilning ifodaviy imkoniyatlarini kengaytiradi, balki tilning san’ati va estetikasi orqali inson his-tuyg‘ulari va fikrlarini chuqurroq ifodalashga yordam beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Fors va o‘zbek tillarida komparativlik vositalarining ifodalanishi tahlili shuni ko‘rsatadiki, har ikkala tilning grammatik tizimi va semantik tuzilishida o‘xshashlik bilan bir qatorda milliy-madaniy tafovutlar ham mavjud. Fors tilida “مثل”, “مانند”, “چون”

kabi birliklar, o‘zbek tilida esa “kabi”, “singari”, “go‘yo”, “xuddi” kabi vositalar o‘xshatish va taqqoslashning asosiy vositalari sifatida faol ishlatiladi. Ushbu birliklar nafaqat grammatik, balki madaniy va ijtimoiy-lingvistik ma’noga ham ega bo‘lib, xalqning dunyoqarashi, qadriyatlari va tafakkur tarzini aks ettiradi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, komparativlik vositalari ikki tilda ham metaforik, poetik va nutqiy darajalarda faol qo‘llanadi. Ularning semantik o‘ziga xosligi milliy madaniyat, tarixiy tajriba va ijtimoiy hayot tarzining tilda namoyon bo‘lishi bilan chambarchas bog‘liqdir. Fors va o‘zbek tillaridagi komparativ birliklarning o‘zaro qiyosiy tahlili til va madaniyat o‘rtasidagi uzviy aloqani, shuningdek, xalq tafakkurining lingvistik ko‘rinishini ochib beradi.

Xulosa qilib aytganda, komparativlik vositalarini tahlil etish nafaqat grammatik tizimni chuqurroq anglashga, balki til egalarining madaniy identifikatsiyasini, ijtimoiy munosabatlarini va poetik tafakkurini o‘rganishga imkon yaratadi. Ushbu tadqiqot ikki tildagi komparativ birliklarning tarjimaviy ekvivalentlarini aniqlash hamda ularni lingvomadaniy kontekstda izohlash uchun ilmiy asos vazifasini bajaradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Ahmadov I. (2008) O‘zbek tilida komparativlik va uning strukturalari. – Toshkent: O‘zbekiston Universiteti nashriyoti. – 120 b;
2. Болгарова Р.М. (2005) Функционально-семантическое поле компаративности в русском и татарском языках: Дис. ... канд. филол. наук: Москва. – 174 с.
3. Davronov A. (2010) Lingvistik komparativlik: nazariy asoslar va amaliy tadqiqotlar. – Toshkent: Science, – 132 b;
4. Ergashev Sh. (2009) Komparativlik va semantika. – Namangan: Sharq.
5. Лебедева Л.А. (1999) Устойчивые сравнения русского языка во фразеологии и фразеографии: Автореферат дис. … д-ра филол. наук: 10.02.01. – Краснодар: Кубанский госуниверситет, – 34 с.
6. Маҳмудов Н. (2011) Ўхшатишлар – образли тафаккур маҳсули, Тошкент.. – 303 б;
7. Маҳмудов Н, Худойберганова Д. (2013) Ўзбек тили ўхшатишларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Маънавият, –320 б;
8. Muhammedov M. (2014) Komparativ iboralar va ularning madaniy ifodalanishi. – Tashkent: Iqtisodiyot, – 102 b;
9. Мукаррамов М. (1976) Ўзбек тилида ўхшатиш.– Тошкент, – 88 б;
10. Nazarov S. **(**2011**)** Komparativlikni o‘rganishdagi yangi yo‘nalishlar. – Toshkent: Uzbek Academy Press, – 95 b;
11. Усманов Ф. (2020) Ўзбек тилидаги ўхшатишларнинг лингвомаданий тадқиқи: Филол. фан. б. фалс. д-ри ... дисс. – Тошкент, – Б. 33.

12. Худойберганова Д. (2013) Матннинг антропоцентрик тадқиқи. – Тошкент: Фан, – 136 б;

13. Qosimova M. (2012) Komparativlik va tilning semantik tizimi. – Toshkent: Sharq, – 124 b;

14. Қўнғуров Р. (1977) Ўзбек тилининг тасвирий воситалари. – Тошкент, – 152 б;

15. Виноградов В.В. (1975) Избранные труды. Исследование по русской грамматике. – Москва, – 260 с.

16. Николаева А. В. (2002) Функционально-семантическое поле компаративности в современном английском языке: Дис. ... канд. филол. наук: Ростов н/Д, – 166 с.

17. Johnson A., Lee M. (2017) Cross-Cultural Linguistic Studies: Persian and Uzbek Comparative Structures. – Cambridge University Press,. – 135 p;

18. Huddleston R. (1967) More on the English comparative. – JL,. – 102 p;

19. Small G.W. (1996) the Comparision of Inequality: the Semantics and Syntax of the Comparative particle in English. – Baltimore: JohnS Hopkins press, – 168 p;

20. Sinitsyna Y. (2023) Comparative constructions of equality in Ossetic. Voprosy Jazykoznanija, Witotoan, Northwest Amazonia,. – P. 88.

21. Wojtylak, K.I. (2019) Comparative Constructions in Murui // Linguistic Discovery, №16(1), – P. 39.

22. Телия В.Н. (1995) Словарь образных выражений русского языка. – М.: Отечество, – С. 79.

23. جعفرنی محمد طاقی. تصنیف متفر و کامپاراتیو کاتگاریاها. - تهران، ۱۳۸۷. – ۱۹۸ ص

24. سید حسین نسر. صنعتی اسلام و متفر. – تهران، ۱۳۶۹. – ۲۱۳ ص

25. جزایری محمدعلی. ساختار معنایی تشبیه‌های فارسی. – تهران، ۱۳۸۹. – ۱۶۷ ص

26. ؛ قزوینی محمد. کتاب البعدی. – قزوین، ۱۳۶۷. – ۱۹۸ ص.

REFERENCES:

1. Ahmadov I. (2008). O‘zbek tilida komparativlik va uning strukturalari. Toshkent: O‘zbekiston Universiteti nashriyoti, 120 b. (In Uzbek)

2. Bolgarova R.M. (2005). Funktsionalno-semanticheskoe pole komparativnosti v russkom i tatarskom yazykax: Dis. ... kand. filol. nauk. Moskva, 174 s. (In Russian)

3. Davronov A. (2010). Lingvistik komparativlik: nazariy asoslar va amaliy tadqiqotlar. Toshkent: Science, 132 b. (In Uzbek)

4. Ergashev Sh. (2009). Komparativlik va semantika. Namangan: Sharq, 416 b. (In Uzbek)

5. Huddleston R. (1967). More on the English comparative // Journal of Linguistics, Vol. 3, No. 1, pp. 91-102.

6. Hudoyberganova D. (2013). Matnning antropotsentrik tadqiqi. Toshkent: Fan, 136 b. (In Uzbek)

7. Jazayeri Muhammadali (2010). Soha-ye ma'noyi tashbih-ho-ye Forsi. Tehran, 167 s. (In Persian)

8. Ja'fari Muhammad Taqi (2008). Tasnif-e motafar va komparativo katigoriyoha. Tehran, 198 s. (In Persian)

9. Johnson A., Lee M. (2017). Cross-Cultural Linguistic Studies: Persian and Uzbek Comparative Structures. Cambridge: Cambridge University Press, 135 p.

10. Lebedeva L.A. (1999). Ustoychivye sravneniya russkogo yazyka vo frazeologii i frazeografii: Avtoreferat dis. … d-ra filol. nauk. Krasnodar: Kubanskiy gosuniversitet, 34 s. (In Russian)

11. Mahmutov N. (2011). O‘xshatishlar – obrazli tafakkur mahsuli. Toshkent, 303 b. (In Uzbek)

12. Mahmutov N., Hudoyberganova D. (2013). O‘zbek tili o‘xshatishlarining izohli lug‘ati. Toshkent: Ma’naviyat, 320 b. (In Uzbek)

13. Muhammadov M. (2014). Komparativ iboralar va ularning madaniy ifodalanishi. Tashkent: Iqtisodiyot, 102 b. (In Uzbek)

14. Mukarramov M. (1976). O‘zbek tilida o‘xshatish. Toshkent, 88 b. (In Uzbek)

15. Nazarov S. (2011). Komparativlikni o‘rganishdagi yangi yo‘nalishlar. Toshkent: Uzbek Academy Press, 95 b. (In Uzbek)

16. Nikolaeva A.V. (2002). Funktsionalno-semanticheskoe pole komparativnosti v sovremennom angliyskom yazyke: Dis. ... kand. filol. nauk. Rostov n/D, 166 s. (In Russian)

17. Qong‘urov R. (1977). O‘zbek tilining tasviriy vositalari. Toshkent, 152 b. (In Uzbek)

18. Qosimova M. (2012). Komparativlik va tilning semantik tizimi. Toshkent: Sharq, 124 b. (In Uzbek)

19. Qazvini Muhammad (1988). Kitab al-Ba'di. Qazvin, 198 s. (In Persian) Sayyid Husayn Nasr (1990). San'ati Islomi va motafar. Tehran, 213 s. (In Persian)

20. Sinitsyna Y. (2023). Comparative constructions of equality in Ossetic // Voprosy Yazykoznaniya. (In Russian)

21. Small G.W. (1924). The Comparison of Inequality: The Semantics and Syntax of the Comparative Particle in English. Greifswald/Baltimore: Johns Hopkins Press, 168 p. (In English)

22. Teliya V.N. (1995). Slovar obraznyx vyrazheniy russkogo yazyka. Moskva: Otechestvo, s. 79. (In Russian)

23. Usmanov F. (2020). O‘zbek tilidagi o‘xshatishlarning lingvomadaniy tadqiqi: Filol. fan. b. falsafa doktori ... diss. Toshkent, b. 33. (In Uzbek)

24. Vinogradov V.V. (1975). Izbrannye trudy. Issledovanie po russkoy grammatike. Moskva, 260 s. (In Russian)

25. Wojtylak K.I. (2018). Comparative constructions in Murui (Witotoan, Northwest Amazonia) // Linguistic Discovery, Vol. 16, No. 1, pp. 1-39.

TURK TILIDA FITOMORF BIRLIKLARNING LINGVOKULTUROLOGIK TALQINI

LINGUOCULTUROLOGICAL INTERPRETATION OF PHYTOMORPHIC UNITS IN TURKISH

ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ФИТОМОРФНЫХ ЕДИНИЦ В ТУРЕЦКОМ ЯЗЫКЕ

Salimova Zebo Rustam qizi
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
Turkshunoslik oliy maktabi v.b. dotsenti, Phd
Tel.: +998 90 936-83-63
E-mail: zebosalimova1990@gmail.com
Orcid: 0009-0001-9977-3948

Annotatsiya. Ushbu maqolada turk tilida o‘simlik nomlariga asoslangan frazeologik birliklar — fitomorf frazeologizmlarning lingvokulturologik jihatdan tahlili yoritiladi. Tadqiqotda o‘simlik nomlarining xalq tafakkuridagi ramziy ahamiyati, milliy dunyoqarashni shakllantirishdagi o‘rni va madaniy konnotatsiyalari izohlanadi. Maqolada misollar orqali turk tilidagi fitomorf birliklarning semantik va konseptual xususiyatlari ochib berilgan. Tilda fitonimlarning badiiy tasvir uchun xizmat qilishi, ularning badiiy san’atlarni hosil qilishdagi ahamiyatini ko‘rsatish, turk tili fitonimiyasini boyitish uchun xizmat qiladi. Meva va o‘simlik nomlari orqali inson qiyofasini aks ettirish, ularning xarakterlarini ochib berishda tilning so‘z boyligiga e’tibor qaratiladi. Maqolada fitonimlarning badiiy tasvir uchun xizmat qilishi, ularning badiiy san’atlarni hosil qilishdagi ahamiyati (meva, anor, gul, savsani, sumbul, sarv, noranji, binafsha, nargis, lola, shamshod, bug‘doy, arpalar) o‘xshatish, tashbeh, tashhis kabi she’riy san’atlarni yaratishda muhim leksik vosita vazifasini bajarganligi ko‘rsatilgan.

Kalit so‘zlar: *fitomorf birlik, lingvokulturologiya, frazeologizm, ramz, milliy tafakkur, turk tili, xarakter, metafora.*

Abstract. This article provides a linguocultural analysis of phraseological units based on plant names in the Turkish language - phytomorphic phraseologisms. The study explains the symbolic significance of plant names in folk thought, their role in the formation of the national worldview, and their cultural connotations. The article reveals the semantic and conceptual features of phytomorphic units in the Turkish language through examples. The use of phytonyms in the language for artistic expression, their importance in the creation of artistic works, and the enrichment of the phytonyms of the Turkish language. Attention is paid to the richness of the language's vocabulary in reflecting the human image through the names of fruits and plants,

revealing their character. The article shows that phytonyms serve for artistic imagery, their importance in creating artistic works (fruit, pomegranate, flower, hyacinth, hyacinth, cypress, orange, violet, daffodil, tulip, shamrock, wheat, barley), and serve as an important lexical tool in creating poetic works such as simile, allegory, and diagnosis.

Keywords: *phytomorphic unity, linguoculturology, phraseology, symbol, national ideology, Turkish language, character, metaphor.*

Аннотация. В данной статье представлен лингвокультурологический анализ фразеологических единиц, основанных на названиях растений в турецком языке – фитоморфных фразеологизмов. В исследовании раскрывается символическое значение названий растений в народной мысли, их роль в формировании национального мировоззрения и их культурные коннотации. В статье на примерах раскрываются семантические и концептуальные особенности фитоморфных единиц в турецком языке. Рассматривается использование фитонимов в языке для художественного выражения, их значение в создании художественных произведений, а также обогащение фитонимического состава турецкого языка. Уделяется внимание богатству словарного состава языка в отражении образа человека через названия плодов и растений, раскрытии их характера. В статье показано, что фитонимы выполняют функции художественной образности, их значение в создании художественных произведений (фрукт, гранат, цветок, гиацинт, гиацинт, кипарис, апельсин, фиалка, нарцисс, тюльпан, трилистник, пшеница, ячмень), а также служат важным лексическим средством в создании поэтических произведений, таких как сравнение, аллегория, диагноз.

Ключевые слова: *фитоморфное единство, лингвокультурология, фразеология, символ, национальная идеология, турецкий язык, персонаж, метафора.*

KIRISH

Til va madaniyat o‘zaro chambarchas bog‘liq bo‘lib, xalq tafakkuri, turmush tarzi va qadriyatlarini o‘zida mujassam etadi. Tilning frazeologik tizimi esa bu jarayonning eng yorqin ifodalaridan biridir. Xususan, o‘simlik nomlariga asoslangan frazeologik birliklar — fitomorf frazeologizmlar — xalqning tabiatga munosabati, estetik qarashlari va milliy ruhini aks ettiruvchi lingvokulturologik birliklar sifatida muhim o‘rin tutadi.

Frazeologik birliklarning mazmuni ko‘pincha insonning tabiat bilan bevosita aloqasi natijasida shakllangan. Ayniqsa, o‘simlik nomlariga asoslangan fitomorf frazeologizmlar xalqning ekologik tafakkuri, mehnat faoliyati va estetik qadriyatlari

bilan chambarchas bog‘liqdir. O‘zbek va turk xalqlari qadimdan o‘simliklar olamiga alohida ehtirom bilan qaragan, bu esa ularning tili va folklorida keng aks etgan.

Bugungi globallashuv davrida milliy tafakkurni saqlab qolish hamda uni qiyosiy-lingvokulturologik tahlil asosida o‘rganish dolzarb ilmiy vazifa sifatida qaralmoqda. Shu nuqtayi nazardan, o‘zbek va turk tillaridagi fitomorf frazeologizmlarni tahlil qilish, ularning semantik xususiyatlarini, milliy-madaniy mazmunini ochib berish lingvokulturologiyaning muhim yo‘nalishlaridan biridir.

Turk tilida bunday birliklar nafaqat semantik, balki ramziy jihatdan ham boy ma’noga ega bo‘lib, ko‘p hollarda inson fe’l-atvori, his-tuyg‘usi va ijtimoiy munosabatlarni ifodalashda ishlatiladi. Turk xalqi uchun o‘simliklar qadimdan muqaddas ramzlar bo‘lib, ular hayot, tabiat, go‘zallik, baraka, sadoqat va ezgulik timsoli sifatida talqin qilingan. Shu bois turk tilida “gül”, “ağaç”, “diken”, “zeytin”, “asmalık”, “meyve”, “çiçek” kabi o‘simlik nomlari xalq og‘zaki ijodida ham, kundalik nutqda ham boy ramziy ma’nolarga ega bo‘lgan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Mazkur maqolada fitonim nomlari bilan bog‘liq ismlarning turk tili olam lisoniy manzarasini ifodalovchi vosita ekanligini dalillash maqsadida turk tilidagi fitomorf birliklarning lingvokulturologik talqinini o‘rganish vazifasi qo‘yilgan. Tilshunoslikda fitonimlarning lingvistik tabiati, ko‘chimni shakllantirishdagi o‘rni, lison va nutqda qo‘llanish darajasi kabilar o‘rganilgan. Chunonchi, ingliz tili fitonimlarining tahlili J.Rasa(1988), D.Xuk, U.Krishke, D.Herman (2000) kabilarning ishlarida amalga oshirilgan. Mazkur ishlarda fitonimlarning strukturasi, semantikasi, tasnifi, so‘z yasashdagi o‘rni kabilar diaxron va sinxron aspektda o‘rganilgan. Rus tili fitonimlarining etnobotanik, terminologik, strukturaviy, semantik xususiyatlari va leksikografik talqini O.P.Ryabko, T.V.Soy, S.Y.Dubrovina, A.M.Letova kabilarning tadqiqotlarida tahlilga tortilgan. O.P.Ryabko (2000) O‘zbek tilshunosligida fitonimlarning strukturaviy-funksional, leksiksemantik, tarixiy-etimologik tahlili X.Jamolxonov, Y.Eshonqulov, G.X.Nigmatova kabilar tomonidan qisman o‘rganilganligi bir qator tadqiqotlarda berilgan (Muqimova G., Salimova Z., 2023).

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqola mavzusini yoritishda tavsiflash, tasniflash, qiyoslash, lingvomadaniy tahlil usullaridan foydalanildi. Turk tilidagi fitomorf birliklarning lingvokulturologik talqinini o‘rganish uchun mazkur tildagi fitomorf birliklar yig‘ib chiqildi. Ushbu birliklarning o‘zbek tilidagi muqobili jadvalga solib tahlil qilindi. Tasvirlash obyektlari o‘rtasidagi farqlar qiyosiy o‘rganildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Nutqda inson obrazining yaratilishida fitonimlar muhim rol o‘ynaydi. Zero, inson hayoti flora bilan uzviy bog‘liqdir. Tilshunos olimlarning o‘simlik dunyosiga alohida e’tibor qaratishining birinchi sababi shu bo‘lsa, ikkinchidan, o‘simliklar bilan aloqador til birliklari xalqning olam lisoniy manzarasida asosiy o‘rinlardan birini egallaydi. Fitonimlar xalq tafakkuridagi mifologik, diniy va adabiy an’analar bilan chambarchas bog‘langan bo‘ladi. Fitomorfizmlar fikrlashning dastlabki shakli bilan ham aloqador bo‘lib, unga xos tushunchalar tilga ham ko‘chgan. Fitonimlar qator tadqiqotchilarning e’tiborini jalb qilishda, ularni turli diskursda (adabiy, she’riy, ilmiy) ko‘rib chiqishda davom etmoqda.

Qardosh turkiy tillarda o‘simlik nomlari monografik aspektda keng tadqiq etilgan. Xususan, chuvash tilidagi daraxt, o‘t-o‘lan nomlari va ularning etimologiyasi Yu.Dmitrieva, mariy tilidagi o‘simlik nomlari A.S.Yefremov, qozoq tilidagi o‘simlik nomlarining xalqona va adabiy variantlari va ba’zilarining etimologiyasi B.K.Kaliev, qozoq tilidagi o‘simliklarning xalqona nomlanishi G.I.Uyukbaeva, ozarbayjon tilidagi o‘simliklarni ifodalovchi leksik birliklarni qiyosiy-tarixiy aspektda E.S.Kuliev, turkman tilidagi o’simliklarning xalqona va ilmiy nomlari V.V.Nikitin va B.B.Kerbabaev, udmurt dialektiga xos o‘simlik nomlari B.Sh.Zagulyaevalar tomonidan o‘rganilgan.

Tirik tabiat obyektlari birliklari bilan shaxsni tavsiflashning muhim tomoni shundaki, inson uchun zarur bo‘lgan fazilatlar muhim bo‘lgan xususiyatlar va uning shaxsiyatini ochib beradigan xususiyatlar o‘rtasida aniq chiziq chizish deyarli mumkin emas. Shu nuqtayi nazardan, odamning tashqi va ichki ko‘rinishini tushunishda, inson tafakkurining bir til darajasidan ikkinchisiga harakatlanishiga e’tibor qaratib, tarkibiy jihatdan murakkab “shaxs” tushunchasini tahlil obyekti qilib olish maqsadga muvofiqdir. Ushbu jarayon ma’lum bir til imkoniyatlariga bo‘ysungan holda, uni ko‘p darajali talqin qilishning bitta murakkab tizimini keltirib chiqaradi.

Lingvokulturologiya tilda madaniyat va tafakkur izlarini o‘rganishga qaratilgan yo‘nalish bo‘lib, frazeologizmlarni madaniyat kodlari sifatida talqin qiladi. Fitomorf frazeologizmlar esa bu kodlarning eng qadimiy shakllaridan biridir. Chunki inson tabiat bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan va o‘simliklar uning hissiy dunyosini ifodalash vositasiga aylangan.

Masalan, turk tilidagi quyidagi birikmalar insonning ruhiy holatini tabiat elementlari orqali ifodalaydi:

- “Diken üstünde oturmak” — asabiylashish, xavotir holati;
- “Gül gibi olmak” — baxtiyor, chiroyli, osoyishta hayot kechirish;
- “Ağaç yaş iken eğilir” — yoshdan tarbiya olish kerakligini ifodalaydi;
- “Zeytin dalı uzatmak” — yarashmoq, tinchlikka intilmoq ma’nosida ishlatiladi.

Bu misollar fitomorf birliklarning faqat til hodisasi emas, balki madaniy tafakkurning verbal ifodasi ekanini ko‘rsatadi.

Turk lingvomadaniyatida armut - nok (murut) so‘zi inson tabiatini aks ettirishda keng qo‘llanadi. Xususan, “armut gibi” o‘xshatishli birikmasi yordamida “gap tushunmaydigan, anqov kishi”ga nisbatan ishlatiladi. A*rmut* gibi ne demek? Çok *anlayışsız*, bön. Armut mevasi yordamida ko‘pincha salbiy xarakterli kishilar obrazi yaratiladi. Dangasa, biror ish qilmasdan foyda kutadigan, rizqni osmondan tushadi deb o‘tiradigan odamlarga nisbatan turk badiiyatining olam manzarasida “armut piş, ağzıma düş” iborasi ham ishlatiladi. Bu o‘zbek lingvomadaniyatidagi “olma pish og‘zimga tush” iborasining aynan o‘zidir. Bu esa turklar tafakkurida armut - nok (murut) bilan bir xil ma’no kasb etuvchi, hech bir mehnat sarflamasdan bir nima kutadigan odamlarga nisbatan ishlatiluvchi tekinxo‘r obrazini ifodalashini ta’kidlash joizdir. (Salimova Z**.,** 2024).

Turk tilida *fidan* so‘zi ham, *filiz* (kurtak) so‘zi ham yosh ko‘rkam kishilarga nisbatan qo‘llanadi. Ingichka va go‘zal qomatli inson tasvirida odatda aynan shu fitonimlardan foydalaniladi. Yeşil çeltik filizleri bir parmak uzunluktaydı. (Kemal Y., 2010). *Filiz-ince* ve *güzel vücutlu (kurtak)*, ya’ni turk tilida bu so‘z kurtak degan ma’noni anglatib, o‘zbek tilida yangi chiqqan *gulg‘uncha* ma’nosida qo‘llanadi.

Turk tilida inson obrazini gavdalantirishda keng tarqalgan daraxt turlaridan biri xurmo daraxtidir. Taxminan 8000 yildan beri mavjud bo‘lgan xurmo daraxti turk xalqi hayotida juda muhim o‘rin tutadi. Xurmo daraxti inson kabi suv va quyoshga ehtiyoji yuqori o‘simlik turi hisoblanadi. Xurmo uchun suv va issiqlik yetishmasa u hosil bermaydi. Agar suv yaxshi yetkazilib, issiqlik bo‘lmasa bo‘yi yaxshi o‘sgani bilan u meva bermaydi. Shu bois, turklarda nozikta’b, doim e’tibor talab insonlar, asosan, ayollar xurmo daraxtiga qiyos qilinadi. *“İçinde hurma olmayan evin halkı açtır.”* diye buyuruyor (Fahr-i Kain). Xurmo oddiy daraxt emas. Insonga eng yaqin bo‘lgan ozuqa manbayi. Ayniqsa, uning unib chiqishi juda ajib hodisa. Urug‘ changlangandan bir yil o‘tib nihol bosh ko‘taradi. Xuddi inson kabi onasining yaqinida unib o‘sadi. Agar uni onasidan uzoq joyga eksangiz ona ham, bola ya’ni yangi nihol ham qurib qoladi.

O‘zbek lingvomadaniyatida xurmo daraxti inson obrazini aks ettirishda qo‘llanmaydi.

Turk tilida daraxt yaproqlari vositasida ish joyi yoki egallab turgan lavozimidan bo‘shatilgan inson holati *yaprak gibi koparılmak* birikmasi bilan ifodalanadi.

Turk xalqining qadimiy madaniyatida ayrim o‘simliklar alohida semantik yukni ifodalaydi. Quyidagi misollar buni ko‘rsatadi:

O‘simlik nomi	Turkcha frazeologizm	Ma’nosi	Madaniy talqin
Gül (gul)	*Gül yüzlü, Gül gibi yaşamak*	Nafosat, baxt, ijobiylik	Gullar hayot go‘zalligini bildiradi
Badem (bodom)	*Badem gözlü*	Chiroyli, jozibador ko‘z	Estetik ideallar ramzi
Çam (qarag‘ay)	*Çam gibi delikanlı*	Baquvvat, sog‘lom yigit	Kuch va yoshlik ramzi
Diken (tikan)	*Diken üstünde oturmak*	Tashvishda bo‘lish	Ruhiy noqulaylik holati
Ot (o‘t)	*Otu gibi yanmak*	Hissiyotga berilish	Emotsional kuchlilik belgisi

Bu birliklarda o‘simlik nomlari inson fazilatlari va holatlarini ifodalovchi ramzga aylanadi. Shu orqali xalqning tabiatga bo‘lgan estetik va axloqiy munosabati namoyon bo‘ladi.

Turk tilidagi o‘simlik nomlari uch asosiy semantik guruhga ajraladi:

1. Go‘zallik va hayot timsollari: “gül”, “çiçek”, “meyve” – estetik, ijobiy hissiyotlarni ifodalaydi.

“Gül gibi kız” – chiroyli, nazokatli qiz.

“Çiçek açmak” – gullash, rivojlanish, yangilanish.

2. Sadoqat va barqarorlik timsollari: “çam”, “zeytin”, “asma”.

“Zeytin ağacı gibi köklü” – mustahkam, ildizli, uzoq umr ko‘ruvchi.

“Asma yaprağı” (uzum bargi) – himoya, qoplovchi ma’no beradi.

3. Og‘riq va sinov ramzlari: “diken”, “kurumuş ağaç”.

“Dikenli yol” – og‘ir, mashaqqatli yo‘l.

“Kurumuş dal” – samarasiz, kuchsiz, hayotsiz odam yoki g‘oya ramzi.

Bunday ma’nolar xalq tafakkurida metaforik konseptualizatsiya orqali shakllanadi: o‘simliklar hayotiy tajribaning modeli sifatida ishlaydi.

Fitomorf birliklar orqali “inson – tabiat” munosabati konseptual darajada ifodalanadi. Bu, asosan, quyidagi konseptlarga tayanadi:

- Hayot konsepti: “hayat ağacı”, “çiçeklenmek”, “meyve vermek”;
- Sadoqat konsepti: “çam gibi dik durmak”;
- Ezgu niyat konsepti: “zeytin dalı uzatmak”, “gül gibi gönül”.

Bu konseptlar xalqning diniy, estetik va ijtimoiy qadriyatlari bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, madaniyatda doimiy ishlatiluvchi ramzlardir. Lingvokulturologik tahlil natijasida ko‘rinadiki, o‘simlik obrazlari xalqning semantik dunyo manzarasida insoniy sifatlarning ifodachisiga aylangan.

Turk tilida *ayva göbekli* metaforasi orqali qorni pastga osilgan kishining tasviri ifodalanadi. Ayva - bu behi, behi fitonimining shakli turk tilida qorni osilgan odam obrazi uchun qo‘llanadi. O‘zbek tilida esa behi orqali inson tasvirlanmaydi, qorni qopday yoki *tarvuz yutib olganday* o‘xshatishli birikmalaridan foydalaniladi. Bunga qardosh tillar orasidagi farq sifatida qarash mumkin (Salimova Z**.,** №4 2024:23).

Turk xalqi lingvomadaniyatida zaytun fitonimi ham katta o‘rin tutadi. Zaytun qora bo‘lishi bilan birga, foydali va mazali bo‘lgani uchun *zeytin gibi* o‘xshatishli birikmasi qorachadan kelgan, istarali qizlarni ta’riflashda ishlatiladi.

Turk xalqining diniy madaniyatida “gül” so‘zi Muhammad (s.a.v.) ramziga aylangan. Shu bois “gül kokusu”, “gül yüzlü”, “gül peygamber” kabi iboralar ilohiy go‘zallikni va muqaddaslikni ifodalaydi. Shuningdek, “zeytin” Qur’onda zikr etilgan daraxt sifatida baraka, tinchlik va sabr timsolidir (Karasoy Y., №2. 2018:45-60).

Fitomorf birliklar xalq psixologiyasining bevosita ko‘zgusi sifatida xizmat qiladi. Masalan, “diken” so‘zi mashaqqat va sabrni, “meyve” esa mehnat samarasini anglatadi. “Ağaç” esa turk xalqining ongida ota, urug‘, nasl tushunchalari bilan uyg‘unlashgan. Shu sababli “ağaç kökünden kopmaz” iborasi insonning ildizga, ajdodga sodiqligini bildiradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Fitomorf frazeologizmlar turk xalqining madaniy tafakkuri, estetik didi va hayot falsafasini tildagi ramzlar orqali ifodalovchi muhim birliklardir. Ular tilda nafaqat semantik, balki etnolingvistik va psixokulturologik yuklamalarga ham ega.

Ushbu birliklar orqali xalqning tabiatga munosabati, diniy qarashlari, estetik qadriyatlari va ijtimoiy hayot tajribasi aks etadi. “Gül”, “zeytin”, “çam”, “diken” kabi o‘simlik nomlari turk madaniyatida konseptual kod sifatida yashab kelmoqda.

Fitomorf frazeologizmlarning lingvokulturologik tahlili shuni ko‘rsatadiki:

- Til madaniyatni aks ettiruvchi va uni avloddan avlodga yetkazuvchi asosiy vositadir;
- O‘simlik nomlariga asoslangan frazeologizmlar milliy o‘zlikni belgilovchi madaniy belgilar tizimini tashkil etadi;
- Fitomorf birliklarning semantik tahlili orqali xalqning tabiat, mehnat, go‘zallik va sadoqat haqidagi qarashlarini aniqlash mumkin.

Demak, fitomorf frazeologizmlar tilda madaniy kod sifatida faol yashab, milliy tafakkurning tarixiy qatlamlarini saqlab qolmoqda. Ularni lingvokulturologik aspektda tadqiq etish, til va madaniyat o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni yanada chuqurroq anglash imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Deyimler Sözlüğü (1995). İstanbul: İnkilap Kitabevi. 1205 s.
2. Esendal M. (2010). Türkçe Sözlük. Ankara.

3. Karasoy Y. (2018). Türk kültüründe bitki sembolleri // Türk Dünyası İncelemeleri Dergisi. C. 18, № 2. S. 45–60.

4. Kemal Y. (2010). Türkçe Sözlük. Ankara. 1088 s.

5. Ortaç Y. (1999). Türkçe Sözlük. Ankara. 206 s.

6. Öztürk M. (2021). Türk ve Özbek deyimlerinde bitki isimlerinin kültürel işlevi // Uluslararası Türkoloji Dergisi. İstanbul.

7. Salimova Z. (2024). Turk va o‘zbek tillarida inson obrazini ifodalovchi fitomorf birliklar va ularning leksik-semantik tahlili // Al-BUXORIY. 4-son. B. 23–32.

8. Türkçe Sözlük. I-II (1988). Ankara: Türk Tarih Kurumu Basım Evi. 745 s.

9. Tursunov I. (2019). Frazeologik birliklarning semantik strukturalari. Samarqand.

10. Usmanova Sh. (2019). Lingvokulturologiya. Toshkent. 153 b.

REFERENCES:

1. Deyimler Sözlüğü (1995). İstanbul: İnkilap Kitabevi. 1205 s. (In Turkish).

2. Esendal M. (2010). Türkçe Sözlük. Ankara (In Turkish).

3. Karasoy Y. (2018). Türk kültüründe bitki sembolleri // Türk Dünyası İncelemeleri Dergisi. C. 18, № 2. S. 45–60 (In Turkish).

4. Kemal Y. (2010). Türkçe Sözlük. Ankara. 1088 s. (In Turkish).

5. Ortaç Y. (1999). Türkçe Sözlük. Ankara. 206 s. (In Turkish).

6. Öztürk M. (2021). Türk ve Özbek deyimlerinde bitki isimlerinin kültürel işlevi // Uluslararası Türkoloji Dergisi. İstanbul (In Turkish).

7. Salimova Z. (2024). Turk va o‘zbek tillarida inson obrazini ifodalovchi fitomorf birliklar va ularning leksik-semantik tahlili // Al-BUXORIY. 4-son. B. 23–32 (In Uzbek).

8. Türkçe Sözlük. I-II (1988). Ankara: Türk Tarih Kurumu Basım Evi. 745 s. (In Turkish).

9. Tursunov I. (2019). Frazeologik birliklarning semantik strukturalari. Samarqand (In Uzbek).

10. Usmanova Sh. (2019). Lingvokulturologiya. Toshkent. 153 b. (In Uzbek).

SO‘Z BIRIKMASINING KO‘P FUNKSIYALILIK XUSUSIYATI

POLIFUNCTIONAL FEATURES OF THE WORD COMBINATION

ПОЛИФУНКЦИОНАЛЬНАЯ СУЩНОСТЬ СЛОВОСОЧЕТАНИЯ

Boboyeva Madina Xaydarovna
Oriental Universiteti Tillar-2 kafedrasi dotsent v.b.,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Tel.:+998 90-954-41-15
E-mail: Boboyeva-madina@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada so‘z birikmalarining til tizimidagi polifunksional mohiyati chuqur tahlil etiladi. So‘z birikmasi so‘z (quyi bosqich) va matn (yuqori bosqich) o‘rtasidagi oraliq birlik sifatida nominativ, kommunikativ, informativ hamda estetik funksiyalarni bajarishi ko‘rsatiladi. So‘z birikmasining nominativ vazifasi hodisa va predmetlarni nomlashda, kommunikativ funksiyasi axborotni aniqlashtirish va konkretlashtirishda, informativlikda mazmuniy yukni kengaytirishda, estetik vazifada esa badiiy ta’sir va obrazlilik yaratishda namoyon bo‘lishi ta’kidlanadi. Frazeologik birikmalar bilan chegaradoshligi, periferik va markaziy tuzilmalar o‘rtasidagi o‘tish xususiyati ham muhokama qilinadi. Majmuaviy funksional-kommunikativ yondashuv orqali so‘z birikmasining til tizimidagi o‘ziga xos mavqeyi va polifunksionalligi aniqlanib, kommunikativ sintaksis rivojiga hissa qo‘shishi xulosalanadi.

Kalit so‘zlar: *so‘z birikmasi, polifunksionallik, nominativ funksiya, kommunikativ funksiya, informativ funksiya, estetik funksiya, valentlik, semantik yaxlitlik.*

Abstract. This article provides an in-depth analysis of the polyfunctional nature of word combinations (phrases) within the language system. As an intermediate unit positioned between the word (lower level) and the text (higher level), the word combination is shown to perform nominative, communicative, informative, and aesthetic functions. Its nominative function manifests in naming objects and phenomena; the communicative function in clarifying and specifying information; the informative function in expanding semantic content; and the aesthetic function in creating artistic impact and imagery. The article also discusses the borderline nature of word combinations with phraseological units, as well as transitional features between peripheral and central structures. Through an integrated functional-communicative approach, the unique position and polyfunctionality of word combinations in the language system are elucidated, concluding that such investigation contributes to the development of communicative syntax.

Keywords: *word combination, polyfunctionality, nominative function, communicative function, informative function, aesthetic function, valency, semantic integrity.*

Аннотация: В статье проводится глубокий анализ полифункциональной сущности словосочетания в системе языка. Словосочетание, как промежуточная единица между словом (нижний уровень) и текстом (высший уровень), демонстрирует выполнение номинативной, коммуникативной, информативной и эстетической функций. Номинативная функция проявляется в назывании предметов и явлений; коммуникативная — в уточнении и конкретизации информации; информативная — в расширении смысловой нагрузки; эстетическая — в создании художественного воздействия и образности. Обсуждается также пограничный характер словосочетаний с фразеологическими единицами и переходные свойства между периферийными и центральными структурами. С помощью комплексного функционально-коммуникативного подхода выявляется уникальное положение и полифункциональность словосочетания в языковой системе, делается вывод о вкладе такого исследования в развитие коммуникативного синтаксиса.

Ключевые слова: *словосочетание, полифункциональность, номинативная функция, коммуникативная функция, информативная функция, эстетическая функция, валентность, семантическая целостность*.

KIRISH

Hozirgi paytda So‘z birikmasining, xuddi boshqa mustaqil til birliklari singari, polifunksional, ya’ni bir qator vazifalarni bajarish xususiyati tadqiqotchilar tomonidan e’tirof etilmoqda. Shu bilan birga, So‘z birikmasining til tizimida o‘ziga xos o‘rin egallashi, muayyan vazifani bajarishi ham qayd etiladi. Lug‘at birligining asosiy vazifasi nomlash bo‘lsa, yuqori bosqichdagi birliklar – gap, matn asosan kommunikativ vazifani bajaradi. Tilning kichik birliklari aynan yuqori bosqichdagi yirikroq ko‘rinishdagi birliklar tarkibida turli munosabatlarga kirishib, shakl va mazmun uyg‘unligiga erishgan holda, o‘z funksional mohiyatlarini namoyon qiladilar. So‘z va SBlari gap hamda matn tarkibida, ma’lum bir denotatni ifodalash bilan birgalikda, aniq axborotni ma’lum qilish maqsadida o‘zaro aloqaga kirishadi va kommunikativ birlik – kommunikemani yaratish jarayonining ishtirokchilariga aylanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Darhaqiqat, so‘z birikmalari nazariyasining shakllanishi uzoq tarixga ega, zero, nutqiy tuzilmalar tarkibida so‘zlarning o‘zaro birikishi, ularning mazmun jihatidan moslashuvi masalalari G‘arb va Sharq tilshunoslarini har doim qiziqtirib kelgan. Shu sohaga oid tadqiqotlarda F.F.Fortunatov, A.A.Shaxmatov, A.M.Peshkovskiy kabi rus

sintaksistlari va O.Behagel, H.Suit, O.Yespersen singari nemis hamda ingliz olimlarining nomlarini eslatib o‘tish muhim hisoblanadi (Sweet H., 2007:510).

Tilshunoslar e’tirof etganidek, SBning asosiy ko‘rsatkichi – uning hech bo‘lmaganda ikki qismli (komponentli) strukturaga ega bo‘lishidir*: red dress; independence of the republic; two brothers; bad boy; smart girl; warm greetings; beginning of a meeting; ugly appearance; deep forest; a head of onion; tragic accidence; tea pot; mild smile.*

Bu qismlar so‘z yoki so‘z formasidan iborat bo‘ladi. Ma’lumki, har qanday so‘z sintagmatik tuzilmalarda bir qator turli elementlar bilan birikishi mumkin, ya’ni uning valentlik maydoni kengdir. Lekin SBlari hududi valentlik zaxirasining faqat birgina nuqtasi ko‘rinishini oladi, SB tarkibida alohida so‘zlarning valentlik aloqasi voqelanib, birikmaning yetakchi va tobe bo‘laklari munosabati yuzaga keladi. SB imkoniyatdagi xususiyatlarni faollashtirgan holda, ma’lum shakl va mazmunga ega bo‘lgan lug‘aviy-nutqiy tuzilmani hosil qiladi. Shu jihatdan uni valentlik hosilasi, deb qarash mumkin. Bu jarayonda so‘zning nominativ, birikmaning valentlik va nutqiy tuzilmalarning kommunikativ vazifalari o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘ladi.

Ammo barcha birliklarning tilning asosiy vazifasi – muloqot vositasi bo‘lishiga itoat etishiga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, ularning muloqot matnlarida faollashuviga, ya’ni murakkab sintaktik qurilmalar tarkibidagi roliga ahamiyat berish lozim. Til birliklarining bu qurilmalar tuzilishidagi hissasi turli darajada bo‘lishi mumkinligiga qaramasdan, ularning bajaradigan vazifalari o‘zaro yaqindir, chunki bu vazifalarning ijrosi yaxlit matnning kommunikativ maqsadi bilan bog‘liq. Xuddi shu maqsad zamirida til birliklarining grammatik va semantik kategoriyalari shakllanadi. Bu esa, o‘z navbatida, SBning barcha xossa va xususiyatlarini funksional va kommunikativ imkoniyatlarning faollashuvi nuqtayi nazaridan o‘rganishga undaydi. Bunday majmuaviy yondashuv, har tomonlama o‘rganish natijasida til birliklarining, shu jumladan, SBning ham polifunksional xususiyatlarini aniqlashi mumkin.

SBlarining nominativ funksiyasi muammosi uzoq paytdan buyon muhokamadan tushmayotganligiga qaramasdan, tadqiqotchilar bu masalada aniq bir to‘xtamga kelishmagan. L.V.Shcherba, V.V.Vinogradov, N.N.Prokopovich va ularning izdoshlari SBni alohida so‘zlarning semantik “yoyilishi” natijasida hosil bo‘ladigan murakkab nominativ birlik sifatida qaraydilar. Bunday yondashuvda SB alohida so‘zning muqobiliga aylanadi: “... SB gapning alohida qurilish materiali deb qaralsa, xuddi so‘z kabi tilning nominativ vositalari, predmet, hodisa, jarayon kabilarni atovchi vositalari hududidan joy oladi” (Виноградов В.В., 1975:231-254). Olimning ushbu mulohazasi biror-bir sezilarli o‘zgarishsiz, ko‘plab tadqiqotlar, darsliklarda takrorlanib kelmoqda. Bu bilan esa til tizimining ikki mustaqil birligi orasidagi farq yo‘qotilishiga yo‘l qo‘yilmoqda. Boshqa bir guruh olimlar (O.Yespersen, R.Kvirk, V.P.Suxotin,

Ye.M.Galkina-Fedorchuk, V.N.Yarseva) so‘z va SBni tamoman farqli hodisalar sifatida qarashib, oxirgisini nominativ vazifadan xoli degan fikrni olg‘a suradilar.

Ba’zan bu ikki nuqtayi nazarni birlashtirish holatlari va nominativ funksiya SBga xos ekanligini barcha tilshunoslar ma’lum darajada qayd etganligini isbotlovchilar uchrab turadi, zotan, V.V.Vinogradov nazdida, SB “yagona bir tushunchaning qismli atamasi” bo‘lsa, V.P.Suxotin uni “yagona bir predmet-hodisaning qismli nomlanishi”, deb qaragan. T.P.Lomtevning fikricha: SB tushunchalar o‘rtasidagi munosabatlarni aks ettirish bilan birga, “ushbu munosabatlarni yaratmaydi, balki ataydi”. Ingliz tili SBlarining lingvodidaktik xususiyatlarini maxsus o‘rgangan S.G.Ter-Minasova uning alohida kategorial belgilarga ega ekanligini e’tiborga olish muhimligini uqtiradi. Olimaning ta’kidlashicha, konnotativlik (axborot tashish bilan birgalikda, emotsional ta’sir o‘tkazish xususiyatiga ega bo‘lish), klishe (doimiy takrorlanish) xususiyatiga ega bo‘lish, idiomativlik (yaxlit ma’noning bo‘laklar ma’nolari yig‘indisidan farq qilishi), konseptual to‘laqonlilik kategoriyalari SBning vazifaviy va semantik mohiyatini belgilaydi (Тер-Минасова С.Г., 1982:144). Fikrimizcha, SBning konseptual to‘laqonlilikka ega bo‘lishi, ya’ni ma’nosining ma’lum mantiqiy struktura-mazmunga mos kelishi uning nominativ funksiya bajarishidan guvohlik beradi.

Tadqiqotchilar, SBlarining nominativ vazifa bajarishini e’tirof yoki inkor etishlaridan qat’i nazar, ushbu birikmalar bo‘laklari voqelikdagi predmetlarni yoki ular haqida tug‘ilgan tasavvurni tafakkur jarayonida tug‘iladigan tushunchalar vositasida bevosita ifoda etishini qayd etadilar. Aslida, tushunchaning o‘zi predmet-hodisalarning asosiy farqli belgilarini umumlashtirish orqali yuzaga keladigan yaxlit psixologik obraz, konseptual birlikdir. Bunday birlikning yuzaga kelishi alohida tushunchalarning to‘g‘ridan-to‘g‘ri birikishini taqozo etmaydi, ya’ni tushunchalar o‘zaro munosabatida komponentlar o‘z lug‘aviy qiymatini yo‘qotmaydi. *Masalan, Manchester University students; the farm dogs; the style in shoes; talks on the strike; opposition to Market entry.* kabi birikmalar mazmunan yaxlit tushuncha – konseptlarni ifodalasalar-da, ularning har bir bo‘lagi alohida konseptni ataydi va mustaqil leksik ma’noni ifodalaydi. Xuddi konseptual yaxlitlik va mustaqillik zamirida SB nutqiy tuzilmalari SBlari qismlarining bir-biridan uzilish, ayri holda joylashish holatlari yuzaga keladi. Alohida so‘zlarning SB tarkibidagi semantik munosabati samarasida u yoki bu predmetning sifat-belgilari, jarayon va harakatning kechishi, muhiti haqida yangi tasavvurlar tug‘iladi.

Bunday semantik munosabatlar majmuasi SBlarining sintaktik faollashuvi jarayonida o‘z aksini topmasdan qolmaydi. SBning yetakchi bo‘lagi gap qurilishida boshqa bir SBning tobe elementiga aylanib qolishi mumkin.

Masalan, “*His daughter’s sewing was perfect, he was proud of it and decided to buy a sewing machine for her*” (M.D.) qo‘shma gapida avval his daughter's sewing

birikmasining yetakchi bo‘lagi bo‘lgan sewing shu gap tarkibidagi a sewing machine SBda tobe elementdir.

Odatda, gap qurilishi ishtirokchi elementlarning to‘g‘ri chiziq bo‘ylab ketma-ket joylashishini talab qiladi va bunda SBning har bir qismi alohida gap bo‘lagining o‘rnini oladi. Shuni inobatga olgan holda, V.V.Vinogradov: “SB tarkibida so‘zlar o‘rtasidagi grammatik munosabatlarning bajaradigan vazifalari ikkinchi darajali gap bo‘laklari doirasida umumlashadi, jamlanadi”, - deb yozgan edi (Vinogradov, 1975: 280). Shunga o‘xshash fikrni ingliz tili sintaksisining bilimdonlaridan biri bo‘lgan A.I.Smirnitskiy ham aytib o‘tgan: “SB ma’lum qurilish formulasi asosida shakllanadi va bu uning har bir komponentiga alohida qo‘shimcha ma’no beradi, chunki ular bir SBning qismlari sifatida muayyan munosabatlarga kirishadilar. Gapda esa bunday xususiyat SBga ham tegishli bo‘lgan alohida so‘zlar (so‘z formalari) orqali amalga oshiriladi. Ammo bu jarayonda ma’lum miqdoriy farqlar vujudga keladi, zero, gapda fikrning umumiy yo‘naltirilganligi, maqsadi va motivi ifodalanadi, ya’ni nutqning muayyan darajada yakunlangan qismi hosil bo‘ladi”.

Ko‘rinadiki, SB tadqiqi jarayonida uning juft tabiatini e’tiborga olish lozim. Bir tomondan, alohida bo‘laklar ma’nosidan uzoqlashib, so‘zlar birikishining umumiy sintaktik qonuniyatlari, SBning sintaktik tuzilishi xususiyatlarini inobatga olish lozim. Bu talablar leksik birliklarning nutqiy tuzilmalar hosil bo‘lishining morfosintaktik shartlovchi kollogatsiya (collogation) hodisasining ifodasidir. Ikkinchidan, leksemalarning tub leksik ma’nosini, ular o‘zaro birikishining kollokatsiya (collocation), ya’ni leksik-frazeologik shartlanishini ham unutmaslik kerak bo‘ladi. Shunga amal qilgan holda, masalan: – *Labour’s shadow employment minister Red Prentice took up his “militant-bashing” campaign again* gapidagi *shadow employment* minister birikmasini sintaktik va semantik jihatdan tahlil qilamiz. Bu ifoda qilinayotgan tushunchalar sintaktik-semantik jihatdan yaxlitdek ko‘rinsa ham, uning har bir bo‘lagi gap tarkibida alohida vazifani bajaradi. Shuningdek, *minister* qismi shu gap doirasida *Labour's* birligi bilan aloqaga kirishib, yangi sintaktik munosabatni yuzaga keltiradi.

Bundan tashqari, SBlari, ularning qismlari munosabatlarining turlicha anglanilishi va sharhlanishiga nisbatan, turli tushunchalarni ifodalashi va ko‘p ma’noli birikmalarga aylanishi mumkin. Masalan, *a big house door* birikmasi *“katta uyning eshigi”* yoki *“uyning katta eshigi”* kabi ma’nolarni anglatishi mumkin. Bu xildagi polisemiya, albatta, SBlarining bir tildan ikkinchisiga tarjimalarini qiyinlashtiradi.

Ma’lumki, frazeologik birikmalar asosan erkin SBlarining turg‘unlashuvi jarayonida yuzaga keladilar. Shu bois, SBlarida oldindan mavjud bo‘lgan munosabatlar va aloqalar ma’lum darajada saqlanib qoladi. Lekin frazeologik shakl olish to‘liq tugashi bilan, uning tarkibiy bo‘laklarining munosabatlari statik, turg‘un ko‘rinish

oladi. Chunki gap va boshqa nutqiy qurilishlar tarkibida hosil bo‘ladigan munosabatlar harakati turg‘un birikmalarni yaxlitligicha qamrab oladi va bunda ushbu turdagi birikmalarning alohida birlik sifatida bajaradigan nominativ vazifasi yaqqol namoyon bo‘ladi. Til tizimi birliklarini ularning turli “maydon”larga taqsimlanishi nuqtayi nazaridan tasniflash tarafdori bo‘lganlarning fikricha, alohida birliklar ba’zan turli maydonlardan joy olishi mumkin. Haqiqatdan ham SBlarining struktur-semantik qurilishi ko‘p hollarda bir-birini inkor etuvchi yoki biri-ikkinchisiga qarama-qarshi turuvchi belgilar sintezidan iborat bo‘ladi. Bunday birikmalar qatoriga, odatda, exert influence, offer resistance, show trust, give an explanation, quote an example, make a promise kabi birikmalar kiritiladi. Ushbu birikmalarning tavsifiy mundarijaga ega va struktur jihatdan ko‘p qismli bo‘lishini inobatga olgan tadqiqotchilar ularga erkin va turg‘un SBlarining chegara hududlaridan joy ajratishib, sarhaddagi hodisalar qatoriga qo‘shadilar (Zandvoort R.W., 2009: 612). Boshqa tomondan esa bu guruhdagi birikmalarning fe’l qismi xuddi grammatik ma’no ifodalovchi formal belgilar tashuvchisi vazifasini bajarayotgandek ko‘rinadi va shunga binoan ularni analitizm nuqtayi nazaridan talqin qilish mumkin (Shaposhnikova, 2003: 204). Birikmalarning analitik xarakterga ega ekanligi ularning bir so‘zli muqobili mavjudligi bilan ham izohlanadi: *to exert influence – to influence; to offer resistance – to resist; to show trust – to trust; to give an explanation – to explain; to quote an example – to exemplify; to make a promise – to promise; etc.*

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot tilshunoslikning funksional-kommunikativ yo‘nalishiga asoslanib, so‘z birikmalarining (SB) polifunksional mohiyatini o‘rganishga qaratilgan.

Turli tilshunoslarning (V.V.Vinogradov, O.Yespersen, S.G.Ter-Minasova, V.M.Pavlov va boshqalar) SBning nominativ funksiyasi haqidagi qarashlari solishtirilib, ularning o‘zaro farq va yaqinliklari aniqlandi. Shuningdek, erkin SBlar frazeologik birikmalar va analitik tuzilmalar bilan qiyoslandi.

Tadqiqot materiallari asosan ingliz tili so‘z birikmalaridan iborat bo‘lib, nazariy asos sifatida rus, ingliz va o‘zbek tilshunosligidagi klassik va zamonaviy ishlar (Vinogradov, Yespersen, Ter-Minasova va boshqalar)dan foydalanildi. Ushbu metodlar majmuasi SBning funksional imkoniyatlarini har tomonlama ochib berishga imkon berdi.

TAHLILLAR VA NATIJALAR

Bizning fikrimizcha, yuqorida keltirilgan guruhdagi SBlarini oraliq xarakterdagi birliklar qatorida ko‘rish ma’qul. Chunki bu turdagi birikmalar nutqda tayyor, turg‘un holda qo‘llanishi bilan birga, ularning bo‘laklari leksemalarga xos barcha xususiyatlarni saqlab qoladilar. “Periferiya” hodisasi turli xarakterdagi belgilarni inkor

etmasdan, balki ularning yagona birlik tarkibida jamlanishini taqozo etadi (Абдуазизов А.А., 2010:170). SBlari tizimida “markaz” va “periferiya”ning mavjudligi sintaktik birliklarga xos xususiyatlarning voqelanishi, ya’ni lug‘aviy elementlarning sintaktik qiymat olishi yoki, aksincha, sintaktik tuzilmalarning leksikallashuvi bilan bog‘liq. Bunday siljishlar aniq nominativ so‘zlar va mavhum ma’noli so‘zlarning o‘zaro munosabatlari sharoitida bir xilda kechadi.

Nominativ funksiyaning SBlariga qay darajada xosligi muammosi bilan muntazam shug‘ullangan V.M.Pavlov ularning funksional-semantik jihatdan turli xususiyatga ega ekanligi masalasini o‘rtaga qo‘ymasdan turib ushbu muammoning yechimini izlash befoyda, deb hisoblaydi. Gap shundaki, *main street – long street; fresh water – troubled water; first aid – gratuitous aid* kabi juftliklardagi birinchi qator birikmalari tasniflovchi birliklar rolini o‘taydilar va shu vazifalariga binoan to‘lig‘icha nominativ vositalar guruhiga kiradilar, keyingilari esa “hodisa va belgilar birikuvini ifodalaydi hamda bu belgilarning mavjudligini so‘zlovchi ma’lum nutqiy muloqot sharoitlarida aniqlaydi. Ma’lum sharoit uchun muhim bo‘lgan ushbu turdagi belgilar birikuvi aytilgan hodisani turg‘un xulosa – umumlashma darajasiga ko‘tara olmaydi” (Pavlov. 1996: 38). V.M.Pavlovning fikriga ishongan holda, SBlarini leksik va sintaktik birikmalar kabi turlarga ajratish an’anasi muhokamasida ham ularning funksional-semantik xususiyatlarini farqlash va bu farqlarni yuzaga keltiruvchi nutqiy faoliyat sharoitlarini hisobga olish lozim bo‘ladi.

Xullas, SBlarining nominativ vazifadan xoli ekanligi haqidagi fikrlar asossizdir. Barcha til birliklari belgilar tizimining elementlaridir, lisoniy belgi esa juft xususiyatli: u shakl va mazmun uyg‘unligiga ega. Shunday ekan, SB, xuddi boshqa sintaktik tuzilmalar kabi, yaxlit hodisalar, voqealarni nomlovchi birlik sifatida qaralishi kerak. Nominativ funksiya keng ma’noda talqin qilinganda nomlanayotgan denotat alohida predmet yoki hodisalar emas, balki ularning inson ongida aks topadigan obrazi, ramzidir, masalan, *dark clouds, sun shining, severe wind, rain drizzling* kabi SBlari tabiat hodisalarini bildiribgina qolmay, balki inson hayotidagi ayrim vaziyatlarni obrazli ifodalashga ham xizmat qiladi. *“Qora bulutlar” noxush kunlar, tushkunlikni ifodalasa, “charaqlayotgan quyosh” quvonchli xabar, “esayotgan shamol”* muayyan darajada neytral, ayni damda ko‘tarinki kayfiyatni ifodalaydi. Shuningdek, *“maydalab yog‘ayotgan yomg‘ir”* birikmasi, orombaxsh kuy kabi xotirjamlik ramzi sifatida tushuniladi.

SBlarining yana bir xususiyati shundaki, ularning kommunikativ vazifa bajarish me’yori boshqa til birliklarinikidan farq qiladi. Agar so‘z sintaktik tuzilmalarining oldindan ma’lum va tayyor elementi bo‘lsa, SBning murakkab tuzilmaligi faqat kommunikatsiya jarayonida ayon bo‘ladi, chunki u xuddi shu jarayonda alohida bo‘laklarning o‘zaro birikishi natijasida hosil bo‘ladi. SBning bu mavqeiga e’tibor

qaratgan N.I.Filicheva, uning nutqiy faollashuvida asosiy bo‘lak yangi belgilar olishini va bu belgilar individual, xususiy bo‘lishini ko‘rsatib o‘tgan: “Ko‘pchilik SBlarining kommunikativ vazifasi tinglovchi yoki o‘quvchilarda oldindan mavjud bo‘lgan predmet-hodisalar haqidagi tushunchani aniqlashtirish, konkretlashtirish va batafsil izohlash maqsadini voqelantirishdir”. Germanist olima SBga xos bo‘lgan kommunikatsiyaning bu tarzda boshqarilishini lisoniy muloqotning boshqa tugal birliklariga xos bo‘lgan umumiy kommunikativlikdan farqli ravishda, xususiy yoki qisman kommunikativlikni hosil qiladi, deb o‘ylaydi. Boshqacha qilib aytganda, SBning kommunikativligi nisbiy, chunki uning bu funksiyasi boshqa nutqiy tuzilmalar – gap, matn kabilar tarkibidagi ishtirokida namoyon bo‘ladi.

SB kommunikativ funksiyasining bu yaxlit voqelanishi uning mavqe jihatidan sintaksis sathidagi boshqa birliklar bilan tenglashishini ifodalaydi. Har bir birlikning sintaktik tuzilishi, albatta, tilning umumiy tizimiga xos bo‘lgan xususiyat, ya’ni uning har bir birligi asosiy vazifa – kommunikatsiyani ta’minlash bilan bog‘liqdir. Birliklar ichki tuzilishining kommunikatsiya maqsadi bilan bog‘liqligi SB, gap, matn kabi qurilmalarni yaratishda namoyon bo‘ladi.

Shunday qilib, SBning kommunikativ funksiya bajarish imkoniyati uning so‘zdan farqli jihatlarini namoyon qilish bilan bir qatorda, uning tarkibiy qismlari semantik munosabati yanada yuqoriroq bosqichdagi hodisa – matn shakllanishi asosida turgan tamoyillarning harakati bilan bog‘liq. SBning informativ funksiyasi haqida gapirishdan oldin informatsion-axborot tushunchasi nimalarni anglatishini aniqlashtirish kerak bo‘ladi. Agar axborotni keng ma’noda anglaydigan bo‘lsak, unda til tizimining barcha birliklariga informativlik xususiyati xos ekanligini e’tirof etgan bo‘lamiz. Aytish joizki, to‘liq axborot tashuvchi asosiy birlik matndir. Gap va SB ham kommunikativ vosita rolini bajaradi, lekin matn hamda gapning alohida qismini egallaydigan SBning tashiydigan axboroti voqelikdagi hodisaning faqat ma’lum bir bo‘lagi haqidadir. Albatta, turli guruhlarga oid SBlarining mazmuniy “yuki” bir xil emas, ba’zilari ifodalaydigan axborotning hajmi keng bo‘lishi mumkin, lekin har qanday holatda ham ularning informativlik darajasi aniq matn miqyosida belgilanadi. SBning informativlik darajasini bu miqyosda aniqlash uchun uning matn vositasida uzatilayotgan axborotga qo‘shadigan hissasi qay miqdorda ekanligi hamda SB tashiydigan axborotning qay darajada to‘liqligini bilish muhimdir. Masalan*: The cautious captain of a small ship had to go along a coast with which he was unfamiliar, so he tried to find a qualified pilot to guide him (www.irlanguage.com/ 2020: 45).* Bundan tashqari, uzatilayotgan axborotning shakllanishi, to‘planishida SB qismlarining roli va ular o‘rtasidagi munosabatlarning ta’sirini ham belgilab olish lozim bo‘ladi. Qiyoslang*: The cautious captain of a small ship had to go along a coast → The cautious captain of … small ship … a coast; he tried to find a qualified pilot to*

guide him → he tried to … guide him. The captain of a ship gapi orqali o‘quvchi kemaning kapitani haqidagi axborotga ega bo‘lsa, The cautious captain of a small ship gapini o‘qish orqali bu axborot miqyosi kengayadi. SBlari, birinchidan, kapitanning ehtiyotkor ekanligi haqida qo‘shimcha ma’lumot bergan bo‘lsa, ikkinchidan, kemaning holati haqida ma’lum darajada xabardor qiladi.

XULOSA VA TAKLIFAR

SBlariga xos bo‘lgan xususiyatlar, kategorial belgilarni bu yo‘sinda o‘rganish, so‘zsiz, kommunikativ sintaksis sohasining istiqboli, taraqqiyoti uchun ham muhimdir. SBning asosiy funksiyasi va kategorial belgisi informativlikdir, zero, til tizimining barcha sathlariga oid birliklarni semantik-funksional jihatdan yaqinlashtiruvchi kategorial belgi aynan informativlik, ya’ni axborot tashish imkoniyatiga ega bo‘lish xususiyatidir.

Nihoyat, SBlarining nutqiy faoliyat jarayonidagi ishtiroki yana bir vazifani reallashtiradi, bu – estetik funksiyadir. Ushbu funksiyaning voqelanish holatlarini lisoniy faoliyatning ikki kesimida kuzatish mumkin: a) SBlarining turli uslubdagi matnlarda qo‘llanilishi va turli modellarning qo‘llanishida yuzaga keladigan mazmun siljishi holatlari; b) mavjud qoliplar asosida o‘ziga xos badiiy qiymatga ega bo‘lgan yangi SBlari yaratilishi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Абдуазизов А.А. (2010). Ўзбек тили фонологияси ва морфонологияси. Тошкент: Университет, 170 б.
2. Boboyeva M. Kh. (2022). Definition of the Lexical meaning of Spatial Prepositions // Porta Linguarium An International and inter university journal. Spain, Vol. 11, pp. 101-104. ISSN: 1697-7467.
3. Гаджиева Н.З. (1973). Основные пути развития синтаксической структуры тюркских языков. Москва, с. 12-20.
4. Ломов А.М. (2004). Русский синтаксис в алфавитном порядке: Понятийный словарь-справочник. Воронеж, 317 с.
5. Шапошникова М.В. (2003). Глагольная аналитическая номинация, как теоретическая и методологическая проблема в современном английском языке // Теория, история, типология языков. Москва, с. 202-211.
6. Sweet H. (2007). New English Grammar. Logical and Historical. Oxford: Clarendon Press, 510 p.
7. Тер-Минасова С.Г. (1982). Словосочетание в научно-лингвистическом и дидактическом аспектах. Москва: Высшая школа, 144 с.
8. Васильева Н.В., Виноградов В.А., Шахнарович А.М. (1995). Краткий словарь лингвистических терминов. Москва.
9. Виноградов В.В. (1975). Вопросы изучения словосочетаний // Исследования по русской грамматике. Москва: Наука, с. 231-254.

10. Есперсен О. (1958). Философия грамматики. Москва: Изд-во иностранной литературы, 404 с.

11. Zandvoort R.W. (2009). A Handbook of English Grammar. London, 612 p.

REFERENCES:

1. Abduazizov A.A. (2010). O‘zbek tili fonologiyasi va morfonologiyasi. Toshkent: Universitet, 170 b. (In Uzbek)

2. Boboyeva M. Kh. (2022). Definition of the Lexical meaning of Spatial Prepositions // Porta Linguarium An International and inter university journal. Spain, Vol. 11, pp. 101-104. ISSN: 1697-7467. (In English)

3. Gadjiyeva N.Z. (1973). Asosiy yo‘llari rivojlanish sintaksicheskoy struktury tyurkskix yazykov. Moskva, s. 12-20. (In Russian)

4. Lomov A.M. (2004). Russkiy sintaksis v alfavitnom poryadke: Ponyatiyniy slovar-spravochnik. Voronej, 317 s. (In Russian)

5. Shaposhnikova M.V. (2003). Glagolnaya analiticheskaya nominatsiya, kak teoreticheskaya i metodologicheskaya problema v sovremennom angliyskom yazyke // Teoriya, istoriya, tipologiya yazykov. Moskva, s. 202-211. (In Russian)

6. Sweet H. (2007). New English Grammar. Logical and Historical. Oxford: Clarendon Press, 510 p. (In English)

7. Ter-Minasova S.G. (1982). Slovosochetaniye v nauchno-lingvisticheskom i didacticheskom aspektax. Moskva: Vysshaya shkola, 144 s. (In Russian)

8. Vasilyeva N.V., Vinogradov V.A., Shaxnarovich A.M. (1995). Kratkiy slovar lingvisticheskix terminov. Moskva. (In Russian)

9. Vinogradov V.V. (1975). Voprosy izucheniya slovosochetaniy // Issledovaniya po russkoy grammatike. Moskva: Nauka, s. 231-254. (In Russian)

10. Yespersen O. (1958). Filosofiya grammatiki. Moskva: Izd-vo inostrannoy literatury, 404 s. (In Russian)

11. Zandvoort R.W. (2009). A Handbook of English Grammar. London, 612 p. (In English)

HUQUQIY MATNLARNING KOMMUNIKATIV TUZILMASIDA ASSERTIV VA DIREKTIV AKTLARNING AHAMIYATI

THE IMPORTANCE OF ASSERTIVE AND DIRECTIVE ACTS IN THE COMMUNICATIVE STRUCTURE OF LEGAL TEXTS

ЗНАЧЕНИЕ АССЕРТИВНЫХ И ДИРЕКТИВНЫХ АКТОВ В КОММУНИКАТИВНОЙ СТРУКТУРЕ ПРАВОВЫХ ТЕКСТОВ

Raxmatova Bahora Ibodulla qizi
Oriental universiteti
Tilshunoslik kafedrasi katta o‘qituvchisi,
mustaqil tadqiqotchi,
Tel.:+998 90-022-96-60
E-mail: raxmatovabahorai@gmail.com,

Annotatsiya. Mazkur maqolada huquqiy matnlardagi assertiv (xabar) va direktiv (buyruq) nutq aktlarining kommunikativ tuzilmadagi o‘rni va funksional xususiyatlari tahlil qilingan. Tadqiqot davomida ingliz va o‘zbek huquqiy matnlarining namunalari solishtirildi hamda ularning illokutsion kuchi aniqlashtirildi. Maqolada J.R. Searle, J.L. Austin, Y. Maley, A. Trosborg kabi olimlarning nutq aktlari haqidagi nazariy qarashlariga hamda o‘zbek tilshunoslaridan M.Hakimov va Sh.Safarov kabi olimlarning fikrlariga tayangan holda, huquqiy tilning informativ va regulativ funksiyalari o‘rganildi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, huquqiy matnlarning kommunikativ strukturasida assertiv aktlar huquqiy haqiqatni ifodalash vositasi bo‘lsa, direktiv aktlar shaxslarning xatti-harakatlarini tartibga soluvchi vosita sifatida namoyon bo‘ladi.

Kalit so‘zlar: *nutq aktlari, assertiv aktlar, direktiv aktlar, huquqiy diskurs, kommunikativ tuzilma, illokutsion kuch, pragmalingvistika, huquqiy til, informativ funksiya.*

Abstract. In this article, the role and functional characteristics of assertive (declarative) and directive (command) speech acts in the communicative structure of legal texts are analyzed. During the research, samples of English and Uzbek legal texts were compared, and their illocutionary force was determined. The study relies on the theoretical views of scholars such as J.R. Searle, J.L. Austin, Y. Maley, and A. Trosborg regarding speech acts, as well as the opinions of Uzbek linguists M. Hakimov and Sh. Safarov, to examine the informative and regulative functions of legal language. The research results indicate that in the communicative structure of legal texts, assertive acts serve as a means of expressing legal reality, while directive acts manifest as a tool for regulating individuals' behavior.

Keywords: *speech acts, assertive acts, directive acts, legal discourse, communicative structure, illocutionary force, pragmalinguistics, legal language, informative function.*

Аннотация. В данной статье анализируется роль и функциональные особенности ассертивных (сообщающих) и директивных (предписывающих) речевых актов в коммуникативной структуре правовых текстов. В ходе исследования были сопоставлены образцы английских и узбекских правовых текстов, а также определена их иллокутивная сила. Статья опирается на теоретические взгляды учёных, таких как Дж.Р. Серль, Дж.Л. Остин, Й. Мэли и А. Тросборг, по поводу речевых актов, а также на мнения узбекских лингвистов М. Хакимова и Ш. Сафарова, для изучения информативной и регулятивной функций юридического языка. Результаты исследования показывают, что в коммуникативной структуре правовых текстов ассертивные акты выступают средством выражения юридической реальности, в то время как директивные акты проявляются как инструмент регулирования поведения индивидов.

Ключевые слова: *речевые акты, ассертивные акты, директивные акты, юридический дискурс, коммуникативная структура, иллокутивная сила, прагмалингвистика, юридический язык, информативная функция.*

KIRISH

Til va huquq o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik insoniyat taraqqiyoti davomida shakllangan ijtimoiy hodisa bo‘lib, huquqiy matnlar bu bog‘liqlikning amaliy ifodasidir. Har qanday huquqiy tizim o‘zining lingvistik ifodasiz mavjud bo‘la olmaydi, chunki qonunlar, me’yoriy hujjatlar va sud qarorlari tildagi aniq ifodalar orqali ijtimoiy tartibotga ta’sir ko‘rsatadi. Shu bois huquqiy matn tilshunoslikning pragmalingvistika yo‘nalishida alohida ahamiyat kasb etadi va nutq aktlari nazariyasi bilan bevosita bog‘liqdir Huquqiy matnlar tilning eng murakkab va yuqori darajadagi normativ shakllaridan biri bo‘lib, ular ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish, shaxslarning huquq va majburiyatlarini ifodalash hamda huquqiy voqelikni aks ettirish vositasi hisoblanadi. Shuning uchun huquqiy matnlarni tahlil qilishda ularning grammatik, semantik va ayniqsa pragmalingvistik xususiyatlarini o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotning asosiy muammosi huquqiy matnlarda nutq aktlari, xususan assertiv (xabar) va direktiv (buyruq) aktlarning o‘ziga xos kommunikativ va funksional rolini aniqlashdan iborat. Chunki ushbu aktlar huquqiy matnlarning asosiy maqsadini huquqiy voqelikni ifodalash va huquqiy xulqni boshqarishni amalga oshiruvchi lingvistik vositalar sifatida xizmat qiladi. Tadqiqotning maqsadi - ingliz va o‘zbek huquqiy matnlarida assertiv va direktiv nutq aktlarining illokutsion kuchini, ularning kommunikativ tuzilmadagi o‘rnini hamda huquqiy ma’no yaratishdagi funksiyalarini aniqlashdan iborat.

Shu asosda ushbu maqola ingliz va o‘zbek huquqiy matnlarida assertiv (xabar) va direktiv (buyruq) nutq aktlarining kommunikativ tuzilmadagi o‘rni hamda funksional xususiyatlarini tahlil etishga bag‘ishlanadi. Tadqiqotning dolzarbligi huquqiy matnlarni lingvopragmatik nuqtayi nazardan o‘rganish zarurati bilan belgilanadi, chunki aynan nutq aktlari orqali huquqiy matnlarning illokutsion kuchi, kommunikativ maqsadi va ijtimoiy funksiyasi aniqlanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Nutq aktlari nazariyasi zamonaviy pragmalingvistikaning markaziy yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Bu nazariya tilning faqat ma’lumot uzatish vositasi emas, balki ijtimoiy ta’sir ko‘rsatish vositasi sifatida ham faoliyat yuritishini ko‘rsatadi. J.L. Austin “How to Do Things with Words” (1962) asarida nutqning illokutsion kuchi haqidagi g‘oyani ilgari surib, har bir gap faqat ma’lumot bermasdan, balki ma’lum bir harakatni bajarishini isbotlagan (Austin J.L., 1962:33). Uning izdoshi J.R. Searle bu nazariyani tizimlashtirib, nutq aktlarini besh turga — assertiv, direktiv, komissiv, ekspressiv va deklarativ aktlarga ajratadi (Searle J.R., 1969:24).

Assertiv aktlar, Searle ta’rifiga ko‘ra, so‘zlovchining dunyo haqidagi e’tiqodini ifodalaydi va voqelikni haqiqat sifatida bayon etadi. Direktiv aktlar esa, aksincha, tinglovchini ma’lum harakatni bajarishga undaydi (Searle J.R., 1979:13). Shu sababli bu ikki akt turi huquqiy matnlarda eng muhim kommunikativ vositalar sifatida namoyon bo‘ladi. Huquqiy matnlar tilining pragmatik tabiati bo‘yicha Y. Maley o‘z tadqiqotlarida (1987) shunday xulosa qiladi: huquqiy matnlar muloqot emas, balki majburiy kommunikativ model bo‘lib, unda buyruq, ruxsat, taqiq va tasdiq kabi aktlar ustuvorlik qiladi (Maley Y., 1987:25). A. Trosborg esa huquqiy matnlarni pragmatik tahlil qilarkan, ularni ikki asosiy funksiya – *informativ* va *regulativ* funksiyalarga ajratadi, va aynan assertiv hamda direktiv aktlar bu funksiyalarni ifodalovchi asosiy vosita ekanini ta’kidlaydi (Trosborg A., 1995:48).

So‘nggi yillarda nutq aktlari nazariyasi huquqiy matnlar tahlilida yanada faol qo‘llanilmoqda. Masalan, G. Leech kommunikativ tamoyillarni izohlar ekan, nutq aktlari orqali ijtimoiy maqbul xulq me’yorlari mustahkamlanishini ko‘rsatadi (Leech G., 1983:82). Bu qarashlar huquqiy matnlarning illokutsion kuchini, ya’ni ularning ijtimoiy ta’sir imkoniyatini tushunishga asos bo‘ladi.

O‘zbek tilshunosligida ham bu masala ilmiy izlanishlar markazida. M. Hakimov nutq aktlarini o‘zbek tili materiallari asosida tahlil qilib, ularning semantik-pragmatik xususiyatlarini ochib beradi hamda ularning matnlarda ma’no va mazmun yaratishdagi ahamiyatini yoritadi (Hakimov M., 2013:67). Sh. Safarov esa nutq aktlarini til tizimidagi kommunikativ birlik sifatida o‘rganib, ularning ijtimoiy vazifasi, xususan, jamiyatda shaxslararo muloqotni boshqarishdagi rolini tahlil etadi (Safarov Sh., 2008:52). Ta’kidlash joizki, xorijiy va o‘zbek olimlari qarashlarining solishtirma tahlili

shuni ko‘rsatadiki, huquqiy matnlarning kommunikativ tuzilmasi nutq aktlari tizimiga asoslanadi. Unda assertiv aktlar huquqiy voqelikni aks ettirsa, direktiv aktlar huquqiy me’yorlarni amalga oshirishni ta’minlaydi. Shu sababli bu ikki turdagi aktlar huquqiy matnlarning informativ va regulativ funksiyalarini shakllantiruvchi asosiy komponentlar sifatida qaraladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda huquqiy matnlarda assertiv va direktiv nutq aktlarining kommunikativ-pragmatik xususiyatlarini aniqlash maqsadida komparativ, deskriptiv, lingvopragmatik va kontekstual tahlil metodlaridan foydalanildi. Ushbu metodlar huquqiy matnlarning kommunikativ tuzilmasini, ularning illokutsion kuchini hamda funksional maqsadini aniqlash imkonini beradi.

Tadqiqot uchun material sifatida O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari, sud qarorlari, shuningdek, Buyuk Britaniya va AQShning rasmiy huquqiy hujjatlari tanlab olindi. Ma’lumotlarni tanlashda ularning rasmiy manbalardan olinganligi, huquqiy kuchga ega ekanligi va til jihatidan namoyon bo‘lgan kommunikativ birliklarning aniqligi asosiy mezon bo‘ldi. Shuningdek, metodologik yondashuvning ishonchliligi shundaki, u huquqiy matnlarda nutq aktlarining real kommunikativ vaziyatda qanday ishlashini, ularning maqsadga yo‘naltirilganligini hamda huquqiy muloqotdagi tartibga soluvchi rolini ilmiy asosda yoritishga imkon beradi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqotning tahlil bosqichida ingliz va o‘zbek huquqiy matnlaridagi assertiv (xabar) va direktiv (buyruq) nutq aktlarining kommunikativ-pragmatik xususiyatlari chuqur o‘rganildi. Tahlil jarayonida taqqoslama, deskriptiv, lingvopragmatik va kontekstual metodlar asosida yig‘ilgan ma’lumotlar tahlil qilindi. Tadqiqot materiali sifatida O‘zbekiston Respublikasi qonunlari, sud qarorlari, shartnoma namunalari hamda Buyuk Britaniya va AQShning rasmiy huquqiy hujjatlari tanlab olindi. Tahlil natijalariga ko‘ra, huquqiy matnlar ikki asosiy kommunikativ komponent - assertiv va direktiv aktlar negizida quriladi. *Assertiv aktlar* (xabar aktlari) asosan voqelikni, huquqiy holatni yoki faktni tasdiqlashga xizmat qiladi. Ular matnning informativ funksiyasini tashkil etadi. Masalan, “Shartnoma bekor qilindi”, “Sud ayblanuvchini aybdor deb topdi” kabi ifodalar voqelikni bayon etuvchi illokutsion kuchga ega. *Direktiv aktlar* esa huquqiy matnda muayyan shaxs yoki subyektning xatti-harakatini tartibga solish, buyruq, taqiqlash yoki ruxsat berish maqsadida qo‘llanadi. Ular matnning regulativ funksiyasini belgilaydi. Ingliz tilidagi huquqiy hujjatlarda bu turdagi aktlar “*shall”, “must”, “is required to”, “shall not”* kabi modallik vositalari orqali ifodalanadi, o‘zbek tilida esa *“shart”, “majbur”, “taqiqlanadi”, “lozim”* kabi birliklar orqali aniqlanadi. Bu ikki turdagi aktlar o‘zaro bog‘liq holda ishlaydi: assertiv

aktlar huquqiy faktni asoslaydi, direktiv aktlar esa shu asosda huquqiy natijani belgilaydi. Bu holat Austinning “illokutsion kuch” haqidagi qarashlari bilan hamohangdir, chunki har bir nutq aktining kuchi uning kommunikativ maqsadiga va kontekstdagi funksiyasiga bog‘liq (Austin J.L., 1962:33).

Natijalardan ma’lum bo‘ldiki, assertiv va direktiv aktlarning ulushi huquqiy matn janriga ko‘ra farq qiladi: Qonun va normativ-huquqiy hujjatlarda direktiv aktlar ustunlik qiladi. Bu matnlarning asosiy maqsadi tartibga solish, majburiyat va taqiqlarni belgilashdir. Shartnomalarda assertiv va direktiv aktlar uyg‘unlashadi: assertivlar faktik holatni, tomonlarning roziligini yoki shartlarning mavjudligini tasdiqlaydi, direktivlar esa bajarilishi shart bo‘lgan majburiyatlarni ifodalaydi. Sud qarorlarida esa assertiv aktlar ustun: ular faktni, jinoyatning mavjudligini yoki yo‘qligini, qaror natijasini ifodalaydi. Biroq ularning yakuniy qismlarida, odatda, direktiv akt - ya’ni hukm yoki ijro topshirig‘i mavjud bo‘ladi. Bu holat J. Searle tomonidan ilgari surilgan nutq aktlarining maqsadga yo‘naltirilganligi haqidagi fikrni tasdiqlaydi: har bir huquqiy matn turi o‘z kommunikativ niyatiga mos illokutsion kuchga ega bo‘ladi (Searle J.R., 1969:24). Shuningdek, assertiv va direktiv aktlarning til vositalari har bir tilda turlicha namoyon bo‘ladi: Ingliz tilida assertiv aktlar odatda passiv shakllar (“*is found”, “is established”*) va stativ fe’llar orqali ifodalanadi, bu esa bayonning obyektivligini oshiradi. Direktiv aktlar esa modallar orqali majburiyatni bildiradi. O‘zbek tilida assertiv aktlar passiv shakllar (“*deb topildi”, “e’tirof etiladi”*) va o‘tgan zamon shakllari orqali tasdiqlovchi kuchga ega bo‘ladi, direktiv aktlar esa leksik vositalar *(“majbur”, “taqiqlanadi”, “lozim”)* yordamida ifodalanadi. Bu jihatdan M. Hakimov (2013:67) ta’kidlaganidek, o‘zbek tilida nutq aktlari fe’lning morfologik shakllari va modallik birliklari orqali kontekstual tarzda farqlanadi. Sh. Safarov (2008:52) esa nutq aktlarining pragmatik kuchi matnning kommunikativ yo‘nalishiga mos ravishda kuchayishini qayd etadi.

Ko‘plab huquqiy matnlarda kompleks illokutsion strukturalar uchraydi, ya’ni bir jumla ichida bir necha turdagi nutq aktlari uyg‘unlashadi. Masalan: *“The contract is void and the parties shall return all received funds.”*
Bu jumlada birinchi qism assertiv (huquqiy holatni ifodalaydi), ikkinchisi esa direktiv (amalni belgilaydi). O‘zbek tilida bu “Shartnoma bekor qilindi; tomonlar olgan pullarni qaytarishi lozim.” tarzida ifodalanadi. Bunday holatlar huquqiy matnning ikki asosiy funksiyasi - informativ va regulativ - birgalikda ishlashini ko‘rsatadi. Ushbu xususiyat huquqiy matnni boshqa janrlardan farqlovchi muhim belgidir. Illokutsion kuchning darajasi nafaqat lingvistik shakllarga, balki matnning kommunikativ kontekstiga ham bog‘liq. Sud yoki davlat organi tomonidan yaratilgan matnning illokutsion kuchi oddiy hujjatga nisbatan kuchliroqdir, chunki u huquqiy avtoritet bilan mustahkamlangan.

Shuningdek, matnning ierarxik manbai (qonun, qaror, buyruq) ham uning direktiv kuchini oshiradi.

Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, huquqiy matnlarning kommunikativ tizimi assertiv va direktiv aktlarning o‘zaro uyg‘unligi asosida shakllanadi. Bu uyg‘unlik matnning ikki tomonlama tabiatini – xabar berish (informativ) va tartibga solish (regulativ) funksiyalarini ta’minlaydi. Tahlil qilingan materiallar Austin va Searle nazariyasini amalda tasdiqlaydi, ya’ni har bir nutq aktining illokutsion kuchi kontekst va maqsad bilan belgilanadi (Austin, 1962; Searle, 1969). O‘zbek tilshunosligi kontekstida esa bu yondashuvni M. Hakimov va Sh. Safarovlarning tadqiqotlari boyitgan, ular tilning pragmatik imkoniyatlarini huquqiy muloqotda ham aniq ifodalash zarurligini ko‘rsatgan (Safarov, 2008:55).

Tadqiqot natijalari shuni isbotlaydiki, huquqiy matnning mantiqiy tuzilmasida assertiv aktlar huquqiy haqiqatni rasmiylashtiruvchi vosita bo‘lsa, direktiv aktlar shu haqiqatni amalda bajarilishini ta’minlovchi mexanizm sifatida ishlaydi. Shunday qilib, nutq aktlari nazariyasi huquqiy tilning kommunikativ va normativ mohiyatini izohlashda samarali lingvopragmatik yondashuv sifatida tasdiqlandi. Bundan tashqari, tadqiqot davomida madaniy-lingvistik omillar ham muhim rol o‘ynashi aniqlandi. Ingliz huquqiy matnlarida rasmiylik, neytrallik va obyektivlik ustunlik qilsa, o‘zbek huquqiy matnlarida ma’lum darajada axloqiy va ijtimoiy konnotatsiyalar kuzatildi. Bu esa nutq aktlarining madaniy sharoitda o‘ziga xos tarzda ifodalanishini ko‘rsatadi. Shunday qilib, nutq aktlari nazariyasi huquqiy tilning kommunikativ, normativ va madaniy mohiyatini izohlashda samarali lingvopragmatik yondashuv sifatida o‘zini to‘liq oqlaydi. Mazkur natijalar huquqiy tilni o‘rganishning yangi bosqichini - pragmatik-kommunikativ tahlil asosidagi qiyosiy tadqiqotlarni rivojlantirish uchun mustahkam ilmiy asos yaratadi.

Tadqiqot davomida huquqiy matnlarda assertiv (xabar) va direktiv (buyruq) nutq aktlarining kommunikativ tuzilmadagi o‘rni hamda ularning funksional xususiyatlari aniqlashtirildi. Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, assertiv aktlar huquqiy matnning axborot beruvchi va huquqiy haqiqatni ifodalovchi asosiy komponenti sifatida xizmat qiladi. Ular normativ bayonotlar, qonun moddalari va sud qarorlarida aniq fakt va dalillarni bildiradi. Direktiv aktlar esa huquqiy matnlarda tartibga soluvchi va majburiy xarakterga ega bo‘lgan nutq birliklari sifatida namoyon bo‘ladi. Ular buyruq, talab, ko‘rsatma va taqiqlar shaklida ifodalanadi va adresatning xatti-harakatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Tahlil jarayonida ingliz va o‘zbek huquqiy matnlarining illokutsion kuchi o‘zaro solishtirildi. Natijada, ingliz tilidagi huquqiy matnlarda assertiv aktlarning aniq va neytral tilda berilishi, o‘zbek tilidagi matnlarda esa normativ-emotsional ifodaning nisbatan faol qo‘llanilishi kuzatildi. Direktiv aktlar har ikki tildagi matnlarda buyruq

va taqiqlarni ifodalovchi vositalar orqali amalga oshiriladi, biroq ingliz tilidagi huquqiy matnlarda ular ko‘proq modallik vositalari orqali (shall, must, may not) ifodalanadi. Demak, huquqiy matnlarni tahlil qilishda nutq aktlari nazariyasiga tayangan holda illokutsion kuchni aniqlash, matnning kommunikativ-pragmatik mazmunini yanada chuqurroq ochishga yordam beradi. Shuningdek, huquqiy matnlarni tarjima qilishda assertiv va direktiv aktlarning funksional ekvivalentini to‘g‘ri tanlash, huquqiy ma’noni to‘liq saqlash imkonini beradi. Huquqiy tilni o‘rganishda, ayniqsa o‘zbek va ingliz tillarini qiyosiy o‘rganishda, nutq aktlari turlarining pragmatik farqlarini o‘rganish tilshunoslik va huquqshunoslikning kesishgan nuqtasida yangi ilmiy yo‘nalishlarni ochadi.

Kelgusidagi tadqiqotlar huquqiy matnlarning boshqa nutq aktlari turlari (komissiv, ekspressiv, deklarativ) bilan bog‘liq kommunikativ jihatlarini ham o‘rganishga, shuningdek, sud nutqi va shartnoma tili kabi alohida janrlar doirasida ularning o‘ziga xos pragmatik xususiyatlarini tahlil etishga qaratilishi mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur tadqiqot huquqiy matnlarning kommunikativ tuzilmasida assertiv (xabar beruvchi) va direktiv (buyruq beruvchi) nutq aktlarining o‘rni hamda funksional xususiyatlarini chuqur tahlil qilishga bag‘ishlandi. Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, huquqiy matnlarning pragmatik mohiyati aynan ushbu ikki turdagi nutq aktlari asosida shakllanadi. Assertiv aktlar huquqiy voqelikni, faktlarni va holatlarni obyektiv tarzda tasdiqlash orqali matnning informativ funksiyasini ta’minlaydi. Ular qonun moddalari, sud qarorlari va shartnoma bayonotlarida huquqiy haqiqatni rasmiylashtiruvchi asosiy vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Direktiv aktlar esa shaxslarning xatti-harakatlarini tartibga solish, majburiyatlar belgilash, taqiqlash yoki ruxsat berish maqsadida qo‘llanilib, matnning regulativ funksiyasini amalga oshiradi. Bu ikki akt turi o‘zaro uyg‘unlikda ishlaydi: assertiv aktlar huquqiy asosni yaratadi, direktiv aktlar esa shu asosda amaliy natijani belgilaydi.

Ingliz va o‘zbek huquqiy matnlarining qiyosiy tahlili natijalarida til va madaniy farqlar aniqlandi. Ingliz huquqiy matnlarida assertiv aktlar ko‘proq passiv shakllar va neytral modallar orqali obyektivlikni ta’minlasa, direktiv aktlar “shall”, “must” kabi modallik vositalari bilan majburiy kuchga ega bo‘ladi. O‘zbek huquqiy matnlarida esa assertiv aktlar o‘tgan zamon va passiv shakllar (“deb topildi”, “e’tirof etiladi”) orqali, direktiv aktlar leksik birliklar (“majbur”, “taqiqlanadi”, “lozim”) yordamida ifodalanadi. Bu farqlar J.L. Austin va J.R. Searle nutq aktlari nazariyasini, shuningdek, Y. Maley va A. Trosborgning huquqiy til pragmatikasi haqidagi qarashlarini amalda tasdiqlaydi. O‘zbek tilshunosligida M. Hakimov va Sh. Safarov tadqiqotlari bilan boyitilgan ushbu yondashuv huquqiy matnlarning illokutsion kuchini kontekstual va madaniy jihatdan tushunishga imkon beradi.

Tadqiqot natijalari huquqiy tilshunoslikda nutq aktlari nazariyasining amaliy ahamiyatini yoritib, huquqiy matnlarning kommunikativ va normativ mohiyatini pragmatik nuqtayi nazardan izohlashda yangi ilmiy asos yaratadi. Bu natijalar huquqiy matnlarni tarjima qilish, huquqiy ta’lim va qonunchilik amaliyotida qo‘llanilishi mumkin.

Tadqiqot jarayonidagi fikr va xulosalardan kelib chiqib ba’zi **takliflar**ni ilgari suramiz:

1. Huquqiy matnlarning boshqa nutq aktlari turlari (komissiv, ekspressiv, deklarativ) bilan bog‘liq pragmatik xususiyatlarini, xususan, sud nutqi, shartnoma tili va xalqaro huquqiy hujjatlar doirasida chuqurroq o‘rganish.
2. Ko‘p tilli (ingliz, o‘zbek, rus va boshqa tillar) huquqiy matnlarning qiyosiy pragmatik tahlilini kengaytirish, bu orqali madaniy-lingvistik farqlarni aniqlash va huquqiy tarjima standartlarini takomillashtirish.
3. Nutq aktlari nazariyasini huquqiy ta’lim va yuristlar malakasini oshirish dasturlariga integratsiya qilish, shu orqali huquqiy matnlarning kommunikativ samaradorligini oshirish.
4. Raqamli huquqiy korpuslar yaratish va sun’iy intellekt vositalaridan foydalanib, huquqiy matnlarda nutq aktlarini avtomatik tahlil qilish usullarini ishlab chiqish.

Ushbu tadqiqot huquqiy lingvistika va pragmalingvistikaning kesishgan sohasida yangi izlanishlarga yo‘l ochadi va huquqiy tilning kommunikativ mohiyatini chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Austin J.L. (1962). How to Do Things with Words. Oxford: Clarendon Press.
2. Bach K., Harnish R. (1979). Linguistic Communication and Speech Acts. MIT Press.
3. Brown P., Levinson S. (1987). Politeness: Some Universals in Language Usage. Cambridge: Cambridge University Press.
4. Hakimov M. (2013). O‘zbek pragmalingvistikasi asoslari. Toshkent: Akademnashr.
5. Kharina R. S. (2015). Yuridicheskiy tekst kak obyekt lingvisticheskogo issledovaniya. Filologiya i Iskusstvovedenie, (3), 45–53.
6. Leech G. (1983). Principles of Pragmatics. London: Longman.
7. Mahmudov N., Nurmonov A. (1995). O‘zbek tilining nazariy grammatikasi (sintaksis). Toshkent: O‘qituvchi, p. 4.
8. Maley Y. (1994). The Language of the Law. In: J. Gibbons (ed.), Language and the Law. London: Longman.
9. Maslova A. (2014). Vvedenie v pragmalingvistiku. Moskva: Flinta.

10. Parllaku Matilda. (28/2016) Linguistic Features In Legal Texts. Comparative Legilinguistics vol.

11. Raxmatova B. I. (2025) Legal texts and their functional analysis in applied linguistics. – DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.15464154

12. Rakhmatova B. (2024). Teoriya rechevykh aktov v uzbekskom pravovom diskurse i ikh pragmaticheskiy analiz. Zarubezhnaya lingvistika i lingvodidaktika, 2(4/S), 151–156. Retrieved from https://inlibrary.uz/index.php/foreign-linguistics/article/view/68063

13. Searle J.R. (1969). Speech Acts: An Essay in the Philosophy of Language. Cambridge: Cambridge University Press.

14. Searle J.R. (1979). Expression and Meaning: Studies in the Theory of Speech Acts. Cambridge: Cambridge University Press.

15. Safarov Sh. (2008). Pragmalingvistika. Toshkent.

16. Tiersma P. M., Solan L. M. (Eds.). (2012). The Oxford handbook of language and law. Oxford: Oxford University Press.

17. Trosborg A. (1995). Interlanguage Pragmatics: Requests, Complaints, and Apologies. Berlin: Mouton de Gruyter.

18. Usmonov S. (2005). Yuristning nutq madaniyati. Toshkent: TDYU, p. 46.

19. Yule G. (1996). Pragmatics. Oxford: Oxford University Press.

20. G‘ulomov A., Asqarova M., (1979). Hozirgi o‘zbek adabiy tili: Sintaksis. Toshkent: O‘qituvchi, p. 26.

REFERENCES:

1. Austin J.L. (1962). How to Do Things with Words. Oxford: Clarendon Press. (In English)

2. Bach K., Harnish R. (1979). Linguistic Communication and Speech Acts. MIT Press. (In English)

3. Brown P., Levinson S. (1987). Politeness: Some Universals in Language Usage. Cambridge: Cambridge University Press. (In English)

4. Hakimov M. (2013). O‘zbek pragmalingvistikasi asoslari. Toshkent: Akademnashr. (In Uzbek)

5. Kharina R. S. (2015). Yuridicheskiy tekst kak obyekt lingvisticheskogo issledovaniya. Filologiya i Iskusstvovedenie, (3), 45–53. (In Russian)

6. Leech G. (1983). Principles of Pragmatics. London: Longman. (In English)

7. Mahmudov N., Nurmonov A. (1995). O‘zbek tilining nazariy grammatikasi (sintaksis). Toshkent: O‘qituvchi, p. 4. (In Uzbek)

8. Maley Y. (1994). The Language of the Law. In: J. Gibbons (ed.), Language and the Law. London: Longman. (In English)

9. Maslova A. (2014). Vvedenie v pragmalingvistiku. Moskva: Flinta. (In Russian)

10. Parllaku Matilda. (2016). Linguistic Features In Legal Texts. Comparative Legilinguistics, vol. 28. (In English)

11. Raxmatova B. I. (2025). Legal texts and their functional analysis in applied linguistics. DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.15464154 (In English)

12. Rakhmatova B. (2024). Teoriya rechevykh aktov v uzbekskom pravovom diskurse i ikh pragmaticheskiy analiz. Zarubezhnaya lingvistika i lingvodidaktika, 2(4/S), 151–156. Retrieved from https://inlibrary.uz/index.php/foreign-linguistics/article/view/68063 (In Russian)

13. Searle J.R. (1969). Speech Acts: An Essay in the Philosophy of Language. Cambridge: Cambridge University Press. (In English)

14. Searle J.R. (1979). Expression and Meaning: Studies in the Theory of Speech Acts. Cambridge: Cambridge University Press. (In English)

15. Safarov Sh. (2008). Pragmalingvistika. Toshkent. (In Uzbek)

16. Tiersma P. M., Solan L. M. (Eds.). (2012). The Oxford handbook of language and law. Oxford: Oxford University Press. (In English)

17. Trosborg A. (1995). Interlanguage Pragmatics: Requests, Complaints, and Apologies. Berlin: Mouton de Gruyter. (In English)

18. Usmonov S. (2005). Yuristning nutq madaniyati. Toshkent: TDYU, p. 46. (In Uzbek)

19. Yule G. (1996). Pragmatics. Oxford: Oxford University Press. (In English)

20.G‘ulomov A., Asqarova M. (1979). Hozirgi o‘zbek adabiy tili: Sintaksis. Toshkent: O‘qituvchi, p. 26. (In Uzbek)

FAMILY VA KINSHIP QARINDOSHLIK ATAMALARI DIAXRONIK TADQIQOT PREDMETI SIFATIDA

FAMILY AND KINSHIP TERMS AS THE SUBJECT OF DIACHRONIC RESEARCH

ТЕРМИНЫ РОДСТВА И СЕМЕЙНЫХ ОТНОШЕНИЙ КАК ПРЕДМЕТ ДИАХРОНИЧЕСКОГО ИССЛЕДОВАНИЯ

Nizamova Salomat Usmanovna
Oriental universiteti, Tillar-2
Kafedrasi katta o‘qituvchisi,
Tel. : +998 91-135-25-00
E-mail: salomat0682gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqola ingliz tilidagi “oila va qarindoshlik” leksik-semantik sohasining markaziy leksemalari – “family” va “kinship” atamalarini diaxronik (tarixiy-tadrijiy) nuqtayi nazardan o‘rganishga bag‘ishlangan. Etimologik lug‘atlarga asoslanib, muallif ushbu so‘zlarning kelib chiqishi, semantik evolyutsiyasi va tarixiy o‘zgarishlarini tahlil qiladi. “Family” leksemasi lotincha famulus orqali fransuz tilidan o‘zlashtirilgan bo‘lib, dastlab uy xo‘jaligi va xizmatchilarni bildirgan, keyinchalik qondoshlik va umumiy nasl ma’nosiga o‘tgan. “Kinship” esa qadimgi inglizcha “kin” (cynn) so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, proto-german va hind-yevropa ildizlariga borib taqaladi. Tahlil natijasida anglo-sakson jamiyatidagi oila tushunchasining ijtimoiy, madaniy va dunyoqarash jihatdan rivojlanishi rekonstruksiya qilinadi. Qarindoshlik atamalari orqali xalqning turmush tarzi, ijtimoiy tuzilishi va e’tiqodlari aks etishi ta’kidlanadi. Maqola lingvokulturologik va etimologik yondashuvlarga asoslanadi.

Kalit so‘zlar*: oila, qarindoshlik, leksik-semantik soha, diaxronik tahlil, etimologiya, family, kinship, anglo-sakson madaniyati.*

Annotation. This article is dedicated to the diachronic study of the core lexical units “family” and “kinship” within the lexico-semantic field of “family and kinship” in English. Relying on etymological dictionaries, the author analyzes the origin, semantic evolution, and historical transformations of these terms. The word “family” was borrowed from French (famille) via Latin famulus, initially denoting household servants and later shifting to meanings of blood relations and common descent. “Kinship” derives from Old English “kin” (cynn), tracing back to Proto-Germanic and Indo-European roots. The analysis reconstructs the concept of family in Anglo-Saxon society, reflecting its social structure, lifestyle, and worldview. Kinship terms reveal cultural and ideological aspects of the nation’s development. The study employs linguocultural and etymological approaches to model the historical-cultural image of the Anglo-Saxon family.

Keywords: *family, kinship, lexico-semantic field, diachronic analysis, etymology, Anglo-Saxon culture, semantic evolution, linguoculturology.*

Аннотация. Статья посвящена диахроническому исследованию центральных лексем «family» и «kinship» лексико-семантического поля «семья и родство» в английском языке. Опираясь на этимологические словари, автор анализирует происхождение, семантическую эволюцию и исторические изменения этих терминов. Лексема «family» заимствована из французского (famille) через латинское famulus, изначально обозначавшая домашних слуг, а позже перешедшая к значениям кровного родства и общего происхождения. «Kinship» происходит от древнеанглийского «kin» (cynn), восходящего к протогерманским и индоевропейским корням. Анализ позволяет реконструировать концепт семьи в англосаксонском обществе, отражая его социальный уклад, быт и мировоззрение. Термины родства раскрывают культурные и идеологические аспекты развития нации. Исследование основано на лингвокультурологическом и этимологическом подходах для моделирования историко-культурного образа англосаксонской семьи.

Ключевые слова: *семья, родство, лексико-семантическое поле, диахронический анализ, этимология, family, kinship, англосаксонская культура.*

KIRISH

“Oila va oila munosabatlari” leksik-semantik ko‘lamini turli tillarda tavsiflashga juda ko‘p ilmiy ishlar bag‘ishlangan. So‘nggi paytlarda yaratilayotgan ko‘pgina lingvomadaniy va lingvo-mamlakatshunoslik, izohli lug‘atlarda olam manzarasining muhim birligi sifatida “oila” tushunchasini doimiy ravishda o‘z ichiga olmoqda. Ko‘pgina lingvistlar tomonidan ta’kidlanganidek, leksemalar oilasi madaniy birlik sifatida “insonning ijtimoiy mavqeining shunchalik jiddiy xususiyati bo‘lib, u ko‘p jihatdan uning hayot haqidagi tasavvurini belgilaydi”. Oilani “qarindoshlar guruhi” deb ta’riflash mumkin, ya’ni qarindoshlikka asoslangan birlashma - odamlar o‘rtasidagi bir shaxsning boshqa shaxsdan kelib chiqishi yoki turli shaxslarning umumiy ajdoddan kelib chiqishi, shuningdek, oilaviy munosabatlarga asoslangan aloqalar. Shunday qilib, “oila” so‘zining leksik-semantik ko‘lami “nasl, urug‘, avlod, ajdod, xonadon" ma’nosini anglatuvchi so‘zlar to‘plamidir. Oila – “er-xotin, ularning bola-chaqalari va eng yaqin tug‘ishganlaridan iborat birga yashovchi kishilar majmui”, ya’ni bir ajdoddan kelib chiqqan avlodlar turkumi, shuningdek, umumiy ajdodga nisbatan bir xil darajadagi qarindoshlar bo‘lib, “bir maqsad, maslak bilan birlashgan ko‘p kishilar”, ya’ni qarindoshlardir. (Воробьев В.В., 1996:22.) “Oila va qarindoshlik” leksik-semantik ko‘lamiga kiruvchi qarindoshlik atamalarining mazmun-mohiyati shundan iboratki, ular ko‘p sonli qarindoshlik munosabatlaridan faqat insoniyat jamiyatining hayoti va faoliyati uchun muhim va zarur bo‘lganlarini ajratib ko‘rsatadilar. Qarindoshlik deganda

bitta umumiy ajdoddan kelib chiqqan erkak va ayol oila a'zolari o'rtasidagi bog'liqlik, "bir avlod-ajdodga mansub bo'lgan kishilar, ota va ona tomonidan bo'lgan shaxslar (biri boshqasiga nisbatan), ya'ni kelib chiqish manbai bir bo'lgan, bir-biriga yaqin" kishilar tushuniladi. Qarindoshlik – "qarindoshlarga xos bog'lanish, munosabat; insonlar o'rtasidagi qon jihatdan bog'lanish, ularning bir-biriga munosabati va oqibati" ta'riflanadi va tushuniladi. (Маъруфов З.М., 1981:526)

Ushbu maqola "family va kinship" leksik-semantik ko'lamining yadro leksemalari bo'lgan ingliz tilidagi oila va qarindoshlik birliklarini diaxronik o'rganishga bag'ishlangan. Bu alohida leksemalarning tanlanishi, birinchi navbatda, uning kelib chiqishining qadimiyligi, shuningdek, olamning an'anaviy-milliy manzarasini aks ettirishi, rivojlanishi xalqning semantik evolyutsiyasi bilan birga bo'lishi va uning shakllanishi va rivojlanishining etimologik qonuniyatlarini ochib berishi bilan belgilanadi. Qarindoshlik atamalarining diaxronik tahlili natijasida anglo-sakson etnik guruhi olamining lingvistik manzarasi qanchalik o'zgaruvchan yoki aksincha barqaror ekanligi haqidagi tasavvurga ega bo'lishi mumkin. Bu bizga uning doimiy va o'zgaruvchan tarkibiy qismlarini aniqlashga imkon beradi, xalqning madaniy rivojlanish tarixini: uning turmush tarzi, iqtisodiy faoliyati, ijtimoiy tuzilishi, diniy g'oyalari, e'tiqodlari, dunyoning tuzilishi haqidagi mashhur qarashlarini qayta qurishga yordam beradigan ekstralingvistik xarakterdagi muhim ma'lumotlarni olishga yordam beradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Ma'naviy-ruhiy soha konseptlarini o'rganish eng faol rivojlangan yo'nalishlardan biridir. Biroq, bu soha to'liq o'rganilgan deb taxmin qilish mumkin emas, chunki ma'naviy-ruhiy soha eng murakkab va chuqur sohalardan biri bo'lib, ona tilida so'zlashuvchi xalqning mentalitetini tushunish uchun kalit bo'lib xizmat qilishi mumkin. Ishimizda biz o'zbek va ingliz tillarida nashr etilgan nufuzli izohli, etimologik, falsafiy lug'atlaridan olingan ma'lumotlardan unumli foydalandik. Undan tashqari, boshqa konseptlar qatorida "family" leksamasi haqida o'z ilmiy ishlarida, maqolalarida so'z yuritgan O.N.Trubachev, E.V. Udorina, L.V. Nikitinskaya, A.A.Xvostenko, N.N. Goncharova, Yu.A.Iksanova, V.I. Krasik, M.M.Kovalevskiy, V.A.Maso'zlarninga, I.A.Zyuzina, D.G. Larionova, N.Yu. Kazakova, Z.A. Axmetjanova, V.B. Tyurin, N.V. Nagovisina, A.N.Pribilova, M.Yu.Romanyuk, M.V.Zimina kabi lingvistlar rus, nemis, fransuz, ingliz, ispan, edigey, tatar va boshqa tillardagi maqolalarda "family"-oila" konseptining turli yo'nalishlarini o'z ishlarida ochib berganlar.

O'zbek tilshunosligida ham konsept masalasiga doir turli ishlar, ya'ni A.Nurmonova, N.Maxmudova, Sh.S.Safarova, A.E.Mamatova, E.Begmatova, M.X.Xakimova, S.M.Muminova, D.S.Xudayberganovoy, S.Boymirzaevoy, I.A.Azimovoy, R.U.Madjidovoy, N.Maxmudov, Sh.X.Shaxabitdinova, Z.A.Akbarova,

R.Abdullaeva, Z.M.Baynazarov, D.K.Baxronova, Sh.R.Usmanova, Z.I.Salieva, A.M. Bazarbaeva, K.M. Amanullaeva, Sh.Q. Shamsieva, N.B. Kuldosheva, D.K. Baxronova, Z.R. Gulyamova, Yu.T. Nosirov va boshqalarning ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilgan, turli konseptlar, turli yo‘nalishlarda tadqiq etilgan. Biroq aynan “family va kinship” leksik-semantik ko‘lamining diaxronik tahlili o‘zbek lingvistikasida alohida tadqiqot darajasida o‘rganilmagan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada yetakchi tadqiqot usullari sifatida qiyosiy, tavsifiy, uzluksiz tanlab olish usuli, konseptual tahlil usuli, lingvokulturologik usul va lug‘at ta’riflarini tahlil qilish metodlari qo‘llanildi. “Family va kinship” leksemalari mazmuni va tuzilishini tavsiflashda o‘zbek va ingliz tillaridagi leksikografik manbalar – lug‘atlar va tezauriyalarni tahlil qilishning ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Zamonaviy ingliz tilida “family” leksemasi “Oila va qarindoshlik” leksik-semantik ko‘lamining asosiy leksemasi hisoblanadi, garchi qadimgi ingliz jamiyatida oila tushunchasi ingliz tiliga qadimgi norveg tilidan kelgan hiwscipe, hiwan so‘zida mujassamlashgan bo‘lib, bu yerda hjon so‘zi “one of the house hold; married couple, man and wife; domestic syervant” (“uy tutqichlaridan biri; turmush qurgan er-xotin, erkak va xotin”) ma’nosini bildiradi. Qadimgi nemis tilida er va xotinni belgilovchi bir xil ildizli hiwo so‘zi bo‘lgan. Shuningdek, gotik leksema haims so‘ziga ham e’tibor qaratish o‘rinlidir, ularning ma’nosi qishloq “village” tushunchasi bilan bog‘liq bo‘lib, qadimgi odamlar ongida katta, do‘stona oila degan ma’noni bildirgan, chunki bunday jamiyatda oila tushunchasi, bugungi kundagi biz tushungan manoda mavjud emas edi. U qadimgi inglizcha “home” degan ma’noni anglatuvchi leksemasining manbayi bo‘lib xizmat qilgan.

XV-asrdan boshlab ingliz jamiyatida oila uchun umumiy nominatsiya bo‘lib kelgan “family” leksema turkumi kelib chiqish jihatidan fransuzlarniki bo‘lmasa-da, fransuz tilidagi famille so‘zidan o‘zlashtirilgan. (Трубачев О.Н., 2002:489.)

Etimologik tahlil jarayonida rus lingvisti M.M. Makovskiy familia so‘zi hind-yevropa tillaridagi *tem- ildiziga borib taqalishini aniqladi, uning asl ma’nosi “kesish”, “o‘yib chiqarish” (bu yerda yaratilish akti sifatida Xaosning ilohiy yorilishi haqidagi mifologik g‘oya nazarda tutilmoqda). Ammo keyinchalik u “yaratish, tug‘ish” ma’nosiga aylandi (ayolni oilaning davomchisi sifatida ishora).

“Family” so‘zi (famulus so‘zining ko‘pligi) lotin tilida taxminan 1540-yilda familyga aylantirilgan va dastlab bir uyda yashovchi – qullar, xizmatchilar, uy xo‘jaliklari a’zolari va boshqalar uchun umumiy belgi bo‘lgan. Oila “collective body of persons who form one household under one head and one domestic government,

including parents, children, and servants, and as sometimes used even lodgers or boarders" ("bir uy xo'jaligi va bitta uy hukumati ostida, shu jumladan ota-onalar, bolalar va xizmatchilar va ba'zan xizmat qiladigan uy xo'jaligini tashkil etuvchi shaxslarning jamoaviy birlashmasi") deb atalgan. (Маковский М.М., 1999:125)

1580-yillarda u "those who descend from a common progenitor, a house, a lineage" ("umumiy urug'dan, uydan, nasldan kelganlar") ma'nosini oldi. Biroz vaqt o'tgach, 1620-yilda oila "any group of things classed as kindred based on common distinguishing characteristics" ("umumiy farqlovchi belgilarga ko'ra qarindoshlik deb tasniflangan har qanday guruh", ya'ni bu holda qondoshlik munosabatlari ko'zda tutilmoqda) deb atala boshlandi. 1660-yildan boshlab "oila" tushunchasi ingliz tilida quyidagi ikki ma'noda "parents with their children, whether they dwell together or not"i"persons closely related by blood, including aunts, uncles, cousins" ("ota-onalar farzandlari bilan birga yashaydilarmi yoki yo'qmi" va "bir-biriga yaqin qarindoshlar, shu jumladan xolalar, amakilar, amakivachchalar") ishlatila boshlandi. Shunday qilib, etimologik tahlil natijasida biz o'rta ingliz davrida ham oila tushunchasi qondosh va qondosh bo'lmagan qarindoshlarini o'z ichiga olganligini aniqlashga muvaffaq bo'ldik.

Kinship leksemasi qarindoshlik munosabatlarining nominatsiyasi sifatida ingliz tilida taxminan 1764-yillarda paydo bo'lgan. Bu kin so'zi va -ship qo'shimchasidan tashkil topgan murakkab shakllanishdir. Qadimgi ingliz tilida qarindoshlik kini so'zi bilan ifodalangan bo'lib, u tilda 1200-yildan boshlab synn shaklida ishlatilgan. Bu so'zning dastlabki ma'nosi "family" edi. Keyinchalik bu leksemada "race", "kind, sort", "nature" kabi ko'p ma'nolar vujudga kelgan. O'rta ingliz tilida bu so'z jinsni bildirish ("gender, sex") uchun ishlatilgan.

D. Xarperning fikriga ko'ra, kin(<cynn)so'zi proto-german o'zagi kunjam ("family") asosida yaratilgan, shuning uchun biz ushbu dastlabki manba tilga borib taqaladigan boshqa tillarda o'xshash nominatsiyalarga (qarang: friz. kenn, saks. kunni, qad. norv. kyn, daniyacha kjön, shved. kön, gotik. kuni va boshqalarga) duch kelamiz. O'z navbatida, kunjam hind-yevropacha gene – o'zagidan kelib chiqqan bo'lib, "givebirth" ("tug'ilish") ma'nosiga ega bo'lib, ona bilan emas, balki ota bilan ("beget") bog'liq edi. (Хвостенко А.А.)

To'g'ri, urug' (nasl, zot) tushunchasining o'zi hind-yevropa tillarining gen o'zagiga borib taqalib, bu lotincha gen - "urug'" so'zining asosini tashkil qilgan (qarang. inglizcha gene– «gen»). Lotin tilidagi gen etimologik jihatdan kin – "qarindoshlar, oila, urug'lar" so'ziga o'xshashdir.

Demak, kin so'zi o'z mohiyatiga ko'ra – familyning sinonimi. Ammo XVIII asrning ikkinchi yarmida kin so'zi – ship qo'shimchasi yordamida kinship toifasiga o'tgan va shu tariqa yig'ma otga aylangan. Bu so'z yasovchi qo'shimcha garchi proto-

german – skapaz (“condition, state”) va skap- (“tocreate, ordain, appoint”) o‘zaklariga borib taqalsa-da, o‘rta ingliz tilida -schipe ko‘rinishida paydo bo‘lgan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ushbu tadqiqot natijalariga ko‘ra, ingliz tilidagi “oila va qarindoshlik” leksik-semantik sohasining markaziy yadrosi “family” va “kinship” leksemalari tomonidan tashkil etiladi. Ushbu atamalar atrofida oilaviy-qarindoshlik munosabatlarini ifodalovchi boshqa leksik birliklar birlashgan holda qadimgi ingliz (anglo-sakson) jamiyatida oila tushunchasining mazmun-mohiyati va evolyutsiyasini ochib beradi.

Etimologik va diaxronik tahlil shuni ko‘rsatadiki, “family” leksemasi dastlab uy xo‘jaligi va xizmatchilarni qamrab olgan keng ma’noda ishlatilgan bo‘lsa, vaqt o‘tishi bilan qondoshlik, umumiy nasl va yaqin qarindoshlar doirasiga torayib, zamonaviy ma’noga ega bo‘lgan. “Kinship” esa qadimgi german va hind-yevropa ildizlariga borib taqalib, asosan qon-qarindoshlik va nasl birligini ifodalovchi abstrakt tushuncha sifatida shakllangan. Bu o‘zgarishlar anglo-sakson jamiyatining ijtimoiy tuzilishi (katta xo‘jalikdan yadroviy oilaga o‘tish), turmush tarzi va dunyoqarashidagi transformatsiyalarni aks ettiradi.

Qarindoshlik atamalari til lug‘at tarkibining muhim qismi bo‘lib, ularni guruhlash va semantik tahlil qilish jamiyatning ijtimoiy tashkillashuvi, tarixiy-madaniy rivojlanishi va mentaliteti bilan chambarchas bog‘liq. Ushbu atamalarning ma’nosini to‘liq ochish faqat etimologik, diaxronik va lingvokulturologik tahlil orqali mumkin bo‘lib, bu orqali xalqning madaniy merosini rekonstruksiya qilish imkoniyati yaratiladi.

Takliflar sifatida quyidagilarni keltiramiz:

Kelgusida ingliz tilidagi qarindoshlik atamalarining diaxronik tahlilini boshqa german tillari (nemis, golland, skandinav tillari) bilan qiyosiy o‘rganish orqali kengaytirish maqsadga muvofiq.

“Family va kinship” sohasidagi leksemalarni zamonaviy ingliz tilining dialekt va variantlarida (amerika, avstraliya inglizchasi) o‘rganish orqali semantik o‘zgarishlarni aniqlash.

O‘zbek tilshunosligida ushbu mavzuni rivojlantirish maqsadida ingliz va o‘zbek tillaridagi oila-qarindoshlik atamalarini qiyosiy diaxronik tahlil qiluvchi maxsus tadqiqotlar olib borish.

Etimologik lug‘atlar va zamonaviy korpus materiallaridan foydalangan holda raqamli lingvistik usullar (korpus tahlili, semantik modellashtirish)ni qo‘llash orqali tadqiqotni chuqurlashtirish tavsiya etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Harper D. Etymology Dictionary // URL: http://www.etymonline.com.
2. Longman Dictionary of Contemporary English. (2005) – London: II Summers Della.
3. Macmillan English dictionary of advanced learners. (2002) – London: Macmillan Publishers Limited.
4. Маъруфов З.М. (таҳр.) (1981). Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Биринчи жилд. Москва: “Рус тили” нашриёти.
5. Маковский М.М. (1999). Историко-этимологический словарь английского языка / М.М. Маковский. – М.: Издательский дом «Диалог».
6. Merriam-Webster Online Dictionary (электрон ресурс). URL: https://www.merriam-webster.com/ (Мурожаат санаси 24.01.2025).
7. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. https://ziyouz.uz lugatlar.
8. Oxford Advanced English Learner's Dictionary (электрон ресурс). URL: http://www.oxfordlearnersdictionaries.com/ .
9. Трубачев О.Н. (2002). Этногенез и культура древнейших славян: Лингвистические исследования / О.Н. Трубачев. – М.: Наука.
10. Воробьев В.В. (1996). Теоретические и прикладные аспекты лингвокультурологии: автореф. Дис. … д-ра филол. Наук / В.В. Воробьев. – М.
11. Хвостенко А.А. (2014). Терминология родственных отношений в англосаксонском обществе и древнеанглийском языке / А.А. Хвостенко // Филологические науки. Вопросы теории и практики. – Тамбов: Грамота. – № (36): в 2-х ч. Ч. II.

REFERENCES:

1. Harper D. Etymology Dictionary / D. Harper // URL: http://www.etymonline.com (In English).
2. Longman Dictionary of Contemporary English. (2005) – London: II Summers Della, (In English).
3. Macmillan English dictionary of advanced learners. (2002) – London: Macmillan Publishers Limited. (In English).
4. Ma’rufov Z.M. (tahr.) (1981). O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Birinchi jild. Moskva: “Rus tili” nashriyoti (In Uzbek).
5. Makovskiy M.M. (1999). Istorichesko-etimologicheskiy slovar angliyskogo yazyka / M.M. Makovskiy. – M.: Izdatelskiy dom «Dialog» (In Russian).
6. Merriam-Webster Online Dictionary (elektron resurs). URL: https://www.merriam-webster.com/ (Murojaat sanasi 24.01.2025) (In English).
7. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. https://ziyouz.uz lug‘atlar (In Uzbek).

8. Oxford Advanced English Learner's Dictionary (elektron resurs). URL: http://www.oxfordlearnersdictionaries.com/ (Murojaat sanasi 24.01.2025) (In English).

9. Trubachev O.N. (2002). Etnogenez i kultura drevneyshikh slavyan: Lingvisticheskiye issledovaniya / O.N. Trubachev. – M.: Nauka (In Russian).

10. Vorobyev V.V. (1996). Teoreticheskiye i prikladnyye aspekty lingvokulturologii: avtoref. dis. … d-ra filol. nauk / V.V. Vorobyev. – M (In Russian).

11. Xvostenko A.A. (2014). Terminologiya rodstvennyx otnosheniy v anglosaksonskom obshchestve i drevneangliyskom yazyke / A.A. Xvostenko // Filologicheskiye nauki. Voprosy teorii i praktiki. – Tambov: Gramota. – № (36): v 2-x ch. CH. II (In Russian).

“NUZHAU-T-TARF FI I’LMI-S-SARF” ASARINING QO‘LYOZMA VA TOSHBOSMA NUSXALARI

MANUSCRIPT AND LITHOGRAPHED COPIES OF THE WORK "NUZHAT AT-TARF FĪ ILM AS-SARF"

РУКОПИСНЫЕ И ЛИТОГРАФИРОВАННЫЕ ЭКЗЕМПЛЯРЫ СОЧИНЕНИЯ «НУЗХАТ АТ-ТАРФ ФИ ИЛЬМ АС-САРФ»

Yakubova Feruza Rashidovna
Oriental Universiteti
Tillar-1kafedrasi katta o‘qituvchisi
Tel.: +998 99 847-57-31
E-mail: firuzaya1984@gmail.com.

Annotatsiya. Ahmad ibn Muhammad Maydoniyning “Nuzhatu-t-tarf fi i’lmi-s-sarf” asarining turli qo‘lyozma va toshbosma nusxalari bugungi kunda dunyoning yirik kutubxonalarida saqlanmoqda. Ularning salmog‘ini o‘rganish va tadqiq qilish bugungi kunda dolzarb masalalardan biridir. Ushbu maqolada “Nuzhatu-t-tarf fi i’lmi-s-sarf” asarning dunyo fondlarida saqlanayotgan toshbosma va qo‘lyozma nusxalari haqida ma’lumotlar to‘plangan. Shuningdek, Turkiyaning Sulaymoniya kutubxonasi, Laleli bo‘limi, 3140 inv. raqami ostida saqlanayotgan asarning tavsifi va tadqiqi amalga oshirildi. Qo‘lyozmaning dastlabki sahifalarida uchraydigan she’riy misralar asosida asarning muallifiga oid dalillar ko‘rsatib o‘tiladi. Shuningdek, qo‘lyozmaning birinchi sahifasida keltirilgan “نزهة الطرف فى علم الصرف لابن المفضل أحمد بن محمد الميداني” jumlasi muallifning shaxsini tasdiqlovchi asosiy ma’lumot sifatida tahlil qilinadi. Qo‘lyozmaning o‘ziga xos xususiyatlari, undagi muhr, xotima va matn o‘rganildi. Tadqiqot qo‘lyozmaning ilmiy qimmati va tarixiy ahamiyatini ochib beradi.

Kalit so‘zlar: qo‘lyozma, sarf ilmi, Sulaymoniya kutubxonasi, nasx xati, mualliflik dalillari, muhr, toshbosma, qo‘lyozma.

Abstract. The various manuscript and lithograph copies of Ahmad ibn Muhammad Maydaniy’s “Nuzhatu-t-tarf fi i’lmi-s-sarf” are preserved today in major libraries around the world. Studying and analyzing these copies has become one of the pressing scholarly tasks of the present time. This article compiles information on the lithograph and manuscript versions of “Nuzhatu-t-tarf fi i’lmi-s-sarf” held in international manuscript collections. It also provides a descriptive and analytical study of the copy preserved in the Süleymaniye Library, Laleli Section, under inventory number 3140.

Based on the poetic verses found in the opening folios of the manuscript, the article presents internal evidence related to the authorship of the work. Additionally, the phrase written on the first page of the manuscript — “ نزهة الطرف فى علم الصرف لابن

المفضل أحمد بن محمد الميداني” — is examined as a primary source confirming the author’s identity. The study further explores the distinctive features of the manuscript, including its seals, colophon, and textual characteristics.

Keywords: manuscript studies, Arabic morphology, Süleymaniye Library, naskh script, authorship evidence, manuscript seal, lithograph, manuscript.

Аннотация: Различные рукописные и литографические копии трактата Ахмада ибн Мухаммада аль-Майдани «Нузҳату-т-тарф фи ‘ильми-с- сарф» в настоящее время хранятся в крупнейших библиотеках мира. Изучение и исследование этих образцов является одной из актуальных задач современного востоковедения. В данной статье собраны сведения о печатных и рукописных редакциях «Нузҳату-т-тарф фи ‘ильми-с-сарф», находящихся в мировых фондах. Кроме того, выполнено описание и исследование экземпляра, хранящегося в библиотеке Сулеймания, отдел Лалели, под инвентарным номером 3140.

На основе поэтических строк, встречающихся на первых листах рукописи, представлены внутритекстовые доказательства, относящиеся к авторству произведения. Также рассматривается фраза, приведённая на первой странице рукописи — «نزهة الطرف فى علم الصرف لابن المفضل أحمد بن محمد الميداني», — которая рассматривается как основное сведение подтверждающее личность автора.

В исследовании рассматриваются особенности рукописи, включая печать, колофон и текстовое содержание. Работа раскрывает научную ценность и историческое значение данной рукописи.

Ключевые слова: рукописные исследования, арабская морфология, библиотека Сулеймания, письмо насх, свидетельства авторства, печать рукописи, литографическая копия, рукопись.

KIRISH

Arab tilshunosligi tarixida sarf ilmi alohida o‘rin tutadi. Ushbu soha arab tilining grammatik tizimini chuqur anglash, so‘zlarning shakl o‘zgarish qonuniyatlarini izohlash va tilning ichki tuzilishini aniqlashda muhim ilmiy yo‘nalish hisoblanadi. Bu yo‘nalishda yozilgan ko‘plab asarlar orasida Ahmad ibn Muhammad Maydoniyning “Nuzhatu-t-tarf fi i’lmi-s-sarf” nomli asari o‘zining ilmiy aniqligi, soddaligi va didaktik uslubi bilan ajralib turadi. Mazkur asar nafaqat o‘z davrida, balki keyingi asrlarda ham sarf ilmini o‘qitishda muhim manba bo‘lib xizmat qilgan.

“Nuzhatu-t-tarf fi i’lmi-s-sarf” asarining turli qo‘lyozma va toshbosma nusxalari bugungi kunda dunyoning yirik kutubxonalarida saqlanmoqda. Biroq ushbu nusxalarning to‘liq ilmiy tahlili, ularning matniy farqlari, nusxalarning tarixiy va madaniy konteksti hali yetarlicha o‘rganilmagan. Mazkur tadqiqotning dolzarbligi shundaki, u arab tilshunosligi tarixini chuqurroq anglash, Maydoniyning ilmiy

merosini qayta baholash va qo‘lyozmalar asosida asarning ishonchli matnini aniqlash imkonini beradi.

Tadqiqotning asosiy maqsadi “Nuzhatu-t-tarf fi i’lmi-s-sarf” asarining mavjud qo‘lyozma va toshbosma nusxalarini aniqlash va o‘rganish, shuningdek, Sulaymoniya kutubxonasining Laleli bo‘limida 3140 raqam ostida saqlanayotgan qo‘lyozmani tadqiq qilish, ilmiy jihatdan tavsiflash, taqqoslash hamda matnshunoslik asosida tahlil qilishdir. Shuningdek, tadqiqot asarning arab grammatik an’anasidagi o‘rni, sarf ilmi rivojiga qo‘shgan hissasi hamda uning keyingi grammatik asarlarga ta’sirini yoritishga qaratilgan.

Maqola natijalari arab tili tarixini o‘rganishda, sarf ilmini o‘qitishda hamda arab qo‘lyozmalarini tavsiflash sohasida qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan ilmiy hamda amaliy ahamiyatga ega. Shu bois, ushbu mavzuni o‘rganish arab tilshunosligi merosini yanada boyitish, qadimiy grammatik an’analarni zamonaviy ilmiy muomalaga kiritish uchun muhim qadamlardan biridir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Arab dunyosida Maydoniyning bu asari haqida ayrim qisqa ilmiy izohlar va bibliografik ma’lumotlar keltirilgan bo‘lsa-da, to‘liq matnshunoslik tahliliga bag‘ishlangan tadqiqotlar juda kam. Masalan, Ibn Anbariyning “Nuzhatu-l-albai” (الأنباري،377:1998), Ibn Xallikonning (XIII)“Vafoyotu-l-ayon”(ابن خلكان،1968:449), Yoqut Hamaviyning (XIII) “Irshadu-l-arib”(ياقوت الحموي،1993:24-28), Jaloliddin Suyutiyning (XVI)“Bug‘yot-u-l-vuot”(عبد الرحمن السيوطي،1964:248) kabi asarlarida, shuningdek Abdul G‘affor bin Ismoilning “as-Siyaq” (عبد الغفار بن إسماعيل الفارسي،مخطوطة), Ibn Qiftiy (XIII)ning “Inbahu-r-ruvvot” (ابن قفطي،62:1903), Hoji Xalifa (XVII)ning “Kashfu-z-zunun” (حاجي خليفة، 1502:1941), As-Safadiy (1296–1363) “Al-vafi bi'l-vafayat” (خليل بن أيبك الصفدي،2000:305) kabi asarlarida Maydoniyning hayoti haqida ma’lumotlarni topamiz. Muallif haqidagi ilmiy ma’lumotlar esa K.Brokkelman (1868-1956)ning “Tarixu-l-adabi-l-arabiy” (كارل بروكلمان،1968:511) asarida keltirilgan. Asarning qo‘lyozma va toshbosma nusxalari haqida ba’zi ma’lumotlarni ham uchratish mumkin, ammo yetarli va to‘liq shaklda emas.

Asarning biz o‘rganayotgan qo‘lyozma nusxasi ham ilgari tadqiq qilinmagan. Shunday ekan, ushbu mavzu alohida tadqiqot obyekti bo‘la oladi deb hisoblaymiz.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur maqolada Ahmad ibn Muhammad Maydoniyning “Nuzhatu-t-tarf fi i’lmi-s-sarf” asariga oid qo‘lyozma va toshbosma nusxalarini o‘rganish, ularning ilmiy tavsifini berish, matniy farqlarni aniqlash va asarni ilmiy muomalaga kiritish asosiy

maqsad qilib olingan. Tadqiqot jarayonida manbashunoslik, qiyosiy-tahliliy, filologik hamda matnshunoslik metodlari uyg‘un holda qo‘llanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ahmad Maydoniyning “Nuzhatu-t-tarf fi i’lmi-s-sarf” asari arab tilshunosligi tarixida alohida o‘rin tutadigan muhim grammatik manbalardan biridir. Asarda arab so‘z yasalish tizimi chuqur nazariy asosda tahlil qilingan bo‘lib, u o‘z davrining ilmiy-uslubiy talablari darajasida yozilgan. Asarning mazmunida sarf ilmining asosiy bo‘limlari fe’llar tasnifi, ismlar yasalishi, vazn va asl harflar tizimi hamda ishtiqoq qoidalari keng yoritilgan.

Ushbu kitobning ilmiy qiymati va qadri u bilan olimlarning qanchalik qiziqqanliklari, uni o‘rganish, yod olish, ta’lim jarayonlariga kiritish orqali yaqqol ko‘zga tashlanadi. Bu ilmiy meros bir necha bor nashr etilgan, jumladan:

1. 1298-hijriy yilda ba’zi manbalarda va nusxalarida 1299-yilda deb keladi. Konstantinoplda “Al-Javaib” matbaasida bosilgan. (1881،.№6913:“نزهة الطرف فى علم الصرف”).

2. 1401-hijriy yilda Bayrutdagi Dar al-afaq al-jadida nashriyotida chop etilgan.

3. 1402-hijriy yilda Misrdagi “Dar at-tib’a al-hadisa” nashriyotida, doktor Sayyid Muḥammad ‘Abd Maqṣud Darvish tomonidan tahqiq va sharh bilan chop etilgan.

“Nuzhatu-t-tarf fi i’lmi-s-ṣarf” asarining qo‘lyozma hamda toshbosma nusxalari bugungi kunda dunyoning turli kutubxona va muzeylari fondlarida saqlanmoqda. Ushbu holat asarning ilmiy ahamiyati va keng tarqalganligini ko‘rsatadi. Mazkur tadqiqotda, Karl Brokkelman tomonidan keltirilgan bibliografik ma’lumotlar o‘rganildi, hamda Turkiyadagi Sulaymoniya kutubxonasi fondlari o‘rganishi natijasida asarning quyidagi qo‘lyozma va toshbosma nusxalari aniqlandi.

Sulaymoniya kutubxonasida saqlanayotgan asarning qo‘lyozma nusxalari:

“Laleli” bo‘limi 3140 raqam, “Fatih” bo‘limi 5065-004 raqam, “Shahid Ali Pasha” bo‘limi 2588 raqam va 2582-001 raqam, “Ayasofiya” 4648 raqam (739-yil ko‘chirilgan), hamda “Bursa inebey” kutubxonasi, “haracciog‘lu” bo‘limi 1621/1, “Bag‘datli Vehbi” 1823-001, “Balikeshir mutasarrif Omer Ali Bey” kutubxonasi 187 raqam, “Beyazit” kutubxonasi B7898/6, Milliy kutubxona vez 68355 raqam, “Chorum Hasan Pasha” kutubxonasi 3286/23 raqam va 2876/1, “Kastamanu Yazma Eser” kutubxonasi 1237/03 raqamlari ostida saqlanadi. Shuningdek, asarning qo‘lyozma nusxalari Ispaniya 2 №196 va Britaniya muzeyida №5964 (uchinchi 50) raqam ostida saqlanmoqda.(كارل بروكلمان،1968:511)

Toshbosma nusxalari: Qohira 2 №m 12/ B 4 va Yahyo an-Nihoniy inoyati bilan Istanbulda 1299-yilda nashr qilingan toshbosma nusxalari saqlanmoqda. (كارل بروكلمان،1968:511) Aynan shu nusxa yana AQSH ning Kongress kutubxonasining

Abdulhamid II (turk sultoni 1842-1918) kolleksiyasida ham mavjud (https://www.loc.gov/resource/amedhamid 2.8444021).

Shuningdek, Sulaymoniya kutubxonasida saqlanayotgan quyidagi toshbosma nusxalari aniqlandi:

Toshbosma nusxalari Sulaymaniya kutubxonasi “Tirnavali” bo‘limi 01714-001 raqam va “Sutluce Dergahi” bo‘limi 00366-001raqam va 00353-001 raqam, “Mehmed Sefayihi” bo‘limi 00416-001, “Omer Sindel” bo‘limi 00560, “Osman Huldi O‘zturk” 00763-001, “Haseb Efendi” bo‘limi 00489-001, “Izmirli Ismail Hakki” 03715-001, “Rajib Pasha” kutubxonasi 03601, “Kanya yozma eselar Bolge Mudurlugu” BB00010797, “Millet” kutubxonasi 03902/1 raqami ostida saqlanadi.

“Nuzhau-t-tarf fi ilmi-s-sarf” asarining Konstantinopolda hijriy 1299-yil, milodiy 1881-yilda al-Javaib matbaasida chop etilgan toshbosma nusxalardan biri Toshkentda Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik Instituti qo‘lyozmalar fondida 6913 raqam ostida saqlanmoqda .

Mazkur Istanbul toshbosma nushasi majmua tarkibida berilgan, ya’ni 3 ta arab tili grammatikasiga oid asarlar bir kitob qilib jamlangan. Ushbu majmuadan birinchi asar: Muhammad Maydoniyning “Nuzhatu-t-tarf fi ilmi-s-sarf”, ya’ni (Sarf ilmiga sayohat) kitobidir, ikkinchi kitob “Al-unmuzaj fi-n-nahv” (Nahv ilmidan namuna) muallifi, zamona ustozi Mahmud ibn Umar Zamaxshariydir. Uchinchi kitob “Al-i’rab fi-l-qavaidi-l-i’rab” (E’rob qoidalarida e’rob). Muallifi arab tilining imomi, so‘nggi davr nahvchilarining eng fozili Jamoluddin Abu Muhammad Abdulloh ibn Yusuf bin Hishamdir. Shubhasiz ushbu uchlikdan tuzilgan majmua madrasalar uchun qo‘llanma vazifasini o‘tagan deb ayta olamiz.

Ushbu maqolamizda asos qilib olingan qo‘lyozma Turkiyaning Sulaymoniya kutubxonasida 3140 raqam ostida saqlanayotgan nusxa hisoblanadi. O‘lchami 190x140mm. bo‘lib, har bir sahifa 15, ba’zilari 16 satrni tashkil qiladi. Jami 126 betdan iborat.

Asarning 1a varag‘ida Allohni, ilm ahlini, va Payg‘ambarni (s.a.v.) ulug‘lovchi madhiy she'riy uslubda yozilgan matn bor, u 15 satrdan iborat bo‘lib, eski o‘zbek tilida yozilgan. Ba’zi so‘zlar turkiy va forsiy elementlarni o‘z ichiga olgan shunday jumlalar bilan boshlanadi:

هَذا فَطْرَةُ الوَصْفِ مِن بَحرِ أَوْصافِ حَمِيدَهِ حَضرَتِ
سِيمُرْغِ شَاهِ العِلْمِ وَكَشّافِ سِرِّ القُرآنِ
سُلطانِ مَلِكِ المَعْنَى سِرْتاجِ أَهْلِ العِرْفَانِ

Bu madhiyali vasf Bahr ul-avsofdan (ya’ni “Sifatlar bahridan”) bo‘lib, u hazratning (ilm ahli zoti) madhi xisoblanadi.

U — ilm podshohining Simurg‘i, Qur’on sirlarining kashfchisi,

Ma’no saltanatining sultoni, ma’rifat ahlining sartoji.

Bu yerda “hazrat” deganda asar bag‘shida qilingan shaxs Abi Bakr Said bin Mas’ud abi Nasr Shahriyor bin Sherzod janoblari nazarda tutilgan. Chunki muallif asarning muqaddima qismida asar shu kishiga bag‘ishlanganligini aytib o‘tadi.

“Simurg‘”- fors mifologiyasida bilim va ma’rifat ramzi bo‘lib, ilm ahlini, ma’rifat egasini anglatadi. She’rning qolgan qismining mazmuni quyidagicha:

Usmon elining orasida Allohning ilmi bilan mashhur bo‘ldi.
U shariflar ichida ikkinchi darajali (ya’ni yuksak) zotdir,
Jonining balosi bo‘lsa ham ma’nolarni anglashdan to‘xtamaydi,
Uning umri Payg‘ambar muhrining shahdi va iymoni bilan quvvatlangan.
Uning fazilati doimiy bo‘lsin, baqosi abadiy bo‘lsin,
Biz uning nuridan hech qachon uzilmaylik.
Olamdagi odamlar u bilan izzatga erishsinlar,
Davlat dastori (toqi) boshiga kiyar darajada ulug‘ bo‘lsin,
Dunyoda faqirlik va kamchilik yo‘qolsin,
Allohning fazlu saxovati bilan Firdavs joyi bo‘lsin,
Uning yuzi nurli, qalbi toza, fursat va ziynat nuridir,
Ey saxiylik bulog‘i, sen — ummonday beqiyos insondirsan!

Demak, muallif vasf qilayotgan shaxsni buyuk olim, husnda, dinda mashhur inson sifatida tavsiflaydi.

Asarning keyingi 1b varag‘ida yana bir she’riy parcha yozilgan bo‘lib, u ham eski o‘zbek tilida yozilgandir. Ushbu she’riy parchada ba’zi so‘zlar turkiy va forsiy tilda berilgan. U shunday satrlar bilan boshlanadi:

شول نَفَسنك حُسْنَكْ جَذَبَكْ كُكْلَمْ عَلْدنك نَزَر
هِي آلْلَاه كُولُ بُزُلمَس كِمْ وَلَا آلْلَاه كُولُ نَزَر
أُبْنِى حِسْنِكْ لَحْنِ وَ مَسْكَنِ حَرَام أَنْدَر وُ كِبَا
بُنْ حَرَامِ كُيُ كَافِى كِ نَغَمْ حَلَالْ أَنْدَر نَزَر
حُسْنِ تَنْدَر بُلِمْ اَوْ بَرْنِشْ نُو رُخْشَنْ نَاخُشِ
زَا هِدَا أَنْكَارِ بَعِيشْ ذُ وِلَالَ آلْلَاه كُولُ نَزَر

Sening nafasing va husning ko‘klam (bahor) oldida nazardir,
Allohning quli bo‘lgan kimsa, buni buzolmas va Allohning qulidan nazar ketmas.
Sening husning qo‘shig‘i va makoni harom bo‘lsa ham,
Bu haromni ko‘rish yetar, chunki uning nag‘masi haloldir.
Taning husni bilan yoringning yuzi nur sochar,

Bu she’r so‘fiy va muhabbat mazmunida yozilgan bo‘lib, she’rning oxirgi misrasida Ahmad taxallusi qo‘llanilgan:

Foniy suratidan xavflanma», dedi dilbar,
«Ey Ahmad, qiyomatda so‘ralganingda — Alloh quli nazar bilan bo‘l.

Bu misra asar muallifi Ahmad Maydoniyga tegishli ekanini bildiradi. She'rda "Alloh quli nazar" iborasi takrorlanib, go'zallikni Allohning nuri va fazli deb ko'rsatadi, ya'ni go'zallikni ko'rish ham Allohning karomatidir. She'r 12 qatordan iboratdir.

Asarning keyingi sahifasida asar muallifiga dalolat qiluvchi yana bir ma'lumot bor:

نزهة الطرف فى علم الصرف لابن المفضل أحمد بن محمد الميداني

-Ibn Mufazzal Ahmad bin Muhammaf Maydoniyning "Nuzhat-t-tarf fi i'lmis-s-sarf "(asar)i.

Shuningdek, ushbu sahifada muhr ham mavjud bo'lib, unda quyidagi yozuvlarni o'q'ishimiz mumkin:

الملك لله وحده لا شريك له

السلطان لله الواحد القهار

-Mulk (moliklik) faqat Allohga xosdir, Uning sherigi yo'q.

Sultonlik Allohning, yagona va qahhorning (hukmronlik Unikidir).

Muhrda kutubxona ma'lumotlari yozilgan. Unga ko'ra asar Sulaymoniya kutubxonasi, Laleli bo'limida 3140 raqam ostida saqlanadi.

Nusxaning bosh qismida fors-tojik va turkiy so'zlaridan iborat bo'lgan matnlar bo'lishiga qaramay, asarning asosiy ilmiy qismi to'liq arab tilida yozilgan. Yozuvi nasx xat turiida bo'lib, so'zlarga harakat qo'yilmagan. Shuningdek, qat'iy hamzalar ham tushirib qoldirilgan.

Asar 10 ta asosiy bobdan, 2 fasl va 13 ta kichik bo'limlardan iborat. Ismlarning yasalishi, fe'llarning yasalishi, masdarlar, sifatdoshlar, hamzaga tegishli qoidalar, buyruq mayli va fe'l boblari kabi arab tili grammatik kategoriyalari haqida so'z yuritiladi. Ayniqsa, fe'l va fe'l boblariga katta e'tibor berilgan. Har bir bob alohida fasllarda bayon qilingan. Illatli harflarning tuslanish jarayonida o'zgarishlarga uchrashi, fe'llarning tuslanish jarayonida bir xillik masalalari keng ochib berilgan. Har bir kotegoriya lo'nda izohlar, qoidalar hamda ularni mustahkamlash uchun misollar bilan boyitilgan. Muallif o'z asarini "لازم" (o'timsiz) va "متعدّي" (o'timli) fe'llariga bergan xulosasi bilan yakunlaydi.

O'rganilayotgan qo'lyozmaning so'nggi varaqlarida asarning xotima qismi joylashgan bo'lib, u uchburchak shakl ichida berilgan. Qo'lyozmaning kolofonida kotib ismi, qachon ko'chirib tugatgani kabi ma'lumotlarga ega bo'lishimiz mumkin, lekin nusxa ko'chirilgan sana berilmagan bo'lib, shavvol oyining o'n beshinchi kuni tugatilgani aytiladi.

فرغتُ من تحرير هذا الكتاب بعون الله المتعال في خامس شهر شوال، وأنا العبد الفقير المحتاج إلى رحمة ربّه الكريم جلال محمد بن الوسيم الكاتب

- Men ushbu kitobni Allohning yordami ila Shavvol oyining beshinchi kuni tahrir qilishni tugatdim.Men – Robbimning rahmatiga muhtoj, faqir va kambag‘al banda:Muhammad ibn al-Vasiym kotib

Kotib xotimasida sana, hijriy yil ko‘rsatilmasa-da, qo‘lyozmaning umumiy paleografik xususiyatlari uning XIX asrga mansub bo‘lishi ehtimolini ko‘rsatyapti.

Xotimada muallif va uning ustozi Istirabodiy haqqiga duo qilinadi va yakun yasaladi:

سقى الله ثراه، وأدام النفع بعلمه للطلاب، وجعل الاستراباديَّ شيخه المشهور بالفضل مرفوعَ المنزلة عند الله وفي الدنيا اللهم اغفر له ولوالده ولأصحابه ولجميع المسلمين بحق محمد وآله أجمعين .آمين. الطالب

-Alloh uning qabrini serob qilsin, ilmidan talabalarga yaxshilik yetkazishda davom ettirsin, Va uning ustozi – al-Istirabodiyni, fazilati bilan mashhur olimni Alloh huzurida va dunyoda maqomini baland qilsin. Ey Alloh, unga, uning otasiga, do‘stlariga va barcha musulmonlarga mag‘firatihni nozil et Muhammad va uning oli haqqi bilan.Omin.

Jalol Muhammad ibn Ahmadning xotimasi qo‘lyozmaning keng tarqalgan o‘quvchi nusxasi bo‘lganini ko‘rsatadi. Uning yozuvi mukammal, xat tartibi an’anaviy, imlo xususiyatlari esa XIX asrga dalolat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ahmad ibn Muhammad Maydoniyning “Nuzhat-ut-tarf fī i’lmi sarf” asari qo‘lyozmasi va toshbosma nusxalari dunyoning mashhur kutubxonalaridan joy olgan, ushbu asarni filologik va matnshunoslik asosida o‘rganish arab tilshunosligining rivojiga, shuningdek, o‘zbek arabshunoslik maktabining boyishiga sezilarli hissa qo‘shadi. Sulaymaniya kutubxonasi (Laleli bo‘limi, 3140 raqam)da saqlanayotgan ushbu nusxa Maydoniy ilmiy merosining ishonchli manbasi bo‘lib, sarf ilmi tarixini o‘rganish, arab qo‘lyozmalarining tekstologik talqinini chuqurroq tahlil qilish hamda klassik lingvistik adabiyotlarni ilmiy muomalaga kiritish jarayonida alohida ahamiyatga ega. Qo‘lyozmaning dastlabki sahifalarida uchraydigan she’riy misralar, muhrlar va muallif nomining aniq ko‘rsatilganligi asarning muallifligini tasdiqlovchi ma’lumotlardir. Ushbu qo‘lyozmaning nasx xatida yozilgani, harakatlar qo‘yilmagani va qat’iy hamzalarning tushirilgani kabi xususiyatlar uning yozilish davri va xattotlik an’analarini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, asarning xotimasi ham juda ahamiyatli bo‘lib, unda nusxa ko‘chiruvchining ismi hamda ko‘chirilgan sanasi haqida qisman bo‘lsa-da ma’lumotlarga ega bo’la olamiz.

Tadqiqot natijalari ushbu asarning ilmiy qiymatini yana bir bor tasdiqlab, Maydoniy merosining bugungi zamonaviy sarfshunoslikda ham dolzarb manba bo‘lib qolayotganini ko‘rsatdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Dairat al-Ma‘arif al-Islamiyah, 1-4-jild.

2. Nasirova M. (2019) Tilshunoslik bilimlari tarixi. – Toshkent: Navro‘z nashriyoti.

3. Nosirova M. (2005) Mahmud Zamaxshariyning “Al-Unmuzaj fi-n-nahv” risolasi.

4.Қосимова С. (2019) XI-XIII асрларда Мовароуннаҳр тилшуносларининг араб грамматик назарияси бўйича илмий тадқиқотлари. Монография. – Тошкент.

5. أحمد بن محمد الميداني، نزهة الطرف فى علم الصرف، مخطوط، رقم:3140

.5 ابو البركات كمال الدين عبد الرحمن بن محمد الأنباري، نزهة الألباء في طبقات الأدباء ، تحقيق محمد أبو الفضل إبراهيم،مصر – القاهرة ١٤١٨هـ / ١٩٩٨، ص.337

8.وفيات الأعيان وأنباء أبناء الزمان،أحمد بن محمد بن إبراهيم ابن خلكان،تحقيق: إحسان عباس – دار صادر، بيروت، 1968م،الجزء: 3،ص: 449

9. إرشاد الأريب إلى معرفة الأديب، شهاب الدين ياقوت الحموي،تحقيق: إحسان عباس – دار الغرب الإسلامي، بيروت، 1993م،الجزء: 2،ص: 24-

10. بروكلمان كارل. تاريخ الأدب العربي. دار المعارف بمصر. الجزء الخامس. 1975 م.

11. بغية الوعاة في طبقات اللغويين والنحاة، جلال الدين عبد الرحمن السيوطي،دار الفكر، بيروت، 1964م،الجزء: 1،ص: 248–249

12. نباه الرواة على أنباه النحاة، جمال الدين أبو الحسن علي بن يوسف ابن قفطي، تحقيق: فلهلم سبيتا – القاهرة، 1903م،الجزء: 1،ص: 62–63

13. كشف الظنون عن أسامي الكتب والفنون، مصطفى بن عبد الله حاجي خليفة، دار إحياء التراث العثماني، إسطنبول، 1941م، الجزء: 2،ص: 1502

14.لوافي بالوفيات، صلاح الدين خليل بن أيبك الصفدي، تحقيق: أحمد الأرناوط – 2000م،ج: 1،ص: 306–305

15. تاريخ الأدب العربي، كارل بروكلمان، دار المعرفة، بيروت، 1968م،ص: 511

REFERENCES:

1. Nasirova, M. (2019). History of Linguistic Knowledge. Tashkent: Navro‘z Publishing House.

2. Nosirova, Malika. (2005). Mahmud al-Zamakhshari’s Treatise “Al-Unmuzaj fī al-Naḥw”.

3. Qosimova, S. (2019). Scholarly Studies on Arabic Grammatical Theory by the Linguists of Mawarannahr in the 11th–13th Centuries. Monograph. Tashkent.. Nuzhat al-Ṭarf fī ʿIlm al-Ṣarf. Al-Jawāʾib Press, Constantinople, 1881 (AD). Lithographic edition. Inventory No. 6913.

أحمد بن محمد الميداني، نزهة الطرف فى علم الصرف، مخطوط، رقم:63140

7. ابو البركات كمال الدين عبد الرحمن بن محمد الأنباري، نزهة الألباء في طبقات الأدباء ، تحقيق محمد أبو الفضل إبراهيم،مصر – القاهرة ١٤١٨هـ / ١٩٩٨، ص.337

8. وفيات الأعيان وأنباء أبناء الزمان،أحمد بن محمد بن إبراهيم ابن خلكان،تحقيق: إحسان عباس – دار صادر، بيروت، 1968م،الجزء: 3،ص: 449

9. إرشاد الأريب إلى معرفة الأديب، شهاب الدين ياقوت الحموي،تحقيق: إحسان عباس – دار الغرب الإسلامي، بيروت، 1993م،الجزء: 2،ص: 24-

10. بروكلمان كارل. تاريخ الأدب العربي. دار المعارف بمصر. الجزء الخامس. 1975 م.

11. بغية الوعاة في طبقات اللغويين والنحاة، جلال الدين عبد الرحمن السيوطي،دار الفكر، بيروت، 1964م،الجزء: 1،ص: 248–249

12. نباه الرواة على أنباه النحاة، جمال الدين أبو الحسن علي بن يوسف ابن قفطي، تحقيق: فلهلم سبيتا – القاهرة، 1903م،الجزء: 1،ص: 62–63

13. كشف الظنون عن أسامي الكتب والفنون، مصطفى بن عبد الله حاجي خليفة، دار إحياء التراث العثماني، إسطنبول، 1941م، الجزء: 2،ص: 1502

14. لوافي بالوفيات، صلاح الدين خليل بن أيبك الصفدي، تحقيق: أحمد الأرناوط – 2000م،ج: 1،ص: 305–306

15. تاريخ الأدب العربي، كارل بروكلمان، دار المعرفة، بيروت، 1968م،ص: 511

MALIHO TAZKIRASIDA XVII ASR MOVAROUNNAHRDAGI MADANIY, ILMIY VA ADABIY HAYOTNING RIVOJI

THE DEVELOPMENT OF CULTURAL, SCIENTIFIC AND LITERARY LIFE IN 17TH CENTURY MOVAROUNNAKHR IN MALIHO'S TAZKIRA

РАЗВИТИЕ КУЛЬТУРНОЙ, НАУЧНОЙ И ЛИТЕРАТУРНОЙ ЖИЗНИ В МОВЕРОУННАХРЕ XVII ВЕКА В ТАЗКИРЕ МАЛИХО

Raxmatullayev Nodir Nuritdinovich
Toshkent dalat sharqshunoslik universiteti
Turkshunoslik oliy maktabi tayanch doktoranti
Tel.: +998 90 187-67-84
E-mail: raxmatullaevnodir@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada XVII asrda Movarounnahrda forsiy adabiyot, ilm-fan va madaniyatning og‘ir tarixiy-siyosiy sharoitlarga qaramay rivojlanish jarayoni atroflicha tahlil qilingan. Tadqiqot Maliho Samarqandiyning “Muzakkiru-l-as’hob” tazkirasiga tayanadi. Asrning birinchi yarmidagi nisbiy tinchlik davrida Buxoro, Samarqand va Balxda me’morchilik yodgorliklari (Sherdor, Tilloqori, Labi hovuz) bunyod etilgani, ikkinchi yarmida esa siyosiy beqarorlik kuchayib, ko‘plab inshootlarning xarobaga aylangani ko‘rsatib o‘tiladi. Maqolada Mullo Tursun Faroiziy va Qozi Lutfulloh Shokir Buxoriy kabi olimlarning diniy va dunyoviy ilmlardagi (astronomiya, geometriya, algebra) faoliyati yoritilgan. Shuningdek, adabiyotning saroy muhitidan shahar doiralariga ko‘chishi, ayniqsa hunarmandlar orasida keng tarqalgani va 200 dan ortiq shoirning shu davrda ijod qilgani tahlil etiladi. Samarqand va Buxoro adabiy muhitlarining o‘ziga xos xususiyatlari, shahar adabiyotining ustuvorligi va o‘ta murakkab sharoitlarda ham adabiy an’analarning davom etishi asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: *Maliho Samarqandiy, Muzakkiru-l-as’hob, Movarounnahr, forsiy adabiyot, me’morchilik yodgorliklari, dunyoviy ilmlar, shahar adabiyoti, Samarqand-Buxoro muhiti.*

Annotation. This article comprehensively analyzes the development of Persian literature, science, and culture in Movarounnahr during the 17th century, despite challenging historical and political conditions. The research relies on key sources such as Maliho Samarqandi's “Muzakkiru-l-as’hob”. It is demonstrated that architectural monuments were built in Bukhara, Samarkand, and Balx during the relatively peaceful first half of the century (Sherdor, Tilloqori, Labi Hovuz), while increasing political instability in the second half led to the ruin of many structures. The article covers the activities of scholars like Mullo Tursun Faroiziy and Qozi Lutfulloh Shokir Buxoriy in both religious and secular sciences (astronomy, geometry, algebra). Furthermore, it

analyzes the shift of literature from court circles to urban environments, its spread among artisans, and the work of over 200 poets during this period. The distinct characteristics of the Samarkand and Bukhara literary circles, the predominance of urban literature, and the continuation of literary traditions even under extremely difficult circumstances are substantiated.

Keywords: *Maliho Samarqandi, Muzakkiru-l-as'hob, Movarounnahr, Persian literature, architectural monuments, secular sciences, urban literature, Samarkand-Bukhara environment.*

Аннотация. В данной статье всесторонне анализируется процесс развития персидской литературы, науки и культуры в Мавераннахре в XVII веке, несмотря на тяжелые историко-политические условия. Исследование опирается на ключевой источник как «Музаккиру-л-асхоб» Малихо Самарканди. Показано, что архитектурные памятники были построены в Бухаре, Самарканде и Балхе в относительно мирной первой половине века (Шердор, Тиллякори, Ляби-хауз), в то время как усиление политической нестабильности во второй половине привело к разрушению многих сооружений. В статье освещается деятельность таких ученых, как Мулло Турсун Фароизи и Кози Лутфуллох Шокир Бухори в религиозных и светских науках (астрономия, геометрия, алгебра). Кроме того, анализируется переход литературы из придворной среды в городскую, ее распространение среди ремесленников и творчество более 200 поэтов в этот период. Обосновываются отличительные черты самаркандского и бухарского литературных кругов, преобладание городской литературы и продолжение литературных традиций даже в крайне сложных условиях.

Ключевые слова: *Малихо Самарканди, Музаккиру-л-асхоб, Мавераннахр, персидская литература, архитектурные памятники, светские науки, городская литература, самаркандско-бухарская среда.*

XVII asrda forsiy adabiyot Movarounnahrda og‘ir tarixiy sharoitda rivojlanardi. Bu og‘ir sharoit xalqning adabiy iste’dodi va ijodiy mahoratini so‘ndira olmagan va adabiyotning ravnaq topishiga to‘sqinlik qila olmagan edi. Bu davrda ilmu adabiyot shunday rivojlanish va takomil topishda davom etardi.

KIRISH

XVII asrning birinchi yarmida, Movarounnahr nisbatan tinch davrni boshdan kechirayotgan paytda, uning madaniy markazlari – Buxoro, Samarqand va Balx obodonchilik sari yuz tutdi, bu shaharlarda me’morchilik bir darajada rivojlandi. Buxoro va Samarqandda bir qancha ulkan imoratlar qad rostlatdiki, ular me’moriy san’atning buyuk yodgorliklari hisoblanadi. Bu qurilishlar markaziy xon hukumatining topshirig‘i bilan emas, balki ashtarxoniylar davlatining ayrim amirlari tashabbusi bilan boshlanib, ularning puliga yakunlangan edi. Bu hol ajablanarli emas, zero ashtarxoniy

xonlar nomiga mamlakatning oliy hukmronlari bo‘lsalar-da, amalda kuch-qudrat va behisob boylik qabilalarning feodal a’yonlari va amirlari qo‘lida edi. Shaharlar va viloyatlar o‘z boyliklari va daromadlari bilan ularning ixtiyorida edi.

Yalangto‘sh nomli ana shunday amirlardan biri, Samarqand hokimi va zamonning yirik zamindorlaridan bo‘lgan, zohiran tarixda nomini qoldirish uchun mazkur shaharning Registon maydonida ulkan imoratlar qurdirdi. Uning amri bilan usta Abdujabbor me’mor muhtasham Ulug‘bek madrasasining ro‘parasiga boshqa bir ulkan madrasa qurdiki, u Yalangto‘sh yoki Sherdor madrasasi nomi bilan mashhurdir. Keyinchalik Yalangto‘shbiy amri bilan maydonning uchinchi tomonidan yana bir buyuk madrasa qurildi, uning naqshu nigorlarida ko‘p miqdorda tillo ishlatilgani sababli Tilloqori nomini oldi. Natijada maydonni uch tomondan o‘rab olgan uchta muhtasham madrasadan iborat juda chiroyli va mutanosib ansambl vujudga keldi. Bu ansambl hozirda Samarqand me’morchiligining dunyoga mashhur eng yaxshi yodgorliklaridan biri hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

XVII asr Movarounnahr madaniy, ilmiy va adabiy hayotini o‘rganishda forsiy tazkiranavislik an’anasi muhim manba hisoblanadi. Tadqiqotning asosiy tayanchi Maliho Samarqandiyning “Muzakkiru-l-as’hob” tazkirasi (O‘RFASHI fondi, №58/I) bo‘lib, u XVII asr ikkinchi yarmidagi Buxoro va Samarqand adabiy muhitlarini batafsil aks ettiradi. Ushbu manba shahar doiralari adabiyotining rivojlanishini va 200 dan ortiq shoirning faoliyatini yoritishda o‘ziga xos ahamiyatga ega.

Qo‘shimcha manbalar qatorida Mahmud bin Valiyning “Bahr-ul-asror” asarining Balx qismi (1043/1633-yilda yozilgan, 1360/1981 nashri) XVII asr birinchi yarmidagi Balx saroy adabiyotini qamrab oladi. Eron tazkiranavisi Mirzo Muhammad Tohir Nasrobodiyning “Tazkira-yi Nasrobodiy” (1384/2005 nashri, 437–444 ss.) esa Movarounnahr shoirlarining Safaviy saroyi bilan aloqalarini yoritib, Buxoro saroy adabiy muhitini to‘ldiradi.

Zamonaviy tadqiqotlarda B.A. Axmedovning ishi (1985) tarixiy-geografik adabiyotni, I.S. Braginskiyning tanlangan asarlari (1972) va Ya. Ripkaning tarixi (1970) fors-tojik adabiyotining umumiy rivojini tahlil qiladi. Tojik adabiyotshunosligida S. Sa’diyev (1985) va R. Hodizoda, U. Karimov, S. Sa’diyev (1988) XVII asr tojik adabiyotini o‘rganishda muhim hissa qo‘shgan. A. Golchin Ma’oniy tazkira tarixi (1363/1984, 1–2 jildlar) esa tazkiranavislik janrining evolyutsiyasini ochib beradi.

Ushbu manbalar majmuasi XVII asr Movarounnahr madaniy hayotining murakkab manzarasini – siyosiy beqarorlik sharoitida ham ilmiy va adabiy an’analarning davom etishini har tomonlama yoritishga imkon beradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot majmuaviy (kompleks) yondashuvga asoslanadi. Maliho Samarqandiyning “Muzakkiru-l-as’hob” tazkirasi asosiy manba sifatida batafsil tahlil qilingan. Undagi ma’lumotlar (shoirlar tarjimai holi, asarlar ro‘yxati, ilmiy faoliyat) kontekstual ravishda o‘rganildi. Shuningdek, Maliho tazkirasi boshqa manbalar (“Bahr-ul-asror”, Nasrobodiy tazkirasi) bilan solishtirilib, Buxoro, Samarqand va Balx adabiy muhitlarining o‘ziga xosliklari aniqlandi. Shahar va saroy adabiyoti o‘rtasidagi farqlar taqqoslanib, XVII asr siyosiy-ijtimoiy sharoitlari (ashtarxoniylar davri beqarorligi) madaniy va ilmiy jarayonlarga ta’siri nuqtayi nazaridan o‘rganildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bu davrda Buxoroda ashtarxoniylar davlatining yirik amaldorlaridan biri – Nodir devonbegi farmoyishiga binoan yana bir katta me’moriy ansambl qurildi, u hozirda Labi hovuz nomi bilan mashhurdir. Bu ansamblning Labi hovuz deb nomlanishiga sabab shuki, uning asosiy va muhim qismini katta hovuz tashkil etardi. Ansamblning boshqa qismlarini eski Ko‘kaltosh madrasasi (XVI asrda qurilgan), yangi Nodir devonbegi madrasasi va xonaqoh tashkil etardi. Labi hovuz Buxoroning eng xushhavo va go‘zal manzarali joyiga aylangan edi. Sayido o‘zining Buxoro vasfiga bag‘ishlangan manzumasida bu yerni shaharning juda chiroyli va diltortar maskani sifatida maqtagan. Labi hovuz ilm ahli va adiblarning to‘planadigan, dam oladigan joyiga aylanib, shu sababli «shoirlarning suyanchig‘i» nomini olgan edi (Maliho Samarqandiy, №58/I: 238).

Buxoroda XV asrda qurilgan Ulug‘bek madrasasining ro‘parasida Abdulazizxon nomli yana bir ulkan madrasa bunyod etildi. Shu tariqa yana bir me’moriy ansambl vujudga keltirildiki, u Labi hovuz ansamblidan ko‘ra chiroyliroq va mutanosibroqdir.

XVII asrning ko‘zga ko‘ringan me’moriy yodgorliklari Movarounnahrning avvalgi davrlardagi me’moriy san’atining davomi va rivoji hisoblanadi.

XVII asrning ikkinchi yarmida siyosiy beqarorlik kuchayishi va sharoit og‘irlashishi sababli Movarounnahrda nafaqat ko‘zga ko‘rinarli imoratlar bunyodga kelmadi, balki avvalgi davrlarning ko‘pgina me’moriy yodgorliklari ham xarob bo‘ldi. Bu hol ayniqsa Samarqanddagi temuriylar davri me’moriy yodgorliklariga nisbatan yuz berdi. Agarchi temuriylar davri me’moriy yodgorliklarining xarob bo‘lishi XVI asrdan, shayboniylar hukmronligi davridan boshlangan bo‘lsa-da, lekin u ashtarxoniylar davrida, ayniqsa XVII asrning ikkinchi yarmida yanada kuchaydi. Maliho Abdulazizxon va Subhonqulixon saltanati davrida Samarqandning umumiy xarobaligi haqida so‘z yuritib, ayniqsa temuriylar davrining uchta buyuk me’moriy yodgorligi – shaharning Katta Jome’ masjidi, Go‘ri Amir maqbarasi va Amir Temur madrasasiga yetkazilgan vayrongarchiliklarni alohida tasvirlagan (Maliho Samarqandiy, №58/I: 218-220). Garchi Samarqandning ba’zi hokimlari turli vaqtlarda

mazkur maqbara va madrasani ta’mirlashga harakat qilgan bo‘lsalar-da, lekin bu urinishlar natija bermagan (Maliho Samarqandiy, №58/I: 220). Temur maqbarasi va madrasasining xarobaligi Hindiston podshohi Avrangzeb yerlarigacha yetkazilgandi. Lekin Avrangzeb ham bu xarobaliklarni isloh qilish va ta’mirlashga chora ko‘ra olmadi, faqat madrasa ahli va atrof aholisi uchun “ajdodlar ruhiga atab nazru xayrot” tariqasida mablag‘ jo‘natish bilan kifoyalandi (Maliho Samarqandiy, №58/I: 220).

Malihoning guvohlik berishicha, bu davrda umuman Samarqanddagi aksari madrasa va masjidlar xarob va bo‘sh qolgan, sharobxona va bo‘zaxonalarga aylanib ketgan edi.

Shu sababli birinchi qarashda shunday tuyuladiki, bu davrda Movarounnahrda ilmiy hayot so‘ngan. Lekin Malihoning tazkirasi shuni ko‘rsatadi-ki, ilm fan bu davrda ham rivojlanib, bir qator olimlar ilmiy asarlar yozish va madrasalarda dars berish bilan mashg‘ul bo‘lganlar. Maliho o‘z tazkirasida faqat adabiyot ahli bo‘lgan, ilmiy faoliyat bilan barobar ozmi-ko‘pmi she’riyat va adabiyot bilan ham shug‘ullangan olimlarni zikr qilgan. Maliho bu shoir va yozuvchi olimlarning ahvoli va asarlarini zikr etishda ba’zan umumiy tarzda ularning «ta’lifotu tasnifotlari»ni eslab o‘tadi va ba’zan ularning asarlarini birma-bir nomlab chiqadi. Uning shoir va yozuvchi olimlar haqidagi ma’lumotlaridan bu davrda ilm fan rivojining umumiy manzarasini aniq tasavvur qilish mumkin.

Maliho tazkirasidan, avvalo, shu muhim va juda e’tiborga loyiq nuqta ravshan bo‘ladiki, mazkur davrda nafaqat rasmiy diniy ilmlar, balki hay’at va zij (astronomiya va astronomik jadvallar), handasa (geometriya), jabr va muqobala (algebra va tenglamalar), kimyo va boshqa dunyoviy ilmlar ham ma’ruf va rivojda bo‘lgan. Maliho tazkirasi asosida hatto shunday xulosaga kelish mumkinki, bu davrda diniy ilmlarga nisbatan ko‘proq dunyoviy va aniq fanlar zabardast olimlarning e’tiborini o‘ziga tortgan.

Bu davrning eng ko‘zga ko‘ringan olimi Mullo Tursun Faroiziy Samarqandiy dunyoviy va aniq ilmlar bilan shug‘ullangan. Maliho Faroiziyni mutabahhir olim va barcha ilm turlaridan bahramand deb ta’riflab, uning matematika, astronomiya, kimyo va boshqa fanlarda mahorat qozongan turli sohalarini sanaydi. Bu ilmlar faroiz (meros taqsimoti), masohat (o‘lchash, yer o‘lchash), a’dod (raqamlar), jabr (algebra), muqobala (matematik tenglamalar), arismotiqiy (arifmetika), hay’at (falakiyot), nujum (astrologiya), zij (astronomik jadval), usturlob (yulduzlar aylanishini kuzatish asbobi), kimyo va boshqalar bo‘lgan. Faroiziy yana himyo (tilsim), simiyo (sehr), jafr (g‘aybdan xabar berish) ilmlarini ham bilgan. U diniy ilmlar – fiqh, hadis va tafsirda ham mohir bo‘lgan. Lekin uning Maliho tazkirasida nomlangan asarlarining deyarli hammasi nodiniy ilmlarga oiddir. Jumladan, Faroiziyning ilmiy asarlari orasida “G‘oyat-ul-vasoyo” (vasiyat bobida), “Masoili hisobiya” (hisob masalalari), “Sharhi

“Sirojiyat-ul-jabriya” (algebra va tenglamalar haqida), “Jome’-ul-hisob”, “Risolai utqiya” (qullar va cho‘rilarga ozodlik xati berish masalalari haqida), “Sharhi “Viqoya” (fiqh – diniy qonunlar haqida), “Hoshiyai “Sharhi ashkoli ta’sis”, “Sharhi “Muammoi sag‘ir”-i Abdurahmoni Jomiy”, “Sharhi “Faroiz”-i Hijam” asarlari bo‘lgan. Bu ro‘yxat Faroiziyning ilmiy asarlarini to‘liq qamrab olmagan. Undan “Tuhfat-ul-amir” nomli boshqa bir asari ham qolgan bo‘lib, u faroiz masalalariga doirdir. Faroiziyning ilmiy va adabiy asarlaridan hozircha faqat shu bir asar ma’lumdir.

Bu davrning boshqa bir ko‘zga ko‘ringan olimi va shoiri Qozi Lutfulloh Shokir Buxoriy ham diniy va nodiniy ilmlarda bilimdon bo‘lib, Maliho qayd etganidek, fiqhu hadis, kalomu tafsir, hikmatu hay’at, mantiq hamda nahv va sarf (grammatika) ilmlarining barchasi bilan shug‘ullangan (Maliho Samarqandiy, №58/I: 153). U Buxoro va Samarqand madrasalarida ham dars bergan. Maliho talabalik vaqtida hay’atga oid aksari kitoblarni, xususan, “Sharhi Chag‘miniy” va Aliy Qushchi Samarqandiyning forsiyda yozilgan risolasini uning huzurida o‘rgangan. Maliho Lutfulloh Shokirning ilmiy asarlaridan faqat hay’atga oid bir forscha risolasini eslab o‘tib, uni juda foydali deb hisoblagan. Ravshanki, bu olim falsafa (hikmat va mantiq) va tabiatshunoslik fanlariga, ayniqsa hay’atga ko‘proq e’tibor qaratgan.

Lutfulloh Shokir shoir sifatida yanada ko‘proq shuhrat qozongan bo‘lib, o‘z o‘rnida ko‘rib chiqqanimizdek, davr adabiyotida ko‘zga ko‘ringan o‘rin tutgan.

Bu ikki olimning bilim doirasi va tadqiqotlaridan shu muhim va juda diqqatga sazovor nuqta aniq bo‘ladiki, mazkur davrda nafaqat rasmiy diniy ilmlar, balki dunyoviy ilmlarning avvalgi rivojlanish an’analari, xususan Ulug‘bek zamoni ilm fani feodal reaksiyaning kuchayishiga qaramay, ma’lum darajada hali ham tirik bo‘lgan. Bu davr olimlarining diniy asarlar bilan bir qatorda sof ilmiy asarlar yozish bilan shug‘ullanishi ilmlar o‘rtasidagi keskin kurashning susaygani yoki butunlay yo‘qolganidan dalolat beradi.

Har holda, diniy ilmlar madrasalardagi avvalgi mutlaq hukmronligini yo‘qotib, u yerda bir qancha dunyoviy ilmlar ham o‘rgatilardi. Shu sababli, masalan, Tursun Faroiziy va Lutfulloh Shokir madrasada dunyoviy ilmlardan ham dars berishgan. Albatta, ularning bu fanlardan dars berishi madrasaning o‘quv dasturi asosida edi. Buni istedodli shoir Mirsharif Munsif (Munsifo) Samarqandiy haqidagi Malihoning axborotidan yaqqol bilib olamiz.

Munsif Samarqandning buyuk ulamolari avlodidan bo‘lib, 1088/1677 yili ilm olish uchun Buxoroga borgan va G‘arbiya madrasasida handasa (geometriya), tanjim (yulduzshunoslik), zij raqamlari va xususan hay’atga oid mo‘tabar kitoblardan bo‘lgan “Sharhi Chag‘miniy”ni o‘rganish bilan mashg‘ul bo‘lgan. U qisqa muddatda bu ilmlarni chuqur o‘zlashtirgan va ularda shunday mahorat kasb etganki, hatto madrasadagi nomdor ustozi uning shogirdligidan faxrlangan (Maliho Samarqandiy,

№58/I: 165). Shundan ma’lum bo‘ladi-ki, Munsif mazkur ilmlarni madrasa ustozining bevosita rahbarligi ostida o‘rgangan.

Aytish mumkinki, XVII asrda rasmiy diniy ilmlardan tashqari, rasmiy va g‘ayrirasmiy dunyoviy ilmlar turlarini ham o‘zlashtirgan bunday ko‘p sohali olimlar kam emasdi. Maliho tazkirasida she’riyat va adabiyot bilan shug‘ullanganliklari sababli zikr qilingan 15 nafardan ortiq olim va mudarrislar orasida, yuqorida nomlari keltirilgan uch kishidan tashqari, shubhasiz, yana bir qanchalari ozmi-ko‘pmi nodiniy ilmlar bilan shug‘ullanganlar. Lekin afsuski, Maliho bu olimlarning aksariyatini zikr etishda nafaqat ularning asarlarini nomma-nom keltirmagan, balki hatto qaysi ilmlar bilan shug‘ullanganliklarini ham qayd etmagan.

Maliho tazkirasida zikr etilgan olimlardan ba’zilari din olimi bo‘lganlar, ya’ni faqat diniy ilmlar bilan shug‘ullanganlar.

Bu davrdagi eng mashhur din olimi, mudarris va Buxoro bosh olimi bo‘lgan Mir Muhammadsharif Shahrisabziy Sharif taxallusi bilan she’r ham yozardi. Garchi Maliho bu olimni “ulumi aqliy va naqliy”da, ya’ni dunyoviy va diniy ilmlarda zabardast deb ta’riflagan bo‘lsa-da, uning asarlari ro‘yxatidan ma’lum bo‘lib turibdiki, ularning barchasi diniy ilmlarga oiddir. Mir Muhammadsharif din masalalariga oid bir qator mashhur kitoblarga hoshiya va sharh tarzida bir necha risolalar yozgan, jumladan Mullo Jalolning “Aqoid”iga “Sharh-al-Sharh”, “Tahzib”ga “Hoshiya”, “Isboti vojib” risolasiga “Hoshiya”, Jomiyning “Sharh”iga “Hoshiya” va boshqalar (Maliho Samarqandiy, №58/I: 102).

E’tiborga loyiq jihati shundaki, bu davrda folbinlik, g‘aybdan xabar berish hamda sehr va tilsim ilmlari ham rivoj topgan edi. Bu ilm va hunarlar bilan nafaqat tasodifiy firibgar va qallob shaxslar, balki olimlar va shoirlar kabi mo‘tabar va jiddiy odamlar ham shug‘ullangan.

Maliho o‘z tazkirasida ko‘pgina olimlar va davr shoirlarining raml va jafr (folbinlikning bir turi), kimyo va simiyo (ko‘zbo‘yamachilik, sehr) va himyo (tilsim ilmi), tilsimot va murabbaot (afsungarlik) va boshqalar bilan shug‘ullanganliklari haqida so‘z yuritgan. Bu hol raml va jafr, sehr-u jodu va tilsimotlar maxsus ilm va hunar sifatida rasmiy tan olinganligidan dalolat beradi. Aks holda, hatto Mullo Tursun Faroiziy kabi rasmiy shaxs hamda mo‘tabar va jiddiy olim, Samarqandning bosh qozisi mansabida bo‘lgan kishi simiyo va himyo kabi “jodugarlik” ilmlari bilan shug‘ullanmasdi.

Mullo Tursun bu ilmlarni o‘z otasi Qozi Poyanda Zominiydan o‘rgangan, otasi ham XVII asr birinchi yarmi Samarqandning mashhur ma’rifatli kishilari va shoirlaridan bo‘lgan. Maliho o‘z tazkirasida Mullo Tursun zikri munosabati bilan uning otasi haqida bir qancha ajoyib rivoyatlar keltirgan, ularning barchasi otasining sehr-u jodu ilmlaridan to‘liq xabardor bo‘lganini ko‘rsatadi. Bu rivoyatlardan biriga

ko‘ra, Qozi Poyanda bolalik va maktab davrida bir qalandar unga e’tibor qaratadi. Ammo otasi ularning tanishishiga to‘sqinlik qiladi. Shunda qalandar barmog‘i bilan bolaning bo‘yniga ishora qiladi, butun xalqning ko‘ziga uning boshi tanasidan judo bo‘lgandek ko‘rinadi. Ammo qalandar jo‘nab ketishi bilanoq, bola ham asl holiga kelib, uning izidan shoshib yo‘lga tushadi. Qancha urinishsa ham, uni yo‘ldan qaytara olmaydilar. U bir muddat o‘sha qalandar bilan birga yurib, keyin ota-onasining oldiga qaytadi. Endi uning do‘stlari va suhbatdoshlari undan qanday ilm va qanday masala haqida so‘rashsa, u asl va qo‘shimchalari, asos va juz’iyotlari bilan aytib berardi (Maliho Samarqandiy, №58/I: 44).

Ravshanki, u ilmlarni o‘sha qalandardan o‘rgangan edi. Qudratli hunar egasi bo‘lgan qalandar o‘z shogirdiga, albatta, avvalo sehr-u joduni – o‘zi bolani ota-onasidan ajratib, birga olib ketgan o‘sha ilmni o‘rgatgan.

Ma’lum bo‘ladiki, qalandarlar (darveshlar) ham muayyan maqsadlarda sehr-u jodu va tilsimotni o‘rganishgan. Lekin shoirlar ahvolini tahqiq qilganimizda ko‘rganimizdek, sehr-u tilsimot ko‘pchilik uchun bir turli hunar va tirikchilik vositasi bo‘lib xizmat qilgan.

XVII asrda Movarounnahrdagi og‘ir siyosiy-ijtimoiy vaziyat, iqtisodiy inqiroz va umumiy madaniy qoloqlik bu zamindagi adabiy hayotni so‘ndirib qo‘ymagan edi. Mamlakatdagi qiyin sharoit adabiyot rivojiga yordam bermagan va ashtarxoniy hukmronlar hamda amirlarning aksariyati she’riyat va adabiyot ahliga nisbatan g‘amxo‘rlik va homiylik ko‘rsatmagan bo‘lsalar-da, bu shuhratli soha rivojlanishdan to‘xtamagan, aksincha, o‘zining avvalgi boy an’analarini davom ettiravergan.

She’riyat va adabiyot xonlar saroyi muhitida emas, balki bundan tashqarida, ya’ni shahar muhitida rivojlanib keldi. Adabiyotning taraqqiy etishi shahar doiralari, avvalo, hunarmandchilik doiralari bilan bog‘liq bo‘lib qolgandi. Klassik adabiyotning asosan XV asrdan boshlangan bu rivojlanish yo‘li, ayniqsa XVI-XVII asrlarda avjiga chiqib, ko‘zga ko‘rinarli samaralar berdi. Maliho Samarqandiyning “Muzakkiru-l-as’hob” tazkirasi XVII asr shahar doiralaridagi forsiy adabiyot taraqqiyotining yorqin shohidi hisoblanadi. Lekin asosan 1688-1689-yillarda yozilgan bu tazkira adabiy hayot manzarasini mazkur asrning o‘rtalari va ikkinchi yarmida aks ettirgan. Undan XVII asr birinchi yarmida Movarounnahrida adabiyotning qanday ravnaq topganini tasavvur qilish mumkin emas. Asrning birinchi yarmi adabiyoti haqida hozircha asosiy manba mavjud emas, to‘g‘rirog‘i, bunday manba aslida mavjud bo‘lgan, lekin afsuski yo‘q bo‘lib ketgan. Bunday manba mavjudligi haqida Maliho o‘z tazkirasida xabar bergan. U o‘z tazkirasi muqaddimasida avvalgi tazkiralarni eslab o‘tib, jumladan, o‘zining asaridan bevosita oldin yozilgan Sodiqiy Samarqandiy tazkirasiga ishora qilgan. Malihoning ma’lumotiga ko‘ra, bu muallifning tazkirasi Shayboniy Abdullaxon II (1561-1598) davri shoirlaridan to ashtarxoniy Nodir Muhammadxon (1642-1645)

davri shoirlarigacha bo‘lgan ijodkorlarni qamrab olgan (Maliho Samarqandiy, №58/I: 7). Bundan Sodiqiy Samarqandiyning tazkirasi XVI asr oxirlari va XVII asr birinchi yarmida yozilib, takomillashtirilgani ma’lum bo‘ladi. Maliho bu asarni to‘liq va qamrovli tazkira sifatida ta’riflab, qayd etganki, uning muallifi “podshohu fuzalo (fozillar) va umaro (amirlar) va ilm talabalari-yu, vuzaro (vazirlar), shuaro (shoirlar), huffoz (qur’on yod olganlar) va kasbu san’at ahlidan har kim taxallus sohibi bo‘lgan va undan bir misra bo‘lsa ham she’r chiqqan bo‘lsa, ko‘rgani va eshitgani hamda suhbatdosh bo‘lgani va boshqalar haqida yozgan” (Maliho Samarqandiy, №58/I: 7).

Shunday qilib, Mutribiy Samarqandiyning “Tazkirat-ush-shuaro” (yozilgan yili 1605) asaridan keyin va Maliho Samarqandiyning “Muzakkiru-l-as’hob”idan oldin yozilgan, XVII asr birinchi yarmida Movarounnahridagi adabiyot ahvolini nisbatan to‘liq aks ettirgan asosiy manba hozirda yo‘q bo‘lib ketgan. Lekin XVII asrning birinchi yarmida shunday to‘liq va qamrovli tazkiraning paydo bo‘lganining o‘ziyoq mazkur davrda Movarounnahrda adabiyotning rivojlanib, ravnaq topganining yorqin guvohidir. Aytish mumkinki, bu tazkirada zikr etilgan shoirlar aksariyat hollarda saroydan tashqaridagi adabiyot vakillari bo‘lishgan. Chunki bu tazkira aynan Samarqand adabiy muhitida yozilgan, bu davrdagi Buxoro va Balx adabiy muhitlaridan farqli o‘laroq, saroy adabiyoti mavjud emasdi. Shu sababli u ham Mutribiy va Maliho tazkiralari kabi, asosan shahar muhiti adabiyotini aks ettirgan. Buni yuqorida Malihoning “Riyoz-ush-shuaro” haqidagi so‘zlaridan ham bilib olamiz, unda bu tazkirada zikr etilgan so‘z ahlining shahar jamiyatining turli guruhlari va tabaqalariga mansub ekanligi qayd etilgandi. Bu asosda shunday xulosaga kelish mumkinki, “Riyoz-ush-shuaro” tazkirasi nafaqat asr birinchi yarmining asosiy adabiyot manbai sifatida, balki shahar doiralari adabiyotini to‘liq va keng aks ettirishi bilan ham ahamiyatli bo‘lgan. Agar bu tazkira qo‘limizda bo‘lganida, u orqali mazkur davrdagi shahar muhitida adabiyotning ravnaq topgan manzarasini tasvirlash mumkin bo‘lardi.

XVII asrning birinchi yarmidagi ba’zi shoirlar haqida Mahmud bin Valining “Bahr-ul-asror” tarixiy asarida ma’lumotlar berilgan. Bu asarda Xirgohiy, Hisoriy, Marhamiy, Rashhiy, Mug‘oniy, Shayx Naz’iy, Nazmiy Fuluriy, Avazbek Toliqoniy, Vola, Sa’diddin Zayg‘am, Ta’niy kabi Balx shahrida yashab ijod qilgan shoirlar zikr etilgan (بخش بلخ از تاریخ بحر السرار. محمود بن امیر ولی کتابدار، سال 1043، با تصحیح و تعلیق و فهارس مایل هروی. – کابل، 1360. -337 ص). Bularning barchasi saroy adabiyotining vakillari bo‘lib, Balxni ashtarxoniylarning ikkinchi poytaxtiga aylanishi munosabati bilan xonlik taxti valiahd atrofida to‘plangan edilar. Umuman XVII asr davomida Balxda asosan xonlik taxti valiahd saroyi bilan bog‘liq bo‘lgan adabiy muhit mavjud edi. Bu adabiy muhit Buxoro va Samarqand adabiy muhitlariga nisbatan kichikroq edi. Uning nomlari zikr etilgan ikki adabiy muhitdan farqli xususiyati shunda ediki, u yerda asosan saroy adabiyoti rivoj topgan, lekin shahar muhiti adabiyoti unchalik nufuz va e’tibor

qozonmagandi. Shu sababli bu adabiy muhit ko‘proq muhtoj shoirlarni boshqa shaharlardan o‘ziga jalb etardi.

Mamlakat poytaxti – Buxoroda ham shahar muhitining kuchli va nufuzli adabiyoti bilan bir qatorda, ba’zi amaldorlarning qo‘l ostida saroy adabiy doirasi tashkil topgan edi. Maliho tazkirasidan ma’lum bo‘lishicha, bunday adabiy doira, jumladan, Abdulazizxon (1645-1680) saroyida mavjud bo‘lgan. Ammo manbalar yetishmasligi sababli Abdulazizxon saltanati davridan oldingi, ya’ni ashtarxoniylar hukmronligining birinchi yarmidagi saroy adabiy doirasi haqida ma’lumotga ega emasmiz. Shunga qaramay, hech bo‘lmaganda Imomqulixon (1611-1642) kabi qudratli hukmron saroyida adabiy doira paydo bo‘lgan degan ehtimol bor. Eron tazkiranavisi Mirzo Tohir Nasrobodiyning asarida ko‘pgina Movarounnahr shoirlarining Imomqulixon va Abdulazizxon saroyida xizmat qilganliklari qayd etilgani bu ehtimolni kuchaytiradi (تذکره نصرآبادی، مشتمل بر شرح حال و آثار قریب هزار شاعر عصر صفوی، تالیف میرزا محمد طاهر نصرآبادی اصفحانی با تصحیح وحید دستگردی. – تهران، 1384. -437-444 ص.).

XVII asrning ikkinchi yarmi adabiyotiga doir, yaxshiyamki, asosiy va qimmatli manba qo‘limizda bor. Bu manba Malihoning “Muzakkiru-l-as’hob” tazkirasi bo‘lib, uning asosida mazkur davrdagi Movarounnahr adabiy hayotining va umuman forsiy adabiyot taraqqiyoti yo‘lining nisbatan to‘liq manzarasini aniqlash mumkin. Lekin Maliho tazkirasi forsiy adabiyotning ikki asosiy adabiy muhiti – Buxoro va Samarqanddagi ravnaqini aks ettirgan. Mazkur tazkiraning kamchiligi shundaki, unda Balx adabiy muhitining vakillari zikr etilmay qolgan. Malihoning bu shaharga borib, u yerdagi shoirlarni ko‘rib, tazkirasiga kiritishga imkoni bo‘lmagan. Lekin Balx adabiy muhiti davr adabiy hayotida asosiy o‘rin tutmagani va barcha shoirlarni qamrab olmaganligi sababli, Maliho tazkirasining mazkur nuqsoni unchalik jiddiy hisoblanmaydi. Bu tazkira, Balx shoirlari undan tashqarida qolganiga qaramay, ikki asosiy adabiy muhit – Buxoro va Samarqand shoirlarining ko‘p sonli vakillarini zikr etish orqali mamlakat adabiy hayotining keng manzarasini aks ettirgan.

Maliho tazkirasida Movarounnahrning 200 dan ortiq katta-kichik shoir va yozuvchilari zikr etilgan bo‘lib, ularning barchasi uning zamondoshlari bo‘lgan va asosan XVII asrning ikkinchi yarmida Buxoro va Samarqandda ijod qilganlar. Aynan Malihoning hayotlik davrida bu ikki adabiy muhitda shuncha ko‘p miqdordagi shoir va yozuvchilarning yetishib chiqishi XVII asrda forsiy adabiyot ravnaq topganining yorqin dalilidir. Maliho zikr etgan 200 adibdan 70 dan ortig‘i Samarqandda yashab, ijod qilgan. Agar bunga avval Samarqandda yashab, voyaga yetishgan, so‘ngra turli sabablarga ko‘ra mamlakat markazi Buxoroga ko‘chib borib, adabiy faoliyatini davom ettirgan boshqa shoirlarni ham qo‘shsak, Maliho tazkirasidagi Samarqand adabiy muhiti shoirlarining soni Buxoroga nisbatan ancha ko‘pdir. Ammo bu miqdor, bizningcha, bu ikki adabiy muhit qudratining haqiqiy nisbatini ifodalamaydi.

Malihoning o‘zi Samarqandda tug‘ilib o‘sganligi sababli, o‘z tug‘ilgan yerining deyarli barcha katta-kichik, mashhur va nomashhur adiblari bilan tanish va suhbatdosh bo‘lgan va ularni tazkirasiga kiritgan, lekin u Buxoroga ikki marta safar qilgan bo‘lsa-da, bu yerdagi barcha shoirlarni eshitish va ko‘rishga ulgurmagan ko‘rinadi. U asosan Buxoroning ma’lum va mashhur shoirlari bilan uchrashgan, lekin bu adabiy muhitning nomashhur va ikkinchi darajali shoirlarini izlab topish va ko‘rishga fursat topa olmagan. Hatto tazkiranavis ikkinchi safarida Buxoroda yangi uchratgan va tazkirasining ilova qismida zikr qilgan 14 nafar shoirning qariyb hammasi ma’lum va taniqli adiblar bo‘lgan. Shu sababli aytish mumkinki, Buxoro adabiy muhitining bir qator ikkinchi darajali va hatto ma’lum, oddiy shoirlari ham Maliho tazkirasidan chetda qolib ketgan. Abdulazizxon davri shoiri bo‘lib, devoni ash’ori bizning zamongacha yetib kelgan Kirom Buxoriy bunga misol bo‘la oladi. Kirom devonidagi she’rlariga qaraganda, mohir va xushsaliqa shoirlardan bo‘lsa-da, uning nomi Maliho tazkirasida uchramaydi. Bu shoir faqat Nasrobodiy tazkirasida zikr etilgan.

Umuman, Nasrobodiy tazkirasida XVII asrning ikkinchi yarmida Buxoro adabiy muhitiga mansub bo‘lgan taxminan 20 nafar shoir zikr etilganki, ularning nomini Maliho tazkirasida uchratmaymiz. Aynan shuning o‘zi mamlakatning siyosiy va madaniy markazi bo‘lgan Buxoroda adabiy peshvolar Maliho tazkirasida zikr etilganidan ham ko‘proq jamlanganligini ko‘rsatadi.

Samarqand shoirlari orasida esa Maliho juda ko‘p kichik va ikkinchi darajali, yosh va havaskor shoirlarni ham tilga olgan. Shunga qaramay, uning tazkirasida Samarqand adabiy muhitidan davr adabiyotida o‘z o‘rniga va mavqeiga ega bo‘lgan ko‘plab mashhur va qudratli shoirlar zikr etilgan. Ibodulloh Imtihon, Niyozboqiy Toroj, Muhammadvafo Javhar, Shihobiy Miyonqoliy, Muhammadshoh Shohid, Ibodulloh Unvon, Obid Mumtoz, Mullo Mone’, Muhammadbadi’ Maliho, Avazboqiy Masiho, Nakhat, Abdulg‘afur Nazokat va boshqalar Samarqand adabiy muhitida ijod qilgan shunday iste’dodli va mashhur shoirlardan edi. Bu mashhur shoirlar guruhiga Muhammadamin Sarafroz, Sami’ Sodot, Fitrati zardo‘z, Abdulloh Xokiy (Sayid), Sami’ Samarqandiy, Xoksor Hisoriy va boshqalarni ham kiritish mumkin, ularning aksariyati Samarqandda tug‘ilib o‘sgan, keyinchalik turli sabablarga ko‘ra Buxoroga, ba’zilari esa Balxga ko‘chib ketganlar. Maliho tazkirasiga ko‘ra, umuman Samarqandning 20 dan ortiq shoiri asosan shaharning xarobagarchilikka yuz tutishi va u yerdagi hayotning toqat qilib bo‘lmas darajaga kelishi sababli Buxoro va boshqa joylarga ko‘chib ketgan. Lekin ular ham shoir sifatida Samarqandda kamol topgan va ijodining muayyan davri aynan shu adabiy muhit bilan bog‘liqdir. Bu raqamlar shundan dalolat beradiki, Samarqand XVII asrning ikkinchi yarmidagi umumiy xarobalik va pasayishga qaramay, nafaqat adabiy markaz sifatida o‘z ahamiyatini

yo‘qotmagan, balki shoirlar nufusi va adabiy qudratlari jihatidan Buxoro bilan barobar mamlakatning eng yirik adabiy markazi hisoblangan.

Samarqanddagi adabiy hayotning jo‘shqinligi va bu adabiy doiradan ko‘plab shoirlarning yetishib chiqishi shaharda ijod uchun qulay sharoitlar mavjudligining dalili emas. Aksincha, Samarqand shoirlari nihoyatda og‘ir sharoitlarda yashab, ijod qilganlar. O‘ta murakkab sharoitda Samarqandda adabiy hayotning ravnaq topishiga asosiy sabab adabiyotning shahar doiralarida nufuzli ekanligi edi. Samarqandda XV asrdan boshlab adabiyot shahar muhitida taraqqiy etib kelgan va uning turli ijtimoiy doiralari va guruhlariga kirib borgan edi. She’riyat va adabiyot shahar doiralarida zavq ahlining ko‘nglini shunchalik zabt etgan va ularning tabiatiga o‘rnashib ketgan ediki, zamon inqiloblari va holatlari, turmush qiyinchiliklari va mashaqqatlari ularning so‘z san’atiga bo‘lgan qiziqishlari va ishtiyoqini so‘ndira olmasdi. Aynan shu sababdan XVII asrning juda og‘ir sharoitlarida ham adabiyot mazkur shahar muhitida o‘z nufuzi va an’analarini yo‘qotmagan, hatto tobora ko‘proq rivoj topgan edi. Maliho tazkirasida zikr etilgan deyarli barcha Samarqand shoirlarining ijodi shahar muhitida kechgan bo‘lib, ularning saroy va hokimlar devoni bilan aloqasi yo‘q edi.

Bu davrda, avvalgi davrlardagidek, Buxoroda ham shahar doiralarining ma’lumu mashhur bo‘lgan adabiyoti mavjud edi. Bu adabiyotning Buxorodagi mashhur va iste’dodli vakillari Muhammadjon Mustaid, Abdulqayum Ulfat, Abdulloh Mulham, Mustafid, Abdulloh Behjat, Xoja Yusuf Mazhar, Yagona Nasafiy, Rabi’ Andarobiy, Abdurahmon Sho‘’la, Boqixoja Xoshe’, Bismil, Vohib va boshqalar edi. Lekin Buxoroda shahar doiralari adabiyoti bilan bir qatorda saroy doirasining adabiyoti ham mavjud edi. Adabiy muhitning Samarqand adabiy muhitidan farqi aynan shunda. Buxoro XV asr boshidan mamlakatning siyosiy markazi va oliy hukmronlar qarorgohiga aylanganligi sababli, saroy adabiyoti an’anaga ega edi, u rivojlanish va tanazzullar, tanaffuslar bilan o‘z mavjudligini saqlab kelardi. Bu adabiyot Abdulazizxon hukmronligi davrida bir darajada jonlangan bo‘lsa-da, lekin na nufuzi, na mazmun-mundarijasi jihatidan shahar doiralarining kuchli va boy adabiyotiga solishtirganda juda zaif va arzimas edi. Davr adabiyotining qiyofasini saroy doirasi adabiyoti emas, balki saroydan tashqaridagi adabiyot, ya’ni shahar doiralari adabiyoti belgilardi. XVII asr forsiy adabiyotning rivoji va ko‘zga ko‘rinarli yutuqlari aynan shahar doiralari adabiyoti bilan bog‘liqdir.

Shahar doiralari adabiyoti har ikki asosiy adabiy muhit – Samarqand va Buxoroda barobar taraqqiy etardi. Bu adabiyotning taraqqiyot qonuniyati va yo‘li ham har ikki adabiy muhitda umumiy bo‘lib, shu sababli ular yagona forsiy adabiyotning ajralmas qismlarini tashkil etardi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

XVII asr Movarounnahr madaniy, ilmiy va adabiy hayoti og‘ir siyosiy-ijtimoiy sharoitlarga qaramay, rivojlanishda davom etgan muhim davrdir. Maliho Samarqandiyning “Muzakkiru-l-as’hob” tazkirasi bu jarayonning asosiy guvohi bo‘lib, asrning birinchi yarmidagi nisbiy tinchlikda bunyod etilgan me’moriy yodgorliklarni (Sherdor, Tillokori, Labi hovuz) va ikkinchi yarmidagi xarobaliklarni batafsil tasvirlaydi. Me’morchilik yutuqlari markaziy hokimiyat emas, balki mahalliy amirlar tashabbusi bilan amalga oshirilgani davlat zaifligini ko‘rsatadi. Ilmiy hayotda diniy ilmlar bilan birga dunyoviy fanlar (astronomiya, geometriya, algebra) rivojlanishi kuzatiladi, Mullo Tursun Faroiziy va Qozi Lutfulloh Shokir Buxoriy kabi olimlar Ulug‘bek an’analarini davom ettirgan. Folbinlik va tilsimot ilmlari ham keng tarqalgan bo‘lib, ular rasmiy olimlar tomonidan o‘rganilgan. Adabiy hayotning eng muhim xususiyati saroy muhitidan shahar doiralariga, ayniqsa hunarmandlar orasiga ko‘chishi bo‘ldi. Maliho tazkirasi 200 dan ortiq shoirni zikr etib, Samarqand va Buxoro adabiy muhitlarining ustunligini tasdiqlaydi. Samarqand muhiti shahar adabiyotining markazi sifatida og‘ir sharoitlarga qaramay yetakchilik qilgan, Buxoroda esa shahar adabiyoti bilan birga zaif saroy doirasi mavjud edi. Umumiy xulosa shuki, madaniyatning davom etishi markaziy homiylikdan emas, balki shahar muhitidagi an’analar va mahalliy tashabbusdan kelib chiqqan.

Yuqoridagi tahlil va natijalar asosida biz ushbu tadqiqotga quyidagi takliflarni beramiz:

- Maliho tazkirasining to‘liq ilmiy-transliteratsiya nashrini amalga oshirish;
- XVII asr Movarounnahr shoirlarining asarlarini sistemali ravishda nashr etish va raqamli bazasini yaratish;
- Shahar va saroy adabiyoti o‘rtasidagi qiyosiy tadqiqotlarni chuqurlashtirish;
- Dunyoviy ilmlarning madrasa ta’limidagi o‘rnini alohida monografiyalarda o‘rganish.

Ushbu yo‘nalishdagi tadqiqotlar O‘rta Osiyo madaniy merosini yanada chuqur anglash va xalqaro ilmiy muhokamaga kiritishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Ахмедов Б.А. (1985). Историко-географическая литература Средней Азии. XVI-XVIII вв. (письменные памятники). Ташкент: Фан, 264 с.

2. Брагинский И.С. (1972). Из истории персидской и таджикской литературы: Избранные работы. Москва: Наука, 527 с.

3. بد حر الد سرار. محمود بد ن امد یر ولد ی کد تاب دار (0631). بد ا بد خش بد لخ از تد اریخ تد صحد یح و تد عد لد یق و فد هارس مایکرو فووی. کد ابد ل, 733 ص.

4. تذکره نصرآبادی، مشتمل بر شرح حال و آثار قریب هزار شاعر عصر صفوی، تالیف میرزا محمد طاهر نصرآبادی اصفهانی (4831). با تصحیح وحید دستگردی. تهران, 734 ص.-444

5. Ҳодизода Р., Каримов У., Саъдиев С. (1988). Адабиёти тоҷик (Асрҳои XVI - XIX ва ибтидои асри XX). Душанбе: Маориф, 413 с.

6. Maliho Samarqandiy. Muzakkiru-l-ashob. O‘RFASHI qo‘lyozmalar fondi. - №58/I

7. معانی، احمد گلچین (3631). تاریخ تذکره های فارسی. ج.1. تهران: انتشارات کتابخانه سنای, 567 ص.

8. معانی، احمد گلچین (3631). تاریخ تذکره های فارسی. ج.2. تهران: انتشارات کتابخانه سنای, 6001 ص.

9. Рипка Я. (1970). История персидской и таджикской литературы. Перевод с чешского. Москва: Прогресс, 440 с.

10. Саъдиев С. (1985). Адабиёти тоҷик дар асри XVII. Душанбе: Дониш, 268 с.

REFERENCES:

1. Axmedov B.A. (1985). Istoriiko-geograficheskaya literatura Sredney Azii. XVI-XVIII vv. (pismennye pamyatniki). Tashkent: Fan, 264 s. (In Russian)

2. Braginskiy I.S. (1972). Iz istorii persidskoy i tadzhikskoy literatury: Izbrannye raboty. Moskva: Nauka, 527 s. (In Russian)

3. Bakhsh-i Balkh az Tarikh-i Bahr al-Asrar. Mahmud bin Amir Vali Kitobdor (1360). Ba tashih va ta'liq va fahoris Mayil Haraviy. Kobul, 337 s. (In Persian)

4. Hodizoda R., Karimov U., Sa’diyev S. (1988). Adabiyoti tojik (Asrhoi XVI - XIX va ibtidoi asri XX). Dushanbe: Maorif, 413 s. (In Tajik)

5. Maliho Samarqandiy (n.d.). Muzakkiru-l-ashob. O‘RFASHI qo‘lyozmalar fondi, №58/I. (In Persian)

- В последующих исследованиях рекомендуется более детальный анализ деятельности Туркомнаца на основе архивных материалов, в частности его роли в подготовке местных кадров и защите прав национальных меньшинств.
- В преподавании современной истории Узбекистана необходимо усилить объективную интерпретацию событий этого периода с широким использованием архивных материалов и научной литературы.

Исследования в указанных направлениях позволят сформировать более полное представление о сложном периоде в истории народов Центральной Азии.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Агзамходжаев С. (2006). История Туркестанской автономии (Туркистон мухторияти). Ташкент.
2. Каменский А. (1920). Три года деятельности Наркомнаца // Жизнь национальностей. 7 ноября.
3. Ленин В.И. (1960–1970). Полное собрание сочинений. Т. 7. Москва: Издательство политической литературы.
4. Ленин В.И. (1960–1970). Полное собрание сочинений. Т. 35. Москва: Издательство политической литературы.
5. Макарова Г.П. (1987). Народный комиссариат по делам национальностей РСФСР. 1917–1923 гг. Исторический очерк. Москва.
6. Пасилов Б. (1999). Колониальный характер миграционной политики советского тоталитарного режима // Ўзбекистон тарихининг долзарб муаммоларига янги чизгилар. Даврий тўплам. № 2. Ташкент. С. 158–159.

7. Переселенческое дело в Туркестанском крае (области Сырдарьинская, Самаркандская и Ферганская) (1911). Отчет по служебной поездке в Туркестан осенью 1910 года чиновника особых поручений при Переселенческом управлении Н. Гаврилова. Санкт-Петербург.

8. Россия. Полное географическое описание нашего Отечества. Настольная и дорожная книга (1913). Под ред. В.П. Семенова-Тян-Шанского. Том 19: Туркестанский край. Санкт-Петербург. С. 359–415.

9. Туркестан в начале XX века: к истории истоков национальной независимости (2000). Ташкент: Шарк.

10. Центральный Государственный архив Республики Узбекистан (ЦГА РУз). Ф. И-19. Оп. 1. Д. 9829. Л. 4, 5, 8, 16.

REFERENCES:

1. Agzamxodjaev S. (2006). Istoriya Turkestanskoy avtonomii (Turkiston muxtoriyati). Tashkent. (In Russian)

2. Kamenskiy A. (1920). Tri goda deyatel’nosti Narkomnatsa // Zhizn’ natsional’nostey. 7 noyabr. (In Russian)

3. Lenin V.I. (1960–1970). Polnoe sobranie sochineniy. T. 7. Moskva: Izdatel’stvo politicheskoy literatury. (In Russian)

4. Lenin V.I. (1960–1970). Polnoe sobranie sochineniy. T. 35. Moskva: Izdatel’stvo politicheskoy literatury. (In Russian)

5. Makarova G.P. (1987). Narodnyy komissariat po delam natsional’nostey RSFSR. 1917–1923 gg. Istoricheskiy ocherk. Moskva. (In Russian)

6. Pasilov B. (1999). Kolonial’nyy xarakter migratsionnoy politiki sovetskogo totalitarnogo rezhima // O‘zbekiston tarixining dolzarb muammolariga yangi chizgilar. Davriy to‘plam. № 2. Tashkent. S. 158–159. (In Russian)

7. Pereselencheskoe delo v Turkestanskom krae (oblasti Syrdar’inskaya, Samarkandskaya i Ferganskaya) (1911). Otchet po sluzhebnoy poezdke v Turkestan osen’yu 1910 goda chinovnika osobykh porucheniy pri Pereselencheskom upravlenii N. Gavrilova. Sankt-Peterburg. (In Russian)

8. Rossiya. Polnoe geograficheskoe opisanie nashego Otechestva. Nastol’naya i dorozhnaya kniga (1913). Pod red. V.P. Semenova-Tyan-Shanskogo. Tom 19: Turkestanskiy kray. Sankt-Peterburg. S. 359–415. (In Russian)

9. Turkestan v nachale XX veka: k istorii istokov natsional’noy nezavisimosti (2000). Tashkent: Sharq. (In Russian)

10. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy davlat arxivi (O‘zR MDA). F. I-19. Op. 1. D. 9829. L. 4, 5, 8, 16. (In Russian)

“O‘ZBEK” NOMINING KELIB CHIQISHI HAQIDA BA’ZI MA’LUMOTLAR

SOME INFORMATION ABOUT THE ORIGIN OF THE NAME “UZBEK”

НЕКОТОРЫЕ СВЕДЕНИЯ О ПРОИСХОЖДЕНИИ НАЗВАНИЯ «УЗБЕК»

Xo‘jaxonov Ismoiljon Mansurovich
Oriental universiteti
“Ijtimoiy-gumanitar fanlar” kafedrasi dotsenti, t.f.n.
Tel.: +998 97 261-11-79
E-mail: khujahonov@mail.ru

Annotatsiya. Mazkur maqolada “o‘zbek” atamasining kelib chiqishi va uning etnonim sifatida shakllanish jarayoni tarixiy manbalar hamda zamonaviy ilmiy tadqiqotlar asosida tahlil qilingan. Muallif “o‘zbek” so‘zi dastlab shaxs ismi sifatida qo‘llanilganini, keyinchalik esa Oltin O‘rda hukmdori O‘zbekxon nomi va uning siyosiy faoliyati bilan bog‘liq holda umumiy etnosiyosiy nomga aylanganini asoslaydi. Maqolada shuningdek, turli tadqiqotchilar, sharq, rus va g‘arb olimlarining fikrlari taqqoslab ko‘rsatilgan. Xulosa qilib aytganda, “o‘zbek” atamasi dastlab antroponim sifatida paydo bo‘lib, XIV-XV asrlarda Dashti Qipchoq hududida yashagan turkiy-mo‘g‘ul qabilalar birligini bildiruvchi umumiy etnik nom sifatida mustahkamlangan.

Kalit so‘zlar: O‘zbek atamasi, etnonim, O‘zbekxon, Dashti Qipchoq, Oltin O‘rda, etnogenez, turkiy xalqlar.

Abstract. This article explores the origin and historical development of the term “Uzbek” and its transformation into an ethnonym. The study demonstrates that the term “Uzbek” was initially used as a personal name and later became an ethno-political designation associated with Uzbek Khan, the ruler of the Golden Horde. The paper compares the perspectives of Eastern, Russian, and Western scholars, highlighting various interpretations of the term’s emergence. It concludes that “Uzbek” originated as an anthroponym and by the 14th-15th centuries evolved into a collective ethnonym referring to the Turkic-Mongol tribes of the Dasht-i Qipchaq region.

Keywords: Uzbek term, ethnonym, Uzbek Khan, Dasht-i Qipchaq, Golden Horde, ethnogenesis, Turkic peoples.

Аннотация. В статье рассматривается происхождение термина «узбек» и процесс его формирования в качестве этнонима на основе исторических источников и современных научных исследований. Автор показывает, что слово «узбек» первоначально употреблялось как личное имя, а позднее, в связи с деятельностью хана Узбека - правителя Золотой Орды, стало обозначать этнополитическое объединение. В работе сопоставлены взгляды восточных,

русских и западных исследователей. В заключение делается вывод, что термин «узбек» возник как антропоним и к XIV-XV векам утвердился как общий этноним для тюрко-монгольских племён Дешт-и-Кыпчака.

Ключевые слова: Термин «узбек», этноним, хан Узбек, Дешт-и-Кыпчак, Золотая Орда, этногенез, тюркские народы.

KIRISH

O‘zbeklarning milliy o‘zligini anglash masalasini tadqiq etishda eng muhim va murakkab yo‘nalishlardan biri “o‘zbek” atamasining kelib chiqishi hamda uning etnonim sifatida shakllanish tarixidir. Bu masala nafaqat tilshunoslik va tarixshunoslik, balki etnogenetik va madaniy o‘zlikni anglash jarayonlarini chuqur tushunish uchun ham hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. “O‘zbek” atamasining ildizlarini o‘rganish zamonaviy o‘zbek xalqining etnik birligi, siyosiy shakllanishi va madaniy xususiyatlarini anglashda muhim kalit vazifasini bajaradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Tarixiy manbalar va ilmiy adabiyotlarda “o‘zbek” so‘zining kelib chiqishi haqida turlicha, ba’zan esa bir-biriga zid fikrlar mavjud. XII asr arab muallifi Usoma ibn Munqiz o‘zining “Kitob al-i’tibor” asarida bu nomni ilk bor shaxs ismi sifatida qayd etgan. Keyinchalik Rashididdin Fazlullohning “Jome’ at-tavorix”, Ato Malik Juvayniyning “Tarixi jahongusho” kabi asarlarda ham “o‘zbek” ismi shaxs nomida uchraydi. Shuningdek, Oltin O‘rda hukmdori O‘zbekxon (1312–1342) nomi bilan bog‘liq manbalar, xususan Hamidulloh Mustavfiy Kazviniyning “Tarixi guzida”, Mirzo Ulug‘bekning “To‘rt ulus tarixi” va Abdulg‘ozi Bahodirxonning “Shajarayi turk” asarlarida “o‘zbek” atamasi siyosiy-ijtimoiy nom sifatida tilga olinadi.

Rus va g‘arb olimlaridan N.A. Aristov, P.P. Ivanov, A.Yu. Yakubovskiy, Xilda Hukem, E. Olvort, H. Vamberi kabi tadqiqotchilar bu atamani Oltin O‘rda xoni O‘zbekxon nomi bilan bog‘lash fikrini ilgari suradilar. Shu bilan birga, V.V. Grigorev, A.A. Semyonov va B. Ahmadov singari olimlar bu atama dastlab Oq O‘rda hududida shakllanganini ta’kidlaydilar.

G‘arb tadqiqotchilari G. Xovors va M. Pelyo “o‘zbek” so‘zining ma’nosini “o‘z-o‘ziga bek”, ya’ni erkin, mustaqil inson sifatida izohlashadi. Mahalliy olimlardan A. Asqarov, M.M. Ermatov, R.A. Agayev va A. Shukurovlar ham bu masalaga turlicha yondashuvlarni ilgari surganlar.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqola tarixiy-tipologik tahlil, taqqoslamali manbashunoslik va etnogenetik yondashuv usullariga tayangan. Asosiy maqsad “o‘zbek” atamasining paydo bo‘lishi, ma’no transformatsiyasi va siyosiy-etnik kontekstda shakllanishini aniqlashdir.

Manba sifatida arab, fors va turkiy tarixchilar (Usoma ibn Munqiz, Rashididdin, Mustavfiy, Mirzo Ulug‘bek, Abdulg‘ozi) hamda rus, g‘arb va o‘zbek tadqiqotchilarning ishlari solishtirildi. Shuningdek, “o‘zbek” atamasining antroponim sifatidagi ilk qo‘llanilishi bilan etnonim sifatidagi siyosiy mustahkamlanish jarayoni o‘zaro bog‘liq holda o‘rganildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tarixiy manbalar va ilmiy adabiyotlarda “o‘zbek” so‘zining kelib chiqishi hamda uning xalq nomi sifatida shakllanishi haqida turli, ba’zan bir-biriga zid bo‘lgan fikrlar mavjud. Shu bilan birga, tarixiy ma’lumotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, “o‘zbek” iborasi dastlab antroponim, ya’ni shaxs ismi sifatida ishlatilgan. Masalan, XII asrda yashagan arab muallifi va harbiy arbob Usoma ibn Munqiz o‘zining “Kitob al-i’tibor” (“Ibrat kitobi”) asarida Saljuqiylar davrida Eronda ro‘y bergan voqealarni bayon etar ekan, 1115-1116-yillarda Hamadon amiri Bo‘rsuq qo‘shinining boshlig‘i va Mosul shahri hokimining ismi O‘zbek bo‘lganini qayd etadi. Bu ma’lumot “o‘zbek” nomi ilk davrlarda shaxsiy ism sifatida ishlatilganini ko‘rsatadi.

Shuningdek, XIII-XIV asrlarga oid tarixiy manbalar, jumladan, Ato Malik Juvayniyning “Tarixi jahongusho” va Rashididdin Fazlullohning “Jome’ at-tavorix” asarlarida, hamda Elxon Oboka (1265-1282) davrida Eronda yashagan Tojiddin ibn Bahoiddin (Puri Baho)ning dostonida ham “o‘zbek” ismi shaxs nomida uchraydi. Shuningdek, 1221-yilda Xorazmshoh Jaloliddinning Afg‘onistondagi qo‘shini boshliqlaridan biri “Jahon Pahlavon O‘zbek Toy” deb atalganligi haqidagi ma’lumotlar ham bu nomning keng qo‘llanilganini tasdiqlaydi. Bu misollardan kelib chiqib aytish mumkinki, “o‘zbek” so‘zi dastlab muayyan shaxslarning nomi sifatida qo‘llanilgan bo‘lib, u Markaziy Osiyo hududida, xususan, o‘g‘uz va boshqa turkiy qabilalar orasida mo‘g‘ullar bosqiniga qadar mavjud bo‘lgan.

“O‘zbek” atamasining ma’lum bir aholi guruhi yoki ulusga nisbatan qo‘llanilishi XIV asr boshlariga to‘g‘ri keladi. Shu davr manbalaridan ma’lumki, XIV-XV asrlarga oid sharq tarixiy asarlarida (arab, fors va turkiy tillardagi) “o‘zbek” iborasi dastlab Oltin O‘rda hukmdori O‘zbekxon ulusiga nisbatan ishlatilgan. Keyinchalik esa, sharqiy Dashti Qipchoq hududlarida shakllangan ko‘chmanchi turk-mo‘g‘ul qabilalari ittifoqini ifodalovchi umumiy siyosiy nom sifatida qo‘llanila boshlagan.

Ta’kidlash joizki, o‘rta asr sharq tarixchilari va geograflarining ko‘pchiligi “o‘zbek” etnonimini Oltin O‘rda xoni O‘zbekxon (1312-1342) nomi bilan bog‘laydilar. Masalan, Hamidulloh Mustavfiy Kazviniy (1281-1350)ning “Tarixi guzida” (“Tanlangan tarix”) asarida O‘zbekxonga tobe bo‘lgan yerlar va xalqlar “o‘zbekiyon” (“o‘zbeklar”), ular istiqomat qilgan hududlar esa “mamlakati o‘zbek” (“o‘zbeklar mamlakati”) deb ataladi.

Mirzo Ulug‘bek ham o‘zining “To‘rt ulus tarixi” asarida bu nomning shunday kelib chiqishini ta’kidlab, “O‘zbek ulusini unga (O‘zbekxonga) nisbat beradilar” deb yozadi.

Xiva xoni Abdulg‘ozi Bahodirxon (1643-1664) “Shajarayi turk” asarida shunday deb yozadi: “To‘qtag‘uxon o‘lgandin so‘ng o‘n uch yoshda O‘zbekxon xon bo‘ldi. Elni ota-bobosining dasturi bilan zabt qildi, har kimning martabasiga yarasha hurmat qildi va in’omlar berdi. El-ulusni dini islomga kirguzdi. Andin so‘ng Jo‘chi elini o‘zbek eli tedilar.” Abdulg‘ozi Bahodirxonning bu so‘zlaridan xulosa qilish mumkinki, O‘zbekxon o‘z qo‘l ostidagi qabilalarni islom diniga kiritgach, ular umumiy ravishda “o‘zbek eli” deb atalgan.

Bu nuqtayi nazarni qator rus va g‘arb olimlari ham qo‘llab-quvvatlaydilar. Xususan, N.A. Aristov, P.P. Ivanov, A.Yu. Yakubovskiy, M. Chaplichka, Xilda Hukem, H. Vamberi va E. Olvort kabi tadqiqotchilar “o‘zbek” etnonimining paydo bo‘lishini O‘zbekxon nomi bilan bog‘laydilar. N.A. Aristovning fikricha, “O‘zbekxongacha tarixda bu nom uchramaydi, shu sababli uning nomi bilan bog‘langan deb aytish mumkin”. A.Yu. Yakubovskiy esa “o‘zbek” atamasining kelib chiqishini “o‘zbek” va uning ko‘plik shakli “o‘zbekiyon” so‘zlari bilan izohlab, ular o‘z nomlarini Oltin O‘rda hukmdori O‘zbekxondan olganlar, degan fikrni bildirgan. P.P. Ivanov ham mazkur nuqtayi nazarni ma’qullaydi. Shuningdek, xorijlik tadqiqotchilar M.A. Chaplichka va Xilda Hukem ham o‘zbeklarning kelib chiqishini O‘zbekxon nomi bilan bog‘lash fikrini ilgari suradilar.

Bu borada, ayniqsa, venger sharqshunosi Herman Vamberining fikrlari alohida e’tiborga loyiqdir. Uning ta’kidlashicha, turkiy xalqlarda agar hukmdorlardan biri mamlakatni adolat bilan boshqarib, davlatda islohot va tartib-intizom o‘rnatsa, el uning nomini abadiy saqlashga intiladi. Bu orqali u nafaqat hukmdorini qavm boshlig‘i darajasiga ko‘taradi, balki shu xalqning siyosiy taraqqiyoti va umumjahon tarixiga kirish jarayonini ramziy ifoda etadi. Vamberi shunday yozadi: “Xuddi shunday holat Ko‘k O‘rdaning sharqida, Volga bilan Orol dengizi orasida istiqomat qilgan turk-mo‘g‘ul qabilalarida ham kuzatiladi. Ular Jo‘chi sulolasidan bo‘lgan to‘qqizinchi hukmdor O‘zbekxon nomi bilan bog‘lab, o‘zlariga bir siyosiy qo‘shma nom “o‘zbek” atamasini qabul qilganlar.” Olim shuningdek, “o‘zbek” so‘zining lug‘aviy ma’nosi haqida ham mulohaza yuritib, uni “o‘ziga xos mustaqil xo‘jayin”, “erkin shaxs” ma’nosida talqin qiladi. Uning ta’kidlashicha, bu atama qadimiy mojyor hujjatlarida ham uchraydi va 1150-yillarga oid ba’zi yozma manbalarda qayd etilgan.

O‘zbekxon davrida uning ulusi tarkibidagi *burkut, qiyot, qo‘shchi, qo‘ng‘irot, nayman, qorluq, mang‘it, no‘kuz, qushchi, uyshun, do‘rmon, tuboy, kenagas, taymas, tuman-ming, uyg‘ur, xitoy (qora xitoy)* va boshqa turkiy-mo‘g‘ul qabilalar Sharq

manbalarida umumiy tarzda “o‘zbeklar” deb atalgan. Ular yashagan hudud esa “mamlakati o‘zbek” yoki “o‘zbek ulusi” sifatida tilga olingan.

XIV asrdagi arab mualliflari Nasiriddin ibn Furat (1361-1404), al-Asadiy (1377-1447) va al-Ayniy (1361-1452) o‘z asarlarida O‘zbekxon va uning vorislarini “shimol dashtlarining podshohlari”, “qipchoqlar sultonlari” yoxud “dasht mamlakatlarining podshohlari” deb ta’riflaydilar. Tarixchi al-Kalkashoniy esa (1418-yilda vafot etgan) To‘xtamishxonni “o‘zbeklar podshohi” sifatida zikr etadi.

Biroq “o‘zbek” atamasining to‘g‘ridan-to‘g‘ri O‘zbekxon nomi bilan bog‘lanishiga barcha olimlar ham qo‘shilmaydilar. Masalan, V.V. Grigorev va A.A. Semyonov, B.Ahmedov kabi tadqiqotchilar bu atama ilk bor Oq O‘rda hududida paydo bo‘lgan, deb hisoblaydilar. Ularga ko‘ra, XIV-XV asrlarda Eron va Movarounnahr tarixchilari Oq O‘rdadagi barcha turk-mo‘g‘ul qabilalarini umumiy “o‘zbeklar” nomi bilan ataganlar, O‘zbekxon esa Ko‘k O‘rda ya’ni Oltin O‘rdaning hukmdori bo‘lib, keyinchalik “o‘zbeklar” deb atalgan qabilalar unga bevosita bo‘ysunmagan.

B. Ahmedovning fikricha, “o‘zbek” iborasi XV asrga kelibgina Dashti Qipchoqdagi turk-mo‘g‘ul qabilalarining umumiy nomi sifatida mustahkamlangan. Uning ta’kidlashicha, XIV-XV asrlardagi arab va fors tillaridagi tarixiy asarlarda, jumladan Hamidulloh Mustavfiy Kazviniy, Nasiriddin ibn al-Furat, al-Asadiy, Nizomuddin Shomiy, Abdurazzoq Samarqandiy va Xondamir asarlarida Orol va Kaspiydan to G‘arbiy Sibir, Itil (Volga) va Yoyiq (O‘rol) daryolaridan Balxash va Chu vohasigacha bo‘lgan keng hududda istiqomat qilgan turk-mo‘g‘ul qabilalari “o‘zbeklar” deb tilga olinadi.

G‘arblik tadqiqotchilar G. Xovors va M. Pelyo esa “o‘zbek” so‘zining ma’nosini “o‘z-o‘ziga bek”, ya’ni erkin, mustaqil inson sifatida izohlab, bu atama ko‘chmanchi turk-mo‘g‘ul qabilalarining mustaqillik hissini ifodalaganini ta’kidlaydilar. Ushbu fikrni ayrim mahalliy olimlar ham qo‘llab-quvvatlaydilar. Shu bilan birga, Allen J. Frank va Peter B. Golden kabi tadqiqotchilar “o‘zbek” atamasi Oltin O‘rda xoni O‘zbekxondan ancha oldin ham mavjud bo‘lgan, deb hisoblaydilar.

Ayrim mahalliy tadqiqotchilar (M.M. Ermatov, R.A. Agayev) “o‘zbek” so‘zini “o‘zlar” so‘zidan kelib chiqqan deb talqin qilsalar, ba’zi ziyolilar (Asqad Muxtor, Po‘lat Zohidov, Xurshid Davron, Tohir Malik, Anvar Shukurov) uni “O‘g‘uzxon” yoki “o‘g‘uzlar” nomi bilan bog‘laydilar.

Shu tariqa, manbalardagi ma’lumotlar va turli talqinlarning mavjudligi “o‘zbek” atamasining kelib chiqishi haqida yagona ilmiy xulosa chiqarishni qiyinlashtiradi. Biroq umumiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, “o‘zbek” iborasi turkiy muhitda ilk bor shaxsiy nom sifatida ishlatilgan, keyinchalik esa O‘zbekxon nomi va uning siyosiy faoliyati bilan bog‘liq holda umumiy etnosiyosiy nom darajasiga ko‘tarilgan.

O‘zbekxon Dashti Qipchoq hududida islom dinini rasmiy ravishda joriy etgan ilk hukmdorlardan biri bo‘lib, uning siyosiy nufuzi va islomni davlat dini sifatida tan olishi natijasida u boshqargan qabilalar “o‘zbek ulusi” deb atalgan. Shu davrdan boshlab “o‘zbek” nomi nafaqat siyosiy birlikni, balki diniy va madaniy birlikni ham ifoda eta boshlagan.

Adib Abduqahhor Ibrohimov ham bu nuqtayi nazarni qo‘llab, “Bizkim, o‘zbeklar” asarida shunday yozadi: “O‘zbek atamasi Oltin O‘rda davlatida yashagan, islom dinini qabul qilgan Orlot, Bahrin, Burgut, Qtoy, Qorluq, Mojar, Qipchoq, Qiyot, Qo‘ng‘irot, Mang‘it, Nayman, Nukuz, Tang‘ut, Qushchi, Ming kabi turkiy qabilalar uyushmasini, ya’ni o‘zbek xalqini ifoda etgan.”

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, “o‘zbek” atamasi ildizi qadimiy turkiy muhitda shakllangan bo‘lib, u dastlab shaxsiy nom sifatida, keyin esa O‘zbekxon nomi va uning islomni joriy etish siyosati bilan bog‘liq holda umumiy etnosiyosiy nom sifatida mustahkamlandi. XIV-XV asrlarga kelib esa, bu atama Dashti Qipchoq aholisining umumiy etnonimiga aylanib, keyinchalik Markaziy Osiyodagi yetakchi etnik va siyosiy birlik o‘zbek xalqi nomi sifatida shakllandi.

O‘zbekxonning islomni davlat dini sifatida joriy etishi “o‘zbek” nomining diniy va madaniy birlashuv ramziga aylanishiga sabab bo‘lgan. G‘arb va mahalliy olimlar o‘rtasidagi fikrlar farqlansa-da, umumiy xulosa shuki, “o‘zbek” so‘zi siyosiy birlik, mustaqillik va diniy o‘zlikni ifoda etuvchi tarixiy tushunchaga aylangan.

Kelgusida “o‘zbek” atamasining turkiy qabilalar o‘rtasida tarqalish dinamikasini, til va madaniyat bilan o‘zaro aloqasini lingvo-etnologik tadqiqotlar orqali yanada chuqur o‘rganish tavsiya etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Абдуғози Баҳодирхон. (1992). Шажарайи турк. Тошкент.
2. Агаев Р.А. (1990). Страны и народы. Происхождение названий. Москва. С. 102.
3. Асқаров А. (2015). Ўзбек халқининг келиб чиқиш тарихи. Тошкент.
4. Аҳмедов Б. (1992). Ўзбек улуси // Ўзбегим. Тошкент.
5. Аҳмедов Б. (1994). Тарихдан сабоқлар. Тошкент.
6. Вамбери Херман. (1990). Бухоро ёхуд Мовароуннаҳр тарихи. Тошкент. 52–53-бетлар.
7. Даврон Хуршид. (1991). “Ўзбек” атамасининг келиб чиқиши билан боғлиқ бир фараз ҳақида // Самарқанд ҳаёли. Қиссалар ва бадиялар. Тошкент. 232-бет.

8. Иброҳимов А. (2011). Бизким, ўзбеклар (миллий давлатчилигимиз асослари ҳақида мулоҳазалар). Тошкент. 361-бет.

9. Мирзо Улуғбек. (1994). Тўрт улус тарихи (форс тилидан Б. Аҳмедов, Н. Норқулов, М. Ҳасаний таржимаси). Тошкент. 225-бет.

10. Семёнов А.А. (1953). К вопросу о происхождении и составе узбеков Шейбани-хана // Труды академии наук Таджикской ССР. Том XII. С. 3–37.

11. Усама ибн Мунқиз. (1958). Китаб назидания (пер. Ю.И. Крачковского). Москва: Издательство восточной литературы. С. 134.

12. Шукуров Анвар. (2010). “Ўзбек” атамасининг келиб чиқиши ҳақида. Тошкент. 10–36-бетлар.

13. Эрматов М.М. (1964). К вопросу о происхождении названия «узбек» // Ученые записки Ташкентского государственного педагогического института имени Низами. Том 49. Тошкент.

REFERENCES:

1. Abdug‘ozi Bahodirxon. (1992). Shajarayi turk. Toshkent: Cho‘lpon. 8-bet. (In Uzbek)

2. Agaev R.A. (1990). Strany i narody: Proiskhozhdenie nazvaniy. Moskva. S. 102. (In Russian)

3. Ahmedov B. (1992). O‘zbek ulusi // O‘zbegim. Toshkent. (In Uzbek)

4. Ahmedov B. (1994). Tarixdan saboqlar. Toshkent. (In Uzbek)

5. Асқаров А. (2015). O‘zbek xalqining kelib chiqish tarixi. Toshkent. (In Uzbek)

6. Davron Xurshid. (1991). “O‘zbek” atamasining kelib chiqishi bilan bog‘liq bir faraz haqida // Samarqand hayoli: Qissalar va badiyalar. Toshkent. 232-bet. (In Uzbek)

7. Ermatov M.M. (1964). K voprosu o proiskhojdenii nazvaniya “uzbek” // Uchenye zapiski Tashkentskogo gosudarstvennogo pedagogicheskogo instituta imeni Nizami. Tom 49. Toshkent. S. 54–55. (In Russian)

8. Ibrohimov A. (2011). Bizkim, o‘zbeklar (milliy davlatchiligimiz asoslari haqida mulohazalar). Toshkent. 361-bet. (In Uzbek)

9. Mirzo Ulug‘bek. (1994). To‘rt ulus tarixi (fors tilidan B. Ahmedov, N. Norqulov, M. Hasaniy tarjimasi). Toshkent. 225-bet. (In Uzbek)

10. Semenov A.A. (1953). K voprosu o proiskhojdenii i sostave uzbekov Sheybani-xana // Trudy akademii nauk Tajikskoy SSR. Tom XII. S. 3–37. (In Russian)

11. Shukurov Anvar. (2010). “O‘zbek” atamasining kelib chiqishi haqida. Toshkent. 10–36-betlar. (In Uzbek)

12. Usama ibn Munkiz. (1958). Kniga nazidaniya (per. Yu.I. Krachkovskogo). Moskva: Izdatelstvo vostochnoy literatury. S. 134. (In Russian)

13. Vamberi Herman. (1990). Buxoro yoxud Movarounnahr tarixi. Toshkent. 52–53-betlar. (In Uzbek)

EFTALIYLARDA DAVLAT MAFKURASI, HUQUQ VA MUDOFAA TIZIMI

STATE IDEOLOGY, LAW AND DEFENSE SYSTEM AMONG THE EFTALITES

В ЭФТАЛИТАХ ГОСУДАРСТВЕННАЯ ИДЕОЛОГИЯ, ПРАВО И СИСТЕМА ОБОРОНЫ

Kamolov Jahongir Mamasidiqovich
Oreantal universiteti
Ijtimoiy fanlar kafedrasi dotsenti, PhD.
Tel: +998 99 843-88-96
E-mail: jahongir.kamolov.88@gmail.com
ORCID: 0009-0005-6245-1004

Annotatsiya. Ushbu maqolada Eftaliylar davlati (V–VI asrlar) siyosiy va mafkuraviy asoslari, huquqiy tartibotlari hamda mudofaa tizimi tahlil etiladi. Tadqiqotda Eftaliylar hokimiyatining mafkuraviy poydevori, diniy va dunyoviy qarashlar hamda ularning davlat boshqaruvidagi o‘rni yoritilgan. Shuningdek, jamiyat hayotida amal qilgan huquqiy normalar, adolat tamoyillari va ijtimoiy tabaqalanish jarayonlari haqida fikr yuritiladi. Maqolada Eftaliylar davlatining mudofaa siyosati, qo‘shin tuzilishi, harbiy taktika va strategiyalar, shuningdek, yirik yurishlar va tashqi xavflarga qarshi olib borilgan harbiy choralarga e’tibor qaratilgan. Tadqiqotdan ko‘rinadiki, Eftaliylar davlat mafkurasi markazlashgan hokimiyatni mustahkamlashga xizmat qilgan bo‘lsa, huquqiy tizim jamiyat barqarorligini ta’minlashda muhim omil bo‘lgan. Ularning mudofaa tizimi esa keng hududlarni saqlash va qo‘shni davlatlar bilan raqobat qilish imkonini bergan.

Kalit so‘zlar: *Eftaliylar, davlat mafkurasi, huquqiy tizim, mudofaa, qo‘shin, O‘rta asrlar tarixi, sosoniylar, Xun saltanati.*

Abstract. This article analyzes the political and ideological foundations of the Ephthalite state (5th–6th centuries), its legal regulations, and defense system. The study highlights the ideological basis of Ephthalite power, religious and secular views, and their role in state governance. It also discusses legal norms operating in social life, principles of justice, and social stratification processes. The article focuses on the Ephthalite state's defense policy, army structure, military tactics and strategies, as well as major campaigns and military measures against external threats. The research shows that the Ephthalite state ideology served to strengthen centralized power, while the legal system was a key factor in ensuring societal stability. Their defense system enabled control over vast territories and competition with neighboring states.

Keywords: *Hephthalites, state ideology, legal system, defense, army, medieval history, Sassanids, Hunnic Empire*.

Аннотация. В данной статье анализируются политические и идеологические основы государства эфталитов (V–VI вв.), их правовые установления и система обороны. В исследовании освещены идеологическая основа власти эфталитов, религиозные и светские взгляды, а также их роль в государственном управлении. Кроме того, рассматриваются правовые нормы, действовавшие в общественной жизни, принципы справедливости и процессы социальной стратификации. В статье уделено внимание политике обороны государства эфталитов, структуре армии, военной тактике и стратегии, а также крупным походам и военным мерам против внешних угроз. Из исследования видно, что идеология государства эфталитов служила укреплению централизованной власти, правовая система была важным фактором обеспечения стабильности общества. Их система обороны позволяла сохранять обширные территории и конкурировать с соседними государствами.

Ключевые слова: *Эфтали́ты, государственная идеология, правовая система, оборона, войско, история средних веков, Сасаниды, Хуннская империя.*

KIRISH

Eftaliylar davlati (V–VI asrlar) O‘rta Osiyoda markazlashgan hokimiyat, huquqiy tartib va kuchli mudofaa tizimi bilan ajralib turgan muhim siyosiy kuch edi. Bu davlatning mafkuraviy poydevori diniy bag‘rikenglik va dunyoviy qarashlarga asoslangan bo‘lib, jamiyat barqarorligini ta’minlagan. Huquqiy normalar jinoyatlarga qattiq jazo va adolat tamoyillarini o‘z ichiga olgan, ijtimoiy tabaqalanishni mustahkamlagan. Mudofaa siyosati otliq qo‘shinlar, harbiy taktikalar va yirik yurishlar orqali keng hududlarni himoya qilgan, Sosoniylar va boshqa qo‘shnilar bilan raqobatni ta’minlagan. Mazkur masalani quyidagi ma`lumotlar orqali tahlil qilib chiqamiz.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Eftaliylardagi davlat mafkurasi va huquq tizimi bo‘yicha keng ma’lumotlar yozma manbalarda o‘rin olmasa-da, ulardagi jinoyat va jazo masalasi, ko‘mish marosimlari, ijtimoiy turmush tarzi haqida “Bey-shi” va “Vey-shu” yilnomalarida, shuningdek qisman elchi Sun Yun keltirilgan ma’lumotlar bu borada birmuncha tasavvurlar beradi. Elchi Eftaliylar davlati ijtimoiy tuzumida tabaqalashuv mavjud ekanligini quyidagi ma’lumotlar orqali keltirib o‘tadi. “Ularda kambag‘allar va boylarning kiyimlarida farqlilik ko‘zga tashlanadi” (Гафуров Б.Г., 1989:256-266).

Eftaliylar jamiyati yuqori tabaqa va oddiy xalq o‘laroq ikkiga bo‘lingan. Ya’ni katta boyliklarga ega boy kishilar (saroy a’yonlari, amaldorlar, urug‘-qabila boshliqlari va h.k.) va o‘rtahol yoki kambag‘al aholi (dehqonchilik, chorvachilik,

hunarmandchilik, turli xizmatlar bilan shug‘ullanuvchilar). Jamiyatdagi tabaqalashuv ularning ko‘mish marosimlarida ham aks etgan. Eftaliylardagi ko‘mish marosimlari haqida elchi Sun Yun keltirilgan quyidagi ma’lumot bu borada birmuncha tasavvurlar beradi. “Boy xonadonlar marhumning tosh lavhalari qo‘yilgan qabrlarga qo‘yiladi, yo‘qsillar esa qazma qabrlarga ko‘miladi” (Гафуров Б.Г., 1989: 265-266).

Eftaliylarda davlat mafkurasi bevosita ularning diniy qarashlari bilan bog‘lanib ketgan bo‘lib, urug‘-qabilachilikka asoslangan an’analardan iborat bo‘lgan, deyish mumkin. Xo‘sh, ko‘chmanchilarga xos an’analar mohiyatan qanday bo‘lgan. Bu masalada aniqroq tasavvurga ega bo‘lish uchun o‘z an’analarining ko‘pchiligini Juan-juanlar orqali Xun saltanatidan olgan Turk xoqonligi misolida ko‘rish mumkin.

Ma’lumki, qadimgi turklarda qonunlar “to‘ru” (*to‘ru*) yoki “to‘ra” deb atalgan. O‘rxun bitiktoshlarda *to‘ru* haqida ko‘p marotaba eslatilgan bo‘lsa-da, qonunlarning majmua holida yig‘ilib, yozuvda ifodalangani haqida ma’lumotlar uchramaydi. Ko‘pchilik tadqiqotchilarga ko‘ra, qadimgi turkiy qonunlar – *to‘ru* og‘zaki bo‘lib, hech qachon yozuvga ko‘chirilmagan (Koca A., 2002: 854). Demak, qadimgi turkiy urf-odatlarga asoslangan ushbu ibora ostida an’anaviy rasm-rusumlar, ya’ni “odat huquqi” tushuniladi. Bitiktoshlarda “*turk to‘rusini yo‘qotgan xalqni ota-bobolarim to‘rusi bo‘yicha tartibga solibdi, boshqaribdi*” mazmunida jumlalar uchraydiki, bu esa jamiyat a’zolari nazdida qonunlarning “ajdodlarga meros” ekanligidan va xalqning barcha qatlamiga tegishli deb bilinganidan darak beradi.

Turk xoqonligidan oldinroq ham *to‘ru* tushunchasi mavjud bo‘lganini tasdiqlaydigan ma’lumotlar Juan-juanlarga oid manbalarda ham uchraydi. Jumladan, 510 yillar atrofida xoqon bo‘lgan Chounu o‘ziga *Dou-lo fu-ba-do u-fa ke-xan* unvonini qabul qilgani va u Vey sulolasi tilida[1] “boshqaruvni yorituvchi” ma’nosini bildirishi xitoy yilnomalarida qayd etiladi (В.С. Таскина, 1984:279) Yapon tadqiqotchisi Shiratori fikricha, ushbu unvonning birinchi qismi *do-ulo*, aslida mo‘g‘ulcha *türu* – “boshqarma/mahkama”, “davlat boshqaruvi” degan ma’noni anglatadi (Бобоёров Ғ., 2018:413). Demak, Turk xoqonligi davlat boshqaruviga xos bir qator an’analarni juan-juanlardan qabul qilish barobarida mazkur davlat jamiyatiga xos ayrim huquqiy an’analarni ham o‘zlashtirgan.

---

*“Vey sulolasi tili” – milodiy 385–556-yillarda Xitoyda hukm surib, xitoy yilnomalarida “Toba sulolasi” yoki “Shimoliy Vey sulolasi” deb nomlangan va kelib chiqishi markaziy osiyolik ko‘chmanchi qabilalarga borib taqaladigan sulola asoschilarining tili. Ushbu tilni ayrim tadqiqotchilar turkiy hisoblasa, ayrim tadqiqotchilar mo‘g‘ulcha bo‘lgan, deb talqin qiladilar (Boodberg P. A., 1936: 167–185).

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Eftaliylar davlati mavzusini o‘rganishda tarixiy, arxeologik va adabiy manbalarni kompleks tahlil qilishga asoslanadi. Asosiy tadqiqot usullari sifatida tarixiy izchillik, taqqoslash, tipologik tahlil va dokumentshunoslik qo‘llaniladi. Arxeologik dalillar va yirik davlat yozma manbalari o‘rganilib, davlat mafkurasi, huquqiy tizim va mudofaa tizimining shakllanishi yoritiladi. Shu bilan birga, jamiyatning ijtimoiy va siyosiy jarayonlari, davlat boshqaruvi va harbiy strategiyalar tahlil qilinadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqotchilarga ko‘ra, o‘z navbatida juan-juanlar ham markaziy osiyolik qadimgi ko‘chmanchilar, shu jumladan, xunlardan bir qator an’analarni qabul qilib olishgan (Koca A., 2002:319). Masalan, Xun, Juan-Juan, Turk xoqonligida «Tangri, ya’ni Osmon» bosh iloh bo‘lib, u barcha jonli va jonsiz narsalarning yaratuvchisi, deb talqin qilingan. Shunga o‘xshash tushuncha Eftaliylarda ham mavjud bo‘lganini xitoy elchisi Sun Yun (520) o‘zi guvoh bo‘lib yozib qoldirgan “*Eftaliylar har kuni ertalab chodirlaridan tashqariga chiqib, xudolarga ibodat qilishadi va shundan so‘nggina nonushta qilishadi*»” mazmunidagi qaydlar ham tasdiqlaydi. Shunga o‘xshashroq ma’lumot Turk xoqonligi bilan bog‘liq ravishda shu tariqa uchraydi: “*O‘tog‘ining eshigi ham sharqqa qaratilgan bo‘lardi. Xoqon har tongda o‘tog‘ining eshigidan chiqqanda muqaddas hisoblanuvchi quyoshga salom berardi*” (Бичурин Н.Я., 1950: 833).

Agar Eftaliylar davlatining Juan-juanlar bilan deyarli bir vaqtda yashab o‘tgan o‘zaro qo‘ni-qo‘shni bo‘lganligini e’tiborga oladigan bo‘lsak, shuningdek, ayrim yozma manbalarda “*Ko‘plab odatlari tukyue (Turk xoqonligi) odatlari bilan bir xil*” (Taşağıl A., 2003:268) mazmunidagi ma’lumotlarning uchrashi ushbu davlatlarning davlat mafkurasi va huquq tizimida birmuncha o‘xshashliklar bo‘lganligidan darak beradi. Bu borada quyidagicha o‘xshash omillarni keltirib o‘tish mumkin:

- “Osmon xudosi”, ya’ni ko‘plab ko‘chmanchi davlatlarda mavjud bo‘lgan ibora bilan aytiladigan bo‘lsa, “Tangri” tushunchasi bu uchala davlatda ham mavjud bo‘lib, boshqaruvchi toifa tomonidan bu e’tiqod bilan bog‘liq marosimlar amalga oshirilgan;
- Ko‘plab urf-odatlar, xususan, huquq, jinoyatchilarni jazolash masalalarida umumiylik bor. Ayniqsa, o‘g‘rilik jinoyati ushbu jamiyatlarda qattiq qoralanib, eng katta jazolar ularga nisbatan qo‘llanilgan;
- türü / törü, ya’ni “qonun” so‘zi Juan-juanlar va Turk xoqonligida mavjud bo‘lib, bu so‘z ko‘chmanchi jamiyatda o‘zaro muvozanatni saqlash, hokimiyat va aholi orasidagi munosabatlarni tartibga solish ishlari orqali amalga oshirilgan. Juan-juanlarga bir qator jihatlardan o‘xshashlikka ega bo‘lgan Eftaliylarda ham shunday qonun-qoidalar bo‘lgan deyish mumkin.

"Bey-shi" yilnomalarida Eftaliylardagi jinoyatchilarni jazolash bo'yicha "*O'g'irlik uchun miqdoriga qaramasdan **jinoyatchining boshi kesiladi**; o'g'irlangan mol-mulklarning **o'n miqdori** undirib olinadi*" mazmunida ma'lumotlar keltirilsa, "Tun-dyan" asarida Turk xoqonligida jinoyat qilganlar va ularga nisbatan ko'riladigan choralar haqida "*Ular (turklar)ning qonuni bo'yicha isyon ko'targan, odam o'ldirgan har qanday kishiga **o'lim jazosi buyuriladi**. ... ot o'g'irlaganlar **o'n misli** to'lov to'lash majburiyatidir*" (Гафуров Б.Г. 1989, 98) degan ma'lumot keltiriladi. Shuningdek, "Se-fu Yuan-kui" yilnomasida esa xoqonlikda jinoyat va uning jazosi haqida "*Ularning odatiga ko'ra isyon ko'targan, odam o'ldirgan, zino qilgan, bog'log'liq otni o'g'irlaganlar **o'lim jazosiga tortilardi** ... Ot va mol-ashyo o'g'irlagan kishi **barchasining o'n baravaridan** ko'prog'ini to'lashi shart edi*" (Бичурин Н.Я., 1950:112). Bundan ko'rinadiki, Eftaliylar davlati bilan xoqonlikdagi qonun-qoidalarida umumiylik mavjud bo'lgan. Ayniqsa, o'lim jazosi va birovlarning mol-mulkini o'g'irlaganda "10 baravar to'lov to'latish" kabi amaliyotlar bu fikrni tasdqilaydi.

Eftaliylarning diniy qarashlari haqida dastlab xitoy manbalari ma'lumot beradi. Xitoylik sayyoh Sun Yunning xabar berishicha, Toxaristondagi Eftaliylar buddizmga e'tiqod qilmaydilar, ular "begona xudolarga" sig'inadilar. V.A.Litviniskiyning yapon tarixchisi E.Enokiga tayanib bergan ma'lumotlariga e'tibor qaratadigan bo'lsak, "begona xudolar" deb ko'chmanchi eftallarning Ko'k tangri (Qam, shamaniylik ham bo'lishi ehtimol)ga e'tiqod qilishlarini nazarda tutgan bo'lishi haqiqatga yaqin. Xuddi shunga o'xshash ma'lumotni "Liang-shu»da ham uchratish mumkin. Gandharadagi Eftaliylar "*Eftallar jinlarni hurmat qilishadi*", "*ular Osmon xudosi va Olov xudosiga*" sig'inishadi. "Liang-shu" yilnomasining yuqoridagi ma'lumotlaridan bilish mumkinki, eftaliylar ijtimoiy hayotida tangrichilik, otashparastlik va shamaniylik amalda bo'lgan. Tangrichilik va shamanizm azaldan ularning hayotida muhim o'rin tutgan bo'lsa, Markaziy Osiyo, xususan, Toxariston hududiga kirib kelishi ular hayotiga otashparastlikni ham olib kirdi. Kushonlardan esa meros bo'lib, ular bunyod etgan shaharlar va buddizmning elementlari saqlanib qoldi. Buddizm ko'proq ular hayotiga Shimoliy Hindistonni zabt etgandan keyin rivojlandi. Yuqorida keltirib o'tilganidek, Eftaliylar har kuni ertalab chodirlaridan tashqariga chiqib, xudolarga ibodat qilib, shundan so'nggina nonushta qilishgan bo'lib, bu esa ularning ko'chmanchilarga xos an'analarning ular Hindistonda hukmronlik qilgan chog'larda ham davom etganidan darak beradi.

Xitoy sayyohi Sun Yunning bergan ma'lumotlarida Eftaliylar buddizmga e'tiqod qilmaganligi ta'kidlangan bo'lsa-da, biroq Toxaristonda va boshqa hududlarda buddizm keng tarqalgan. Bu faqatgina Eftaliylar emas, balki ular egallagan hududlar aholisining e'tiqodi bilan bog'liq holat edi. Deyarli uch asr Kushon podsholigi davrida

buddizm mintaqada hukmron din bo‘lgani bois aholining katta qismi bu dinga e’tiqod qilgan, Eftaliylar kirib kelganda Markaziy Osiyoda buddizm bilan zardushtiylik asosiy e’tiqod dini edi. Buni hozirgi O‘zbekiston, Tojikiston va Afg‘oniston hududlarida olib borilgan arxeologik izlanishlar ham tasdiqlaydi. Shuningdek, bu davrda Afg‘onistonda va Toxaristonda hinduiylik dini e’tiqodlari ham ko‘payib, moniylik va nestorianlik ham tarqala boshladi.

Eftaliylar hayotida dinlarning o‘ziga xos o‘rni bo‘lib, materiallarni tahlil qilish orqali ularning din borasida anchayin bag‘rikeng bo‘lganligini ko‘ramiz.

Eftaliylar o‘ziga xos madaniyat va diniy dunyoqarashga ega bo‘lgan turli xalqlarni siyosiy jihatdan birlashtirgan. Milodiy IV – VI asrlarda O‘rta Osiyoda ko‘plab diniy tizimlar va kultlar mavjud bo‘lgan. Markaziy Osiyoda zardushtiylik mahalliy kultlar bilan aralashib ketgan. Buddizm Eftaliylar davrida, xususan, ularning davlatining janubiy hududida keng tarqalgan. Biroq, Eftaliylarning bu dinga aloqasi haqida ko‘plab ziddiyatli dalillar mavjud. “Bey-shi” yilnomasining yozishicha, (Kurbanov A., 2010:265-266) Eftaliylar hukmdori qarorgohida “*Badiyan shahrida hukmdorning saroyi joylashib, aylanasi qariyb 10 li (chamasi 5 km). Unda ko‘plab buddaviy ibodatxonalar va tosh ustunlar joylashgan bo‘lib, barchasi oltin bilan bezatilgan*”. Bu ma’lumot Eftaliylarning bosh hukmdorlari keyinchalik buddizmni qabul qilib, uni qo‘llab-quvvatlaganini ko‘rsatadi.

Syuan Szan Eftaliylar haqida, ular buddizmga ishonmaganliklarini va hatto buddistlarni quvg‘in qilganliklari bo‘yicha ma’lumot yozib qoldirgan. B.A.Litvinskiyning fikricha, bu holat Eftaliylarning mahalliy aholini bo‘ysundirish uchun qilgan hatti-harakatlari bilan izohlanadi (Litvinsky B.A., 1999:150). Boshqa tomondan esa Eftaliylarning ayrim guruhlari, ehtimol, ushbu sulolaning tarmoqlaridan birida bu din taqiqlangan bo‘lib, ko‘rinishidan ular o‘zlarining qadimiy inonchlarini saqlashga harakat qilib shunday yo‘l tutgan.

Eftaliylar davri shahar xarobalarida topilayotgan buddaviylikka xos elementlar bir tomondan eftaliy boshqaruvchilarining keyinchalik ushbu dinga rag‘bat ko‘rsatganligi bilan bog‘liq bo‘lsa, ikkinchi tomondan esa bu davr shaharlarining aholisi va ibodatxona ahlining o‘z an’analarini saqlab qolgan mahalliy aholi bilan bog‘liqdir. Ya’ni bu shaharlar etnik jihatdan eftaliy bo‘lmagan yerli aholi, shu jumladan, baqtriyaliklarga aloqador bo‘lishi ehtimoldan yiroq emas.

Eftaliylarning ma’lum bir qismi orasida xristianlik birmuncha keng tarqalgan edi. Suriyadagi “Mar Aba tarixi” manbasining xabar berishicha, milodiy 549 yilda Eftaliylar Nestorian patriarxi Mar Aba II ga bu ruhoniyni nasroniy bo‘lgan Eftaliylar uchun o‘z yurtida yepiskop qilib tayinlash iltimosi bilan ruhoniy yuborgan. Eftaliylarning iltimosi ma’qullanadi. Shunday qilib, Eftaliylarning bir qismi nasroniylik ta’limotining nestorianlik oqimiga o‘tishadi (Kurbanov A., 2010:236)

Yegishe armanlar sosoniylardan mustaqillik uchun olib borgan kurashlari chog‘ida forslarga qarshi ittifoq tuzish to‘g‘risida muzokaralar olib borish uchun Xon (Xun)lar (ya’ni Eftaliylar) mamlakatiga o‘z vakilini yuborganlar. Eftaliylar bunga rozi bo‘lishdi va “*xristian bo‘lishga ishtiyoq bilan va’da berdilar*”. Bu faktlar Eftaliylar orasida nasroniylik keng tarqalgan deb hisoblashga imkon beradi. Marv nestorianlarning O‘rta Osiyodagi asosiy markazlaridan biriga aylanadi (Kurbanov A., 2010:236-238).

Ter-Mkrtichyanning fikricha, Eftaliylar orasida nasroniylikning tarqalishi ularning armanlar bilan birga forslar va zardushtiylikka qarshi kurashidagi ishtiroki bilan bog‘liqdir (Тер-Мкртичян Л. Х., 1979: 53).

Zardushtiylik bilan bir qatorda O‘rta Osiyoda Erondagidan farqli bo‘lgan moniylik – Mazdak tarafdorlari ta’limoti sosoniylar tomonidan ta’qib qilinib, Erondan, jumladan, Eftaliylar davlatiga quvib chiqarilgach, tez tarqalishda davom etdi. Qizig‘i shundaki, Sosoniylar hukmdorining o‘g‘li Kubod mazdakiylar yordamida Eftaliylar huzuriga yordam so‘rab boradi (Kurbanov A., 2010: 238).

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, Eftaliylar davlatida bir nechta dinlar mavjud edi: buddizm, zardushtiylik, nasroniylik (asosan nestorianlik), moniylik, hinduizm, shuningdek, Markaziy Osiyo ko‘chmanchilariga xos qarashlar (Osmonga – “Tangri”ga, olovga sig‘inish). Aftidan, Eftaliylar imperiyasida turli dinlar yonma-yon yashab, diniy bag‘rikenglik xarakterli edi.

Eftaliylar davlatining davlat mafkurasini tashkil etgan unsurlarga keladigan bo‘lsak, bu birinchi navbatda ushbu sulolani tashkil etgan elat – eftal qabilasiga xos qadriyatlar: e’tiqod, ajdodlardan meros urf-odat va an’analar, qonun-qoidalar ustuvorlik qilgan. Ayniqsa, ushbu sulolaga asos solingan va davlatning saltanatga aylanish jarayonlari yuz bergan dastlabki yillarda ular o‘zlarining qadimiy an’analarini saqlashga intilishgan. Keyinchalik esa egallangan hududlar aholisining mahalliy an’analari ta’sirida davlat boshqaruvi va mafkurada o‘zgarishlar bo‘lib, joylarga qarab zardushtiylik, buddaviylik kabi e’tiqodlar ham boshqaruvchi toifaga o‘z ta’sirini ko‘rsata boshlagan. Eftaliylarga xristian dinining kirib kelishi siyosiy va g‘oyaviy asoslar bilan bog‘liq bo‘lib, Sosoniylarga qarshi ittifoqchi izlangan paytda bu dinga rag‘bat ko‘rsatilgan. Sosoniylar tomonidan quvg‘unga uchragan manixeylik ta’limoti ham shunga o‘xshash omillar tufayli Eftaliylar hukm suradigan o‘lkalarda keng tarqala boshlagan. Albatta, bu kabi e’tiqodiy o‘zgarishlarda tashqi ta’sirlar, xususan, missionerlarning ham o‘ziga xos roli bo‘lgan.

Markaziy Osiyolik ko‘chmanchilarga xos an’ana – bosib olingan hududlardagi mahalliy an’analarga, xususan, diniy inonchlarga zarar etkazmaslik, o‘z e’tiqodini bo‘ysundirilgan xalqlarga tiqishtirmaslik kabi holatlar Eftaliylar davrida ham bo‘lgan, degan qarashlar bor (Kurbanov A., 2010: 238). Bunday yondashuv har doim ham

bo‘lavermagan ko‘rinadi. Chunki, eftaliylarning buddaviy ibodatxonalarni vayron qilganliklari, bu e’tiqod vakillarini quvg‘in qilganliklari haqida ma’lumotlar uchraydi.

Bu kabi ma’lumotlar Eftaliylarning dastlabki paytlarda o‘z mafkurasini, xususan, e’tiqodini saqlashga harakat qilib, bir qator qat’iy harakatlar qilganligini ko‘rsatadi. Biroq yillar o‘tib mahalliy omillar – vaqt o‘tgan sayin madaniyat va mafkurada o‘zaro bir-biriga ko‘nikish, hokimiyatda mahalliy vakillarning ham ishtirok eta boshlashi, ayrim hukmdorlarning mahalliy e’tiqodlarni qabul qilishi natijasida ularning bunday munosabatini yumshatishlariga olib kelgan, ehtimol. Shu bilan birga, VII asrning ikkinchi choragida eftaliylar bilan yaqindan tanishgan Syuan Szanning ularni buddaviy aholi sifatida emas, ko‘chmanchi an’analarni saqlagan elat sifatida tilga olishi o‘zining izohini talab qiladi. Bizningcha, Eftaliylarning turli xalqlardan birmuncha uzoq, tog‘ daralarida yashaydigan qismi o‘zlarining ilk vatani – Oltoy tog‘lari atrofidagi elatlarga, xususan, Syun-nu (Xun)larga xos qadimiy an’analarni davom ettirgan.

Eftaliylarning davlat mafkurasi va dini bilan bog‘liq masalani yoritishda bir qator omillarga e’tibor qaratish kerak bo‘ladi. Birinchidan, davlat chegaralari kengayib, turli din, mafkura, madaniyat, xo‘jalik tarzi va hokazolarga ega elatlar o‘zaro bitta siyosiy tuzumda yashay boshlagach, bu kabi masalalarda tobora yaqinlashuv, umumlashuv kuzatilgan. Ayniqsa, turli elatlar madaniyatlari uchrashuvi yuz beradigan shaharlarda bu holat yaqqol ko‘zga tashlanadi. Demak, boshlang‘ichda Markaziy Osiyo ko‘chmanchilariga xos an’analar ustuvorlik qilgan bo‘lsa, keyinchalik vaqt o‘tishi bilan o‘zaro qorishuv jarayonlari yuz bergan. Bu holat yozma manbalardan anglashilganidek, Eftaliylar haqida bir-biridan farqli ma’lumotlar joy olishiga sabab bo‘lgan.

Eftaliylar davlatining harbiy salohiyati, umuman olganda, ushbu davlatning qo‘shini, uning tarkibiy tuzilishi, askarlarining soni, janglarda qo‘llangan qurol-yarog‘lar, jang qilish usullari va hokazolar bo‘yicha yozma manbalarda o‘ta oz ma’lumotlar o‘rin olgan. Kam sonli yozma manba ma’lumotlarini arxeologik topilmalar asosida birmuncha boyitish mumkin.

Xitoycha «Bey-shi» yilnomasida “*Yeda (Eftaliylar) ... Ularning davlatida aravalar yo‘q, ularning o‘rniga zambillardan foydalanishadi; ot va tuyalari ko‘p ... Xalqi qattiqqo‘l va jasur bo‘lib, jang qilishga mohirdir*” (Бичурин Н.Я., 1950:269).

Xitoycha “Suy-shu” yilnomasida esa “*Idan (Eftaliylar)... Jangovar qo‘shini 5 mingdan 6 minggcha*” (Бичурин Н.Я., 1950:286) mazmunidagi ma’lumot uchraydi. Shu o‘rinda aytib o‘tish kerak-ki, Eftaliylar davlatining “jangovar qo‘shini” 5-6 ming jangchidan iborat bo‘lishi izoh talab qiladi. Ehtimol, xitoy yilnomalaridagi bu ma’lumot Eftaliylar hukmdori yonida doimiy shay turadigan muntazam qo‘shin, ya’ni gvardiyani ifodalagan yo bo‘lmasa, bu ma’lumotlar ushbu davlat tashkil topgan

dastlabki yillarga tegishli bo‘lishi mumkin. Holbuki, Markaziy Osiyoning ko‘chmanchi asosli sulolalari o‘zlarining 100 minglab jangchilariga ega bo‘lgan.

Qolaversa, yozma manbalar tili bilan aytganda “30 ga yaqin hukmdorlikni bosib olgan Eftaliylarning bunchalik kamsonli qo‘shini bo‘lganligiga ishonish qiyin. O‘rta Osiyoning katta qismi, Sharqiy Turkiston, Shimoliy Hindiston, afg‘on yerlari va Xurosonni bo‘ysundirgan, Sosoniylardek yirik saltanat ustidan ustunlik o‘rnatgan Eftaliylarning qo‘shini ancha ko‘p bo‘lgani tabiiy. Shu o‘rinda, Eftaliylar bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki bilvosita bog‘liq ayrim ma’lumotlarga to‘xtalib o‘tish kerak bo‘ladi. Xitoycha «Tan-shu» yilnomasida yozilishicha: “*Tuxolo (Toxariston) ... Tuxololiklar Idan (Eftaliylar) bilan birga istiqomat qiladilar; jangovar qo‘shini 100 ming*” (Бичурин Н.Я., 1950: 321). Bu yerda *Tuxolo* (Toxariston) muayyan bir o‘lka nomi, *Idan*, ya’ni Eftaliy esa xalq va davlat nomi ekanini ko‘zda tutadigan bo‘lsak, 100 ming qo‘shin haqidagi ma’lumot Eftaliylarga tegishli bo‘lib chiqadi.

Shu o‘rinda Eftaliylarning Sosoniylar hukmdori Peruzga yordam uchun 30 ming qo‘shin yuborganligi haqida ma’lumot uchrashi, ular qo‘shinining salmog‘i ancha katta bo‘lganligidan darak beradi (Kurbanov A., 2010:154) Bundan tashqari, Eftaliylar qo‘shinining katta qismi otliqlardan iborat bo‘lganligi, shuningdek, qo‘shin 2000 ta filga egaligi haqida yozma manbalarda eslatib o‘tiladi (Kurbanov A., 2010:216) Ehtimol Eftaliylar Shimoliy Hindistonni qo‘lga kiritgach, bu yerda mavjud fillarga ega bo‘lib, hindlar kabi jangda fillardan foydalana boshlaganlar. Shunga qaramay, qo‘shinning asosiy qismi otliqlardan tashkil topganini yuqorida keltirib o‘tilgan xitoy yilnomalaridagi quyidagi ma’lumot tasdiqlaydi: “Bey-shi” yilnomasida “*Yeda (Eftaliylar) ... ot va tuyalari ko‘p ... Xalqi qattiqqo‘l va jasur bo‘lib, jang qilishga mohirdir*” (Бичурин Н.Я. 1950, 269).

Eftaliylar qo‘shinining bir qismi yayov (piyoda) askarlardan iborat bo‘lib, jangchilar boshdan-oyoq po‘lat zirh kiyishgan, boshlarida dubulg‘a, qo‘llarida *akinak* (xanjarsimon uzun to‘g‘ri qilich)ga o‘xshash qurollar bilan urushga kirganlar (Kurbanov A. 2010: 216) Buni ko‘plab arxeologik topilmalar: qurol-yarog‘lar, saroy devoriy suratlaridagi tasvirlar ham tasdiqlaydi.

Eftaliylar davlati tashkil topishi arafasida O‘rta Osiyoda, xususan, ilk o‘rta asrlarning dastlabki asrlarida mintaqada Xioniylar, Kidariylar, Juan-Juanlar deb ataluvchi nisbatan yirik saltanatlar hukm surib, mintaqaning markaziy, shimoli-sharqiy va janubi-g‘arbiy qismlari va unga qo‘shni hududlardagi o‘nlab katta-kichik hukmdorliklar ularning qo‘l ostida bo‘lgan. Amudaryo – Sirdaryo oralig‘i, Yettisuv va Sharqiy Turkistondagi o‘nlab voha hukmdorliklari ushbu saltanatlarning u yoki bu darajada ta’sirida bo‘lib, o‘z ichki boshqaruvlarida mustaqil bo‘lishgan. Shu bilan birga, ushbu hududlardagi Choch, Farg‘ona, Sug‘d, Xorazm, Marv, Toxariston,

Koshg‘ar, Xo‘tan kabi vodiy va voha mulklari mazkur hukmdorliklardan birortasiga o‘lpon to‘lab turish majburiyatida bo‘lgan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur tadqiqot Eftaliylar davlati (V–VI asrlar) davlat mafkurasi, huquqiy tizimi va mudofaa tizimining asosiy jihatlarini tahlil qilishga bag‘ishlandi. Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, garchi tarixiy manbalarda Eftaliylarga qarshi ko‘tarilgan qo‘zg‘alonlar haqida ma’lumotlar uchramasa-da, ammo mintaqada yangi siyosiy kuch turklarning paydo bo‘lishini yaxshi qabul qilishi, eftaliylar davlatini mahalliy o‘lka xalqlari ishonchini qozona olmaganligida deb bilish mumkin. Qo‘shin tuzilishi Eftallarda turkiy qabilalarga xos tarzda tarkib topgan. Asosini otliq qo‘shin tashkil etgan Eftaliylar armiyasida piyoda, fillar va kamonchilardan iborat bo‘linmalar ham mavjud edi. Qo‘shinning tarkibida turkiy elatlardan tashqari mahalliy yerli xalqlardan iborat bo‘linmalar ham bo‘lib, ularning etnik kelib chiqishi asosan mintaqaning azaliy yerlik va turli davrlarda o‘lkaga kirib kelgan qabilalardan iborat edi. Ushbu fikr-mulohazalardan kelib chiqib quyidagi takliflarni berishimiz mumkin bo‘ladi:

- Eftaliylar davlatining mafkurasi va huquqiy tizimini chuqurroq o‘rganish uchun xitoy, arman, suriy va fors manbalarining yangi tarjimasi va qiyosiy tahlili zarur. Ayniqsa, “Bey-shi”, “Liang-shu”, “Suy-shu” kabi yilnomalarning to‘liq nashrlari asosida yangi izlanishlar olib borilishi lozim.

- Arxeologik qazilmalar (Toxariston, Baktriya, Gandhara va Afg‘oniston hududlari) natijalarini yozma manbalar bilan integratsiya qilgan holda Eftaliylar madaniyati va harbiy qurollari bo‘yicha maxsus tadqiqotlar o‘tkazish foydali bo‘ladi.

- Eftaliylarning turkiy ko‘chmanchi davlatlar (ayniqsa, Turk xoqonligi) bilan madaniy-huquqiy umumiyliklarini o‘rganish uchun qiyosiy tadqiqotlar kengaytirilishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1. Бичурин Н.Я. (Иакинф) (1950). Собрание сведений о народах, обитавших в Средней Азии в древние времена. В 3-х томах. – Москва-Ленинград: Изд. АН СССР. – том II.

2. Бобоёров Ғ. (2018). Ғарбий Турк хоқонлигининг давлат тузуми. – Тошкент: Янги нашр.

3. Гафуров Б.Г. (1989). Таджики, древнейшая, древняя и средневековая история. Кн.1. – Душанбе: Ирфон.

4. Koca A. (2002). Eski Türklerde Devlet Geleneği ve Teşkilatı // Türkler. – Ankara. – Cilt 2.

5. Kurbanov A. (2010). The Hephthalites: Archaeological and Historical Analysis. PhD thesis submitted to the Department of History and Cultural Studies of the Free University. – Berlin.

6. Litvinsky B.A. (1999). The Hephthalite Empire // History of Civilizations of Central Asia. Vol. III. UNESCO. – Delhi.

7. Материалы по истории древних кочевых народов группы дунху (1984) / Введение, перевод и комментарии В. С. Таскина. – Москва: Наука.

8. Taşağıl A. (2003). Gök-Türkler. I, 2. Baskı. – Ankara.

9. Тер-Мкртичян Л. Х. (1979). Армянские источники о Средней Азии V-VII вв. – Москва: Наука.

REFERENCES:

1. Bichurin N.Ya. (Iakinf) (1950). Sobraniye svedeniy o narodakh, obitavshikh v Sredney Azii v drevniye vremena. V 3-kh tomakh. Tom II. Moskva-Leningrad: Izd. AN SSSR (In Russian).

2. Boboyorov G‘. (2018). G‘arbiy Turk xoqonligining davlat tuzumi. Toshkent: Yangi nashr (In Uzbek).

3. Gafurov B.G. (1989). Tojiklar, eng qadimgi, qadimgi va o‘rta asr tarixi. Kitob 1. Dushanbe: Irfon (In Tajik).

4. Koca A. (2002). Eski Türklerde Devlet Geleneği ve Teşkilatı // TÜRKLER. Cilt 2. Ankara (In Turkish).

5. Kurbanov A. (2010). The Hephthalites: Archaeological and Historical Analysis. PhD thesis. Department of History and Cultural Studies of the Free University. Berlin .

6. Litvinsky B.A. (1999). The Hephthalite Empire // History of Civilizations of Central Asia. Vol. III. UNESCO. Delhi.

7. Materialy po istorii drevnikh kochevykh narodov gruppy dunkhu (1984) / Vvedeniye, perevod i kommentarii V. S. Taskina. Moskva: Nauka (In Russian).

8. Taşağıl A. (2003). Gök-Türkler. I. 2. Baskı. Ankara (In Turkish).

9. Ter-Mkrtichyan L. Kh. (1979). Armyanskiye istochniki o Sredney Azii V-VII vv. Moskva: Nauka (In Russian).

O‘ZBEKISTON VA GERMANIYA O‘RTASIDAGI TIBBIY VA EKOLOGIK HAMKORLIKNING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI

DEVELOPMENT TRENDS OF MEDICAL AND ENVIRONMENTAL COOPERATION BETWEEN UZBEKISTAN AND GERMANY

ТЕНДЕНЦИИ РАЗВИТИЯ МЕДИЦИНСКОГО И ЭКОЛОГИЧЕСКОГО СОТРУДНИЧЕСТВА МЕЖДУ УЗБЕКИСТАНОМ И ГЕРМАНИЕЙ

Ismatullayeva Zebo Shukurjanovna
Toshkent amaliy fanlar universiteti
“Tarix va ijtimoiy fanlar”
kafedrasi katta o‘qituvchisi
Tel.: +998 938040098
E-mail: zeboismatullayeva1987@gmail.com
orcid: 0009-0008-2633-4603

Annotatsiya. Maqolada O‘zbekistonning Germaniya bilan tibbiyot, ekologiya va orolbo‘yi mintaqasini muhofazasi bo‘yicha hamkorlik aloqalari tahlil qilingan. Bunda ikki tomonlama munosabatlarning rivojlanish holati, O‘zbekistonlik yoshlarni Germaniyada davolanish uchun yaratilgan sharoitlar haqida ham mulohaza yuritilgan. Muallif tibbiyot sohasidagi hamkorlikda, asosan, tug‘ma nuqsonli bolalarga yordam ko‘rsatish bo‘yicha amalga oshirilgan dasturlarga alohida e’tibor qaratgan. Bundan tashqari, Orolbo‘yi aholisini qo‘llab-quvvatlash, ularni sog‘liqlarini tiklashda yordam berish borasidagi hamkorlikdagi amaliy ishlar haqida ham batafsil mulohaza yuritgan. Ikki davlat o‘rtasidagi munosabatlarni tahlil qilar ekan, muallif Germaniya tomoni aynan ijtimoiy-gumanitar sohalardagi yordamlari, ayniqsa farmatsevtika borasida benihoya samarali bo‘layotganligini statistik ma’lumotlar asosida ko‘rsatib berishga harakat qilgan. Shu bilan birga, maqolada Germaniyaning “Yashil energetika” borasidagi tajribasidan O‘zbekiston sharoitida unumli foydalanish masalalariga ham urg‘u qaratgan. Maqolani tayyorlashda, maxsus adabiyotlar, dissertatsiyalar va davriy matbuot nashrlaridan unumli foydalanilgan.

Kalit so‘zlar: O‘*zbekiston, Germaniya, tibbiyot, xalqaro hamkorlik, orolbo‘yi mintaqasi, farmasevtika, yashil energetika, imtiyozli kreditlar.*

Abstract. The article analyzes Uzbekistan’s cooperation with Germany in the fields of medicine, ecology, and the protection of the Aral Sea region. It examines the development of bilateral relations and discusses the conditions created for young people from Uzbekistan to receive medical treatment in Germany. The author pays particular attention to specific programs implemented within medical cooperation, especially those aimed at supporting children with congenital disorders. In addition,

the article provides a detailed discussion of joint practical efforts to support the population of the Aral Sea region and help restore their health. While analyzing relations between the two countries, the author seeks to demonstrate, based on statistical data, that Germany's assistance in the socio-humanitarian sphere-particularly in the field of pharmaceuticals-has been highly effective. The article also highlights issues related to the effective application of Germany's experience in "green energy" under the conditions of Uzbekistan. In preparing the article, specialized literature, dissertations, and periodical press sources were extensively utilized.

Keywords: *Uzbekistan, Germany, medicine, international cooperation, the Aral Sea region, pharmaceuticals, green energy, concessional loans.*

Аннотация. В статье анализируются отношения сотрудничества Узбекистана с Германией в сферах медицины, экологии и защиты Приаральского региона. Рассматриваются состояние развития двусторонних связей, а также условия, созданные для лечения узбекистанской молодёжи в Германии. Особое внимание автор уделяет отдельным программам, реализуемым в рамках медицинского сотрудничества, в частности инициативам по оказанию помощи детям с врождёнными пороками развития. Кроме того, подробно рассматриваются практические меры, предпринимаемые в сотрудничестве для поддержки населения Приаральского региона и содействия восстановлению их здоровья. Анализируя отношения между двумя государствами, автор стремится на основе статистических данных показать высокую эффективность германской помощи в социально-гуманитарной сфере, особенно в области фармацевтики. Наряду с этим в статье подчёркиваются вопросы эффективного использования опыта Германии в сфере «зелёной энергетики» в условиях Узбекистана. При подготовке статьи были широко использованы специальные исследования, диссертatsii и материалы периодической печати.

Ключевые слова: *Узбекистан, Германия, медицина, международное сотрудничество, Приаральский регион, фармацевтика, зелёная энергетика, льготные кредиты.*

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasi bugungi kunda 180 dan ortiq mamlakatlar tomonidan tan olinib, shulardan 159 tasi bilan diplomatik munosabatlarni yo‘lga qo‘ygan. O‘tgan qisqa davrda jahondagi ko‘plab nufuzli xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar bilan hamkorlik munosabatlari yo‘lga qo‘yilgan. Respublikada olib borilayotgan samarali ichki islohotlar va pragmatik tashqi siyosat xalqaro miqyosdagi imijining ko‘tarilishiga va keng miqyosdagi e’tiroflarga yo‘l ochdi. Ayniqsa, Yevropaning taraqqiy etgan davlatlari bilan ko‘p tomonlama munosabatlarning shakllantirilishi, O‘zbekiston uchun zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, so‘nggi ilm – fan yutuqlaridan foydalanish

imkoniyatlarini yaratdi. Bugungi kunda O‘zbekiston bilan har tomonlama hamkorlikni rivojlantirayotgan davlatlardan biri bu Germaniya hisoblanadi. Ikki tomonlama hamkorlikning ko‘lami juda keng bo‘lib, jumladan, ekologiya va sog‘liqni saqlash tizimida ham samarali munosabatlar yo‘lga qo‘yilgan. Ushbu yo‘nalishda Germaniya katta tajriba to‘plaganligi, O‘zbekiston esa ushbu muammolarni yechishga urinayotganligi nuqtayi nazaridan ushbu hamkorlik nihoyatda muhim hisoblanadi. Ushbu maqolada, aynan shu yo‘nalishdagi natijalar hamda istiqboldagi loyihalar xususida mulohaza yuritilib, muallif ayrim masalalarda ilmiy taxlil va xulosalarini olg‘a suradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

O‘zbekistonning Germaniya bilan munosabatlari tarixiga oid adabiyotlarni mazmuni jihatdan ikki guruhga bo‘lib o‘rganish maqsadga muvofiq sanaladi. Birinchi guruhga O‘zbekiston tashqi siyosati, xalqaro munosabatlar tarixiga oid yozilgan monografiya va adabiyotlarni kiritish mumkin. Bunga taniqli olimlar M. Raximov, E. Nuriddinov, S. Jo‘rayev, H. Yunusovlar tomonidan yozilgan adabiyotlarni misol tariqasida keltirish mumkin. Ushbu adabiyotlarda O‘zbekiston va Germaniya munosabatlariga qisman to‘xtalib o‘tilgan bo‘lsa-da, biz tadqiq etayotgan masalaga atroflicha e’tibor qaratilmagan.

Ikkinchi guruh adabiyotlari esa bevosita O‘zbekiston – Germaniya munosabatlariga bag‘ishlangan bo‘lib, unda ikki va ko‘p tomonlama iqtisodiy, ijtimoiy- siyosiy va madaniy – gumanitar aloqalarga bag‘ishlanganligi bilan ajralib turadi. Bevosita, ikki davlat o‘rtasidagi ilmiy-texnik hamkorlik munosabatlari tarixi tadqiqotchi G. Misharov tomonidan, iqtisodiy va madaniy aloqalar esa S. Umarovlar tomonidan yoritib berilgan. Ularning tadqiqotlarida ekologiya va sog‘liqni saqlash borasidagi aloqalar haqida ham qisman munosabatlar bildirilgan. Biroq, ushbu yo‘nalishdagi hamkorlik munosabatlari keng ko‘lamli tarzda yoritilmagan. Ushbu maqolada aynan shu sohadagi aloqalar, ya’ni tibbiyot, ekologiya va farmatsevtika sohalaridagi hamkorlik munosabatlari tadqiq qilinadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotni yozishda ikki tomonlama munosabatlarda tibbiyot va ekologik hamkorlik masalalari yaxlit tarzda va masalaga mazmuniga qarab ba’zi o‘rinlarda qo‘shma tarzda - tahlil qiluvchi deskriptiv-eksplanator usullariga tayangan holda amalga oshirildi. Manbalar sifatida rasmiy statistika, davlat va xalqaro tashkilotlar hisobotlari, ikki davlatdagi ilmiy maqolalar, loyiha hujjatlardan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O‘zbekiston tashqi siyosatidagi ustuvor yo‘nalishlardan biri bu jahondagi rivojlangan mamlakatlar bilan hamkorlik hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan

Germaniya Respublikasi bilan ko‘p sohalarda, jumladan, tibbiyot va ekologiya sohalarida izchil hamkorlik amalga oshirilmoqda. Germaniya davlatida ekologiyaga munosabat juda qat’iy qo‘yilgan va buning natijasida Yevropadagi eng yashil, havosi toza davlatlardan hisoblanadi. Tibbiyot borasida ham rivojlanganlik darajasi bo‘yicha dunyodagi top uchtalik davlatlari sirasiga kiradi. Va aynan ushbu yo‘nalishda xorijiy mamlakatlarni qo‘llab- quvvatlash, zamonaviy tibbiy uskunalar bilan ta’minlash, hamda ularni Germaniyada davolash kabi gumanitar maqsadlarni ko‘zlagan dastur va loyihalari doirasida moliyaviy yordamlarni berib kelmoqda.

O‘zbekistonda sog‘liqni saqlash sohasidagi islohotlarni Germaniya davlati qo‘llab-quvvatlamoqda. Germaniya hukumati 2005-yilgacha bo‘lgan davrda umumiy hajmda mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy sohasini isloh qilishga 140 mln. yevrodan ko‘proq imtiyozli kreditlar ajratganligi buning yorqin tasdig‘idir (O‘zMA. F-m-2:27).

2002-yilda “Sog‘lom avlod uchun” fondi, Sog‘liqni saqlash vazirligi, Germaniyaning “Friedensdorf International” xalqaro tashkiloti o‘rtasida uch tomonlama hamkorlik bitimi imzolangan edi. Tuzilgan hamkorlik kelishuviga asosan uyushtirilgan bemor bolalar o‘rtasida chuqurlashtirilgan tibbiy ko‘rik hayriya tadbirida tana tayanch harakat tizimi, urologik xastaliklar bilan og‘rigan, terida kuyishdan qolgan asoratlari bo‘lgan 3-12 yoshdagi 61 nafar bola tibbiiy ko‘rikdan o‘tkazildi. Chet el va mamlakatimizning yetakchi mutaxassislari tomonidan o‘tkazilgan tibbiy tekshiruv jarayonida 3 nafar bolaning Germaniyaga borib davolanishi uchun xulosa berildi. Ushbu yo‘nalishdagi hamkorlik 2019-yilda ham davom ettirilib, dastlabki olti oy davomida respublika bo‘yicha jami 37 nafar tug‘ma lab tanglay nuqsoni bo‘lgan bola, shuningdek, “Chiroyli oyoqchalar” loyihasi asosida tug‘ma oyoq nuqsoni (maymoqlik) va qiyshiq bo‘yin tashxisi bilan 15 yoshgacha bo‘lgan 34 nafar bemor o‘g‘il-qizda jarrohlik amaliyotlari muvaffaqiyatli o‘tkazildi. Shu bilan birga, terining kuyish asoratlari bo‘lgan 22 nafar kichkintoy plastik jarrohlik amaliyotlari yordamida sog‘lomlashtirildi (Sherqulov R., 2019). Statistika ma’lumotlariga ko‘ra sog‘lomlashtirish loyihasi doirasida 2002 -2019-yillar davomida o‘zbekistonlik 387 nafar bemor bola terining kuyish asoratlari, tug‘ma qo‘l – oyoq bo‘g‘imlari xastaliklari hamda boshqa tashxislar bilan Germaniyaning nufuzli klinikalarida davolangan.

Uning doirasida 2002-yildan 2024-yilgacha 12 yoshgacha bo‘lgan 434 nafar o‘zbekistonlik bola Germaniya klinikalarida uzoq muddatli – 6 oydan 2 yilgacha bepul davolandi. Bundan tashqari, 2004-2024-yillar davomida “Friedensdorf International” xalqaro tashkiloti ko‘magida O‘zbekistondagi klinikalarda tug‘ma nuqsoni bo‘lgan va kuyish bilan og‘rigan 6743 nafar bemor davolandi. 20 yillik hamkorlik davrida ushbu nemis tashkiloti “Sog‘lom avlod uchun” jamg‘armasiga dori-darmon va tibbiy buyumlar ko‘rinishidagi insonparvarlik yordamini ham taqdim etdi (https://jeddah.mfa.uz/news/26782?language=uz.). Ushbu xayriya jamg‘armasi

tomonidan 2020-yil 27-iyul kuni Sirdaryoda suv ombori to‘g‘onining o‘pirilishi bilan bog‘liq tabiiy ofat natijasida aziyat ko‘rgan aholisiga yordam tariqasida gumanitar yordam yuborildi. Insonparvarlik yordami tarkibida Germaniyada davolangan o‘zbekistonlik bolalar uchun maxsus dori-darmonlar ham bor (Qodirov X., 2020.). Ko‘rsatilayotgan ko‘mak va yordamlardan shu narsa ko‘rinadiki, Germaniya ko‘p yillar davomida eng ishonchli va sinalgan hamkorlardan biri bo‘lib kelgan. Xususan, Pandemiya sharoitida Germaniya O‘zbekistonga sog‘liqni saqlash hamda boshqa sohalarni rivojlantirishga 180 million yevro ajratdi (Xalq so‘zi., 2020:25-noyabr). Shu bilan birga, Germaniya COVAX tashabbusi doirasida koronavirusga qarshi vaksinalar yetkazib berilishiga ko‘mak berdi. Bundan tashqari, Yevropaning yuqumli kasalliklarni o‘rganish bo‘yicha yetakchi ilmiy markazi – Robert Kox instituti bilan yaqin aloqalar o‘rnatilgan (Xalq so‘zi., 2021:19-mart).

Ushbu yo‘nalishdagi aloqalar davomi sifatida 2018-yil 23-26 may kunlari akademik V. Vohidov nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan xirurgiya markazi hamda Qoraqalpog‘iston markaziy shifoxonasi delegatsiyasining Germaniyaga tashrifi amalga oshirildi (Xalq so‘zi., 2018:2-iyun). Tashrif davomida Berlindagi mashhur Sharite jarrohlik klinikasiga tashrif buyurib, klinika bosh shifokori, professor M. Shmelse boshchiligida jigar sohasida amalga oshirilgan ikkita operatsiyada ishtirok etdilar. Ushbu hamkorlik yurtimizda ham istiqbolda shunday murakkab jarrohlik amaliyotlarini muvaffaqiyatli amalga oshirish imkoniyatlarini oshiradi. Germaniyada sog‘liqni saqlash sohasi yuksak rivojlangan. Ushbu sohadagi hamkorlik doirasida Toshkent shahrida “Epsilon” kompaniyasi bilan birgalikda zamonaviy onkologiya klinikasi va reabilitatsiya markazi, Toshkent viloyatida “Opasca” kompaniyasi va Mengaym universiteti klinikasi bilan birgalikda onkologiya klinikasini qurish kabi muhim loyihalar amalga oshirilmoqda (Xalq so‘zi., 2019:29-may).

2019-yil may oyida bo‘lib o‘tgan hukumatlararo muzokaralar yakunlari bo‘yicha Germaniya O‘zbekistonga 2019-2020-yillarga mo‘ljallangan moliyaviy va texnik hamkorlikni rivojlantirish uchun jami 123,8 mln. yevro miqdorida mablag‘ ajratishni tasdiqladi. Ammo 2021-yil holatiga ushbu raqamlar qiymati 180 mln. yevrogacha oshirildi. (Гюнтер Оверфельд. 2021:23).

Dunyo miqyosida farmatsevtika sohasida ham eng peshqadamlardan sanalgan Germaniya tajribasidan foydalangan holda va ushbu davlatning investorlari bilan teng sheriklik asosida ishlab chiqarish qamrovi oshib borayotgani e’tirofga loyiq. Chunonchi, hozirda mamlakatimizda Germaniyaning eng nufuzli farmatsevtika kompaniyalaridan biri-“Axxo Gmbh” bilan birgalikda mas’uliyati cheklangan jamiyat shaklidagi “Uzgermed Pharm” qo‘shma korxonasi tashkil etilgan bo‘lib, bu yerda ampulali inyeksiya eritmalari, dori vositalari, hamda tibbiy buyumlar ishlab chiqarilmoqda. Hozirgi kunda nemis farmatsevtika korxonalari tomonidan 280 turdagi

dori vositalari, 114 turdagi tibbiy buyum va 301 turdagi tibbiy texnikalar O‘zbekiston Respublikasida davlat ro‘yhatidan o‘tkazilgan (Кариев С. 2021: 37).

Yevropa Ittifoqi davlatlari ichida Orolbo‘yi aholisiga yordam ko‘rsatish borasida Germaniya davlati yetakchilik qilmoqda (O‘zbekiston ovozi., 2005:17-mart). 2021- yil holatiga Germaniya bilan hamkorlikda “Orolbo‘yini ekologik yo‘naltirilgan mintaqaviy rivojlantirish” dasturi doirasida qiymati 8 mln. yevro bo‘lgan loyiha amalga oshirilmoqda (O‘zbekiston iqtisodiy axborotnomasi., 2021.№2). Bundan tashqari 2016-yilda Germaniya hukumati tomonidan og‘ir ekologik vaziyatning Orolbo’yi aholisiga salbiy ta’sirini kamaytirishga maqsadli yordam ko’rsatish uchun 700 ming dollar ajratilgan. Adenauer jamg‘armasi ko‘magida “Orol ekologik fojiasining milliy va xalqaro aspektlari” simpoziumlari o‘tkazildi. Jurnalistlar guruhi va nemis ijodiy ziyolilari vakillari tashabbusi bilan Orol haqida hujjatli film olindi. Qoraqalpog‘istondagi bolalar kasalxonalariga dori-darmonlar va tibbiyot uskunalari uchun mablag‘ yig‘ish tashkil qilindi, shuningdek, bu hududda suv tozalash inshootlarini yaratish uchun mablag‘ to‘plandi (Xalq so‘zi., 2018: 28-mart.).

Germaniya “Yashil Markaziy Osiyo” tashabbusi bilan iqlim o‘zgarishi oqibatlari va u bilan bog‘liq tahlikalar borasidagi mintaqaviy muloqotga ko‘mak berishni rejalashtirgan. 2022-yildan esa Markaziy Osiyoning barcha davlatlari o‘rtasida energiya, suv va yer resurslari sohalarida hamkorlikni amalda amalga oshirishga qaratilgan “Markaziy Osiyoda energiya-suv-yer o‘zaro bog‘liqligi” loyihasi orqali 2022-yildan boshlab yordam bermoqda. Bu iqtisodiy rivojlanish (jumladan, transchegaraviy savdo, kasb-hunar ta’limi, barqaror iqtisodiy rivojlanish), shuningdek, atrof-muhit, iqlim va energetika masalalari bo‘yicha (Markaziy Osiyoda ikki tomonlama va mintaqaviy) loyihalar bilan to‘ldiriladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosatida Germaniya Respublikasi alohida ahamiyatga ega. O‘tgan davrdagi munosabatlar izchil davomiyligi borasida ham boshqa Yevropa davlatlaridan ustunlik qilib, eng ishonchli sheriklardan biriga aylangan. Bundan tashqari O‘zbekistonda ekologik muvozanatni yaxshilash borasida, Germaniya tomonidan ajratilgan imtiyozli kredit va boshqa ilmiy tadqiqot loyihalari ham samarali natija bermoqda.

Bilamizki, nemis tibbiyoti jahonda o‘zining yuksak sifati bilan e’tirof etilgan. Bu sohada ham ikki tomonlama aloqalarda katta natijalar qayd etilmoqda. Ayniqsa, tug‘ma jag‘ nuqsoni bilan tug‘ilgan bolalarning jarrohlik operatsiyalarini amalga oshirishda hamkorlik samarali kechmoqda. Har yil maxsus dastur asosida yuzlab o‘zbekistonlik bolalar Germaniyada davolanish uchun yuborilmoqda. Bu o‘z navbatida davlat tomonidan imtiyozli tarzda amalga oshirilib, muolaja natijalari ko‘plab bolalarni o‘zlariga ishonchlarini oshishiga, ularni oilalariga esa kelajakka ishonchni

kuchayishiga xizmat qiladi. Bundan tashqari farmatsevtika borasida ham samarali aloqalar yo‘lga qo‘yilib, O‘zbekistonda nemis standartlaridagi dori-darmonlar ishlab chiqarilib, eksport qilinmoqda. Bularning barchasi o‘zaro hamkorlik aloqalarining keng ko‘lamda rivojlanib borayotganligini ko‘rsatadi.

Masala mazmunidan kelib chiqqan holda quyidagi xulosaviy takliflar ishlab chiqildi:

Birinchidan, tibbiyot sohasidagi hamkorlikni kengaytirish: O‘zbekiston va Germaniya o‘rtasida tug‘ma nuqsonli bolalar va boshqa maxsus tibbiy ehtiyojga ega bemorlar uchun qo‘shma dasturlarni kengaytirish va yangi klinik va ilmiy loyihalarni amalga oshirish tavsiya etiladi.

Ikkinchidan, ekologik barqarorlik bo‘yicha qo‘shma dasturlarni rivojlantirish: Orolbo‘yi mintaqasini tiklash va atrof-muhitni muhofaza qilish bo‘yicha qo‘shma loyihalarni kengaytirish, mahalliy aholi ishtirokini oshirish va ilg‘or nemis tajribasini tatbiq etish lozim.

*Uchinchidan, yoshlar va mutaxassislarni malakasini oshirish:*O‘zbekistonlik shifokorlar, ekologlar va ilmiy tadqiqotchilarni Germaniyada o‘quv va amaliyot dasturlariga jalb qilish orqali kadrlar salohiyatini oshirish tavsiya etiladi.

To‘rtinchidan, farmatsevtika va innovatsion texnologiyalardan unumli foydalanish: Germaniyaning ilg‘or farmatsevtika va tibbiy texnologiyalarini O‘zbekistonda keng tatbiq etish, ayniqsa aholining sog‘liqni saqlash xizmatlariga kirish imkoniyatlarini yaxshilash lozim.

Beshinchidan, yashil energetika va barqaror rivojlanish tajribasini joriy etish: Germaniyaning “yashil energetika” va ekologik barqarorlik sohasidagi tajribasini O‘zbekiston sharoitida qo‘llash, shu orqali mintaqaviy ekologik loyihalarni yanada samarali amalga oshirish tavsiya etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. “Diplomat magazine” (2021). Германия Ўзбекистоннинг асосий технологик ва сармоявий шерикларидан бири бўлиб келган ва шундай бўлиб қолмоқда // Халқ сўзи. – 19 март.

2. Гюнтер Оверфельд (2021). Муносабатларнинг янги конструктив даражаси // Ўзбекистон иқтисодий ахборотномаси. – Тошкент. – № 2. – Б. 23.

3. Қодиров Х. (2020). Германиядан Ўзбекистонга гуманитар ёрдам // Халқ сўзи. – 29 июль.

4. Қорақалпоғистонлик фермерлар Германия тажрибасини ўрганишди (2018) // Халқ сўзи. – 28 март.

5. Кариев С. (2021). Сифатли, самарали, хавфсиз фармацевтика маҳсулотлари билан таъминлаш – ҳамкорликнинг асосий мақсади // Ўзбекистон иқтисодий ахборотномаси. – Тошкент. – № 2. – Б. 37.

6. Молиявий технологиялар соҳасидаги ҳамкорлик (2021) // Ўзбекистон иқтисодий ахборотномаси. – Тошкент. – № 2. – Б. 50.

7. Министерства иностранных дел. Германия и Узбекистан: двусторонние отношения. https://www.kas.de/de/web/zentralasien/publikationen/einzeltitel/-/content/central-asia-digest-nr-14

8. НА РУз. Пресс – релиз // Ф-м-2, д – 169, л - 27.

9. Ўзбекистон – Германия: Молиявий ва техникавий ҳамкорлик кенгаяди (2005) // Ўзбекистон овози. – 17 март.

10. Ўзбекистон – Германия: сиёсий ишонч ўзаро муносабатларни мустаҳкамлашга хизмат қилади (2020) // Халқ сўзи. – 25 ноябрь.

11. Ўзбекистон ва Германия: ўзаро манфаатли ҳамкорликни мустаҳкамлаш йўлида (2019) // Халқ сўзи. – 29 май.

12. Ўзбекистон-Германия: умумий фаровонлик ва тараққиёт йўлидаги ўзаро манфаатли ҳамкорлик. https://jeddah.mfa.uz/news/26782?language=uz.

13. Ўзбекистон Республикаси Ташқи ишлар вазирлиги расмий веб-сайти. https://gov.uz/oz/mfa/sections/view/14455.

14. Ўзбекистонлик врачлар Германияда жарроҳлик операцияларида иштирок этди (2018) // Халқ сўзи. – 2 июнь.

15. Шерқулов Р. (2019). 16 нафар бемор бола Германияда даволанади // Халқ сўзи. – 15 август.

REFERENCES:

1. “Diplomat magazine” (2021). Germaniya O‘zbekistonning asosiy texnologik va sarmoyaviy sheriklaridan biri bo‘lib kelgan va shunday bo‘lib qolmoqda // Xalq so‘zi. – 19 mart. (In Uzbek)

2. Gyunter Overfeld (2021). Munosabatlarning yangi konstruktiv darajasi // O‘zbekiston iqtisodiy axborotnomasi. – Toshkent. – № 2. – B. 23. (In Uzbek)

3. Kariev S. (2021). Sifatli, samarali, xavfsiz farmatsevtika mahsulotlari bilan ta’minlash – hamkorlikning asosiy maqsadi // O‘zbekiston iqtisodiy axborotnomasi. – Toshkent. – № 2. – B. 37. (In Uzbek)

4. Ministerstva inostrannыx del. Germaniya i Uzbekistan: dvustoronnie otnosheniya. https://www.kas.de/de/web/zentralasien/publikationen/einzeltitel/-/content/central-asia-digest-nr-14. (In Russian)

5. Moliyaviy texnologiyalar sohasidagi hamkorlik (2021) // O‘zbekiston iqtisodiy axborotnomasi. – Toshkent. – № 2. – B. 50. (In Uzbek)

6. NA RUz. Press – reliz // F-m-2, d – 169, l - 27. (In Russian)

7. O‘zbekiston – Germaniya: Moliyaviy va texnikaviy hamkorlik kengayadi (2005) // O‘zbekiston ovozi. – 17 mart. (In Uzbek)

8. O‘zbekiston – Germaniya: siyosiy ishonch o‘zaro munosabatlarni mustahkamlashga xizmat qiladi (2020) // Xalq so‘zi. – 25 noyabr. (In Uzbek)

9. O‘zbekiston va Germaniya: o‘zaro manfaatli hamkorlikni mustahkamlash yo‘lida (2019) // Xalq so‘zi. – 29 may. (In Uzbek)

10. O‘zbekiston-Germaniya: umumiy farovonlik va taraqqiyot yo‘lidagi o‘zaro manfaatli hamkorlik. https://jeddah.mfa.uz/news/26782?language=uz. (In Uzbek)

11. O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi rasmiy veb-sayti. O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosati. https://gov.uz/oz/mfa/sections/view/14455. (In Uzbek)

12. O‘zbekistonlik vrachlar Germaniyada jarrohlik operatsiyalarida ishtirok etdi (2018) // Xalq so‘zi. – 2 iyun. (In Uzbek)

13. Qodirov X. (2020). Germaniyadan O‘zbekistonga gumanitar yordam // Xalq so‘zi. – 29 iyul. (In Uzbek)

14. Qoraqalpog‘istonlik fermerlar Germaniya tajribasini o‘rganishdi (2018) // Xalq so‘zi. – 28 mart. (In Uzbek)

15. Sherqulov R. (2019). 16 nafar bemor bola Germaniyada davolanadi // Xalq so‘zi. – 15 avgust. (In Uzbek)

SHARQIY SLAVYAN DIASPORASI AYOLLARINING TURKISTON MINTAQASIDAGI IJTIMOIY-SIYOSIY FAOLLIGI (1918-1924)

SOCIO-POLITICAL ACTIVITY OF WOMEN FROM THE EASTERN SLAVIC DIASPORA IN THE TURKESTAN REGION (1918-1924)

ОБЩЕСТВЕННО-ПОЛИТИЧЕСКАЯ АКТИВНОСТЬ ЖЕНЩИН ВОСТОЧНОСЛАВЯНСКОЙ ДИАСПОРЫ В ТУРКЕСТАНСКОМ РЕГИОНЕ (1918-1924)

Norbekov Suhrob Farxod o‘g‘li
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti “Jismoniy madaniyat va gumanitar fanlar kafedrasi assistenti
Tel.: +998 99 876-41-49
E-mail:norbekovsuhrob96@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada 1918-1924-yillarda Turkiston ASSR va unga qo‘shni Buxoro hamda Xorazm Xalq Sovet Respublikalarida yashagan sharqiy slavyan (rus, ukrain, belorus) diasporasi xotin-qizlarining oilaviy, mehnat va ijtimoiy-siyosiy faolligi tahlil qilinadi. Unda diasporaning jamiyatdagi tuzilishi, “Ayollar bo‘limi” (Женотдел) va boshqa sovet idoralaridagi ishtiroki, hamda maorif-tarbiya va sog‘liqni saqlash sohalaridagi faoliyati o‘rganiladi. Tadqiqot tarixiy-arxiv hujjatlari, davr statistikasi va zamonaviy ilmiy manbalarga tayangan holda tarixiy-komparativ va gender yondashuvlari asosida olib borildi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, diaspora xotin-qizlari “Sharq ayolini ozod qilish” siyosatini joylarda amalga oshirish, “Ayollar bo‘limi” orqali mahalliy ayollarni sovet jamiyatiga jalb qilish va ijtimoiy-maishiy modernizatsiya jarayonini targ‘ib qilishda muhim vositachi bo‘lgan. Ular bir vaqtda an’anaviy patriarxal qadriyatlar bilan yangi siyosat talablari o‘rtasida murakkab muvozanat saqlashga majbur bo‘lgan.

Kalit so‘zlar: *sharqiy slavyan, ayollar, Turkiston ASSR, “Ayollar bo‘limi”, gender siyosati, mehnat bozori, ijtimoiy faollik, mahalliy qadriyatlar.*

Abstract. The article analyzes the family, labor, and socio-political activities of women from the Eastern Slavic (Russian, Ukrainian, Belarusian) diaspora living in the Turkestan ASSR and the neighboring Bukhara and Khorezm People's Soviet Republics during 1918-1924. It examines the structure of the diaspora in society, their participation in the Women's Department (Zhenotdel) and other Soviet institutions, as well as their activities in the fields of education and healthcare. The study is based on historical archival documents, period statistics, and contemporary scholarly sources, employing historical-comparative and gender approaches. The findings demonstrate

that diaspora women served as important mediators in implementing the policy of "emancipating Eastern women" at the local level, involving native women in Soviet society through the Women's Department, and promoting socio-domestic modernization. At the same time, they were compelled to maintain a complex balance between traditional patriarchal values and the demands of the new Soviet policies.

Keywords: *Eastern Slavs, women, Turkestan ASSR, Women's Department (Zhenotdel), gender policy, labor market, social activity, local values*

Аннотация. В статье анализируется семейная, трудовая и общественно-политическая активность женщин восточнославянской (русской, украинской, белорусской) диаспоры, проживавшей в 1918-1924 гг. в Туркестанской АССР, а также в соседних Бухарской и Хорезмской Народных Советских Республиках. Исследуется структура диаспоры в обществе, их участие в Женотделе и других советских учреждениях, а также деятельность в сферах просвещения и здравоохранения. Исследование проведено на основе исторических архивных документов, статистических данных того периода и современных научных источников с применением историко-сравнительного и гендерного подходов. Результаты показывают, что женщины диаспоры выступали важным посредником в реализации на местах политики «раскрепощения женщины Востока», вовлечении местных женщин в советское общество через Женотдел и пропаганде социально-бытовой модернизации. При этом им приходилось сохранять сложный баланс между традиционными патриархальными ценностями и требованиями новой советской политики.

Ключевые слова: *восточные славяне, женщины, Туркестанская АССР, Женотдел, гендерная политика, рынок труда, общественная активность, местные ценности.*

KIRISH

1918-1924-yillar Turkiston tarixida siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy tizimlarning tubdan qayta shakllangan davri bo‘lib, aynan shu yillarda sovet hokimiyati barqarorlashtirilishi uchun siyosiy islohotlar amalga oshirilgan davr hisoblanadi.

Turkiston ASSR aholisi etnik jihatdan nihoyatda rang-barang bo‘lib, mahalliy musulmon xalqlardan tashqari, rus, ukrain va beloruslar kabi sharqiy slavyan guruhlari ham salmoqli ulushni tashkil etgan. XIX asr oxiridan boshlab Rossiya imperiyasining mustamlakachilik siyosati natijasida mintaqaga ko‘plab slavyan aholisi ko‘chib kelgan. Bu qatlam tarkibida ayollar ulushi ham yuqori bo‘lib, ayrim mahalla va qishloqlarda rus ayollari soni erkaklar soniga teng yoki undan ortiq bo‘lgan.

Sovet hokimiyati “Sharq ayolini ozod qilish” shiori ostida yangi gender siyosatini yo‘lga qo‘ydi va jamiyatdagi turli qatlamlarga, jumladan sharqiy slavyan diasporasi ayollariga ham faol ijtimoiy-siyosiy ishtirokni targ‘ib etdi. Bu siyosat Turkiston

mintaqasida ham jadallik bilan tatbiq etilib, “Женотдел” (Ayollar bo‘limi) kabi tuzilmalar, ayollar klublari, o‘quv kurslari va ishlab chiqarish jamoalari orqali ayollarni ta’lim, mehnat va siyosiy tashkilotlar faoliyatiga jalb etishga qaratildi. Sharqiy slavyan diasporasi ayollari aynan shu kanallar orqali yangi sovet tuzumining ma’rifiy, tibbiy va siyosiy tizimlarida ko‘zga tashlana boshladi. Ularning rolini o‘rganmasdan Turkistondagi mustamlakachilik merosi, sovet modernizatsiyasi va Markazning mintaqada davlat qurilishi jarayonlari to‘liq anglab bo‘lmaydi.

Sharqiy slavyan diasporasi bo‘yicha tadqiqotlarda ayollarning o‘rni odatda ikkinchi darajali mavzu sifatida tilga olinib kelgan. Biroq Turkistonda sovet gender siyosatining, xususan “Женотдел” faoliyatining kengayishi natijasida diaspora ayollari nafaqat ma’rifat va sog‘liqni saqlash sohasida, balki partiya va sovet tuzilmalarida, mahalliy kengash va komissiyalarda ham sezilarli faollik ko‘rsatdilar (Northrop, 2004). 1922-yil statistik ma’lumotlariga ko‘ra, Turkiston ASSR bo‘yicha “Женотдел” a’zolarining 34% ini sharqiy slavyan ayollar tashkil etgan (shundan 21% - rus, 9% - ukrain, 4% - belorus ayollari) (GARF, f. R-702, op. 2, d. 91, l. 14). Bu ko‘rsatkichlar ularning sovet gender siyosatidagi real ishtiroki va ta’sir doirasini yaqqol namoyon etadi.

Ushbu mavzuning dolzarbligi shundaki, 1918-1924-yillar Turkiston tajribasi Sovet imperiyasi chegarasidagi periferiyada gender, etniklik va madaniy o‘zaro ta’sir jarayonlarini bir vaqtning o‘zida tahlil qilish imkonini beradi. Mavjud tadqiqotlarda asosan mahalliy musulmon ayollar misolida “Sharq ayolini ozod qilish” siyosati yoritilgan bo‘lsa, sharqiy slavyan diasporasi ayollari tajribasi kam yoritilgan, fragmentar holatda qolmoqda (Kamp, 2006). Mazkur bo‘shliqni to‘ldirish, sovet modernizatsiyasi va mustamlakachilik merosining gender o‘lchovini yanada to‘liqroq ochib berishga xizmat qiladi.

Shu nuqtayi nazardan ushbu maqolaning maqsadi – Turkiston ASSR va unga chegaradosh Buxoro hamda Xorazm Xalq Sovet Respublikasi hududlarida 1918-1924-yillar davomida yashagan sharqiy slavyan diasporasi ayollarining (rus, ukrain, beloruslar) siyosiy-mafkuraviy faolligi, ijtimoiy-maishiy hayoti va sovet gender siyosati bilan o‘zaro ta’sirini tizimli ravishda tahlil qilishdir. Tadqiqot “Женотдел”ning Turkistondagi bo‘limlari, partiya va sovet institutlari, mahalliy ayollar tashkilotlari faoliyati hamda arxiv hujjatlari, rasmiy statistikalar va zamonaviy ilmiy adabiyotlarga tayangan holda, sharqiy slavyan ayollarining oila, mehnat va siyosatdagi o‘rni, shuningdek ularning mahalliy jamiyat va markaziy hokimiyat o‘rtasidagi vositachilik rolini aniqlashga qaratilgan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Sharqiy slavyan diasporasi ayollari va ularning 1918-1924-yillarda Turkiston hududidagi ijtimoiy-siyosiy faolligi masalasi bevosita markazga qo‘yilgan alohida

tadqiqotlar hozircha mavjud emas. Biroq mavzu uchta asosiy yo‘nalishdagi ilmiy adabiyotlar kesishgan nuqtasida shakllanadi:

- ✓ Rossiya imperiyasining Turkistondagi mustamlakachilik va ko‘chirish siyosati;
- ✓ Sovet gender siyosati, “Sharq ayoli” va “Женотдел” faoliyati;
- ✓ Sovet hokimyatining dastlabki davrida Turkiston, Buxoro va Xorazmning siyosiy-ijtimoiy tarixi hamda modernizatsiya jarayonlari.

Mahalliy tarixshunoslikda Saipova K.D. (2011); Yuldashev H. (1920) va M.Abdurazzoqova (1917–1924)ning ishlari Turkistonda rus aholisi tarixi, demografik jarayonlar va migratsiya masalalarini yoritib, imperiyaviy ko‘chirish siyosatining mahalliy ijtimoiy tuzilmalarga ta’sirini, Turkistonda XX asr boshlaridagi ijtimoiy hayot, NEP davridagi iqtisodiy o‘zgarishlar va qishloq xo‘jaligiga ta’sirni o‘rgangan bo‘lib, rus/slavyan aholisining umumiy roliga to‘xtaladi. Biroq bu ishlarda sharqiy slavyan diasporasi ayollari alohida ijtimoiy qatlam sifatida ko‘rib chiqilmaydi; ular, asosan, “rus aholisi”ning tarkibiy qismi sifatida umumiy fon doirasida tilga olinadi.

M. Kampning “The New Woman in Uzbekistan” asari 1920–1930-yillarda o‘zbek ayollari misolida “yangi sovet ayoli” obrazining shakllanishi, islom, modernlik va kommunistik islohotlar o‘rtasidagi ziddiyatlarni ochib beradi (Kamp, 2006). Bular bilan bir qatorda, A. L. Edgar Pan-islomiy va milliy kontekstda sovetlarning musulmon ayollarini “emansipatsiya qilish” siyosatini tahlil qiladi (Edgar, 2006: 252–272), keyingi monografiyasida esa sovet Markaziy Osiyosida millat qurilishi va imperiya siyosatini chuqur yoritadi (Edgar, 2009). Bu ishlarda “Sharq ayoli” tushunchasi, “Женотдел” va ayollar klublari keng yoritilgan bo‘lsa-da, tadqiqot markazida, deyarli istisnosiz, mahalliy musulmon ayollar – o‘zbek, turkman va boshqa mahalliy xalqlar vakillari turadi. Sharqiy slavyan diasporasi ayollari esa odatda “rus ayollari” degan umumiy kategoriya doirasida, asosan markaziy Rossiya konteksti bilan bog‘liq holda tilga olinadi yoki umuman e’tibordan chetda qoladi (Kamp, 2011: 89).

A. Khalidning “Islam after Communism” asari sovet va postsovet davrida Markaziy Osiyoda din, millat va siyosat o‘rtasidagi munosabatlarni tahlil qilib, sovet modernizatsiyasi jarayonida islomiy jamoalar va ularning ijtimoiy institutlaridagi o‘zgarishlarni yoritadi (Khalid, 2007). Bu yondashuv biz tadqiq etayotgan davrda Turkiston jamiyatining diniy-madaniy fonini tushunish, diaspora ayollarining ham mahalliy musulmon muhit, ham sovet tuzumi bilan o‘zaro ta’sirini anglashga nazariy asos yaratadi. A. L. Edgar va boshqa mintaqaviy tadqiqotchilar sovet millat qurilishi siyosati, qabila va qabilaviy tuzilmalarning o‘zgartirilishi, sovet institutlarining periferiyadagi qabul qilinishi masalalarini ko‘tarib, ayollar masalasini millat va imperiya siyosati bilan bog‘lab ko‘rsatadi (Edgar, 2009).

Biroq bu uch yo‘nalish kesishgan nuqtada – 1918–1924-yillarda Turkiston ASSR, Buxoro va Xorazmda yashagan sharqiy slavyan diasporasi ayollarining (rus, ukrain, belorus va boshqalar) ijtimoiy-siyosiy, mehnat va ma’naviy hayoti, ularning

“Женотдел” va boshqa sovet institutlari bilan munosabatlari, shuningdek mahalliy jamiyat va markaziy hokimiyat o‘rtasidagi vositachilik roli – deyarli mustaqil tadqiqot obyektiga aylantirilmagan.

Shu bois, mazkur tadqiqot mavzuning aynan mana shu jihatini – sharqiy slavyan diasporasi xotin-qizlarining 1918–1924-yillardagi tajribasini mintaqaviy va gender yondashuv asosida kompleks tahlil qilishni maqsad qiladi. Bu bilan u yuqorida qayd etilgan adabiyotlarda parchalangan holda uchraydigan demografik, siyosiy va gender ma’lumotlarni bir tizimga solib, Turkistondagi diaspora ayollarining murakkab identifikatsiyasi va ijtimoiy funksiyalarini yangicha ilmiy nuqtayi nazardan yoritishga intiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot 1918-1924-yillarda Turkiston ASSR, Buxoro XSR va Xorazm XSR hududlarida yashagan sharqiy slavyan diasporasi ayollarining ijtimoiy-siyosiy hayoti, mehnat faoliyati va sovet gender siyosati bilan o‘zaro ta’sirini kompleks o‘rganishga qaratilgan. Metodologiya mavzuning tarixiy-mintaqaviy murakkabligi, manbaviy bazaning xususiyatlari va mavjud ilmiy adabiyotlarda aniqlangan bo‘shliqlardan kelib chiqib quriladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Rossiya imperiyasining 1897-yilgi aholini ro‘yxatga olishiga ko‘ra, Turkiston general-gubernatorligida ruslar soni 222 ming nafarni tashkil etgan bo‘lsa, 1920-yillarga kelib bu raqam 500 mingdan oshgan (Poliakov, 2001). Tadqiqotimiz uchun muhim tomoni shuki, ushbu aholining 40-45 foizi ayollar bo‘lgan va ular orasida faqat “oila a’zosi” maqomidagi uy bekalari emas, balki o‘qituvchi, hamshira, texnik xodim hamda partiya apparatida xizmat qiluvchi ayollar ham salmoqli ulushni egallagan (Kamp, 2006).

1897-yilgi aholini ro‘yxatga olish natijalariga tayangan holda, Sirdaryo viloyatida mahalliy aholi tarkibi til belgisi bo‘yicha aniq nisbatlarda shakllangani ko‘rinadi: qozoqlar -64 %, tojiklar -11 %, sartlar - 10 %, o‘zbeklar - 4 %. Ya’ni, viloyatning demografik “til xaritasi”da asosiy ulush qozoqlarga to‘g‘ri kelib, qolgan guruhlar esa ikkilamchi qatlam sifatida joylashgan. Ko‘chmanchi aholi orasida esa sharqiy slavyan unsurlari son jihatdan katta bo‘lmasa-da, statistik jihatdan qayd etilgan: ruslar - 2,2 %, ukrainlar -1 %, beloruslar - 0,1 %. Farg‘ona viloyatida bu ko‘rsatkichlar nisbatan balandroq bo‘lib, ruslar 3,2 %, **ukrainlar 2,2 %**ni tashkil etgan. Samarqand viloyatida esa aksincha, slavyan guruhlari ulushi juda past darajada qolgan: ruslar - 0,5 %, ukrainlar - 0,1 % (K.D.Saipova, 2023)

1918-yilga kelib, Turkiston ASSR hududida qayd etilgan sharqiy slavyan diasporasi - ya’ni ruslar, ukrainlar va beloruslar soni, ularning jinsiy tarkibi hamda

hududiy joylashuvi mazkur ijtimoiy guruhning mintaqadagi o‘rni va salmog‘ini yanada ravshanlashtiradi. Diagramma ma’lumotlariga ko‘ra, erkaklar orasida 121 192 nafar rus, 14 807 nafar ukrain, 1 936 nafar belorus ro‘yxatga olingan. Ayollar soni ham e’tiborga molik darajada bo‘lib, 118 709 nafar rus ayoli, 9 931 nafar ukrain ayoli, 1 522 nafar belorus ayoli qayd etilgan. Demakki, bu ko‘rsatkichlar Turkiston hududida slavyan aholi faqat “son” bilan emas, balki jinsiy mutanosiblik nuqtayi nazaridan ham nisbatan barqaror demografik qatlam sifatida shakllanganini anglatadi (K.D.Saipova, 2023, 50-b.).

Hududiy ko‘rinishda Sharqiy slavyan ayollari Turkiston ASSRning yirik shaharlari (Toshkent, Samarqand, Qo‘qon, Andijon) hamda yangi o‘zlashtirilayotgan qishloq xo‘jaligi rayonlarida, xususan Farg‘ona vodiysi, “Голодная степь” (Och dasht), Kurshab va Sirdaryo atrofidagi rus, ukrain va belorus qishloqlarida zich yashaganlari arxiv ma’lumotlari bilan tasdiqlanadi (FVD ar, f. 15, r. 1, ish 128).

Geografik doira Turkiston ASSR bilan cheklanmay, Buxoro Xalq Sovet Respublikasi va Xorazm Xalq Sovet Respublikalarini ham qamrab olgan. Kamp (2006) va Edgar (2009) tadqiqotlarida Buxoro va Xorazmda joylashgan sovet muassasalari, temiryo‘l va sanoat obyektlarida sharqiy slavyan diasporasi ayollarining mehnati qayd etilgan bo‘lib, ular Sovet hukumatining mintaqaviy modernizatsiya loyihalarida ham ishtirok etganini ko‘rsatadi.

Bolsheviklar uchun “Sharq ayolini ozod qilish” g‘oyasi strategik siyosiy tamoyillardan biri bo‘lib, bu jarayonda “Женотдел” - partiya huzuridagi ayollar bo‘limi markaziy vosita vazifasini bajargan (Northrop, 2004). Turkiston ASSR va unga qo‘shni respublikalarda “Женотдел” bo‘limlari orqali ayollar klublari, ma’rifiy kurslar, savodxonlik to‘garaklari tashkil etilib, bu jarayonga sharqiy slavyan ayollari ham faol jalb etilgan (Kamp, 2006).

Davlat arxivlaridagi hujjatlar Farg‘ona vodiysida 1924-yilga kelib rus ayollari rahbarligida faoliyat yuritgan 30 dan ortiq maktab va qishloq vrachlik punktlari borligini tasdiqlaydi (O‘zMA, Fond R-33, op.1, d.141, l.19.). Bu fakt “Женотдел” tashabbuslari nafaqat mahalliy musulmon ayollari, balki diaspora ayollari uchun ham yangi ijtimoiy rollar ochganini ko‘rsatadi.

Tahlil natijalari shundan dalolat beradiki, Turkistonda madaniy ta’sirni yoyish va uni ijtimoiy hayotga singdirish jarayoni tasodifiy emas, balki izchil uch bo‘g‘inli (uch bosqichli) tizim asosida qaror topgan: boshlang‘ich institutsional ta’sir (maktablar) - ommaviy madaniy tadbirlar (madaniy kechalar) - ijodiy birlashmalar va to‘garaklar (madaniy singish). Mazkur “zanjir” bir-birini to‘ldirgan holda quyidagi mexanizm orqali ishlagan.

Birinchidan, maktablar madaniy singishni rasmiy va ma’rifiy maydonga olib kirib, uni normativ tartib sifatida mustahkamlagan: yangi qadriyatlar, intizom va xulq-

atvor me’yorlari dars jarayoni, tarbiya hamda tashkiliy talablar orqali tizimli ravishda targ‘ib qilingan. Ya’ni maktab, bir tomondan, bilim beruvchi muassasa bo‘lsa, ikkinchi tomondan, madaniy yo‘nalishlarni “qonun-qoida”ga aylantiruvchi institut vazifasini bajargan.

Ikkinchidan, madaniy kechalar madaniyatni faqat “o‘qitiladigan” hodisa emas, balki his qilinadigan va birga boshdan kechiriladigan ijtimoiy tajriba sifatida taqdim etgan. Ommaviy ishtirok, jamoaviy muloqot va bayramona muhit orqali madaniyatning qabul qilinishi kuchayib, u keng omma ko‘z o‘ngida legitim (maqbul va “tabiiy”) tus ola boshlagan.

Uchinchidan, faol to‘garaklar va ijodiy birlashmalar madaniyatni amaliyotga yaqinlashtirib, uni ijodiy o‘zlashtirish, qayta talqin qilish va kundalik hayotga moslab qo‘llash imkonini bergan. Aynan shu bosqichda madaniyat “tashqaridan kiritilgan namuna” bo‘lishdan chiqib, ishtirokchilarning faoliyati orqali qayta ishlangan va shu tariqa “singish” jarayoni nisbatan barqaror tus olgan.

Shunday qilib, mazkur uch yo‘nalish - maktab, madaniy kechalar va to‘garaklar o‘zaro uzviy bog‘langan holda Turkistonda sovet madaniyati talablariga moslashgan yangi madaniy muhit hamda unga mos ijtimoiy makonni shakllantirishda asosiy institutsional mexanizm sifatida xizmat qilgan.

Bunday madaniy aloqalar mahalliy aholining kundalik turmushida ham ko‘zga ko‘rinarli o‘zgarishlarni yuzaga chiqargan. Xususan, ayollar hayotida qo‘l mehnati, ozodalik-gigiyena, bolalarni parvarish qilish singari an’anaviy yo‘nalishlarda rus ayollarining amaliy tajribasini ommalashtirish holatlari kuzatiladi (Yuldashev H., 1990:49-53). Bu jarayon “turmush madaniyati”ning shakllanishida muhim omillardan biri bo‘lib, kundalik odat va ko‘nikmalarni yangicha mezonlar asosida tartibga solishga turtki bergan. Masalan, 1924-yilda Andijonda tashkil etilgan “Mehnatkash ayollar klubi” doirasida rus va o‘zbek ayollari hamkorlikda savodxonlik mashg‘ulotlarini tashkil etib, qo‘l mehnati bo‘yicha amaliy darslarni birgalikda olib borgan (O‘zMA, R-33-fond, 1-ro‘yxat, 141-ish, 19-varaq).

Buxoro XSR misolida 1923-yildan boshlab ayollar klub va kurslarining tashkil topishi, ularda rus va boshqa sharqiy slavyan ayollarining volontyor va “ma’naviy yetakchi” sifatida ishtiroki qayd etilgani, diaspora ayollari sovet gender siyosatini “uzatuvchi oraliq bo‘g‘in” sifatida harakat qilganini ko‘rsatadi. Xorazm XSRda esa 1924-yil boshidan xotin-qizlar qo‘mitasi ishining jonlanishi, rus ayollari tomonidan tashkil etilgan tikuvchilik artellarida mahalliy xotin-qizlarga hunar o‘rgatilgani haqidagi ma’lumotlar (O‘zR MA, f. 65, r. 3, ish 91) diaspora ayollarining amaliy kasb-hunar orqali modernizatsiya g‘oyalarini singdirishganini namoyon etadi.

Tadqiqotdagi arxiv manbalari Sharqiy slavyan ayollari mehnat faoliyatining sektoral tarkibini ko‘rsatish imkonini beradi. Farg‘ona vodiysi, “Голодная степь” va

Kurshab vodiysidagi rus qishloqlarida ayollar dehqonchilikda asosiy ishchi kuchi sifatida qatnashgani, erkaklar bilan birga yer haydash, ekin ekish, hosil terish ishlarida muntazam mehnat qilgani qayd etilgan (FVDAr, f. 15, r. 1, ish 48). Bu hol sovet davri boshlanishida diaspora oilalarida ayol mehnati iqtisodiy zaruratdan kelib chiqqan holda intensivlashganini koʻrsatadi.

Mahalliy jamiyat bilan ijtimoiy-madaniy aloqalar va ziddiyatlar ham mavjud edi. Turkiston hududida istiqomat qilgan sharqiy slavyan ayollari odatda “rus ayollari” nomi bilan umumlashtirilgan boʻlsa-da, ularning orasida ukrain, belarus, polyak, yahudiy va boshqa sharqiy yevropalik guruhlar ham mavjud boʻlgan. Bu xilma-xillik mahalliy jamiyat bilan oʻzaro munosabatlarda turlicha tajribalar keltirib chiqargan. Masalan, ayrim yahudiy va polyak ayollarining rus tilini yaxshi bilmasligi yoki diniy amaliyotdagi farqlar sababli mahalliy jamiyat bilan aloqalarda ehtiyotkorroq boʻlgani qayd etiladi.

Khalid (2007) va Kamp (2011) ishlarida an’anaviy musulmon jamiyatiga ega boʻlgan mahalliy aholining ayrim qatlamlari Sharqiy Yevropadan kelgan ayollarning ochiq kiyimi, erkaklar bilan aralash mehnat jamoalarida ishlashi va ijtimoiy-siyosiy faolligini tanqidiy qabul qilgani koʻrsatiladi. Ayniqsa bolalar bogʻchalari, dorixonalar yoki kasalxonalarda ishlayotgan rus ayollarining mahalliy bolalar va erkak bemorlar bilan bevosita muloqoti ba’zan ijtimoiy qarama-qarshiliklarni kuchaytirgan. Bu hol diaspora ayollarini sovet modernizatsiyasi talablari bilan mahalliy axloqiy me’yorlar oʻrtasida muvozanat izlashga majbur etgan.

Tadqiqot natijalari shuni koʻrsatadiki, 1918-1924-yillarda sharqiy slavyan ayollari ikki qarama-qarshi kuch-patriarxal gender me’yorlari va sovetcha modernizatsiya bosimi ostida yashaganlar. Oila ichida ayolning bolalar tarbiyasi, uy-roʻzgʻor yuritish kabi an’anaviy vazifalari saqlanib qolgan boʻlsa-da, Sovet hokimiyati ularni ishlab chiqarish, siyosat va jamoat hayotiga keng jalb etishga intilgan.

“Женотдел” hujjatlarida sharqiy slavyan oilalarida gender rollari mahalliy musulmon oilalariga qaraganda koʻproq “dunyoviy”, ammo hanuz patriarxal boʻlgani, shu bilan birga kolxoz, kooperativ va artellardagi jamoaviy mehnat orqali bu rollar asta-sekin oʻzgarib borayotgani qayd etiladi. NEP davridagi savdo va kooperatsiya faoliyatida ayollarning koʻrinishi esa iqtisodiy faollik ortishi bilan bir qatorda, “oilaviy patriarxat”ning moslashuvchan shakllarini ham yuzaga keltirgan.

“Женотдел”, xotin-qizlar qoʻmitalari, ayollar klublari va kurslarida rus, ukrain va boshqa sharqiy slavyan ayollarining qatnashuvi ularni gender siyosatining “tashuvchisi” va mahalliy ayollar uchun “namunaviy sovet ayoli” obraziga yaqinlashtirgan.

Diaspora ayollari qishloq xoʻjaligida asosiy ishchi kuch sifatida, tikuvchilik va hunarmandchilik ustaxonalari tashkilotchisi, temiryoʻl qurilishi va xizmat sohalarida

mehnat qilganlari bilan ajralib turadi.Ta’lim va tibbiyotdagi rolini rus ayollari boshqaruvidagi ko‘plab maktab va qishloq vrachlik punktlarining mavjudligi diaspora ayollarining sog‘liqni saqlash va ta’lim tizimida katta o‘rin tutganini dalillaydi.

Ijtimoiy-madaniy ziddiyatlar: Khalid (2007) va Kamp (2011) ko‘rsatganidek, mahalliy musulmon jamiyati bilan madaniy-diniy tafovutlar diaspora ayollari faoliyatini ko‘p hollarda ijtimoiy qarama-qarshiliklar bilan kechishiga olib kelgan; shunga qaramay, ular sovet talablari va mahalliy qadriyatlar orasida muvozanat izlashga majbur bo‘lgan.

Umuman, 1918–1924-yillarda Turkiston ASSR, Buxoro XSR va Xorazm XSR hududlarida yashagan Sharqiy slavyan diasporasi ayollari sovet modernizatsiyasi, gender siyosati va millatlararo munosabatlar kesishgan nuqtada shakllangan murakkab tarixiy tajribani namoyon etadi. Arxiv hujjatlari va zamonaviy ilmiy tadqiqotlar bu guruhni nafaqat “mustamlaka davri kolonistlari oilalari a’zolari”, balki iqtisodiy, siyosiy va madaniy transformatsiyalarni amalda amalga oshirgan faol subyekt sifatida ko‘rsatmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

1918-1924-yillarda Turkiston ASSR, Buxoro XSR va Xorazm XSR hududlarida yashagan sharqiy slavyan (rus, ukrain, belorus) ayollari sovet davlatchiligi va modernizatsiya jarayonlarining muhim subyekti bo‘lgan.

1918-1924-yillar oralig‘ida Turkiston o‘lkasida bosqichma-bosqich amalga oshirila boshlagan sotsialistik madaniy islohotlar tizimida eng muhim yo‘nalishlardan biri - ayollarni jamoat hayotiga faol jalb etish, ularning ijtimoiy maydondagi ishtirokini kengaytirish masalasi bo‘ldi. Bu davrda ayol faqat oilaviy-turmush doirasidagi an’anaviy rol bilan cheklanib qolmasligi, balki ta’lim, mehnat, tashkilotchilik va ommaviy tadbirlarda ham ko‘rinish berishi lozimligi g‘oyasi ilgari surildi.

Sovet madaniy siyosati ayollar ijtimoiy faolligini oshirishni tasodifiy tashabbus emas, balki “yangi jamiyat”ni barpo etishning mantiqiy bo‘g‘ini sifatida ko‘rsatdi. Bu jarayon “jinsiy tenglik” shiori ostida asoslanib, ma’rifatni keng yoyish, savodxonlikni oshirish hamda ishchi-mehnatkashlarni uyushtirish (tashkillashtirish va safarbar etish) bilan uzviy bog‘langan “tabiiy” yo‘nalish sifatida talqin qilindi. Boshqacha aytganda, ayolning jamoat hayotiga chiqishi sovetcha tasavvurda nafaqat huquqiy tenglikning ifodasi, balki jamiyatni yangilash, mehnat va ma’rifat orqali uni “qayta qurish” strategiyasining muhim tarkibiy qismi sifatida tushuntirildi.

Sovet hukumatining “Sharq ayolini ozod qilish” siyosati doirasida “Женотдел” tarmog‘i orqali diaspora ayollari propagandachi, o‘qituvchi va tibbiy xodim tariqasida safarbar etildi. Farg‘ona vodiysi, “Голодная степь” va Kurshab qishloqlarida ayollar dehqonchilikda asosiy ishchi kuch sifatida qatnashgan bo‘lsa, Toshkent va Andijon atrofida ko‘proq savdo, maktab yordamchisi va vrach yordamchisi sifatida faoliyat

yuritgan. Buxoro viloyatidagi temiryo‘l qurilishida ukrain ayollari mehnati qayd etilgan.

Mahalliy musulmon jamiyati ayrim qatlamlarining sharqiy yevropalik ayollarning kiyinish uslubi va jamoat faoliyatiga tanqidiy munosabati diaspora ayollarini sovet talablarini mahalliy qadriyatlar bilan muvofiqlashtirishga majbur qilgan.

Umuman, sharqiy slavyan diasporasi ayollari iqtisodiy, siyosiy va madaniy jarayonlarda faol ishtirok etgan, sovet gender siyosatini mahalliy muhitga tatbiq etuvchi oraliq ijtimoiy qatlam sifatida shakllangan.

Ushbu tadqiqot doirasida quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin deb hisoblaymiz:

Arxiv tadqiqotlarini kengaytirish - Turkiston, Buxoro va Xorazm respublikalari bo‘yicha “Женотдел”, xotin-qizlar qo‘mitasi, kolxoz va artellar haqidagi fondlar tizimli ravishda raqamlashtirilib, maxsus katalog tuzish taklif etiladi.

Sharqiy slavyan ayollari ishtirokida qayd etilgan hujjatlar alohida tematik to‘plam sifatida nashr qilinishi maqsadga muvofiq.

1924-yildan keyingi davr (milliy-hududiy chegaralashdan so‘nggi yillar)da O‘zbekiston, Tojikiston va Qirg‘iziston hududlarida sharqiy slavyan ayollarining maqomi va rolining o‘zgarishi alohida tadqiq qilishni talab etadi.

Sharqiy slavyan ayollari obrazi sovet matbuoti, plakatlari va adabiyotida qanday aks etganini (gender stereotiplari, “yangi sovet ayoli” modeli) tahlil qilish ham istiqbolli yo‘nalish hisoblanadi. Mazkur takliflarni amalga oshirish 1918–1924-yillarda Turkiston mintaqasida sharqiy slavyan diasporasi ayollari tarixini yanada to‘liqroq, kompleks va ko‘p o‘lchamli tarzda tiklash imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Abdurazzoqova M. (1981). Turkistonda madaniyat va san’at siyosati (1917–1924)., – B. 51. Tashkent: Fan.

2. Edgar A. (2006). “Emancipation of the Unveiled: Soviet Muslim Women and the Bolshevik Project.” In: Suny, R. G. & Martin, T. (eds.), A State of Nations: Empire and Nation-Making in the Age of Lenin and Stalin (pp. 253–274). New York: Oxford University Press.

3. Edgar A. (2009). The Making of Soviet Central Asia: Nationalism and Empire in the Early USSR. Princeton: Princeton University Press.

4. Engel B. A. (1992). Between the Fields and the City: Women, Work, and Family in Russia, 1861–1914. Cambridge: Cambridge University Press.

5. Kamp M. (2006). The New Woman in Uzbekistan: Islam, Modernity, and Unveiling under Communism. Seattle: University of Washington Press.

6. Kamp M. (2011). “Soviet Family Policy and the Emergence of ‘New Women’ in Uzbekistan.” Central Asian Survey, 30(1), 123–140.

7. Northrop D. (2004). Veiled Empire: Gender and Power in Stalinist Central Asia. Ithaca: Cornell University Press.

8. Саипова К. Д. (2011). История Народного комиссариата по национальным делам ТАССР: Национальный вопрос – совокупность политических, социальных, культурных и других фактов. PhD диссертация, с. 89. Ташкент.)

9. Саипова К. Д. (2023). История формирования национального состава населения Туркестана. Социально-экономическая, политическая жизнь населения Туркестана (сс. 49–50).Yuldashev H. (1990). Sovet ayollar siyosati va mahalliy madaniyat (1920-yillar) (p. 62). Samarqand.

10. Farg‘ona viloyat davlat arxivi (FVDAr), f. 15, op.1, ish 48.

11. O‘zMA Fond R-33, op.1, d.141, l.19.

12. O‘zMA Fond R-34, op.1, d.97, l.22.

13. O‘zMA Fond R-34, ro‘yxat 1, ish 97.

14. O‘zMA R-33-fond, 1-ro‘yxat, 141-ish, 19-varaq.

REFERENGES:

1. Abdurazzoqova M. (1981). Turkistonda madaniyat va san’at siyosati (1917–1924) (p. 51). Tashkent: Fan. (In Uzbek)

2. Edgar A. (2006). “Emancipation of the Unveiled: Soviet Muslim Women and the Bolshevik Project.” In: Suny, R. G. & Martin, T. (eds.), A State of Nations: Empire and Nation-Making in the Age of Lenin and Stalin (pp. 253–274). New York: Oxford University Press.

3. Edgar A. (2009). The Making of Soviet Central Asia: Nationalism and Empire in the Early USSR. Princeton: Princeton University Press.

4. Engel B. A. (1992). Between the Fields and the City: Women, Work, and Family in Russia, 1861–1914. Cambridge: Cambridge University Press.

5. Kamp M. (2006). The New Woman in Uzbekistan: Islam, Modernity, and Unveiling under Communism. Seattle: University of Washington Press.

6. Kamp M. (2011). “Soviet Family Policy and the Emergence of ‘New Women’ in Uzbekistan.” Central Asian Survey, 30(1), 123–140.

7. Northrop D. (2004). Veiled Empire: Gender and Power in Stalinist Central Asia. Ithaca: Cornell University Press.

8. Saipova K. D. (2011). Istoriya Narodnogo komissariata po natsionalnim delam TASSR (PhD diss., p. 89). Tashkent. (In Russian)

9. Saipova K. D. (2023). Istoriya formirovaniya natsionalnogo sostava naseleniya Turkestana. Sotsialno-ekonomicheskaya, politicheskaya jizn naseleniya Turkestana (pp. 49–50). Germany: Lambert. (In Russian)

10. Yuldashev H. (1990). Sovet ayollar siyosati va mahalliy madaniyat (1920-yillar) (p. 62). Samarqand. (In Uzbek)

11. Farg‘ona viloyat davlat arxivi (FVDAr), f. 15, op.1, ish 48. (In Uzbek)

12. O‘zMA Fond R-33, op.1, d.141, l.19. (In Uzbek)

13. O‘zMA Fond R-34, op.1, d.97, l.22. (In Uzbek)

14. O‘zMA Fond R-34, ro‘yxat 1, ish 97. (In Uzbek)

15. O‘zMA R-33-fond, 1-ro‘yxat, 141-ish, 19-varaq. (In Uzbek)

AMIR TEMUR VA YEVROPA DAVLATLARI O‘RTASIDAGI DIPLOMATIK MUNOSABATLAR

DIPLOMATIC RELATIONS BETWEEN AMIR TEMUR AND EUROPEAN STATES

ДИПЛОМАТИЧЕСКИЕ ОТНОШЕНИЯ МЕЖДУ АМИРОМ ТЕМУРОМ И ЕВРОПЕЙСКИМИ ГОСУДАРСТВАМИ

Xudayberdiyev Farrux Amankeldiyevich
Oriental universiteti 2-kurs magistri,
Tel.: +998909991927
E-mail: forfarruh@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada XIV-XV asrlarda Amir Temur davrida Yevropa davlatlari bilan olib borilgan diplomatik munosabatlarning mazmuni, shakllari va tarixiy ahamiyati tahlil qilinadi. Tadqiqotda Amir Temurning tashqi siyosatida diplomatiyaning tutgan o‘rni, xususan, Fransiya, Angliya, Ispaniya (Kastiliya), Vizantiya va Rim papaligi bilan o‘rnatilgan aloqalar manbalar asosida yoritiladi. Shuningdek, elchilik almashinuvi, diplomatik maktublar va siyosiy ittifoqlar orqali Temuriylar davlatining xalqaro maydondagi nufuzi mustahkamlangani ilmiy asosda ko‘rsatib beriladi. Maqolada Amir Temur diplomatiyasining o‘ziga xos jihatlari, Yevropa davlatlarining Temur saltanatiga bo‘lgan siyosiy munosabati hamda ushbu aloqalarning o‘rta asrlar xalqaro munosabatlari rivojidagi o‘rni ochib beriladi. Tadqiqot natijalari Amir Temur davri diplomatik tajribasining tarixiy meros sifatidagi ahamiyatini aniqlashga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: *Amir Temur, Temuriylar davlati, diplomatik munosabatlar, Yevropa davlatlari, elchilik aloqalari, tashqi siyosat, xalqaro munosabatlar, o‘rta asrlar diplomatiyasi.*

Abstract. This article analyzes the content, forms, and historical significance of diplomatic relations conducted by Amir Temur with European states during the 14th–15th centuries. The study examines the role of diplomacy in Amir Temur’s foreign policy, particularly focusing on relations established with France, England, Spain (Castile), Byzantium, and the Papal States, based on primary historical sources. It also demonstrates, on a scholarly basis, how the Timurid state strengthened its international prestige through the exchange of embassies, diplomatic correspondence, and political alliances. The article reveals the distinctive features of Amir Temur’s diplomacy, the political attitudes of European states toward the Timurid realm, and the place of these relations in the development of international relations in the Middle Ages. The research results contribute to determining the importance of Amir Temur’s diplomatic experience as a historical heritage.

Keywords: *Amir Temur, Timurid state, diplomatic relations, European states, embassy contacts, foreign policy, international relations, medieval diplomacy.*

Аннотация В статье анализируется содержание, формы и историческое значение дипломатических отношений, которые вёл Амир Темур с европейскими государствами в XIV–XV веках. Исследование рассматривает место дипломатии во внешней политике Амира Темура, в частности связи, установленные с Францией, Англией, Испанией (Кастилией), Византией и Папским престолом, на основе исторических источников. Также на научной основе показывается, как государство Тимуридов укрепляло свой международный авторитет посредством обмена посольствами, дипломатической переписки и политических союзов. В статье раскрываются своеобразные черты дипломатии Амира Темура, политическое отношение европейских государств к тимуридскому государству и место этих связей в развитии международных отношений в Средние века. Результаты исследования служат определению значения дипломатического опыта эпохи Амира Темура как исторического наследия.

Ключевые слова: *Амир Темур, государство Тимуридов, дипломатические отношения, европейские государства, посольские связи, внешняя политика, международные отношения, средневековая дипломатия.*

KIRISH

XIV-XV asrlar o‘rtasida Markaziy Osiyo siyosiy maydonida Temur davlati o‘zining harbiy salohiyati va keng hududiy egallari bilan ajralib turgan. Amir Temur nafaqat o‘z davlati hududida, balki xalqaro miqyosda ham diplomatik aloqalarni faol olib borgan hukmdor sifatida tanilgan. Uning Yevropa davlatlari bilan o‘rnatgan diplomatik munosabatlari o‘sha davr siyosiy, iqtisodiy va madaniy jarayonlariga bevosita ta’sir ko‘rsatgan. Amir Temur davlati va Yevropa o‘rtasidagi munosabatlar ko‘p qirrali bo‘lib, ularning tarkibiga elchilar yuborish, savdo aloqalarini rivojlantirish, shuningdek, siyosiy ittifoqlar tuzish kiradi. Ushbu diplomatik faoliyat nafaqat Amir Temur siyosatining strategik maqsadlarini amalga oshirishga xizmat qilgan, balki Yevropaning Sharqiy Osiyo va O‘rta Osiyo bilan bog‘lanish tarixida muhim ahamiyat kasb etgan.

Mazkur maqolada Amir Temur va Yevropa davlatlari o‘rtasidagi diplomatik aloqalarning shakllanishi, rivojlanishi hamda ular natijasida yuzaga kelgan siyosiy va iqtisodiy o‘zaro ta’sirlar tahlil qilinadi. Shu bilan birga, bu munosabatlarning xalqaro diplomatiya va madaniyatlararo aloqalarga qo‘shgan hissasi ham o‘rganiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Amir Temur davlati va Yevropa davlatlari o‘rtasidagi diplomatik munosabatlar mavzusi tarixshunoslikda ancha yillar davomida o‘rganib kelinmoqda. Ushbu aloqalar asosan XIV asr oxiri – XV asr boshlarida, xususan Anqara jangi (1402)dan keyin shakllangan bo‘lib, asosiy motiv sifatida ikkala tomon uchun ham umumiy dushman – Usmonli imperiyasiga qarshi strategik manfaatlar turadi.

Mavzuning asosiy manbayi Ruy Gonzalez de Klavixo (1403-1406) elchiligining batafsil kundaligi hisoblanadi. Klavixo hisobotlari Samarqand saroyining ichki hayoti, Temur shaxsiyati, diplomatik marosimlar va Markaziy Osiyo iqtisodiy-madaniy holatini o‘rganishda eng muhim birlamchi manba bo‘lib qolmoqda. Shuningdek, Doniyorova D. (2023), Qodirov A.A. (2024), Bektoshev G‘.S. (2025), maxsus ravishda Temur va Fransiya o‘rtasidagi yozishma diplomatiyasini (Sharl VI bilan maktublar) tahlil qilib, savdo va siyosiy ittifoq takliflarini batafsil yoritgan bo‘lsa, Raximov B. va Tashmuradov U. (2025), shuningdek Elimov L. (2024) kabi mualliflar Temur diplomatiyasini kengroq kontekstda – xalqaro munosabatlar va temuriylar davlatining global nufuzini mustahkamlash nuqtayi nazaridan ko‘rib chiqishgan.

Mavzuga oid adabiyot ikki asosiy guruhga bo‘linadi: birlamchi G‘arb manbalari (ayniqsa Klavixo kundaligi) va zamonaviy Sharq (xususan o‘zbek) tadqiqotlari. Ikkinchisi Temur diplomatiyasini o‘ziga xos strategik yondashuv va uzoq muddatli madaniy-siyosiy ahamiyat nuqtayi nazaridan yangi talqin qilishga intilmoqda. Ushbu tadqiqotlar mavzuni yanada chuqurroq o‘rganish uchun mustahkam asos yaratmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda tarixiylik va tizimli tahlil metodlaridan foydalanildi. Amir Temur va Yevropa davlatlari o‘rtasidagi diplomatik munosabatlar yozma tarixiy manbalar, elchilik kundaliklari hamda zamonaviy ilmiy tadqiqotlar asosida qiyosiy tahlil qilindi. Tadqiqot jarayonida manbalarni tanqidiy o‘rganish, ularni solishtirish va umumlashtirish usullari qo‘llanildi. Shuningdek, diplomatik aloqalarning mazmuni va ahamiyatini ochib berishda tarixiy-taqqoslash va mantiqiy tahlil metodlaridan foydalanildi. Olingan natijalar umumlashtirish orqali ilmiy xulosalar chiqarishga xizmat qildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ushbu tadqiqot davomida Temur va Yevropa davlatlari o‘rtasidagi diplomatik munosabatlarning asosiy xususiyatlari, shakllanish jarayoni va natijalari tarixiy manbalar tahlili orqali o‘rganildi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, Amir Temur diplomatiyasi g‘arbiy yo‘nalishda ko‘pincha siyosiy va harbiy maqsadlarni amalga oshirishga qaratilgan bo‘lgan. Xususan, Temur elchilik missiyalari va yozishma diplomatiyasi orqali Yevropa hukmdorlarini Usmonli imperiyasining kengayishiga

qarshi siyosiy ittifoqlar tuzishga undagan (Wikipedia, 2025). Shu bilan birga, bu munosabatlar ikki tomonlama madaniy va savdo almashinuvini rivojlantirishga xizmat qilgan.

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, Temur va Kastiliya, Fransiya, Vizantiya davlatlari o‘rtasidagi elchilik missiyalari samarali vosita bo‘lgan. Masalan, 1403-1406-yillardagi Kastiliya elchiligi orqali Temur nafaqat o‘z strategik manfaatlarini ilgari surgan, balki Samarqandning iqtisodiy va madaniy salohiyatini Yevropa hukmdorlariga namoyish etgan. Bu missiya haqidagi batafsil ma’lumotlar Ruy González de Klavixo tomonidan yozilgan kundalikda keltirilgan bo‘lib, unda Samarqandning doimiy qurilish va takomillashtirish jarayoni, Temur saroyidagi marosimlar va madaniy hayot tasvirlangan (Klavixo Ruy González de., 1928:280).

Shu bilan birga, Temur va Fransiya o‘rtasidagi yozishma diplomatiyasi ikki tomonlama siyosiy maslahatlar va savdo aloqalarini rivojlantirishga xizmat qilganligi aniqlangan. Temurning 1402-yildagi Fransiya qiroli Sharl VI ga yozgan maktubi (fors tilida, hozirda Fransiya Milliy arxivida saqlanmoqda, AE/III/204) savdo va ittifoq takliflarini o‘z ichiga olgan bo‘lib, bu munosabatlar Usmonli tahdidiga qarshi umumiy manfaatlar asosida rivojlangan (Delaville Le Roulx., 1885-1886:389-396).

Tadqiqot natijalari shuni ham ko‘rsatadiki, Temuriylar diplomatiyasi ko‘pincha vaqtinchalik ittifoqlar va strategik manfaatlarga asoslangan bo‘lib, uzoq muddatli barqaror siyosiy aloqalarni shakllantirishga qaratilmagan. Shu bilan birga, bu diplomatik aloqalar orqali Markaziy Osiyo va Yevropa o‘rtasida madaniy va ilmiy almashinuvning boshlang‘ich zaminlari yaratilgan. Masalan, Klavixo yozgan hisobotlarda Samarqand va uning atrofidagi iqtisodiy faoliyat va madaniy hayot batafsil tasvirlangan bo‘lib, bu o‘sha davr madaniy almashinuvining muhim manbasi hisoblanadi (Klavixo Ruy González de. 1928 :280-290).

Amir Temur davlati XIV asr oxiri va XV asr boshlarida Sharq va G‘arb siyosatida o‘zining muhim o‘rnini mustahkamladi. Xususan, Yevropa bilan olib borilgan diplomatik aloqalar, garchi vaqt va makon jihatidan cheklangan bo‘lsa ham, xalqaro siyosat kontekstida ahamiyatli natijalarga erishdi. Temur siyosatining Yevropaga yo‘naltirilgan tashqi aloqalari ko‘pincha Usmonli imperiyasi bilan kurash va G‘arb tomonidan potensial ittifoqlar izlash bilan bog‘liq ed.

XIV-XV asrlarda Temur va Yevropa o‘rtasidagi diplomatik faoliyatning eng muhim voqealaridan biri Kastiliya qiroli I Enrikening elchilar missiyasi bo‘lib, bu missiya 1403-1406-yillarda Temur huzuriga yuborilgan. Bu safar diplomatik doiralar aro aloqalarni mustahkamlashga xizmat qilgan bo‘lib, Kastiliya elchilari Samarqandda askarlik va siyosiy ko‘rsatmalarni almashish imkoniga ega bo‘lishgan. Ushbu missiyaning tafsilotlari sifatida Ruy Gonzales de Klavixo nomli kastiliyalik elchining yozma kundaligi tarixiy manbalarda saqlanadi, u Temur davlati va uning siyosiy iqlimi

haqida muhim tahliliy ma’lumotlar beradi (Klavixo Ruy González 1999:19). Shu bilan birga, Temur va Yevropa davlatlari o‘rtasidagi diplomatik aloqalar, garchi siyosiy kontekstda cheklangan bo‘lsa ham, ikki tomonlama madaniy va savdo almashinuviga olib keldi. Masalan, Klavixo hisobotlarida G‘arb savdogarlari Samarqand va uning atrofi bo‘ylab faoliyat olib borishlari haqida qayd etilgan bo‘lib, bu mintaqaviy iqtisodiy aloqalarning muhim elementlarini namoyon qiladi.

Shuningdek, Temurning Fransiya va boshqa G‘arb hukmdorlari bilan yo‘lga qo‘ygan yozishma diplomatiyasi ham tarixiy manbalarda qayd etilgan. Masalan, Temur va Fransiya qiroli Sharl VI o‘rtasida yozilgan maktublar o‘sha davr siyosiy manfaatlari, savdo aloqalari va ittifoqlarni muhokama qilgan. Bu maktublarning Fransiya arxivlarida saqlangan nusxalari hozirgi tadqiqotlar uchun asosiy manba sifatida xizmat qiladi (Delaville Le Roulx., 1885-1886: 389-396).

Diplomatik aloqalarning yana bir muhim jihati – Temur va Vizantiya hamda boshqa Yevropa davlatlari o‘rtasidagi munosabatlar edi. Tarixiy yozuvlarga ko‘ra, 1401-yilda Vizantiya tomonidan yuborilgan Dominikan ruhoniysi elchisi Temur bilan aloqalarni yo‘lga qo‘yish maqsadida yuborilgan, bu esa G‘arb hukmdorlarini Usmonli hukmronligidan himoya qilish yuzasidan siyosiy maslahatlashuvlarga qaratilgan edi (Sullacoins, Children of Tamerlane, 2025). Temuriylar davrida Yevropa bilan o‘tkazilgan diplomatik yozishmalar hamda elchilik missiyalarining asosiy maqsadi ko‘pincha Usmonli imperiyasining g‘ayritabiiy kengayishiga qarshi ittifoqlarni shakllantirishdan iborat edi. Usmonlilar bilan kurash, shuningdek, Amir Temurning g‘arbiy siyosatida g‘ayritabiiy xavfni kamaytirish va ikki tomonlama savdo hamkorlikni rivojlantirish muhim turtki rolini o‘ynagan. Umuman olganda, Amir Temur va Yevropa o‘rtasidagi diplomatik munosabatlar o‘sha davr xalqaro siyosatida muhim tarixi bor bo‘lib, Temurning strategik manfaatlarini amalga oshirish va Yevropa hukmdorlari bilan ittifoqlar yaratish orqali amalga oshirildi. Bu munosabatlar Temuriylar davlatining cho‘qqisiga chiqqan paytda butun Yevropa va Markaziy Osiyo siyosiy manzarasiga ta’sir ko‘rsatdi, biroq keyinchalik bu aloqalar Temur o‘limidan so‘ng murakkablashib, boshqa tarixiy davrlar kontekstiga o‘tdi.

XULOSA

Ushbu tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, Temur va Yevropa davlatlari o‘rtasidagi diplomatik munosabatlar XIV-XV asrlardagi xalqaro siyosatning muhim tarkibiy qismini tashkil etgan. Temuriylar davrida amalga oshirilgan elchilik missiyalari va yozishma diplomatiyasi nafaqat siyosiy va harbiy strategiyalarni amalga oshirish, balki savdo, iqtisodiy va madaniy almashinuvni rivojlantirishga ham xizmat qilgan. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, Temur diplomatiyasi ko‘pincha vaqtinchalik ittifoqlar va strategik manfaatlarga asoslangan bo‘lib, uzoq muddatli

siyosiy barqarorlikni ta’minlashga emas, balki o‘sha davrning o‘ziga xos xalqaro vaziyatiga moslashishga qaratilgan edi.

Yevropa davlatlari bilan o‘tkazilgan elchilik missiyalari orqali Markaziy Osiyo va Yevropa o‘rtasida madaniy va ilmiy almashinuvning boshlang‘ich zaminlari yaratilgani aniqlangan. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, Amir Temur va Yevropa o‘rtasidagi diplomatik aloqalar nafaqat Temuriylar siyosatining samarali vositasi bo‘lib xizmat qilgan, balki o‘sha davr xalqaro diplomatiya tizimining shakllanishida muhim rol o‘ynagan. Shu tariqa, Temuriylar davri diplomatiyasi Markaziy Osiyo va Yevropa o‘rtasidagi siyosiy, iqtisodiy va madaniy bog‘lanishlarning muhim bosqichi sifatida tarixiy ahamiyatga ega ekanligi tadqiqot orqali aniqlandi.

Tadqiqot natijalariga tayangan holda quyidagi **taklif va tavsiyalar**ni bildirish mumkin:

- birinchidan, Amir Temur va Yevropa davlatlari o‘rtasidagi diplomatik aloqalarni yanada chuqurroq o‘rganish uchun G‘arb arxivlarida saqlanayotgan qo‘lyozma hujjatlar va maktublarni ilmiy muomalaga kengroq jalb etish maqsadga muvofiq;

- ikkinchidan, Temuriylar diplomatiyasini boshqa o‘rta asr musulmon davlatlari diplomatik tajribasi bilan qiyosiy tahlil qilish orqali mavzuning nazariy ahamiyatini kengaytirish mumkin;

- uchinchidan, mazkur mavzu asosida oliy ta’lim muassasalarida maxsus o‘quv modullari, ma’ruzalar va seminar mashg‘ulotlarini ishlab chiqish tavsiya etiladi; to‘rtinchidan, Amir Temur diplomatik merosini zamonaviy xalqaro munosabatlar va tashqi siyosat konsepsiyalari bilan bog‘liq holda tahlil qilish keyingi tadqiqotlar uchun istiqbolli yo‘nalish bo‘la oladi.

Amir Temur va Yevropa davlatlari o‘rtasidagi diplomatik munosabatlar Markaziy Osiyo va Yevropa o‘rtasidagi siyosiy, iqtisodiy hamda madaniy aloqalarning shakllanishida muhim tarixiy bosqich bo‘lib, ularni chuqur o‘rganish milliy tarixshunoslik va xalqaro munosabatlar fanining rivojiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Bektoshev G‘. S. (2025). Amir Temur davlatining Fransiya bilan diplomatik aloqalari. // Obrazovanie Nauka va Innovatsion G‘oyalar Jurnali. https://scientific-jl.com/obr/article/view/5081

2. Doniyorova D. (2023). Amir Temur va temuriylar tarixining Yevropa mamlakatlarida o‘rganilishi. Interdiscipline Innovation and Scientific Research Conference. https://interonconf.org/index.php/iisrc/article/view/8574

3. Elimov L. (2024). From the History of the Establishment of Amir Temur’s Relations with European Countries. Modern Education and Development. https://scientific-jl.org/mod/article/view/5455

4. Kobulova S. F. (2025) Amir Temur davrida xalqaro munosabatlar.// Ilm Fan Xabarnomasi.

5. Muxtorov M., Xaytqulov O., Boboxonov L. (2022). Amir Temur davlatining Yevropa mamlakatlari bilan diplomatik munosabatlari.// ZDIFT ilmiy jurnali (Zenodo). https://zenodo.org/records/7379760

6. Qodirov A.A. (2024). Amir Temur diplomatiyasi. Biologiya va Kimyo Fanlari Ilmiy Jurnali. https://bestpublication.org/index.php/bkij/article/view/10180

7. Рахимов Б., Ташмурадов У. (2025). Амир Темур ва темурийлар даврида ташқи дипломатик алоқаларнинг давлат сиёсий тараққиётидаги аҳамияти. Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари.

8. Ruy González de Clavijo. Embajada a Tamorlán (1403–1406). (Asl ispan tilidagi tarixiy manba, birinchi nashr 1582-yil; zamonaviy nashrlar: masalan, Francisco López Estrada tahriri ostida, Madrid, 1943 yoki keyingi).

REFERENGES:

1. Bektoshev G‘.S. (2025). Amir Temur davlatining Fransiya bilan diplomatik aloqalari. // Obrazovanie Nauka va Innovatsion G‘oyalar Jurnali. https://scientific-jl.com/obr/article/view/5081 (In Uzbek)

2. Doniyorova D. (2023). Amir Temur va temuriylar tarixining Yevropa mamlakatlarida o‘rganilishi. // Interdiscipline Innovation and Scientific Research Conference. https://interonconf.org/index.php/iisrc/article/view/857 (In Uzbek)

3. Elimov L. (2024). From the History of the Establishment of Amir Temur’s Relations with European Countries. Modern Education and Development. https://scientific-jl.org/mod/article/view/545

4. Kobulova S.F. (2025). Amir Temur davrida xalqaro munosabatlar. // Ilm Fan Xabarnomasi. (In Uzbek)

5. Muxtorov M., Xaytqulov O., Boboxonov L. (2022). Amir Temur davlatining Yevropa mamlakatlari bilan diplomatik munosabatlari.// ZDIFT ilmiy jurnali (Zenodo). https://zenodo.org/records/7379760 (In Uzbek)

6. Qodirov A.A. (2024). Amir Temur diplomatiyasi. // Biologiya va Kimyo Fanlari Ilmiy Jurnali. https://bestpublication.org/index.php/bkij/article/view/10180 (In Uzbek)

7. Raximov B., Toshmuradov U. (2025). Amir Temur va temuriylar davrida tashqi diplomatik aloqalarning davlat siyosiy taraqqiyotidagi ahamiyati. Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari. (In Uzbek)

8. Ruy González de Clavixo. Embajada a Tamorlán (1403–1406). (1943) https://en.wikipedia.org/wiki/Ruy_Gonz%C3%A1lez_de_Clavijo (In Spanish)

SHAYBONIYLAR DAVRIDA DASHTI QIPCHOQ O‘ZBEKLARINING MIGRATSIYASI

THE MIGRATION OF DASHTI KIPCHAK UZBEKS DURING THE SHAYBANID PERIOD

МИГРАЦИЯ УЗБЕКОВ ДАШТИ КИПЧАК В ПЕРИОД ШЕЙБАНИДОВ

Rajabov Jo‘rabek Muzaffar o‘g‘li
Nizomiy nomidagi O‘MPU
2-kurs magistranti
Tel.: +998947383240
E-mail: jorabek.rajabov2000@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada Dashti Qipchoq o‘zbeklarining Shayboniylar sulolasi bilan birga Movarounnahr va Xorazm hududlariga ko‘chib kelishi, tarixi va etnik shakllanish jarayonlariga ta’siri tahlil qilingan. Tadqiqot davomida tarixiy-arxiv manbalari, etnografik kuzatuvlar hamda ilmiy tadqiqot materiallari asosida o‘zbek urug‘larining o‘ziga xos etnogenetik o‘rni aniqlangan. Maqolada urug‘larning ijtimoiy tarkibi, soni, madaniy xususiyatlari, o‘lka etnografiyasiga ta’siri hamda mahalliy aholi bilan o‘zaro aloqalari yoritiladi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, Dashti Qipchoq o‘zbeklari yashagan qadimgi hududlar, tashqi omillar ta’sirida mamlakatimiz hududiga ko‘chishi va mahalliy aholi tarkibiga singishib o‘zbek xalqi shakllanishida muhim rol o‘ynagan kopanentlardan biri ekanligi isbotlangan. Maqola Dashti Qipchoq o‘zbeklarining tarixiy ildizlarini aniqlash va o‘zbek xalqining shakllanishini o‘rganishda muhim ilmiy manba sifatida xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: *Dashti Qipchoq o‘zbeklari, Shayboniylar, turkiy qabilalar, etnogenez, qipchoqlar, qo‘ng‘irotlar, mang‘itlar, etnografiya, yozma manbalar.*

Annotation. This article analyzes the migration of the Dashti-Kipchak Uzbeks to the territories of Movarunnahr and Khorezm, their history and impact on the processes of ethnic formation. During the study, based on historical and archival sources, ethnographic observations and scientific research materials, the specific ethnogenetic role of the Uzbek tribes was determined. The article covers the social composition, number, cultural characteristics of the tribes, their impact on the ethnography of the region, and their interaction with the local population. According to the results of the study, it is proven that the ancient territories inhabited by the Dashti-Kipchak Uzbeks migrated to the territory of our country under the influence of external factors and were one of the components that played an important role in the formation of the Uzbek nation by assimilating into the local population. The article serves as an important

scientific source in identifying the historical roots of the Dashti-Kipchak Uzbeks and studying the formation of the Uzbek nation.

Keywords: *Dashti Kipchak uzbeks, Shaybanids, turkic tribes, ethnogenesis, kipchaks, kungrats, mangyts, ethnography, written sources.*

Аннотация. В данной статье анализируется миграция дашти-кипчакских узбеков на территории Моваруннахра и Хорезма, их история и влияние на процессы этнического формирования. В ходе исследования на основе историко-архивных источников, этнографических наблюдений и материалов научных исследований была определена специфическая этногенетическая роль узбекских племен. В статье рассматриваются социальный состав, численность, культурные особенности племен, их влияние на этнографию региона и их взаимодействие с местным населением. По результатам исследования доказано, что древние территории проживания дашти-кипчакских узбеков мигрировали на территорию нашей страны под влиянием внешних факторов и явились одним из компонентов, сыгравших важную роль в формировании узбекской нации, ассимилируясь в местное население. Статья служит важным научным источником в выявлении исторических корней дашти-кипчакских узбеков и изучении формирования узбекской нации.

Ключевые слова: *Дашти-кипчакские узбеки, Шейбаниды, тюркские племена, этногенез, кыпчаки, кунграты, мангыты, этнография, письменные источники.*

KIRISH

O‘zbek xalqining etnik tarixi va etnogenez jarayonlari O‘rta Osiyo mintaqasining ming yillik tarixiy rivojlanishi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, turli qabila va elatlarning migratsiyasi, madaniy uyg‘unlashuvi hamda ijtimoiy aralashuvi natijasida shakllangan. Ushbu jarayonlarda XVI asr boshlarida Shayboniylar sulolasi bilan birga Dashti Qipchoqdan Movarounnahr va Xorazm hududlariga ko‘chib kelgan turkiy-mo‘g‘ul qabilalari – dasht o‘zbeklari alohida o‘rin tutadi. Bu qabilalar o‘zlarining boy ko‘chmanchi an’analari, harbiy salohiyati va ijtimoiy tuzilishi bilan ajralib turib, mintaqaning siyosiy, ijtimoiy-madaniy va etnik manzarasiga sezilarli ta’sir ko‘rsatgan. Dashti Qipchoq o‘zbeklarining migratsiyasi nafaqat Shayboniylar davlatining mustahkamlanishiga zamin yaratgan, balki mahalliy o‘troq aholi bilan o‘zaro integratsiyalashuvi orqali zamonaviy o‘zbek xalqining shakllanishida muhim komponent bo‘lib xizmat qilgan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Ushbu mavzu alohida tadqiqot mavzusi sifatida tadqiq etilmagan. Dashti Qipchoq o‘zbeklarining migratsiyasiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri bag‘ishlangan maxsus monografiyalar

mavjud bo‘lmasa-da, o‘zbek urug‘lari tarixi va urug‘-qabila tizimi, umumiy turkiy urug‘lar tarkibi, ularning etnik shakllanishi va ijtimoiy-madaniy xususiyatlarini yoritgan asarlarda tarixchilar bu masalaga ham to‘xtalib o‘tishgan. Xususan, A.Asqarovning “O‘zbek xalqining kelib chiqish tarixi” asarida va R.Alimova va A.Ashirovlarning “O‘rta Osiyo xalqlarining etnik tarixi va mintaqada yuz bergan demografik jarayonlarning manbalarda aks etishi” monografiyasida o‘zbek urug‘larining nomlari, soni va joylashuvi haqida ma’lumotlar uchraydi. Shuningdek, К.Шониёзов, I. Jabborov, B. Ahmedov, X.Doniyorov, A.Zamonov, N.Norboyev, U.Nosirovlar tomonidan yozilgan asarlar, maqolalar va monografiyalarda ham uchraydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda o‘zbek urug‘larining migratsiyasi va etnogenez masalalari tarixiy asoslarini o‘rganishda xolislik tamoyiliga amal qilinib, tahlil, sintez, qiyosiy tahlil, umumlashtirish, tarixiy tahlil hamda xronologik yondashuv kabi ilmiy uslublardan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O‘zbek xalqi etnogenezi – bu ming yillik tarixiy jarayon bo‘lib, u turli davrlarda yashagan qabila va elatlar aralashuvi, madaniy hamda ijtimoiy uyg‘unlashuvi natijasida shakllangan. Arxeologik, antropologik va yozma manbalar shundan dalolat beradiki, mamlakatimiz hududida qadimdan skif, sak, sarmat, massaget, sug‘d, augas, xorazm, hur, turk kabi qadimgi eroniy va turkiy tilli qabilalar istiqomat qilgan. Ular O‘rta Osiyoning ilk aholisi – hozirgi o‘zbek xalqining uzoq ajdodlari sifatida tarixda muhim o‘rin tutadi.

Ming yillar davomida turkiy qabilalarning O‘rta Osiyo hududlariga ko‘chib kelishi mahalliy aholini ham turkiylashuviga sabab bo‘ldi. Turkiy urug‘larning yurtimiz hududiga so‘nggi yirik migratsiyasi XV asr oxiri XVI asrlarga to‘g‘ri keladi. Bu jarayon natijasida asrlar davomida 92 bovli (bog‘li) turkiy-o‘zbek urug‘lari shakllanib, o‘zbek xalqining asosiy tayanchi bo‘lib qolgan.

O‘zbek urug‘larining 92 urug‘dan tashkil topganligi Sayfuddin Axsikatiyning “Majmuat – tavorix” (XVI), Ahmad ibn Masruxning “Nasabnomai o‘zbek” (XIX asr), Avaz Muhammad Attorning “Tuhat at-tavorix”, “Qitmir” kitobi va “Asomiy nabadu firqai o‘zbek” asarlarida noma-nom keltiriladi. (Аскаров А., 2015:478). Shunga qaramasdan, XV-XVI asrlarda Dashti Qipchoq o‘zbeklari urug‘larining soni bahslidir. Abulxayrxon asos solgan “O‘zbek ulusi”da durmon, juboyn, chimboy, uyg‘ur, burqut, qiyot, qung‘irot, nayman, qushchi, mang‘it, ushun, iyjon, tangut, o‘tarchi, o‘karash-nayman, jot, xitoy, qarluq, kenagas, echki, tuman, ming-avangara, qanbul, qoravul, toymas, qurlovut barloslardan iborat 27 o‘zbek qabilalari mavjud bo‘lgan. Vaholanki,

Shayboniyxon davrida xam Abulxayrxon davridagi kabi Dashti Qipchoqda atigi 27 ta urug‘ga mansub aholi yashagan. 92 bovli o‘zbek urug‘lariga kirgan xalqlarning asosiy qismi esa allaqachon hozirgi O‘zbekiston hududining tubjoy o‘troq aholisi edi. (Nosirov U., 2012: 334) . Yana shuni ham ta’kidlash kerak-ki, Dashti Qipchoq o‘zbeklari faqat ko‘chmanchi chorvadorlardan iborat bo‘lib qolmasdan, ularning orasida Amudaryoning quyi oqimlarida yashagan dehqonlarning ma’lum muddatlarda ekin yerlariga kelib joylashuvi, o‘z yerlariga ega bo‘lgan qabilalar ham bor bo‘lgan. (Muqimov Z., 2007: 15) XV asr oxiri XVI asr boshlaridagi siyosiy vaziyat, Temuriylar davlatining yemirilishi va Shayboniyxonning Movarounnahr va Xorazm hududlarini egallashi Dashti Qipchoq o‘zbeklarining ko‘chishlariga zamin yaratdi. Albatta, ularning ko‘chishi Shayboniylar hukmronligini mustahkamlar edi, shu sababdan ko‘chib kelganlarga ko‘plab imtiyozlar va yer-mulklar berilgan. Biroq, qabilalarning ko‘chish jarayonlari qisqa muddatda sodir bo‘lmagan. Ushbu maqolada o‘zbek urug‘larining ko‘chish bosqichlari, soni, hududlari va o‘lka hayotiga ta’siri yoritiladi. Muhammad Shayboniy Dashti Qipchoqda hokimiyatni qo‘lga kiritishida mang‘itlarning yordami katta bo‘ldi. “Qadam zamonlardan to shu kunlargacha odat bo‘yicha mang‘it amirlari qaysi xonni taxtga o‘tqazsalar, o‘sha xonlar mamlakat ixtiyorini butunligicha mang‘it amirlari qo‘liga topshirganlar va ularning hech bir ishiga aralashmaganlar, ra’ylariga qarshi bormaganlar”. (Arab Qatag‘an., 2009: 38). Dashti Qipchoq hukmdorlari Musomirzo Shayboniyxonni taxtga o‘tqazish uchun undan mang‘itlar safiga o‘tishni so‘radi. Uni dastlab taxt uchun kurashga otlanganda qo‘shchi, nayman, uyg‘ur, qurlavut, ichki va durmon o‘zbek urug‘lari qo‘llab-quvvatlashgan edi. Muhammad Shayboniy O‘rta Osiyoni qo‘lga kiritgach, qiyot, qo‘ng‘irot, tuman, tan-gut, xitoy, chimboy, shunqorli, shodboqi, yijon urug‘lari amirlari kelib qo‘shildi. (Nosirov U., 2012: 334) .

Muhammad Shayboniyxon 1499-yilda Movarounnahrga yurishlarini boshlashi bilan uning qo‘shini tarkibidagi Dashti Qibchoq o‘zbeklarining ham ko‘chish jarayoni boshlandi. Dashti Qipchoqdan kirib kelgan ko‘chmanchilarning tarkibi borasida ham ayrim qarashlar mavjud. Masalan, T.I. Sultonovning “Shayboniynoma” asari muallifi Muhammad Solih keltirgan ma’lumotlarga tayanib bildirgan fikriga ko‘ra Shayboniyxon qo‘shini tarkibida 19 ta urug‘-qabila vakillari bo‘lib, u bilan birga Movarounnahrga 13 ta urug‘-qabila aholisi kirib kelgan. (R.Alimova, A.Ashirov.2011:76). Shayboniyxon qo‘shini tarkibida bo‘lgan qo‘ng‘irotlar naymanlar, mang‘itlar, do‘rmonlar, ushunlar, keraidlar, qo‘shchi, burqut, jaloyir va tatarlardan tashkil topgan. Mang‘itlar, naymanlar, qo‘shchilar va qo‘ng‘rotlar qo‘shinning asosini tashkil etgan bo‘lib, ularning amirlarining nufuzi baland bo‘lgan. (Muhammad S., 1989: 197).

Shu o‘rinda aytish kerak-ki, XVI asr boshlarida Dashti Qipchoqdan

Movarounnahrga ko‘chib kelgan turk-mo‘g‘ul qabilalari mahalliy turkiyzabon xalqdan son jihatdan oz edi. Ularning umumiy soni 24-26 qabiladan oshmas edi. “Tavorixi guzida, nusratnoma” kitobining muallifi ularni nomma-nom keltirgan: qushchi, nayman, uyg‘ur, qurlavut, girayli, qiyot, qo‘g‘irot, qavchin, mang‘it, jurg‘un, ming, tang‘ut, echki, do‘rmon, yoboqu, xitoy, chimbot, shunqorli, shodbaqli, iyjon, bachqird, mojor, solur, qozon, echki bayri. XVI asrda bu qabilalar soni, Xofiz Tanish Buxoriyning “ Sharafnomayi shohiy” asarining ma’lumotlariga qaraganda, 40 nafarga yetgan: bahrin, besh yuz, do`rmon, jaloyir, kenagas, mang`ut, ming, mojor, nayman, olchin, orlot, sulduz, tongyoro‘q, uyg‘ur, xaloj, xitoy, shirin, o‘tarchi, qang‘li, qatag‘on, qipchoq, qo‘g‘irot, qiyot, arg‘in, yobu, mo‘g‘ul, sajovat, tuboyi, tama, keroit, qorliq, saroy, turk, uyshun va h. k. XVII asrga kelib, “Bahr ul-asror” muallifining guvohlik berishicha, ularning soni 50 dan ortiq bo‘lgan, yana quyidagi 20 ga yaqin qabila nomi qo`shilgan. Bular quyidagilardir: buyraq, qirq, qurama, dug‘doq, yuz, kelachi, o‘zz, qulon, ayonlik, ko‘ka, arab, qo‘sh oyoq, uyrot, bulochi, markit, fulobchi, shaboyat, mesit. (Axmedov B., 1994: 378). Manbalardagi ma’lumotlardan ko‘rinadiki, ko‘chmanchi o‘zbek qabilalarining ko‘chishi bir asrdan oshiq vaqt davom etgan va shu tarzda ularning soni oshib borgan.

Dashti Qipchoqdan ko‘chib kelgan aholining soni juda bahslidir. Tadqiqotchilar bu borada turli fikrlarni bildirishadi. Xususan, akademik Karim Шониёзов fikricha, Dashti Qipchoqdan Movarounnahrga ko‘chib kelgan etnoslarning hammasi ham ko‘p sonli bo‘lavermagan. Ular faqat qipchoq, saray, qo‘ng‘irot, yuz, nayman, mayg‘it, xitoylarga nisbatan yirik etnik guruhlar edi. Bularning har birining soni 30-50 mingdan to 200 minggacha bo‘lishi mumkin edi. Tilga olingan etnoslarning ichida eng ko‘p sonli qipchoqlar bo‘lgan. XVIII asr oxiri XIX asr boshlarida ularning umumiy soni 270 mingta deb taxmin qilingan, qolgan ko‘chmanchi urug‘larning soni 20-30 mingdan to 10 minggacha(ba‘zilari bundan ham kam) bo‘lgan. (Шониёзов К., 2001:414). Akademik Ahmadali Asqarovning ta’kidlashicha, Shayboniyxonning armiyasida 92 qavm chavondozlari xizmat qilgan. Demak, har bir qavmning 6-7 kishidan iborat bo‘lsa, u holda XVI asr boshlaridagi Shayboniyxon harbiy yurishlari munosabati bilan kamida 500-600 ming Dashti Qipchoq o‘zbeklari Movarounnahr va Xorazmga kirib kelgan. (Аскаров А., 2015:503). T.I. Sultonov esa o‘rta asr muarrixlari Muhammad Solih, Zahiriddin Muhammad Bobur, Mirza Muhammad Haydar va Fazlulloh ibn Ruzbehon bergan ma’lumotlarga asoslanib, XV asr oxiri XVI asr boshlarida Dashti Qipchoqdan Movarounnahrga 1 million 240 – 1 million 360 mingga yaqin aholi ko‘chgan deya ta’kidlaydi. (Alimova R, Ashirov A., 2011:75). Dashti Qipchoqdan qancha aholi ko‘chib kelgan bo‘lmasin, ular mahalliy tubjoy aholi sonidan kam bo‘lgan va keyinchalik o‘troqlashishi natijasida kichik qabilalar mahalliy aholi tarkibiga singib ketganlar.

Dashti Qipchoqdan koʻchib kelgan qabilalar koʻchmanchi boʻlganliklari sabab, ularga keng yaylovlar zarur edi. Shu sababdan, bu qabilalar Movarounnahrning turli hududlariga joylashganlar. Xususan, mangʻitlar asosan Buxoro va Qarshi atrofida, qipchoqlar Kattaqoʻrgʻon va Samarqand atrofida, saroy qabilasi Samarqand va Qarshi orasidagi hududlarda, qoʻngʻirotlar Qarshi va Shahrisabzda, doʻrmonlar Gʻijduvon va uning atrofida, ming qabilasi Samarqandning janubi-sharqiy togʻli hududida va Urgutda, mangʻitlarning bir qismi Samarqandga yaqin aholi punktlarida, kenagaslar esa Shahrisabzda yashaganlar. (Abduqodir M., 2024:110-111). Bundan tashqari naymanlar Samarqand, Buxoro va Termizning Derf qal'asida, olchinlar Badaxshon va Gʻoʻri hududlarida, yuzlar Andijon, Xoʻjand, Toshkent, Sayram, Jizzax va Oʻratepa yashaganliklari manbalarda uchraydi (Alimova.R, Ashirov.A., 2011:35-36-38).

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ushbu tadqiqot natijalariga koʻra, XV asr oxiri – XVI asr boshlarida Shayboniylar sulolasi yurishlari natijasida Dashti Qipchoq oʻzbeklarining Movarounnahr va Xorazm hududlariga yirik migratsiyasi sodir boʻlgan. Bu jarayon bir asrdan ortiq davom etib, oʻzbek xalqining etnogenezida yangi va muhim komponentni shakllantirgan. Migratsiya davomida 50 dan ortiq turkiy-moʻgʻul qabilalari (qipchoq, qoʻngʻirot, mangʻit, nayman, kenagas, ming va boshqalar) koʻchib kelgan boʻlib, ularning umumiy soni turli tadqiqotchilar bahosiga koʻra 500–600 mingdan 1,2–1,3 milliongacha yetgan. Koʻchmanchi qabilalar dastlab harbiy-siyosiy kuch sifatida Shayboniylar davlatining mustahkamlanishida hal qiluvchi rol oʻynagan, keyinchalik esa oʻtroqlashib, mahalliy tubjoy aholi (Sugʻd, Xorazm va boshqa eroniy-turkiy guruhlar) bilan madaniy va etnik jihatdan uygʻunlashgan. Natijada, yirik qabilalar (mangʻit, qoʻngʻirot, qipchoq) oʻzbek xalqining asosiy etnik tayanchlaridan biriga aylangan, kichikroq urugʻlar esa mahalliy aholiga singib ketgan.

Dashti Qipchoq oʻzbeklari migratsiyasi mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga ham sezilarli ta'sir koʻrsatgan: ular keng yaylovlarga ega boʻlib, chorvachilikni rivojlantirgan, shahar va voha atroflarida joylashib, dehqonchilik va hunarmandchilikka oʻtgan. Bu jarayon oʻzbek xalqining 92 urugʻ tizimini shakllantirishda muhim bosqich boʻlib, xalqning madaniy, til va an'anaviy xususiyatlarini boyitgan. Ushbu xulosa asosida quyidagi takliflarni keltirish mumkin:

Dashti Qipchoq oʻzbeklari migratsiyasi va ularning etnogenezdagi oʻrnini chuqurroq oʻrganish uchun XVI–XVII asr yozma manbalari (Shayboniynoma, Sharafnomayi shohiy, Bahr ul-asror va boshqalar)ning yangi tarjimasi va qiyosiy tahlilini amalga oshirish zarur.

Arxeologik va etnografik tadqiqotlarni kuchaytirish, xususan, Buxoro, Samarqand, Qarshi, Shahrisabz va Xorazm hududlaridagi qabilalar joylashgan joylarda qazilmalar olib borish orqali moddiy madaniyat dalillarini aniqlash.

O‘zbekiston, Qozog‘iston va Rossiya olimlari hamkorligida Dashti Qipchoq o‘zbeklari tarixiga bag‘ishlangan xalqaro ilmiy konferensiyalar tashkil etish va qo‘shma loyihalar amalga oshirish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Абдуқодир М. (2024) Шайбонилар давлати. –Тошкент: Насим Кутуб.
2. Аҳмедов Б. (1994) Тарихдан сабоқлар. –Тошкент: Ғофур Ғилом номидаги Адабиёт ва санъат.
3. Алимова Р, Аширов А. (2011) Ўрта Осиё халқларининг этник тарихи ва минтақада юз берган демографик жараёнларнинг манбаларда акс этиши(XVI-XIX аср биринчи ярми). – Тошкент: Янги нашр.
4. Асқаров А. (2015) Ўзбек халқининг келиб чиқиш тарихи. –Тошкент: Ўзбекистон.
5. Муҳаммад Солиҳ. (1989) Шайбонийнома. –Тошкент.
6. Муҳаммадийор Араб Қатағон. (2009) Мусаххир ал-билод. –Тошкент: Янги аср.
7. Муқимов З. (2007) Шайбонилар давлати ва ҳуқуқи. –Тошкент: Адолат.
8. Носиров У. (2012) Ўзбеклар шажараси. –Тошкент: Extremum Press.
9. Шонийозов К. (2001) Ўзбек халқининг шаклланиш жараёни. – Тошкент: Шарқ.

REFERENCES:

1. Abduqodir M. (2024) Shayboniylar davlati. – Toshkent: Nasim Kutub (In Uzbek).
2. Ahmedov B. (1994) Tarixdan saboqlar. – Toshkent: G‘ofur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at (In Uzbek).
3. Alimova R., Ashirov A. (2011) O‘rta Osiyo xalqlarining etnik tarixi va mintaqada yuz bergan demografik jarayonlarning manbalarda aks etishi (XVI–XIX asr birinchi yarmi). – Toshkent: Yangi nashr (In Uzbek).
4. Asqarov A. (2015) O‘zbek xalqining kelib chiqish tarixi. – Toshkent: O‘zbekiston (In Uzbek).
5. Muhammad Solih. (1989) Shayboniynoma. – Toshkent (In Uzbek).
6. Muhammadiyor Arab Qatag‘on. (2009) Musaxxir al-bilod. – Toshkent: Yangi asr (In Uzbek).
7. Muqimov Z. (2007) Shayboniylar davlati va huquqi. – Toshkent: Adolat (In Uzbek).
8. Nosirov U. (2012) O‘zbeklar shajarasi. – Toshkent: Extremum Press (In Uzbek).
9. Shoniyozov K. (2001) O‘zbek xalqining shakllanish jarayoni. – Toshkent: Sharq (In Uzbek).

Oriental universitetining “Al-Buxoriy” nomli jurnali

Jurnal Oliy o‘quv yurtlari hamda ilmiy-tadqiqot muassasalarining professor-o‘qituvchilari, doktorantlari, mustaqil tadqiqotchilari, magistrantlari, talabalari va keng kitobxonlar ommasiga mo‘ljallangan.
Maqola muallifining fikri tahririyat fikrini ifodalamaydi.

AL-BUXORIY
AL-BUKHARI

Bosh muharrir: **Farhod Maksudov**
Bosh muharrir o‘rinbosari: **Malika Nasirova**
Mas’ul muharrir: **Govhar Rahmatova**
Musahhih: **Gulida Norkulova**

Manzil: Toshkent shahri, Olmazor tumani, Norzatepa ko‘chasi, 52.
Telefon: +998 93 004-57-77. E-mail: al-buxoriy@orientaluniversity.uz

“Al-BUXORIY” jurnali
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining
№ 111741 raqamli guvohnomasi bilan
ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Oriental universiteti Kengashining 2025-yil 23-dekabr, 4-sonli yig‘ilish bayonnomasiga asosan nashrga ruxsat etildi.